TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI. Ushbu tadqiqotda notariat faoliyatiga mediatsiya institutini joriy etishning nazariy-huquqiy asoslari, xorijiy davlatlar amaliyoti va O'zbekistondagi amaldagi tartibning qiyosiy tahlili asosiy metodik yondashuv sifatida belgilandi. Shuningdek, bu kabi yondashuvlar alohida hujjatlardan ham qayd etiladi. Tadqiqot jarayonida normativ-huquqiy manbalarni o'rganish, qiyosiy-huquqiy tahlil, kontent tahlil, umumlashtirish, tizimli yondashuv va ekspert fikrlarini tahlil qilish usullari keng hamda ommabop ravishda qo'llanildi. Notariat to'g'risidagi Qonun, “Mediatsiya to'g'risida”gi Qonun, Prezident farmonlari va adliya organlarining ichki me'yoriy ko'rsatmalari asosida mediatsiyaning notariat jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlari o'rganildi. Shubhasiz, Xorijiy tajribani o'rganishda Germaniya, Fransiya, Italiya, Janubiy Koreya, Litva kabi mamlakatlar notariat tizimi bilan bog'liq mediativ mexanizmlar tahlil qilindi. Amaliyotchi notariuslar faoliyati, mediatsiya markazlari tajribasi, nizolarni sudgacha hal etish bo'yicha statistik ma'lumotlar, aholi orasidagi muammolar va fuqarolik muomalasidagi huquqiy ehtiyojlar solishtirildi. Tadqiqot davomida mediatsiyaning notarial harakatlarni soddalashtirishi, vaqt va xarajatlarni qisqartirishi, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishdagi roli ilmiy asoslandi. Shuningdek, notariatda mediatsiyani qo'llashning huquqiy mexanizmlari, amaliy tavsiyalar va xorij tajribasini milliy tizimga moslashtirish mezonlari ishlab chiqildi. Ushbu maqolada shu kabi unsurlar birma bir o'rganib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Xorij davlatlari orasida ushbu tajriba keng ravishda qo'llanilib kelinmoqda. Tahlil jarayonida notariat faoliyatida mediatsiyani qo'llashning amaldagi mexanizmlari, huquqiy asoslari va xorijiy davlatlardagi muvaffaqiyatli modellar solishtirilgan holda jarayonlar orqali o'rganildi. O'zbekistonda 2019-yilda qabul qilingan “Mediatsiya to'g'risida”gi

Qonun mediatsiya institutining huquqiy tizimga kirib kelishiga sharoit yaratgan bo'lsa-da, uning notarial jarayonlarga to'liq integratsiya qilinishi hozircha izchil shakllanmagan. Germaniya va Fransiya tajribasida notariuslar mediatsiya bilan bog'liq bir qator vakolatlariga ega bo'lib, oilaviy, meros, mulkiy nizolarni sudga bormasdan hal etish bo'yicha vositachilik amaliyotini muvaffaqiyatli amalga oshirayotgani aniqlangan. Ushbu davlatlarda mediatsiya notarial harakatlarning ajralmas qismi sifatida qaralib, notariuslar nizolarning kelishuv asosida hal etilishida mustaqil vositachi sifatida ishtirok etadi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, bunday model nizolarni qisqa muddatda va kam xarajat bilan yakunlash, sudlar yuklamasini kamaytirish hamda aholining huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qiluvchi samarali vosita hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston amaliyotida esa mediatsiya ko'proq sud jarayonlarida qo'llanilib, aynan shu jarayoni sudgacha ham hal qilish imkoni bor, lekin notariat tizimida uning imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayotgani aniqlangan. Respondent notariuslar fikrlarining tahlili mediatsiya bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish, maxsus o'quv dasturlarini joriy etish va notariat organlarida mediatsiya xonalarini tashkil etish zaruriyatini ko'rsatdi. Shuningdek, mavjud notarial tartibotlarda kelishmovchiliklarni oldindan bartaraf etishga qaratilgan mediativ yondashuvning joriy etilishi fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda qo'shimcha samaradorlikka ega ekani aniqlandi. Statistik ma'lumotlar tahlili mediatsiya qo'llanilgan holatlarda nizolarning 60–70 foizi qisqa muddatda hal etilishini ko'rsatib, albatta, hukumat elchilari bu holatni qamrovli o'rganish olishsagina, ushbu institutni notariatga integratsiya qilish ijtimoiy-iqtisodiy afzalliklarni oshirishi mumkinligini tasdiqlaydi. Xorijiy tajribalarni solishtirish asosida O'zbekiston notariat tizimiga moslashtirilgan mediatsiya modelini ishlab chiqish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, notariuslarning mediatsiya vakolatlarini kengaytirish va aholiga ko'rsatiladigan yuridik xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan keng xulosalar shakllandi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mediatsiya instituti zamonaviy huquq tizimlarida nizolarni sudgacha hal etishning samarali vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda. Xususan, xorijiy davlatlar tajribasida mediatsiya institutini notariat faoliyatiga integratsiya qilish orqali aholiga ko'rsatiladigan yuridik xizmatlar sifatini oshirish, sud tizimi yukini kamaytirish va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish amaliyoti sezilarli darajada rivojlangan. Christopher Honeyman, Mark S. Levin, Richard Zorza va Carrie Menkel-Meadow tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda notariuslarning mediatsiyada ishtiroki, ularning kasbiy etikasi, xolisligi, huquqiy statusi va mediatorlik faoliyatining afzalliklari chuqur yoritilgan. Ushbu ilmiy manbalardan ko'rinadiki, xorijiy mamlakatlarda notarius-mediator modeli samarali natija berayotgan bo'lib, u huquqiy xizmatlar tizimining muhim tarkibiy qismiga aylangan. O'zbekiston sharoitida mediatsiya institutining huquqiy asoslari "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun va Notariat to'g'risidagi me'yoriy hujjatlar orqali belgilangan bo'lsa-da, notariuslarning mediator sifatida faoliyat yuritish imkoniyatlari hali keng emas. Amaldagi tartibga ko'ra, notarius mediatorlikni faqat o'zining notarial harakatlari bilan bog'liq nizolar doirasida amalga oshirishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mediator-notarius faoliyatining samaradorligini oshirish uchun notariusga faqat notarial harakatlardan kelib chiqadigan nizolarni emas, balki boshqa fuqarolik-huquqiy nizolarni ham ko'rish vakolati berilishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa taraflar o'rtasida kelishuvga erishishda xolis vositachi sifatida notariusning rolini kuchaytiradi.

O'zbekistonda notariat tizimida mediatsiyani tatbiq etish bo'yicha bir qator muammolar mavjud: fuqarolarning mediatsiya bo'yicha xabardorligi past; amaliyotda mediatorlik jarayoni bo'yicha yo'riqnomalarda aniqlik yetishmaydi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining "Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi buyrug'ida mediatsiyani notariatda qo'llashga oid normalarni qayta ko'rib chiqish zarurati mavjudligi yana bir bor tasdiqlandi. Qo'shimcha tahlil shuni ko'rsatadiki, xorijiy davlatlarda notariatda mediatsiya jarayonlari aniq tartibga solingan, mediator-notariuslarning vakolatlari ravshan belgilangan, jarayonning vijdonan va xolis yuritilishini ta'minlovchi mexanizmlar mavjud. AQShda "ko'p eshiklar" modeli orqali nizolar sudga murojaat qilishdan oldin hal qilinadi; Germaniyada mediatsiya federal qonun bilan tartibga solinadi; Italiyada esa fuqarolik ishlari uchun mediatsiya majburiy qilingan. Shu tajriba

O'zbekistonda notariat tizimida mediatsiya institutini rivojlantirish, qonunchilikni takomillashtirish va fuqarolarning huquqiy ishonchini oshirish imkonini beradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, notariatda mediatsiya instituti joriy etilishi nafaqat sud tizimining yukini kamaytiradi, balki nizolarni tez va samarali hal qilish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish va qonuniy kelishuvlarni rag'batlantirish imkonini beradi. Shuningdek, mediator-notariusning faoliyati kasbiy etika, xolislik va taraflarning roziligi tamoyillari asosida amalga oshirilishi jarayonning adolatli va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi. Notariatda mediatsiya institutini rivojlantirish huquqiy amaliyot samaradorligini oshiradi, fuqarolarning huquqiy madaniyatini kuchaytiradi va milliy notariat tizimida yangi, samarali va zamonaviy yo'nalishlarni yaratishga xizmat qiladi.

Xitoy mediatsiyasi tizimining asosiy xususiyatlari va uning notariatga tatbiq etish imkoniyatlari

Ko'rsatkichlar	Xitoy mediatsiya tizimining mazmuni	Notariat amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlari
Mediatsiyaning konstitutsiyaviy maqomi	Xitoy mediatsiya institutini Konstitutsiyada mustahkamlab qo'ygan, bu uni davlat tizimining ajralmas qismiga aylantirgan.	Notariat tizimida mediatsiyani qonuniy maqomini mustahkamlash orqali jarayonning samaradorligini oshirish, majburiy huquqiy asos yaratish mumkin.
Sud tizimiga ishonchning pastligi	Sudlar davlat manfaatlarini himoya qilishi haqidagi qarashlar sabab fuqarolar norasmiy mediatsiyaga murojaat qiladilar.	Notarial vositachilik orqali fuqarolar o'zaro kelishuvga erishishi, sudga murojaatni kamaytirishi mumkin.
Tarixiy norasmiy vositachilik an'analari	Sudga murojaat qilish aybni tan olish sifatida qabul qilinishi bois, norasmiy mediatsiya tarixan keng qo'llanib kelgan.	O'zbekistonda notariuslar ishtirokida kelishuv asosida nizolarni rasmiylashtirish jarayonini yo'lga qo'yish mumkin.
Xalq mediatsiyasi tizimi	"Xalq mediatsiyasi to'g'risida"gi qonun asosida ommaviy vositachilik tashkilotlari shakllangan.	Notariat qoshida mediatsiya markazlarini yaratish orqali aholi uchun qulay vositachilik infratuzilmasi barpo etish mumkin.
Sud mediatsiyasi	Sudyalar va hay'at orqali yarashtirish keng qo'llaniladi.	Notariuslarning ayrim tashkiliy vakolatlarini kengaytirish orqali sudgacha bo'lgan mediatsiya mexanizmini shakllantirish mumkin.
Hakamluk mediatsiyasi	Hakamluk sudlarida ham vositachilik amaliyoti rivojlangan.	Notariuslar tijorat nizolarida dastlabki vositachilik sifatida ishtirok etishi mumkin.
Tijorat mediatsiyasi	Professional tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan mediatsiya biznes nizolarini tez hal etadi.	Notariat organlarida tadbirkorlik sub'yektlari uchun maxsus mediatsiya xizmatlarini joriy qilish imkoniyati mavjud.
Davlat tizimiga bo'ysunuvchanlik	Mediatsiya to'liq davlat tizimiga integratsiyalashgan.	Notariatda mediatsiya uchun yagona standartlar, tartib-qoidalar va davlat nazorati mexanizmlarini ishlab chiqish mumkin.

Darhaqiqat, Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mediatsiya institutining samarali ishlashi uni huquqiy jihatdan to‘liq mustahkamlash, tartibga solish va keng ommaga qulay sharoit yaratish bilan bevosita bog‘liqdir. Yevropa davlatlari — Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Shvetsiya, Daniya, Avstriya va Polsha misolida mediatsiyaning fuqarolik, tijorat, oilaviy va xususiy nizolarni hal qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilayotgani ko‘zga tashlanadi. Ular mediatsiya orqali sudlarning yuklamasini kamaytirish, jarayonlarni tezlashtirish va tomonlar o‘rtasidagi kelishuvni mustahkamlashga erishgan. Misol uchun, Xitoy tajribasi esa o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi: mediatsiya Konstitutsiya va Fuqarolik protsessual kodeksida mustahkamlangan bo‘lib, norasmiy vositachilikdan tortib sud mediatsiyasigacha bo‘lgan keng ko‘lamli tizimni yaratgan, aholi esa bu tizimdan har doimdekidek mamnundir. Aholining tarixiy norasmiy vositachilikka ishonchi, sud tizimiga nisbatan ehtiyotkorona munosabati mediatsiyaning keng qo‘llanilishiga imkon yaratgan. Ommaviy vositachilik, sud mediatsiyasi, hakamlik mediatsiyasi va professional mediatsiya institutlari Xitoyda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda va bu sohaga yengilliklar berilmoqda.

Shu tajribalar notariat tizimi uchun ham muhim xulosalarni beradi. Xususan, O‘zbekistonda notarial amaliyot doirasida mediatsiya mexanizmlarini joriy etish nizolarni sudgacha tezkor hal qilishga, fuqarolar va tadbirkorlar manfaatlarini muvofiqlashtirishga, sudlarning ish yukini kamaytirishga va huquqiy madaniyatni oshirishga xizmat qiladi deb ayta olamiz. Bundan tashqari, notariuslar ishtirokida kelishuvlarni rasmiylashtirish, mediatsiya markazlarini tashkil etish, professional vositachilik standartlarini joriy qilish xorijiy tajribani mahalliy sharoitda qo‘llashning istiqbolli yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

2008/52/EC-sonli “Fuqarolik va tijorat ishlari bo‘yicha mediatsiya” to‘g‘risidagi Yevropa Parlamenti va Kengashining Direktivi.

Italyan Respublikasining 2010-yildagi Fuqarolik ishlari bo‘yicha majburiy mediatsiya tartibini belgilovchi qonunlari.

Avstriya Fuqarolik protsessual kodeksi va mediatsiya to‘g‘risidagi normativ-huquqiy hujjatlar.

“Xalq mediatsiyasi to‘g‘risida”gi Xitoy Xalq Respublikasi Qonuni.

Xitoy Xalq Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi.

Yevropa davlatlarida mediatsiyani tartibga solishga oid rasmiy hukumat ma’lumotlari (Belgiya, Niderlandiya, Fransiya, Daniya, Shvetsiya, Norvegiya, Polsha).

O‘zbekiston Respublikasi “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni, 2018-yil.

O‘zbekiston Respublikasi Notariat to‘g‘risidagi Qonuni hamda unga oid sharhlar.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi: mediatsiya amaliyoti va xorij tajribasi bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar.

Xalqaro mediatsiya amaliyoti bo‘yicha ilmiy maqolalar va huquqiy sharhlar (Oxford Journal of Law and Mediation Studies).

**O'ZBEKISTON ANTROPOLOGLARINING ILMIY MEROSI VA FAN
TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI**

*Sulaymanov Amaliddin Nurbojevich, Guliston davlat universiteti,
"Tarix" kafedrasida dotsenti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda antropologiya fanining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ushbu jarayonda o'zbekistonlik antropolog olimlarning ilmiy faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda XX asr boshlaridan boshlab mintaqada antropologiya fanining institutsional shakllanishi, ilmiy maktablarning vujudga kelishi va ularning Markaziy Osiyo xalqlarining etnogenezi hamda antropologik tarkibini o'rganishdagi ahamiyati yoritilgan. Xususan, O'zbekistonda antropologiya fanining asoschilaridan biri bo'lgan L.V.Oshanin hamda uning ilmiy maktabi vakillari – Q.N.Najimov, T.P.Kiyatkina, B.X.Karmisheva, O.A.Suxareva, T.K.Xodjayov va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlari tahlil qilinadi. Mazkur olimlar tomonidan olib borilgan antropologik ekspeditsiyalar, kraniologik va paleoantropologik tadqiqotlar, shuningdek Markaziy Osiyo xalqlarining antropologik tarkibi va etnik tarixiga oid ilmiy ishlari mintaqada antropologiyasi rivojiga katta hissa qo'shgani asoslab beriladi. Shuningdek, maqolada O'zbekistonda antropologiya fanining ilmiy maktab sifatida shakllanishi, ustoz-shogird an'analari hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar rivojida ushbu olimlarning ilmiy merosi muhim o'rin tutishi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston va Markaziy Osiyo xalqlarining antropologik xususiyatlari hamda etnogenez jarayonlarini o'rganishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Markaziy Osiyo, antropologiya, etnogenez, kraniologiya, paleoantropologiya, ilmiy maktab, antropologik ekspeditsiyalar, etnografiya, antropolog olimlar, antropologik tadqiqotlar, etnik tarix.

Аннотация: В данной статье анализируется формирование науки антропологии в Узбекистане, этапы её развития и научная деятельность узбекских антропологов в этом процессе. Исследование освещает институциональное формирование антропологии в регионе с начала XX века, появление научных школ и их значение в изучении этногенеза и антропологического состава народов Центральной Азии. В частности, анализируются научные исследования Л.В. Ошанина, одного из основателей антропологии в Узбекистане, и представителей его научной школы – К.Н. Наджимова, Т.П. Кияткиной, Б.Х. Кармишевой, О.А. Сухаревой, Т.К. Ходжаева и других учёных. Утверждается, что антропологические экспедиции, крааниологические и палеоантропологические исследования, проведённые этими учёными, а также научные работы по антропологическому составу и этнической истории народов Центральной Азии внесли значительный вклад в развитие региональной антропологии. В статье также рассматривается формирование антропологии как научной школы в Узбекистане, традиции взаимоотношений учителя и ученика, а также важная роль научного наследия этих ученых в развитии современных научных исследований. Результаты исследования служат важным научным источником при изучении антропологических особенностей и процессов этногенеза народов Узбекистана и Центральной Азии.

Ключевые слова: Узбекистан, Центральная Азия, антропология, этногенез, крааниология, палеоантропология, научная школа, антропологические экспедиции, этнография, ученые-антропологи, антропологические исследования, этническая история.

Abstract: This article analyzes the formation of the science of anthropology in Uzbekistan, the stages of its development, and the scientific activities of Uzbek anthropologists in this process. The study highlights the institutional formation of anthropology in the region since the beginning of the 20th century, the emergence of scientific schools, and their significance in studying the

ethnogenesis and anthropological composition of the peoples of Central Asia. In particular, the scientific research of L.V. Oshanin, one of the founders of anthropology in Uzbekistan, and representatives of his scientific school - Q.N. Najimov, T.P. Kiyatkina, B.Kh. Karmisheva, O.A. Sukhareva, T.K. Khodzhayev and other scientists - is analyzed. It is argued that the anthropological expeditions, craniological and paleoanthropological studies conducted by these scientists, as well as scientific work on the anthropological composition and ethnic history of the peoples of Central Asia, made a significant contribution to the development of regional anthropology. The article also shows the formation of anthropology as a scientific school in Uzbekistan, the traditions of the teacher-student relationship, and the important role of the scientific heritage of these scientists in the development of modern scientific research. The results of the research serve as an important scientific source in studying the anthropological characteristics and ethnogenesis processes of the peoples of Uzbekistan and Central Asia.

Key words: Uzbekistan, Central Asia, anthropology, ethnogenesis, craniology, paleoanthropology, scientific school, anthropological expeditions, ethnography, anthropologist scientists, anthropological research, ethnic history.

KIRISH. XX asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan ilmiy jamoalar, mehnatning taqsimoti va kooperatsiyasi natijasida, yangi bilimlarni yaratish maqsadidagi ilmiy faoliyatning asosiy bo'linmalariga aylana boshlaydi. Bunday ilmiy jamoalarning shakllaridan biri – maktab, yangi bilimlarni yaratish, tarqatish funksiyasini bajaradigan tadqiqotchilar jamoasi hisoblanadi.

Tarixan shakllangan va bugungi kun sharoitida rivojlanayotgan maktab tushunchasi, kundalik hayotda ro'y berayotgan ilmiy tadqiqotlarda, fan tarixida muhim o'rin tutadi. Aynan maktablar fanda avlodlar uzluksizligi an'alarini, dunyoqarashlarini qo'llab-quvvatlaydi. Ilmiy jamiyat me'yorlari, qadriyatlarini, ilmiy tadqiqotlarni olib borish san'ati, motivatsiyalari, yangi ilmiy g'oyalarni ilgari surish, ularni nazariy jihatdan asoslash va tajriba yo'li bilan isbotlash, amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini yaratib beradi. Shu bois bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ilmiy sohadagi siyosati, ilmiy maktablarni qo'llab-quvvatlashga qaratilayotganligi bejiz emas.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston antropologiya fanining vakillari va ularning fan rivojida o'rniga baho berish lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O'zbekiston va Markaziy Osiyo hududida antropologiya fanining rivojlanishi ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosida o'rganilgan. Xususan, V.V.Ginzburg va T.A.Trofimovalarning paleoantropologiyaga oid ishlari mintaqa xalqlarining antropologik tarkibi va etnogenezi tadqiq etishda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Shuningdek, L.V.Oshanin, Q.N.Najimov, T.P.Kiyatkina, B.X.Karmisheva, O.A.Suxareva va T.K.Xodjayov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari O'zbekistonda antropologiya fanining shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ularning ishlari Markaziy Osiyo xalqlarining antropologiyasi, etnik tarixi va madaniy xususiyatlarini o'rganishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-tahliliy, qiyosiy-tarixiy hamda tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar yordamida antropologiya fanining rivojlanish bosqichlari, olimlarning ilmiy faoliyati va ularning fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. XIX asrning ikkinchi yarmida, 1884-yil 9-mart kuni Turkiston o'qituvchilar seminariyasi o'qituvchisi, Vasiliy Fyodorovich Oshanin oilasida Lev ismli o'g'il dunyoga keladi. Lev, 1903-yilda Toshkent shahrida o'rta maktabni tamomlab, Sankt-Peterburg universitetining biologiya fakultetiga o'qishga kiradi[1]. 1912-yilda harbiy-tibbiyot Akademiyasini tamomlaydi. O'z vaqtida professorlar V.T.Shevyakov, V.M.Bexterevlar qo'lida tahsil olib, ko'plab amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etgan L.V.Oshaninning pedagogik va ilmiy faoliyatining boshlanishi 1918-1919-yillarga to'g'ri kelib, bu davrda u boshqa mutaxassislar

bilan birgalikda Toshkent shahrida o'lkaning oliy tibbiyot maktabiga asos soladi va u yerda o'qituvchilik qila boshlaydi. Toshkent universitetida tibbiyot fakultetini tashkil qilishda ishtirok etib, bir qancha muddat shu fakultetning dekani lavozimida ishlaydi. XX asrning 20-yillarining boshlaridan antropologiya bilan shug'ullanishni boshlab, o'zini ushbu fan rivojiga bag'ishlaydi.

Uning antropologiya sohasidagi faoliyatining boshlanishi 1920-1921-yillarga to'g'ri keladi. O'sha davrda Toshkentda antropologik muassasalar va ekspeditsiyalar bo'lmaganligi sababli, mintaqaning turli hududlariga uyushtirilgan tibbiyot ekspeditsiyalarida shifokor sifatida ishtirok etib, antropologik materiallar to'plash bilan jiddiy shug'ullanadi[2]. O'rta Osiyo davlat universiteti qoshida Antropologiya kafedrasini tashkil qilishda bosh-qosh bo'lib, sohaning fan sifatida rivojlanishida katta hissa qo'shadi. 1925-yilning kuzidan boshlab, Sharq va Tibbiyot fakultetlarida talabalarga O'rta Osiyo xalqlari antropologiyasi va etnogenezi bo'yicha ma'ruzalar o'qishni boshlaydi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, biologiya fanlari doktori., professor, 1939-1961-yillarda Toshkent davlat universiteti, "Antropologiya" kafedrasini mudiri lavozimida mehnat qiladi[3].

L.V.Oshanin pedagogik va ilmiy faoliyati davomida 60 dan oshiq ilmiy ishlarni chop ettiradi[4]. Ular asosan O'rta Osiyo xalqlari antropologiyasi va etnik tarixining dolzarb masalalariga bag'ishlanganligi bilan alohida ahamiyatga ega ekanligini bugungi kunda ham yo'qotmagan. L.V.Oshanin, O'rta Osiyo xalqlari antropologik tarkibi va etnogenezi, Janubiy Tojikiston tojiklari va o'zbek qabilalari antropologik tarkibi va etnogenezi masalalari, G'arbiy Pomir eroniy qabilalari, Antropologik taqqoslash tadqiqotlari mavzusida 50 dan ortiq ilmiy asarlar chop etadi. 1953-yilda uning O'zbekiston antropologi V.Ya.Zezenkova bilan birgalikda mintaqa va unga tutash hududlarning olti mingdan ziyod aholisi o'rtasida olib borilgan antropologik tadqiqotlari natijalarini o'z ichiga olgan "O'rta Osiyo xalqlari etnogenezi masalalari antropologik ma'lumotlar asosida" nomli kapital asari chop etiladi. Uning O'rta Osiyo aholisi antropologik tarkibi va uni xalqlarining etnogenezi nomli uch tomlik asari (1957-1959-yy) dunyo etnik antropologiyasi fanining rivojiga salmoqli hissa qo'shadi. Asarda O'rta Osiyo aholisi tarkibi beshta antropologik (bitta mo'g'uliy va to'rtta yevropeoid) tipga ajratilib, ularning mintaqa bo'ylab paydo bo'lishlari va joylashish areallari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek asarda, O'rta Osiyoning barcha qadimgi hududlarida O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i yevropeoid tipi vakillari hisoblangan, qadimda yashagan mahalliy Xorazm-So'g'd-Baqtriya aholisining ajdodlari hisoblanmish tojik va o'zbeklar bu tipning vakillari ekanligi asoslab beriladi. Mintaqaning qozoq va qirg'iz xalqlari, L.V.Oshanin tadqiqotlariga ko'ra, katta mo'g'uliy tip variantlaridan biriga mansub deb e'tirof etiladi. Shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekistonning birinchi antropologining ushbu klassifikatsiyasi, mintaqada olib borilgan keyingi antropologik (V.V.Ginzburg, Q.Najimov, T.A.Trofimova, V.Ya.Zezenkova, T.K.Xodjayov, G.K.Xodjayova) tadqiqotlar davomida asos sifatida qabul qilinadi[5].

O'zbekistonning birinchi antropologini pedagogik va ilmiy faoliyati to'g'risida ko'p gapirish mumkin. Ammo shu yerda bu olimning asosiy mehnatlariga to'xtalib o'tishni joiz deb topdik. 1939-yil 29-sentyabrda, Oliy Attestatsiya Komissiyasi L.V.Oshaninga doktorlik dissertatsiyasini yoqlamasidan, biologiya fanlari doktori ilmiy darajasini beradi. Shu yilning o'zida u, sobiq ittifoqda ikkinchi hisoblangan, O'rta Osiyo davlat universitetining "Antropologiya" kafedrasining mudiri lavozimini egallaydi. 1942-yildan boshlab u, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Tarix va arxeologiya institutining katta ilmiy xodimi sifatida faoliyatini davom ettiradi. 1946-yilda unga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi unvoni beriladi. 1955-yilda L.V.Oshanin, O'zbekiston Oliy Kengashi deputatligiga saylanadi. 1959-yilda olimning asosiy ilmiy mehnati mahsuli bo'lgan "O'rta Osiyo aholisining antropologik tarkibi va etnogenezi" nomli uch tomlik asarlari chop etiladi. O'zbekistonda antropologiya fanining vujudga kelishi va rivojlanishida katta hissa qo'shgan olim, L.V.Oshanin 1962-yil yanvar oyida Toshkent shahrida vafot etadi.

Shu o'rinda, O'zbekistonda antropologiya fanining vujudga kelishi va rivojlanishida hissa qo'shgan, mamlakatning birinchi antropologi L.V.Oshaninga hamda uning hamkasblariga, O'zbekiston antropologlarini tarbiyalab voyaga yetkazgan oliy maskan, O'zbekiston milliy

universitetida 2020-yilda tashkil etilgan “Antropologiya va etnologiya” kafedrasini qoshida O‘zbekistonda antropologiya fanining 100 yilligi munosabati bilan xotira taxtasini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Bundan 103 yil avval, 1920-yil 15-oktyabrda o‘zbek antropologi, tarix fanlari nomzodi, Najimov Qodir Najimovich Toshkent shahrida, hunarmand oilasida dunyoga keladi. Ikkinchi jahon urushida ishtirok etgandan so‘ng, 1949-yilda O‘rta Osiyo Davlat universitetining (SAGU) biologiya fakultetini tamomlaydi, uning eng yaqin ustozlari b.f.d., professor L.V.Oshanin va akademik T.Z.Zohidovlar hisoblangan. 1949-1951-yillarda O‘rta Osiyo davlat universiteti aspiranturasida tahsil olgach, 1953-yilda “Surxondaryo viloyatining ayrim xalqlarining antropologik tarkibi va ularning etnogenezi masalalari antropologik ma‘lumotlar asosida” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

1952-1953-yillarda – O‘rta Osiyo davlat universiteti Antropologiya kafedrasini assistenti, 1953-yil oktyabrdan katta o‘qituvchi, 1956-1963-yillarda Antropologiya va umurtqali hayvonlar zoologiyasi kafedrasini dotsenti. 1959-1965-yillarda Toshkent davlat universiteti Biologiya va tuproq fakulteti dekani vazifalarida unumli mehnat qiladi.

1950-1959-yillarda FA Tarix va arxeologiya instituti va SAGU Antropologiya bo‘limi (Toshkent va Surxondaryo viloyatlari, Turkmanistonning turli viloyatlari)ning antropologik ekspeditsiyalariga rahbarlik qiladi. 1959-yilda G‘arbiy Sibirga uyushtirilgan antropologik ekspeditsiya rahbari sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Antropologiyaga oid bir qator ilmiy tadqiqotlar, jumladan, “Surxondaryo viloyati aholisining antropologik tarkibi” (1958) monografiyasi muallifi hisoblanadi. N.V.Kolesnikovning “Odam anatomiyasi” darsligini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. “O‘zbek maktablarida bolalar – maktab o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishi dinamikasi” mavzusida ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Mintaqa, xususan O‘zbekiston antropologiyasi bo‘yicha qator fundamental asarlar muallifi. Jumladan: Антропологические материалы к проблеме этногенеза некоторых народов “Средней Азии (узбеков, таджиков, туркмен и дунган), Антропологический состав некоторых народов Сурхандарьинской области и вопросы их этногенеза в свете данных антропологии, О черепах Зливкинского могильника, Антропологический состав населения Сурхандарьинской области (в связи с некоторыми вопросами этногенеза), О происхождении человека” mavzularida olib borgan ilmiy tadqiqotlar, fundamental ilmiy ishlari chop etilgan.

Olim “1941-1945-yillardagi urushda Germaniya ustidan qozonilgan g‘alaba uchun”, “1941-1945-yillardagi Ulug‘ Vatan urushidagi g‘alabaning yigirma yilligi” medallari bilan taqdirlangan. O‘zSSR Oliy Kengashi Prezidiumining ikkita Faxriy yorlig‘i va O‘zSSR Siyosiy ilmiy bilimlarni tarqatish jamiyatining tashakkurnomasi bilan taqdirlangan.

Olim to‘g‘risida uning talabalari shunday eslashadi: “Qodir Najimovich Nadjimov o‘qigan “Markaziy Osiyo antropologiyasi” kursini tinglash juda ham qiziqarli edi. U O‘rta Osiyo xalqlari antropologiyasining chinakam bilimdoni va Antropologiya kafedrasining asoschisi, atoqli toshkentlik olim Lev Vasilievich Oshaninning eng bilimdon shogirdi edi” deb yozgan edi[6] taniqli olim E.Rtveladze.

O‘zbekistonda antropologiya fanining rivojlanishida munosib hissa qo‘shgan olim, Tatyana Petrovna Kiyatkina, O‘rta Osiyo davlat universitetining biologiya fakultetini tamomlagan. O‘zbekistonda antropologiya fanining asoschisi, Antropologiya kafedrasining mudiri, L.V.Oshaninning shogirdlaridan biri bo‘lgan.

Markaziy Osiyo xalqlari antropologiyasi va etnik tarixi bo‘yicha ko‘plab ilmiy nashrlar muallifi. 1966-yilda arxeologik qazishma ishlarida izlab topgan paleoantropologik materiallar asosida tojiklarning antropologik tipini shakllanishi mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaydi. T.P.Kiyatkina Markaziy Osiyo xalqlari antropologiyasi bo‘yicha ko‘plab ilmiy asarlar muallifi hisoblanadi.

Uning “Tojikiston paleoantropologiyasiga oid ashyolar”, “Bronza davri Markaziy Osiyoning

g'arbiy hududlari paleoantropologiyasi" kabi fundamental ishlari mintaqada antropologiya fanining rivojlanishiga hissa qo'shib, bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

B.X.Karmisheva 1940-1945-yillarda O'rta Osiyo davlat universitetining tarix fakulteti talabasi, 1945-1950-yillarda Tojikiston FA ilmiy xodimi, 1951-1956-yillarda Tojikiston FA ilmiy kotibi, katta ilmiy xodimi, 1950-1951-yillarda aspirant, 1956-1957-yillarda kichik ilmiy xodim, 1957-1982-yillarda katta ilmiy xodim, 1982-2000-yillarda etnografiya instituti, O'rta Osiyo va Qozog'iston bo'limi yetakchi ilmiy xodimi lavozimlarida mehnat qiladi. 1951-yilda "Узбеки-локайцы Южного Таджикистана. Историко-этнографический очерк животноводства в дореволюционный период" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1978-yilda "Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. По этнографическим данным" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. 1945-1988-yillar oralig'ida O'rta Osiyoning turli hududlariga 25 marotaba ekspeditsiyalar uyushtirib, ilmiy faoliyati davomida, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnografiyasi bo'yicha tadqiqotlar olib boradi va "О некоторых древних тюркских племенах в составе узбеков: по этнографическим данным", "Среднеазиатские арабы", "Узбеки-локайцы Южного Таджикистана", "Население. Этнографические очерки узбекского сельского населения", "Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана", "Следы средневековых этнонимов и антропонимов в узбекских генеалогиях", "Кочевая степь" Мавераннахра и ее население в конце XIX - начале XX в по этнографическим данным", "Узбеки", "К этнической истории туркмен Среднеазиатского междуречья" kabi fundamental asarlar yaratadi, O'zbekistonda antropologiya fanining rivojida, mintaq xalqlarini tadqiq qilishda soha vakillari, olimaning ilmiy tadqiqot ishlaridan keng foydalanib kelishadi[7].

O.A.Suxareva, 1925-yilda O'rta Osiyo davlat universitetining Sharq fakultetini tamomlagan. 1925-1926, 1927-1930-yillarda o'qituvchi, 1934-1946-yillarda Samarqanddagi o'zbek xalqi madaniyati muzeyining xodimi lavozimlarida mehnat qiladi. Bir vaqtning o'zida Pedagogika instituti va O'zbek davlat universitetlarida, Tarix fakultetlarida talaba-yoshlarga dars beradi. 1946-1967-yillarda O'zbekiston FA, Tarix va arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi, Etnografiya sektori mudiri lavozimlarida mehnat qiladi. L.V.Oshanin, V.Ya.Zezenkovalarning shogirdi hisoblanadi. 1940-yilda Leningrad davlat universitetida "Пережитки анимизма у равнинных таджиков" mavzusida nomzodlik, 1962-yilda Etnografiya institutida "Позднефеодальный город Бухара конца XIX - начала XX в." mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Ilmiy faoliyati davomida Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnografiyasi mavzusida tadqiqotlarni davom ettiradi[8]. Mintaq xalqlari antropologiyasi va etnik tarixiga oid "Древние черты в формах головных уборов народов Средней Азии", "Прошлое и настоящее селения Айкыран", "К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки)", "Бухара. XIX - начало XX в. (Позднефеодальный город и его население)", "Пережитки демонологии и шаманства у равнинных таджиков", "Вопросы изучения костюма Средней Азии" kabi materiallari chop etilgan [9].

O'zbekistonda antropologiya fanining rivojlanishiga, uning fan sifatida dunyoga tanilishida katta hissa qo'shgan, o'zbek antropologlaridan biri Telman Qosimovich Xodjayov, 1938-yil 8-mart kuni O'zbekistonning Qoraqalpog'iston Respublikasi, To'rtko'l tumani, Sho'raxon qishlog'ida tug'ilgan. 1957-yilda Toshkent davlat universitetining Biologiya-tuproqshunoslik fakultetiga o'qishga qabul qilingan. 1963-yil o'qishni tamomlagandan so'ng, Nukus shahridagi O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Qoraqalpoq filialining Tarix, til va adabiyot instituti bo'limida laborant bo'lib ishlagan[10].

1957-yilda T.Xodjayov, Qoraqalpog'iston davlat universitetining tabiiy-geografiya fakultetining biologiya ta'lim yo'nalishiga o'qishga qabul qilinadi. 1960-yilda antropolog mutaxassisligiga talab yuqori bo'lganligi va kadrlar yetishmasligini oldini olish maqsadida iste'dodli T.K.Xodjayov, 3-kursdan o'qishini Toshkent davlat universitetining biologiya-tuproq fakultetiga, antropologiya sohasida davom ettirish maqsadida ko'chiradi. Uning ustoz va

murabbiylari L.V.Oshanining shogirdlari V.Ya.Zezenkova va Q.N.Najimovlar bo'lishgan. O'qishni tamomlagandan so'ng Telman Qosimovich, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Qoraqalpoq filialining tarix, til va adabiyot institutiga kichik ilmiy xodim vazifasiga ishga qabul qilinadi. Antropolog sifatida ko'plab ekspeditsiyalarda ishtirok etib, ma'lum miqdordagi paleantropologik materiallarni to'playdi. Ammo o'ziga professional mahoratning yetishmayotganligini sezgan holda u, Moskva etnografiya institutining antropologiya ixtisosligi bo'yicha aspiranturasiga kirishga harakat qiladi. 1964-1966-yillarda Fanlar Akademiyasi, Etnografiya instituti Leningrad antropologiya bo'limi aspiranti sifatida faoliyat ko'rsatib, 1968-yil Moskva shahrida "Формирование антропологического состава населения Южного Приаралья (Миздахкан)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qiladi va 1968-yilda Nukusga qaytib, 1972-yilgacha O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Qoraqalpoq filalida oldin kichik, so'ngra katta ilmiy xodim sifatida faoliyat ko'rsatadi.

1972-yildan T.Xodjayovning ijodi va ilmiy faoliyatining Samarqand davri boshlanadi. U antropolog V.Ya Zezenkovaning tavsiyasi bilan Samarqandda, akademik Ya.G'ulomov tashabbusi bilan qayta tashkil etilgan Arxeologiya institutida ishlashga taklif etiladi. Bu yerda u o'n yil antik arxeologiya bo'limida antropolog sifatida, katta ilmiy xodim lavozimida mehnat qilib, materiallar yig'ish maqsadida tashkil etilgan barcha ekspeditsiyalarda ishtirok etadi. Doimiy ish joyida vazifalarning ko'pligiga qaramasdan, T.K.Xodjayov ko'plab paleantropologik materiallarni to'plash maqsadida nafaqat O'zbekiston, balki mintaqamizning Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston Respublikalarida shuningdek, Ukraina, Shimoliy Kavkazdagi ilmiy ekspeditsiyalarda faol ishtirok etadi. To'plangan materiallar asosida "Палеоантропология Средней Азии и этногенетические проблемы" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini 1982-yilda Moskvada muvaffaqiyatli himoya qiladi. XX asrning 80-yillaridayoq T.Xodjayov, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Arxeologiya instituti qoshida etnik antropologiya bo'limini ochish taklifi bilan chiqqan edi. Bu taklif tarixchi olim, tarix fanlari doktori., professor, akademik A.A.Asqarov tomonidan iliqlik bilan kutib olinib, har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi. Shundan so'ng T.Xodjayov V.P.Alekseev bilan birgalikda somatologik, dermatologik, odontologik va serologik tadqiqotlarni o'z ichiga olgan kompleks dasturni ishlab chiqishadi[11].

1984-yildan to 1989-yilgacha, Toshkentga ko'chib o'tguniga qadar, etnik antropologiya bo'limining rahbari sifatida mehnat qiladi. Ushbu vaqt oralig'ida, Markaziy Osiyoning 50 dan ortiq etnohudud aholisini tadqiq qilishni tashkil etish va o'tkazishga muvaffaq bo'linadi. Kompleks dastur asosida o'n mingdan oshiq aholi o'rganiladi, ularni nikoh aloqalari, xo'jalik va madaniy hayotlari to'g'risida etnografik ma'lumotlar to'planadi.

1989-yil kuzida, T.K.Xodjayov Toshkent davlat universitetiga ishga taklif qilinadi. Shu vaqtdan boshlab u ToshDU, Tarix fakultetining "Qadimgi dunyo, o'rta asrlar va etnografiya" kafedrasida professori vazifasini bajaruvchi lavozimida, 1993-yil professor ilmiy unvonini olgandan so'ng, 1994-yildan to oltmish yoshni qarshi olib, Sankt-Peterburgga ko'chib ketgan davrigacha shu kafedraning mudiri lavozimida mehnat qiladi. Ushbu davrdagi olimning ilmiy tadqiqot va ma'naviy hayoti sermahsul bo'ladi. Tarix, biologiya, psixologiya fakultetlari talaba-yoshlari uchun, "Antropologiya asoslari", "Jismoniy antropologiya asoslari", "O'zbekistonda tarixiy fanlarning dolzarb muammolari", "O'rta Osiyo xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi", "Dunyo turkiy tilli xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi" kabi umumiy va maxsus kurslar ishlab chiqildi. Ushbu kurslarni olim, O'zbekistonning deyarli barcha oliy ta'lim muassasalarida, Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalarida hamda xorijda o'qib, talaba-yoshlar va mutaxassislariga o'ziga xos metodik yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yadi. Uning ilmiy va lavozim pilapoyasi doimiy ravishda ko'tarilib boradi. U Markaziy Osiyo antropologiyasi sohasida yirik bilimdon-mutaxassis hisoblanib, bibliografik ro'yxati 200 dan oshiq bo'lgan boy kraniologik kolleksiyasini yaratadi[12].

T.K.Xodjayov xizmatlari O'zbekiston hukumati va xalqaro ilmiy jam'iyat tomonidan munosib baholanadi. U doimiy ravishda O'zbekiston Oliy Attestatsiya Komissiyasining a'zosi,

ko'plab ilmiy Kengashlar a'zosi sifatida mehnat qilib, O'zbekiston Respublikasining Abu Rayxon Beruniy nomli davlat mukofoti bilan, 1995-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Faxriy Yorlig'i bilan taqdirlanadi.

1998-1999-yillarda Rossiya Fanlar Akademiyasi, Etnologiya va antropologiya institutining O'rta Osiyo va Qozog'iston bo'limi yetakchi ilmiy xodimi, 2000-yildan 2008-yilgacha shu institutning jismoniy antropologiya bo'limi yetakchi ilmiy xodimi, 2008-yildan to umrining oxirigacha shu bo'limning bosh ilmiy xodimi lavozimlarida samarali mehnat qiladi[13].

T.Q.Xodjayov, 2022-yil 18-yanvar kuni Moskva shahrida, 84 yoshida vafot etadi.

O'zbekiston antropologiya fanining rivojida o'zining o'rniga ega bo'lgan yana bir antropolog, T.K.Xodjayovning shogirdi S.I.Mustafaqulov hisoblanadi. Olim uzoq yillar davomida mintaqaning, xususan O'zbekiston aholisining antropologiyasi va etnik tarixi bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Формирование антропологических особенностей населения Согда, Старый Термез (К антропологии населения Бактрии-Тохаристана), Формирование человеческих популяций Южной и Центральной Азии (The Formation of Human Populations in South and Central Asia) mavzularidagi tadqiqotlari chop etilgan[14].

Ushbu tadqiqot, Shimoliy Amerika, Yevropa, Markaziy va Janubiy Osiyo paleogenetik, arxeolog, antropolog va etnograflarining jamoaviy faoliyati mahsuli bo'lib, bugungi kunda antropologlar va sohaning boshqa mutaxassisleri uchun aholining antropologiyasi, etnogenezi, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda antropolog-olim S.I.Mustafaqulov o'zining ilmiy tadqiqot ishlarini, Samarqand shahridagi Afrosiyob davlat muzeyi direktori sifatida davom ettirib kelmoqda.

XULOSA. Xulosa qilib aytish mumkinki, Yangi O'zbekiston sharoitida, ilmiy maktab, ilmiy maktab rahbari deb atash huquqini davo qilayotgan ilmiy, o'quv va tadqiqot jamoalarining paydo bo'layotganligi quvonarli xol. O'zbekistonda antropologiya fanining vujudga kelishi, uning fan sifatida rivojlanishi va maktab darajasiga ko'tarilishida shu sohada uzoq yillar, uzluksiz ravishda ilmiy tadqiqotlar olib borgan va nafaqat O'zbekiston balki Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari to'g'risidagi fundamental natijalari bilan maktab maqomiga ko'tarilishiga muhim hissa qo'shgan fan vakillarining o'rni va xizmati katta hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES).

Миклашевская Н.Н. Памяти Л.В.Ошанина. Вопросы антропологии. 1962. Вып 12. С. 21.

Миклашевская Н.Н. Памяти Л.В.Ошанина. Вопросы антропологии. 1962. Вып 12. С. 22.

Ўша жойда: С.24.

Кияткина Т.П. Памяти посвящается. Антрополог Лев Ошанин; Российский государственный архив древних актов; Фролов Н.В. Владимирский родословец. Вып. 1. Ковров, изд-во ТОО «БЭСТ-В», 1996.

Гинзбург В.В., Трофимова Т.А. Палеоантропология Средней Азии. – М.: Наука, 1972. – 371 с. Зезенкова В.Я. К этногенезу расового типа среднеазиатского междуречья // Тезисы докладов “Проблемы археологии Средней Азии”. – Л., 1968. – С. 19-24. Наджимов К. Антропологические материалы к проблеме этногенеза некоторых народов Средней Азии // Сборник трудов аспирантов САГУ. – Т., 1952. Вып. 1. – С. 272-275. Ходжайов Т.К. К палеоантропологии древнего Узбекистана. – Т.: Фан., 1980. – 167 с. Хўжайов Т.К., Хожайова Г.К. Ўзбек халқининг антропологияси ва этник тарихи. – Т.: ТошДУ нашриёти, 1995. – 91 б.

Ртвеладзе Э. Respite post te, или Академик Массон и другие // Восток Свыше. XXVI. 2012. Ташкент, С. 87.

Губаева С.С. Балкис Халиловна Кармышева. // Этнографическое обозрение. 2001. №3. С. 25-32. Е. Лунина. О Балкис Халиловне Кармышевой // Оазисы шелкового пути: Современные проблемы этнографии, истории и источниковедения народов Центральной Азии: К 100-летию доктора исторических наук Балкис Халиловны Кармышевой, 2018: сб. науч. ст. / отв. ред. и сост. Котюкова Т.В. –М.: Исламская книга, 2018. С. 17-23.

Тишков В.А., Тумаркин Д.Д. Выдающиеся отечественные этнологи и антропологи XX века. М.: Наука, 2004. – 716 С. С. 517.

Ўша жойда. 518-520 б.

Герасимова М.М. К 85-Летию со дня рождения Тельмана Касимовича Ходжайова. Российский журнал физической антропологии. Москва, 2023. №1. С. 7-14.

Сайпов С.Т. Мои встречи с Тельманом Касимовичем. Российский журнал физической антропологии. Москва, 2023. №1. С. 15-18.

Библиография научных работ лауреата государственной премии им. Абу-рейхан Аль Беруни доктора исторических наук профессора Ходжайова Тельмана Касимовича. Российский журнал физической антропологии. Москва, 2023. №1. С. 127-129.

Герасимова М.М. К 85-Летию со дня рождения Тельмана Касимовича Ходжайова. Российский журнал физической антропологии. Москва, 2023. №1. С. 12.

Т.К. Ходжайов, С.И. Мустафакулов. Формирование антропологических особенностей населения Согда. Электронная библиотека Музея антропологии и этнографии им. Петра Великого (Кунсткамера) РАН .

O'ZBEK HARBIY-ETNOGRAFIYASINI O'RGANISHDA FOLKLOR MATERIALLARINING TAHLILI

Muxtorjon Tolibboyev,
Fanlar akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining nodir namunalari hisoblangan dostonlardagi materiallar orqali harbiy-etnografiyaga xos jihatlar tarixiy-manbalar va adabiyotlar asosida qiyosiy tahlil qilingan. Harbiy ta'lim, tayyorgarlik, jangchilarning harbiy maqomi – "alp"lik darajasi hamda ayollarning harbiy ishdagi o'rni baxshilar ijodi orqali badiiy ko'rinishga ko'chganligi tarixiy etnografik jihatdan yoritildi. Shuningdek, urushga xos jihatlar: militarizatsiya, harbiy tayyorgarlik, boshqaruv, qo'shinning jismoniy va ruhiy holati to'g'risida materiallar harbiy-etnografiyani o'rganishdagi ahamiyati tadqiq qilindi.

Kalit so'zlar: doston, alp, Alpomish, Go'ro'g'li, baxshi, Amir Temur, Avesta, massaget, Gerodot.

ANALYSIS OF FOLKLORE MATERIALS IN THE STUDY OF UZBEK MILITARY ETHNOGRAPHY

Muxtorjon Tolibboyev,
PhD Candidate, Institute of History, Academy of Sciences

Abstract: This article provides a comparative analysis of military-ethnographic features based on historical sources and scholarly literature, drawing on materials from epics, which are among the rare masterpieces of Uzbek oral tradition. It examines how aspects such as military education, training, the military status of warriors—particularly the alp rank—and the role of women in military affairs are artistically represented in the works of bakhshis, and interprets them from a historical-ethnographic perspective. Furthermore, the study explores war-related elements, including militarization, military organization, and the physical and psychological condition of troops, highlighting their significance for the study of military ethnography.

Keywords: epic, alp, Alpamish, Goroghli, bakhshi, Amir Temur, Avesta, Massagetae, Herodotus.

АНАЛИЗ ФОЛЬКЛОРНЫХ МАТЕРИАЛОВ В ИЗУЧЕНИИ УЗБЕКСКОЙ ВОЕННОЙ ЭТНОГРАФИИ

Мухторжон Толиббоев,
Аспирант Института истории Академии наук

Аннотация: В данной статье на основе исторических источников и научной литературы проведён сравнительный анализ военно-этнографических особенностей на материале эпосов, являющихся одними из редчайших образцов узбекского устного народного творчества. Рассматривается художественное отражение в творчестве бахши таких аспектов, как военное обучение и подготовка, военный статус воинов — степень «алп», а также роль женщин в военном деле, с позиций историко-этнографического анализа. Кроме того, исследуются особенности, связанные с войной, включая милитаризацию, военное управление, физическое и психологическое состояние войск, а также их значение для изучения военной этнографии.

Ключевые слова: эпос, алп, Алпамыш, Гороглы, бахши, Амир Темур, Авеста, массагеты, Геродот.

Kirish. Kishilik jamiyati o'z taraqqiyotining uzoq yo'li davomida jangovar urushlar va to'qnashuv jarayonlari holi bo'lgan emas. Bu ma'lum ma'noda har bir xalqning o'ziga xos harbiy madaniyatining shakllanishiga asos yaratgan. O'zbek xalqining boy harbiy madaniyatini

o'rganishda xalq og'zaki ijodi, xususan, baxshilar tomonidan kuylab kelingan dostonlar muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Dostonlarda harbiy ta'lim, gender masalasi, qurol-yarog'larning harbiy-ijtimoiy ahamiyati, jangchi ruhiyati, jangovar taktikalar, to'qnashuvlargacha bo'lgan odat va bilimlar majmuasi tarkib topgan.

Dostonlar ko'plab turlarga bo'linib, uzoq davrlar mobaynida baxshilar tomonidan kuylab kelingan hamda qahramonlik, jangnoma, tarixiy, romanik va kitobiy dostonlar sifatida tasniflanadi. Bu dostonlar nafaqat badiiy-ijodiy lavhalarni, balki xalqning kundalik turmushi, marosimlari va harbiy an'analarini ham yoritadi. Harbiy an'analar, o'z navbatida, bir xalqning jangovar tajribasi, qo'shinlarni tashkil etish usullari va urush olib borish san'ati bilan bog'liq urf-odatlar to'plamidir. Bu an'analar, odatda, xalqning tarixi va milliy ruhiyatining ajralmas qismi sifatida shakllanadi va avloddan-avlodga ma'naviy meros sifatida o'tadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Ushbu maqolani yoritishda O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tomonidan nashr etilgan xalq ijodiyoti yodgorliklari ko'p jildligi doirasidagi xalq dostonlari, Devonu lug'otit turk, Zafarnoma manbalari, Ashirov A, Turdimov Sh, Rajabov R, G'olima M. kabi olimlarning tadqiqotlaridan foydalanildi. Shuningdek, chet el tadqiqotchilardan A. Shimshirgil Sasson-Levy O, A. Altinaylarning ilmiy izlanishlarini qiyosiy tahlil qilgan holda o'rganildi va xulosalandi.

Natija va muhokama.

Harbiy ishning dastlabki va muhim bo'g'ini shubhasiz, harbiy ta'lim masalasidir. Tarixan harbiy ishida ta'lim masalasi juda ham muhim o'ringa ega bo'lgan. Harbiy ta'limni shartli ravishda ikki asosiy yo'nalish: nazariy va amaliy qismlarga bo'lish mumkin. Muhim jihati shuki, o'g'il bolalar harbiy ta'lim olishdan avval albatta xat-savodi chiqqan bo'lishi shartligi uqtiriladi. Turkiy xalqlar nodir durdonasi bo'lmish Alpomish dostonida: "Hakimbekni savodi chiqishi uchun mullaga berib, savodli bo'lganda yetti yoshga kirib, Boybo'ri "Endi o'g'lim savodi chiqib, mulla bo'ldi, o'g'limga endi shohlik, sipohilik ilmini o'rgatayin", – deb mulladan chiqarib oldi [4].

Jumladan, Sohibqiron Amir Temur ham bolalik chog'ida ota-onasi nazorati ostida ustozlaridan yaxshi ta'lim olgan. Besh yoshidan boshlab o'qish-yozishni o'rgana boshlagan. U yetti yoshga yetganida otasining shayxi Shamsiddin Kuloldan diniy ta'lim olishni boshladi hamda bo'sh vaqtlarida harbiy ilmini ham o'rgangan[5]. Demak, bundan kelib chiqadiki, shohlik yoki sipohilik ilmini egallash uchun albatta shaxsning xat-savodi chiqqan bo'lishi shart bo'lgan. Shuningdek, dostonlarda yetti yoshdan o'n to'rt yoshga qadar harbiy bilimlarning nazariy qismlarini o'rganilsa, o'n to'rt yoshdan so'ng amaliy bosqichga o'tganlar. Ma'lumotlarga ko'ra jangchilar o'n besh yoshdan urushlarda qatnashish uchun tayyor bo'lganlar.

Dostonlarda harbiylikka qabul yoshi o'n besh yoshda ekanligi ta'kidlanadi. Ya'ni yigitlarning harbiy tayyorgarlik ko'rishdagi ikkinchi amaliy bosqichiga o'tilganini anglatadi. "Xidirali elbegi" dostonida bu haqida aniq tasvirlar mavjud: "Ana Go'ro'g'lining Chambil eliga qarab, aytayotgan so'zi:

O'n beshdan bari o'tganing,
Bittang qolmay baring yuring.
Dushman kelmay Chambil elga,
Qimirlamay darrov boring"[13].

Turon hududida ayni shu yosh balog'atga yetish yoshi sifatida baholangan. Avesta kitobidagi qaydlarga ko'ra o'g'il bolalar o'ttiz ikki harbiy hunarni bilishi shart bo'lgan hamda o'n besh yoshdan boshlab maxsus sinovlarni topshirish orqali balog'at yoshiga o'tganliklarini isbotlaganlar[1]. Xuddi shuningdek, qadimgi sak-massaget qabilalarida ham harbiylikka yetuklik yoshiga o'tish davri o'ziga xos sinovlar bilan tekshirilgan. Chorvador qabilalar o'smirlarning balog'at yoshiga yetgani va haqiqiy erkakligini quyidagi sinov bilan aniqlaganlar: O'smir o'n besh yoshga yetganida jasorat kamari bilan belini bog'lab, dushman qo'shnilariga hujumga yuborilgan. Agar u dushmanning boshini keltirsa, haqiqiy "ikki marta tug'ilgan erkak"ga aylangan. Yoki

u qaytib kelmasa, hech kim uni eslamagan [11]. Demak, yosh jangchilarda qisman nazariy va amaliy bilimlar shakllanganda so'ng ularni chiqintirish, yengilmas kuchga aylantirish muhim deb hisoblaganlar. Shu tarzda jamiyatda tayyor jangchilar sinfi shakllanib borgan.

Jangchilarning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi, nufuzi va darajasi siyosiy-ijtimoiy hayotda ham aks etib, baxshi ijodi orqali dostonlarga ko'chib o'tish jarayoni kuzatiladi. Xususan, harbiylarning "alp"lik darajasini olishi bilan bog'liq jihatlar tarixiy va og'zaki manbalarda qayd etilgan. Mahmud Koshg'ariyning devonida "alp" atamasi "botir", "qahramon" ma'nosida izohlab, shunday maqol keltiradi: "Alp yağida, alçaq çoğida", ya'ni "botir yov bilan to'qnashganda (olishganda), yuvosh tirishishda sinaladi" [9].

Alpomish dostonida "alp"lik harbiy-siyosiy maqom sifatida ulug'lanishi fikrimizni isboti bo'la oladi. Alpomish enadan tug'ilgan vaqti Shohimardon piri etagiga solib, yelkasiga besh panja urgan. Otini Hakimbek qo'yib tarbiyat qilgan va shundan so'ng o'tda kuymas, qilich solsa, o'tmas hamda miltiq otgan bilan, o'qi o'tmas edi. Baxshi bu o'rinda "suvda cho'kmas edi" sifatini unutgan bo'lishi mumkin. Chunki, olov (quyosh) – ko'kning, qilich-miltiq – yerning, suv yerosti olamining belgisi. Chinakam alpning jismi va ruhi ana shu uch olam bilan payvand bo'ladi. Uni ana shu uch olam eranlari o'z panohida asraydi [14]. Shu tariqa, alpik maqomi jangchi shaxsning nafaqat harbiy salohiyati, balki olam tartibi bilan uyg'unlashgan muqaddas maqomga egaligini bildiruvchi ijtimoiy-antropologik daraja sifatida namoyon bo'ladi.

Jangchilarning ijtimoiy maqomi haqida so'z borar ekan unda nafaqat erkaklar uchun, balki ayollarning harbiy faoliyati ham baxshilar e'tiboridan chetda qolmagan. Jumladan, chet el bosqinchilari qarshi kurashgan Oysuluv, Oychinor, Yunus pari, To'lg'onoy singari doston qahramonlari Turonning eng qadimgi davrlaridan boshlab jamiyatda ayollarning siyosiy-harbiy hamda ijtimoiy hayotda yuksak o'rin egallaganini ko'rsatadi. Xususan, "Oysuluv" dostoni qahramoni massaget Malikasi Tomir xotun timsolining badiiylashtirilgan ko'rinishi bo'lib, asardagi syujet yunon tarixchisi Gerodot bergan ma'lumotlar bilan uyg'unlik kasb etadi va dostonda "alp" ayol deya ta'riflanadi [10]. "Tarix" asaridan keltirilgan malikaning o'g'li mast qilib asir olinishi, ikki orada elchilik munosabatlari hamda jang tasvirlari Gerodotdan mustaqil ravishda og'zaki an'analarda ham yashab kelgan [7].

Turon hududida baxshichilik faqat erkaklarning vazifasi sifatida baholanmaydi. O'z navbatida xalqimiz orasida Sulton kampir, Tilla kampir singari gapga chechan, baxshi ayollar tor doirada doston va qo'shiqlar ijro etib kelishgan. Yuqoridagi keltirilgan Oysuluv dostoni ham faqat ayollar davrasida kuylab kelingan. Shu sababdan ham erkak baxshilar tomonidan bu doston keng ijroga tortilgan emas.

Ayollarning harbiy maqomi va jangchiga aylanish jarayoni harbiy antropologiyada gender maslasi nuqtai nazaridan o'rganish ijtimoiy fanlarda so'nggi davrda juda tez rivojlandi. Masalan, Sasson-Levyning tadqiqotlarida ayol askarlarning "erkaklarga xos" rollarni bajarishi harbiy tuzilmalarni gender xususiyatlarini ochib berishda muhimligi o'z aksini topgan [12]. Ayshe Gul Altinayning tadqiqotlarida esa ayollarning harbiylikka o'tishlarini afsonalar bilan bog'lab, dunyodagi dastlabki jangchi ayollar haqida fikrlarini asoslagan [2]. Umuman olganda, Turonda ham ayollarning milliy-ozodlik harakatlari chog'ida harbiy shaxsga aylanish holati tarixiy va og'zaki manbalarda o'z aksini topgan. Dostonlarda baxshilar harbiy liboslarni "erkakcha" kiyim nomi bilan kuylaydi. Oysuluv, Oychinor, To'lg'onoy yoki Go'ro'g'li dostonidagi Misqol pari jang boshlanishidan avval erkak kiyimlarini kiyganliklari, shuningdek dushman ularni ayol ekanliklarini sezmagani qayd etilgan [8].

Ayollarni vaqtincha "erkak" roliga o'tkazish orqali doston jamiyatning muhofazasiga doir umumiy kodeksini tasdiqlab, vatanparvarlik jinsga bog'liq bo'lmasdan, balki umumiy ijtimoiy majburiyat hisoblangan. Xo'sh, ayollarning "erkaklashtirish" feminislatilgan qatlamlarni yo'q qiladimi?, aksincha, ularni yangi vazifaga moslashtiradi va bu jarayon ramziy jihatdan kuchli tasdiq bilan asoslangan. Dostonlardagi voqealar shuni ham ko'rsatadiki, ayollarning harbiy ishtiroki nafaqat noodatiy holat, balki muqobil normal, ya'ni zarurat harbiy davrda qabul

qilinadigan favqulodda holat sifatida tushunilgan. Shu tariqa, xalq og‘zaki ijodi jamiyatning o‘zgaruvchan sharoitga moslashish qobiliyatini, hayotiy amaliy tajribasini hamda milliy axloqning moslashuvchan tabiatini ko‘rsatib, ayollarning ham zarurat tug‘ilganda harbiy tizim va militarizatsiya jarayonlariga jalb qilinganligi namoyon bo‘ladi.

Harbiy antropologlar uchun militarizatsiya jarayonlari yana bir asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayon orqali fuqarolik jamiyatining turli institutlari urushga tayyorgarlik ko‘rish va uni olib borish maqsadida qayta tashkil etiladi. Militarizatsiya ayni paytda diskursiv jarayon ham bo‘lib, unda jamiyatning qarashlari va qadriyatlari kuch ishlatishni oqlash, katta doimiy qo‘shinlarni tashkil etish hamda ularni moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan yuqori soliqlar yoki o‘lponlarni legitimlashtirish yo‘nalishida o‘zgaradi. Xalq dostonlari syujetlariga e‘tibor qaratsak, militarizatsiya jarayoni tarixiy haqiqat bilan badiiy ijodning uyg‘unlagini ko‘rish mumkin. Masalan, urush olib borish maqsadida qo‘shin tashkil etish nomuntazam va muntazam ko‘rinish kasb etishini kuzatamiz. Nomuntazam qo‘shin ayrim dostonlarda ma‘lum urug‘larda, ayrimlarida esa viloyat, tobe hududlardan to‘plangan.

Qo‘shin to‘plashdan maqsad aksar hollarda yurtni himoya qilish g‘oyasi asosida legitimlashtiriladi va resurslarni safarbar qilishga asosiy e‘tibor qaratiladi. Boshqa hududlarga yurishlar esa baxshining badiiy bo‘yog‘i ostida adabiylashtirilgan. Xususan, o‘zga yurtga qo‘shin tortib borish yoki qahramonning yolg‘iz safari qiz bola obrazini ideallashtirish asosida shakllangan. Alpomishning Qalmoqqa safari, Go‘ro‘g‘lining Hindistonni yirik qo‘shin bilan egallashi fikrimizning isboti bo‘ladi oladi. Shuningdek, dushman bilan to‘qnashuvda g‘alaba qozonishda qurol-yarog‘lar muhim ekanligi sir emas.

Harbiy madaniyatda qurol-yarog‘lar harbiy qatlamlarning kuch-qudrati ramzi hisoblanib, to qadimgi hozirga qadar o‘z mohiyatini o‘zgartirmay kelmoqda. O‘zbek xalq dostonlarida turli davrlarning qurollari bir o‘rinda qo‘llaganligini guvoh bo‘lamiz. O‘q-yoy, xanjar, qilich (isfahon va dudama), nayza, jazoyil, miltiq, to‘p, kirovka, dubulg‘a, sovut kabilar shular jumlasidandir. To‘g‘ri, dostonlarning yozib olinish davrini hisobga olsak, unda 19-yuzyillikning ta‘sir doirasi ko‘proq sezilib turadi. Biroq, masala bunday oddiy emas, dostonlar uzoq yuz yilliklar avval xalq og‘zida yaratilgan va avlodlarga og‘izdan-og‘izga o‘tib har bir davrning yangiliklarini o‘zida mujassamlashtirib borgan.

Qurol-yarog‘lar kuch-qudrat belgisi bo‘lsa, harbiy musiqa jang maydonlarida maxsus marosimning detallari sifati foydalanib qo‘shinning ruhiy tayyorlarigiga kuchli ta‘sir o‘tkaza oladigan unsur sifatida qaralgan. Jang oldidan qo‘shinni ruhlantirish, dushmandan qo‘rqmasliklari uchun choralarni ko‘rishga alohida e‘tibor qaratilgan. Xususan, Arablar janglardan oldin shoirlarining qator oldida turib, mardonavor she‘rlar bilan askarlar qalbida shodlik uyg‘otib, qahramonlarni hayajonga solishgan va ular darhol hujumga o‘tgan. Turkiy xalqlar hukmdorlari esa o‘z yurishlari uchun dovul, karnay, burg‘u singari asbob-uskunalar tayyorlatganlar va bular hukmdorlik ramzlaridan biri hisoblangan. Bu holat nafaqat insonlarda, balki hayvonlarda ham namoyon bo‘lib, jumladan tuyalar hud‘a deb nomlangan ritmik qo‘shiq yoki otlar hushtak va qichqiriqlar bilan jo‘shqinlashadi [3]. Orkestr musiqa asboblari bilan qo‘shin ichida turgan hukmdor atrofida saf tortib turganlar va marshlar chalib, qahramonlarni jonlarini fido qilishga ruhlantirganlar.

Xalq dostonlarida ham lashkarni ruhiy jihatdan tayyorlash jarayonida musiqiy asboblardan vosita sifatida foydalanilganligi kuylanadi. “G‘o‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi “Gulnor Pari” dostonidagi jang oldi sahnasi aks etgan quyidagi satrlar buni o‘zida aks ettiradi:

Nog‘ora, surnay, karnaylar tortilsin,
Chin polvonning shirin joni sotilsin!
Girishini* sozlab oling sari yoyni*,
Kamon o‘qi dushmanlariga otilsin!
Peshonada har gap bo‘lsa bitilsin![6]

Urush yoki jang oldidan harbiy musiqa asboblari (nog'ora, sunray, karnay) orqali askarlarni ruhlantirish, safarbar qilish holati elshunoslik jihatdan Turon xalqlarining harbiy tayyorgarlik marosimlari sifatida keng uchraydi. Nog'ora jangga chaqirish beligisi hisoblansa, karnay sunray esa harbiylarning ruhlantirish bilan birga hukmdorning chiqishi yoki urush boshlanishini ifodalovchi unsur sifatida baholangan. Ibn Xaldun yana qayd etadiki: Turklar dovulga o'xshagan asboblarga katta ahamiyat beradilar, ularning sonini ko'paytiradilar va unga "kusvot" (ko's, mehtar) deb nom berganlar. Xalq dostonlarida "dovul" so'zini shevada "dobil" deb talaffuz qilingan va shunday qayd etilib, urushning eng asosiy uskunasi sifatida bayon etiladi. "Go'ro'g'li"da bu haqida aniq tasvirlar ko'zga tashlanadi: "Alqissa, andin so'ng, har ikki tomondan askar yig'ilib, dobil urilib, otlar surilib, Go'ro'g'li sulton bilan Shohdorshoh askarlarining jangga borayotgan chog'i:

Avval bir karnay tortdi,
Otlar qoziqqa aylandi.
Yana bir karnay tortilganda,
Botir yigitlar saylandi.
Yana bir karnay tortilganda,
Osmon chang bo'b g'uborlandi.
Yana bir karnay tortilganda,
Baravar bari otlandi"[16].

Ruhiy tayyorgarlik masalasida musiqa asboblardan tashqari qo'mondon yoki hukmdorlarning otashin nutqlari ham qo'shinning jangovar ruhiyatini jo'shqinlashishiga sabab bo'lgan. Yusuf va Ahmad dostonida Xorazm va Misr qo'shinlari o'rtasidagi jang chog'ida Taka zamonbegining qo'shinga aytayotgan nutqida buni anglash mumkin:

Po'latdan nayzani qo'lga olinglar,
Yuz qaytarmay bu maydonga boringlar,
Har qaysing sherday bo'p endi turinglar,
Nasib bo'lsa ko'p o'ljani olinglar,
O'lja olib qaytmoqlikdir yoronlar[15].

To'lg'onoy dostonida Qo'qonning O'ratepaga yurishi tasvirlanib, jang chog'ida askarlarga shiorlar va ruhlantiruvchi so'zlar bilan ta'sir o'tkazishga uringanlik aks etgan. Xususan, o'ratepalik yoki qo'qonlik jangchilar deb alohida aytilishi, ularning o'zligini ko'rsatishga urinishi sifatida baholash mumkin. Xalq qahramoni o'z shahrining, elining sha'nini himoya qiluvchi timsol sifatida tasvirlanadi. Ya'ni dostonida "kimlik" masalasi jang oldi eng yuqori g'oyaviy darajaga chiqqanligini ko'rsatib beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, harbiy etnografiya sohaning kichik qismi bo'lib, uni o'rganishda folklor, sotsiologiya kabi fanlar kesishgan nuqtalar mavjud. Folklor manbalari, ayniqsa, xalq eposlari etnografiyani tadqiq etishda to'ldiruvchi manba bo'lib xizmat qiladi. Folklor materiallari xalqning milliy harbiy holatini, uning ruhiyatini ochib beradi.

Baxshilar og'zida yaratilgan asarlar yuz yillar davomida harbiy bilimlarni o'zida saqlab, avloddan-avlodga yetkazib kelmoqda. Xususan, harbiy ta'lim, yosh jangchilarni jamiyatga tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Tayyor yetilgan jangchilarni ijtimoiy maqomi va uning jamiyatda yuksak o'rni alohida urg'ulangan. Dostonlarda tarixiy jarayonlarda aks etganidek gender masalasidagi harbiy qarashlar bugungi kunda ham ma'lum ma'noda mavjudligi kuzatish mumkin. Qurol-yarog'larning ham davr nuqtai nazaridan ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlar baxshilar ijodida sayqallangan. Demak, o'zbek xalq dostonlari turkiy millatlarning harbiy ta'lim tizimini yoritishda tarixiy-antropologik ahamiyat kasb etadi, deb baholash mumkin.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Аширов А. "Авесто"дан мерос маросимлар. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 2001.– 6-бет.
2. Altinay, A. G. The myth of the military-nation: Militarism, gender and education in Turkey.

New York: Palgrave Macmillan. 2004. – p. 33-40.

3. Абдуллаҳмон ибн Муҳаммад ибн Халдун. Муқаддима (иккинчи жуз). – Тошкент: Trust and support, 2025. – 151-бет.

4. Алпомиш. Ж.1. Ўзбек халқ оғзаки ижоди ёдгорликлари. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 43-бет.

5. Аҳмад Шимширгил. Амир Темур. – Тошкент: Nasimkutub, 2022. – 396-бет

6. Gulnor pari. doston. – Toshkent: Oltin qalam, 2023. – 133

7. Herodotus. The histories of Herodotus. Translates by Henry Cry. New York: D. Appleton and company, 1904. – p. 83.

8. Мусина Ғолима. Туроннинг алп қизлари. Тошкент: Ёзувчи, 1997. – 59-бет.

9. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк. – Тошкент: Фафур Фулом, 2017. – 30-бет.

10. Ойсулув. дostonлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – 11, 142-бетлар

11. Rajabov R. Qadimgi sharq harbiy san'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 72-bet.

12. Sasson-Levy, O. Gender performance in a changing military: Women soldiers in “masculine” roles. *Identities: Global Studies in Culture and Power*, 10. 2003. – p. 320.

13. Қирқ йигит ва қирқ қиз (дostonлар). J.32. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. – Тошкент: “Renessans press”, 2024. – 41-бет.

14. Турдимов Ш. Эпос ва этнос. – Тошкент: O‘zbekiston, 2011. – 8

15. Yusuf va Ahmad. O‘zbek xalq dostonlari turkumidan. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2020. – 504-бет.

16. Хушкелди. J.33. Ўзбек халқ ижодиёти ёдгорликлари. – Тошкент: Renessans press, 2024. – 345-бет.

O'ZBEKISTON SSR JISMONIY TARBIYA VA SPORT TIZIMIDAGI TO'GARAK MASHG'ULOTLARIGA TIBBIY NAZORATNING JORIY ETILISHI (1924) HAMDA UNING AMALIY FAOLIYATI (1945-YILGA QADAR)

*Nag'ashboyev Qazbek Bozorboy uli,
O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti, Tayanch doktorant*

Annotatsiya. Mazkur maqolada, O'zbekiston SSR Jismoniy tarbiya va sport tizimidagi to'garak mashg'ulotlarida tibbiy nazoratning paydo bo'lishi, uning 1924-1945-yillarda yuritgan faoliyati aks ettirilgan. Shuningdek, mazkur tibbiy nazorat ishlarini joriy etishning asosiy mohiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: to'garaklar, tibbiy nazorat, chora-tadbir mohiyati, chaqiriqqacha tayyorgarlik, harbiy soha, mehnat unumdorligi.

ВНЕДРЕНИЕ МЕДИКО САНИТАРНОГО КОНТРОЛЯ В СИСТЕМЕ КРУЖКОВЫХ ЗАНЯТИЙ ПО ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ И СПОРТУ В УЗБЕКСКОЙ ССР (1924) И ЕГО ПРАКТИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ (В ПЕРИОД ДО 1945)

Аннотация. В данной статье рассматривается процесс генезиса и функционирования медико-санитарного контроля в системе кружковых занятий по физической культуре и спорту в Узбекской ССР. Анализируется деятельность соответствующих служб в период с 1924 по 1945 годы, а также раскрывается основная сущность и значимость внедрения системы врачебного контроля для обеспечения массовости и безопасности спортивного движения в республике.

Ключевые слова: кружки, медико-санитарный контроль, сущность мероприятий, допризывная подготовка, военная сфера, производительность труда.

THE IMPLEMENTATION OF MEDICAL SUPERVISION IN SPORTS CIRCLES OF THE UZBEK SSR PHYSICAL CULTURE AND SPORTS SYSTEM (1924) AND ITS OPERATIONAL ACTIVITIES (UNTIL 1945)

Abstract. This article delineates the genesis of medical supervision within the sports circles of the Uzbek SSR's physical culture and sports system, analyzing its operational activities between 1924 and 1945. Furthermore, the study elucidates the fundamental essence and strategic objectives underlying the implementation of these medical control measures during this formative period.

Key words: sport circles, medical supervision, nature of measures, pre-conscription training, military sphere, labor productivity.

Sovet davlati O'zbekiston SSRda yuritgan boshqaruvida, siyosiy, iqtisodiy sohalar bilan bir qatorda ijtimoiy sohalariga ham urg'u qaratgan. Ayniqsa, bu soha tarkibiy qismi hisoblanuvchi – aholi sog'lig'ini muhofaza qilish, sovet hokimiyatining diqqat markazida bo'lgan bo'lib, o'zining ustuvor vazifasi sifatida – ishchi qatlamni sog'lomlashtirish va sog'lom avlodni yetishtirish etib belgilagan.

Sport sohasiga tibbiy nazoratni joriy etish 1924-yilda dolzarb masalaga aylanib borgan. Jismoniy tarbiya bo'yicha yuqori turuvchi organlar tomonidan tibbiy nazoratni sport to'garaklarida joriy etish bo'yicha ko'rsatmalar berila boshlagan. Jumladan, Farg'ona viloyati jismoniy tarbiya kengashi 1924-yil may oyida Kasaba uyushmasi sport seksiyalariga, madaniy-ma'rifiy bo'linmalarga va garnizonning sport komissiyasiga yuborgan ko'rsatmasida, to'garakni boshqarish uchun ushbu ko'rsatma olingan kundan boshlab yetti kun ichida to'garak a'zolarini to'liq tibbiy ko'rikdan o'tkazish va ko'rik natijasi qancha vaqtgacha amal qilishini Farg'ona viloyati harbiy tayyorgarlik

bo'limi bilan kelishgan holda belgilash qayd etilgan . Farg'ona viloyati harbiy bo'limi 1924-yil fevral-dekabr oralig'ida viloyatda shifokor-yo'riqchilar faoliyati bo'yicha bergan bayonotida, Qo'qon shahrida harbiy bo'lim huzurida sport-klub bo'lgan bo'lib, uning faoliyatini rivojlantirish maqsadida uni LKSM tarkibiga o'tkaziladi.

Namangan uyezdi jismoniy tarbiya kengashi (1922-yil 3-iyunda tashkil etilgan) o'z oldiga asosiy masala sifatida chaqiriq yoshidagilar (1902 va 1903-yilda tug'ilganlar) orasida mashg'ulotlar olib borib, ularni sportga jalb etishni qo'ygan. Yana bir muhim jihat, bu chaqiriq yoshidagilarni shug'ullantirish faoliyatiga tibbiy nazoratni joriy etish zarurati bo'yicha qaror qabul qilganligidir . Shu asosda 52 nafar chaqiriq yoshidagilar tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, ulardan 10 tasi to'liq sog'lom, aniqrog'i harbiy xizmatga loyiq deb topilgan Maktablar sportlashtirila boshlagach, o'quvchilar orasida sportga qiziqish yanada oshgan va shu bilan birga, ular o'z jismoniy holatini yaxshilay boshlagan.

Pionerlar ko'lami Qo'qonda umumiy 27 ta otryadni (har bir otryad 50 kishidan iborat) tashkil etgan bo'lib, yil yakuni va keyingi yil boshida bo'lib o'tgan shifokorlar seksiyasi majlisida, pionerlarning har bir otryadi tarkibiga 1 tadan shifokorni biriktirish bo'yicha yangi rasmiy qaror qabul qilingan. Bungacha Qo'qonda harbiy-shifokor atigi 1 nafarni tashkil etgan. Qabul qilingan yangi hujjatga binoan, shifokor vazifasiga otryad a'zolarini jismoniy rivojlanishini muntazam kuzatib borish, armiyaga chaqiriq yoshidagilarni va maktab o'quvchilarini jismoniy holatini doimiy ko'rikdan o'tkazib turish kirgan. Bu vazifalarning bajarilishidan bolsheviklar manfaatdor bo'lgan. Boisi, muntazam tibbiy nazorat natijasida, sog'lig'i bilan muammosi bo'lgan aholi aniqlanib turilgan va u zudlik bilan bartaraf etilgan. Shu bilan birga, barkamol va sog'lom qatlam ulushi oshib boravergan.

Tibbiy nazorat o'tkazish davomida shifokor maxsus karta ochishi, ko'rik natijalarini ushbu kartaga qayd etib borishi belgilangan. Faqat taxminan 2000 ta kartani tayyorlash uchun ketadigan harajatni pionerlar to'lashi shart etib belgilangan . 15-dekabrda LKSM va kasaba uyushmasi a'zolari bo'lgan o'zbek millatiga mansub pionerlar qatlamining 66 nafari chaqiriqqacha tayyorgarlikka jalb etilgan. Bu ilk targ'ibot harakati bo'lib, u orqali odam fiziologiyasi va boshqa jihatlar bo'yicha tushunchalar berilgan . Umumiy qilib aytganda, jismoniy tarbiyani rivojlantirishda va harbiy zahira askarlari ko'laminin Qo'qon va boshqa uyezdlarda oshib borishida harbiy ro'yxatga olish idoralarinin o'rni muhim bo'lgan.

Sovet hokimiyati aholini sog'lig'ini mustahkamlash orqali, sovet davlati iqtisodiyotini oshirish uchun sog'lom va mehnatkash ishchi kuchini hosil qilishni va shu bilan birga, mamlakat mudofaa salohiyatini oshirish uchun esa yetarli jismoniy tayyorgarlik (maxsus jismoniy to'garak mashg'ulotida shug'ullangan)dan o'tgan harbiylarni yetishtirishni ko'zlagan. Shu tufayli, sovet rahbariyati tub yerli ishchi qatlam vakillari sog'lig'ini muhofaza qilishni, o'zining eng muhim vazifasi sifatida qaragan.

Tub yerli aholini sog'lom va jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlaridan o'tgan deyishga sabab shuki, ularni mehnat qilish va mudofaani himoya qilishga puxta tayyorlash maqsadida maxsus jismoniy tarbiya to'garak mashg'ulotlari tashkil etilgan. Insonlar orasida jismoniy tarbiya to'garaklari mashg'ulotlari O'zbekiston SSR jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish uchun tashkil etilgan-ku, degan yondashuv bo'lishi tabiiy albatta. Bu kabi jismoniy tayyorgarliklar, to'garak mashg'ulotlari va shu bilan birga – musobaqaga tayyorgarlik yig'inlari rasmiy jihatdan – sport sohasi taraqqiyoti uchun olib borilganligi ko'p bor aytilsa-da, aslida bularni tashkil qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad yuqoridagi ikki sohani rivojlantirish bo'lgan. Shu maqsadda, O'zbekiston SSR 1924-yil oxiri 1925-yil boshlarida ta'sis etilgandan so'ng, tibbiyot va sog'lomlashtirish faoliyatida bir qator ishlar qilina boshlangan . Xususan, jismoniy tarbiya to'garaklarida shug'ullanishni istab hujjat topshirganlarni tegishli tibbiy holatini tekshirish ishlarini yo'lga qo'yish taklifi berilgan. Buning uchun kerak bo'lsa, viloyat va shahar sog'liqni saqlash xodimlarini jalb etish va uning natijasida ishtirokchilarni tibbiy ko'rikdan o'tmay turib

to'garak mashg'ulotlariga birortasini ham qo'ymaslik kerakligi uqtirilgan.

O'zbekiston SSR MIQ Jismoniy tarbiya Oliy kengashi O'quv-texnik qo'mitasining 1925-yilgi rejasi dasturiga – tashkiliy-texnik hamda targ'ibot-tashviqot yo'nalishlari kiritilgan bo'lib, bu yo'nalishlarda bajarilishi lozim bo'lgan bir qator vazifa va topshiriqlar belgilangan. Ulardan biri, jismoniy tarbiya bo'yicha musobaqa va mashg'ulotlarda tibbiy nazorat ishlarini kuchaytirish edi. Oliy Kengashdan tashqari, viloyat va okrug kengashlarida ham jismoniy tarbiya to'garak va musobaqalarida muntazam tibbiy nazoratni ta'minlash ishlari olib borilgan. Jumladan, 1925-yil 14-fevralda Toshkent viloyati jismoniy tarbiya kengashining navbatdagi yig'ilishida ko'rib chiqilgan asosiy masala, bu shu vaqtgacha jismoniy tarbiya va sog'liqni saqlash sohalari hamjihatlikda faoliyat olib bormaganligi holati bo'yicha edi. Mazkur viloyat mas'ul xodimi Sabrodin fikr bildirib, sovet tibbiyoti bo'yicha, bemor bo'lganlarni davolash usullari bilan emas, balki ularni jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga jalb etish orqali davolash lozimligini hamda quyi bo'g'inglarda ishlovchi tibbiyot xodimlari ham jismoniy tarbiya faoliyatida tibbiy nazoratning bo'lishi muhim ahamiyat kasb etishini anglashi kerakligini aytib o'tgan. Buning uchun, Toshkent viloyati jismoniy tarbiya kengashi Tibbiy-ilmiy ko'rik va nazorat muassasasi shifokorlarini talab qilinadigan inventarlar bilan ta'minlab, tibbiy-seksiya masalasi bo'yicha ishlarni jadallashtirish kerakligini hamda jismoniy tarbiya bo'yicha laboratoriyaga mablag' o'ta zarurligini ta'kidlagan.

1925-yil ortda qolgach, O'zbekiston SSR Jismoniy tarbiya Oliy kengashi, mazkur yilda amalga oshirgan ishlari bo'yicha bayonot bergan. Bayonot matnida, bu davrda Oliy Kengashdan tashqari sport ishlari bo'yicha LKSM tashkiloti ham faoliyat yuritganligi keltirilgan. Xususan, jismoniy tarbiya harakatini yanada ommalashtirish maqsadida, LKSM huzuridagi Zarafshon okrug jismoniy tarbiya kengashi tomonidan 1926-yil 7 – 14-iyul kunlari “Jismoniy tarbiya haftaligi” o'tkazish rejasi ishlab chiqilgan. Reja dasturiga jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyatini ko'rsatuvchi materiallar kiritilgan. Mazkur materiallarda bir muhim masalaga e'tibor qaratilgan. Aniqrog'i, ishchi qatlam vakillari sog'lig'ini yaxshilash juda muhim vazifa hisoblanishi ta'kidlangan. Buning sababi bor bo'lib, bu orqali sovet hokimiyati samarali mehnat qiladigan kadrni yetishtirgan bo'lar edi.

Respublikada shifokor faoliyatini, ayniqsa jismoniy tarbiya va sport tadbirlarida va to'garak mashg'ulotlarida samarali yo'lga qo'yish maqsadida, O'zbekiston SSRda 1926 yilda jismoniy tarbiya sohasi shifokori uchun maxsus yo'riqnoma ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, Turkiston o'lkasida dastlab profilaktik tibbiyot (meditsina) mustaqil soha sifatida bolalar va ishchi o'smirlar sog'lig'ini himoya qilishi 1917 yil o'rtalarida boshlangan. Boshqa joylarda bu bo'lim faoliyati ona va bolani himoya qilish bo'limi bilan to'liq birlashtirilgan. Shifokorning asosiy vazifalaridan biri, bu tez-tez bo'lib turadigan urush va ochlikning og'ir sharoitlari hamda ishlab chiqarish sohasi bosimlari sababli ishchi qatlam ommasi sog'lig'ini muntazam tibbiy jihatdan kuzatib borish bo'lgan edi.

Bu omillar Sog'liqni saqlash va Maorif Xalq Komissarligi oldiga – o'sib kelayotgan avlodni ham aqliy, ham jismoniy mehnat salohiyatini oshirish uchun jismoniy tarbiyani keng ko'lamda yoyish vazifasini qo'ygan. Ayniqsa, maktab, klublarda jismoniy mehnat yuklamasining ozligi sababli sog'lig'i nisbatan yomonlashib borayotgan o'smir ishchi qatlam ommasi orasida jismoniy tarbiyani yoyishga ko'proq urg'u berilgan. Shuningdek, shifokor va yo'riqchi birgalikda mashg'ulotlarda shug'ullanuvchi har bir ishtirokchining individual xususiyatini inobatga olgan holda, qiyinlik darajasiga qarab mashqlarni toifalashtirishi zarurligi uqtirilgan. Shu bilan birga, shifokor – yoshlarning erta bolalikdan jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishni boshlagan davridan tibbiy-pedagogik ko'rikni olib borishga majburligi, bunga sabab har bir inson individual xususiyatga ega ekanligi ta'kidlangan. 1917-yilgi inqilobgacha bo'lgan davrda jismoniy tarbiya sohasi o'z faoliyati davomida faqat mushaklarni rivojlantirishga urg'u qaratgan bo'lsa, sovet davlati tuzilgach, bu soha inson butun tanasi bir xil tarzda gormonal rivojlanishiga e'tibor qarata boshlagan.

1928-yil 7-mayda Toshkent viloyati singari Surxondaryoda ham tibbiy nazorat ishlarini

jismoniy harakatlarga keng joriy etilish holati tahlil qilingan bo‘lib, unga ko‘ra Termiz va Hisor hududidagi tibbiy ko‘riklarning jismoniy tarbiya to‘garaklarida va musobaqalarda joriy etilganlik holati yetarli darajada emasligi aniqlangan. Oliy Kengash quyi tashkilotlarga ko‘rsatma sifatida, nafaqat to‘garaklar va kichik tadbirlarda tibbiy nazoratni keng joriy etishni buyurgan, balki shu bilan birga katta-katta spartakiadalarda ham bu ishlarni bajarish kerakligini ta’kidlagan. Jumladan, 1929-yil 25-iyuldagi Oliy Kengash huzuridagi yig‘ilishda Butunot‘zbek pionerlari spartakiadasini o‘tkazish va unda shifokor nazoratini joriy etish bo‘yicha fikr almashilgan. Pionerlar spartakiadasida shifokor nazorati ishlari Smolenskiy (shifokor)ga yuklatilgan.

1929-yilda yana bir katta musobaqa – Butunittifoq pionerlar yig‘in (musobaqa)i o‘tkazilgan edi. Unda tibbiy-nazoratni olib borish bo‘yicha Nizom ham chiqarilgan. Unga ko‘ra, maxsus tibbiy-nazorat komissiyasi tuzilib, ularga quyidagi vazifalar belgilangan:

a) mazkur musobaqa ishtirokchilarining tibbiy kartochkasini tekshirish hamda bu kartochkalar mavjud bo‘lmaganlarni musobaqaga qo‘ymaslik;

b) sog‘lig‘i yomonlashayotgan (sport jarohatini olgan, sog‘lig‘i bilan muammosi borlar) ishtirokchilarni tez tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va davolash ishlarini yo‘lga qo‘yish;

v) musobaqa vaqtida sodir bo‘ladigan ko‘ngilsiz holatlarda yaqin hududda joylashgan milliy sog‘liqni saqlash bo‘limlarining tibbiy yordam ko‘rsatishini tashkil etish;

Shuningdek, okrug jismoniy tarbiya kengashlari zimmasiga jismoniy tarbiya ishlari ustidan tibbiy-pedagogik nazoratni o‘rnatish hamda jismoniy mashg‘ulotlar natijalari bo‘yicha muntazam ilmiy kuzatuv tahlilini o‘tkazish vazifalari yuklatilgan.

Yuqorida qayd etilgan Ishlab chiqarish rejasi (1929-1930)ning 26-punkti jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchilar orasida tibbiy ko‘rikni o‘tkazish va bu ko‘rik natijasida ularning jismoniy holati bo‘yicha yakuniy xulosa tayyorlash bo‘yicha edi. Oliy Kengash, bu uchun respublika to‘garak va musobaqalari ishtirokchilari tibbiy nazoratini olib boruvchi maxsus Respublika biometrik kabinetini tuzish kerakligini ta’kidlagan. Keyingi yillarda ham yuqoridagi kabi spartakiadalar o‘tkazib borilgan. Jumladan, Butunittifoq Kasaba uyushmalari Markaziy kengashi tomonidan 1932-yilda o‘tkazilgan 1-Butunittifoq Kasaba uyushmalari spartakiadasi bunga misoldir. 1933-yilda esa Butunittifoq Kasaba uyushmalari Markaziy kengashi tomonidan Yozgi fabrika-zavodlararo Spartakiada o‘tkazilgan. Unda musobaqa avvalida, har bir musobaqa ishtirokchisi tibbiy ko‘rikdan o‘tishi majburiy etib belgilangan edi. Biroq, birinchi marta bunday musobaqalarda qatnashayotganlarning bu ko‘rik sababli qatnashish fikridan qaytib qolmasligi uchun, bu kabi musobaqalarda muntazam qatnashib kelayotganlar uchungina majburiy tibbiy ko‘rik belgilangan.

Navbatdagi musobaqa 1934-yilda Antipov sharafiga O‘rta Osiyo hududi bo‘ylab o‘tkazilgan Butunittifoq velo-moto estafetasi bo‘lib, unda qatnashuvchi har bir ishtirokchi majburiy ravishda tibbiy-tekshiruvdan o‘tishi belgilab o‘tilgan Nizom ham chiqarilgan. Ushbu yili, mazkur Nizomdan tashqari Jismoniy tarbiya Oliy kengashi, Sog‘liqni saqlash va Maorif Xalq Komissarligi bilan birgalikda “Bolalar va o‘smirlar orasida yozgi jismoniy-sog‘lomlashtirish ishlariga tayyorgarlik bo‘yicha” maxsus yo‘riqnoma ishlab chiqilgan. Unda, qilinishi kerak bo‘lgan quyidagi vazifalar belgilangan:

1) Ayniqsa, bolalar orasida barcha sport ishlarini faqat shifokor ruxsati bilan olib borish, futbol va suvga sakrash sporti bo‘yicha rasmiy bellashuvlarga faqat 14 yoshdan kattalarni, o‘rtoqlik uchrashuvlariga 12 yoshdan kattalarni bevosita tibbiy va pedagogik tekshiruv asosida hamda Oliy Kengash qonunlariga qat‘iy amal qilgan holda qatnashishiga ruxsat berish;

2) Maktab shifokorining tekshiruv natijasida bolalar sog‘lig‘i holati bo‘yicha qaysi bir sport turi bilan shug‘ullanish mumkinligiga aniqlik kiritish;

3) Har bir ishtirokchilar uchun o‘quv kartochkasi yuritish va unda barcha sport natijalarni hamda shifokorning ularga bildirgan e‘tirozlarini qayd etib borish;

4) Sog‘liqni saqlash organlari bilan birgalikda, bolalar va o‘smirlar ustidan tibbiy nazorat olib boruvchi shifokorlar uchun maxsus yig‘ilishni tashkil etib borish hamda bu yig‘ilishlarda

bolalar, sport bilan shug'ullanuvchilar ustidan muntazam nazorat olib borish, shuningdek, sport mashg'ulotlari va sport o'yinlari o'tkazilish chog'ida ham tibbiy kuzatuvni joriy etish.

Shundan so'ng bu ishlarga ko'p mablag' ajratila boshlangan va ular tub yerli aholiga maxsus jismoniy tarbiya to'garaklari tashkil etishga va musobaqalar o'tkazishga yo'naltirilgan. Bu kabi to'garak mashg'ulotlari orqali aholining mehnat qilish qobiliyati osha boshlagan. Xususan, 1925-yildan boshlab sovet davlati tomonidan ishchi qatlamning maishiy hayotini yaxshilash va kasbiy kasalliklarga qarshi kurashish uchun – dam olish uylari, kurortlar, dispanser, stadion va sport maydonchalar qurishga katta mablag' ajratila boshlagan. Bundan tashqari, o'sha vaqtda jismoniy tarbiya oldida turgan navbatdagi vazifa bu mehnatkash aholi jismoniy harakatini chuqur shakllantirish orqali keng yoyish va qishloqlarda bu harakatni mustahkamlash bo'lgan.

O'zbekiston SSRda bu vaqtga kelib, aholi vakillari sog'lig'iga e'tibor kuchaya bordi. Ular sport to'garaklari va musobaqalaridagi tibbiy nazorat ishlariga katta e'tibor qarata boshladi. Sababi, rahbariyat nazdida mehnat unumdorligini oshirish aynan tub yerli ishchi qatlam vakillarining qanchalik ishga yaroqli va sog'lomligiga bog'liq edi. Ularning sog'lig'iga e'tibor berish orqali korxonalar va qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligini oshirishga harakat qilindi. Mehnat faoliyati – ekin ekish, hosil terish, paxta yetishtirish kabi qishloq xo'jaligi ishlarida ishchi qatlam ommasini yanada ko'proq ishlatish maqsadida turli diniy bayram (Ramazon, Navro'z, Pasxa) kunlari ham dam berilmadi. Bunga vaj qilib, mazkur bayramlar sovet davlatida qoralanganligi ko'rsatildi.

Ikkinchi jahon urushida O'zbekiston SSRda, O'rta Osiyo va SSSR miqyosida sport musobaqalar tashkil etilib turildi. Unda zamonaviy va milliy sport turlari o'rin oldi. Musobaqalarni tashkil etishda O'zbekiston SSR Yoshlar ittifoqi qo'mitasi katta rol o'ynadi. Mazkur musobaqa va to'garaklarda asosiy kamchilik sifatida tibbiy nazoratning joriy etilmaganligi bo'ldi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. ЎзМА. Р-86-жамғарма, 1-рўйхат, 5298-йиғмажилд.
2. Фарғона ВДА. 66-жамғарма, 1-рўйхат, 580-йиғмажилд.
3. Фарғона ВДА. 66-жамғарма, 1-рўйхат, 609-йиғмажилд.
4. Фарғона ВДА. 66-жамғарма, 1-рўйхат, 613- йиғмажилд.
5. Самарқанд ВДА. Р-75 жамғарма, 1-рўйхат, 4-йиғмажилд.
6. ЎзМА. Р-86-жамғарма, 1-рўйхат, 3668-йиғмажилд.
7. Ўзбекистон РПАА. 77-жамғарма, 1-рўйхат, 184-йиғмажилд.
8. Ўзбекистон РПАА. 15-жамғарма, 25-рўйхат, 292-йиғмажилд.
9. ЎзМА. Р-86-жамғарма, 1-рўйхат, 5973-йиғмажилд.
10. Ўзбекистон РПАА. 15-жамғарма, 25-рўйхат, 1521-йиғмажилд.
11. ЎзМА. Р-94-жамғарма, 5-рўйхат, 521-йиғмажилд.
12. ЎзМА. Р-737-жамғарма, 1-рўйхат, 344-йиғмажилд.
13. ЎзМА. Р-737-жамғарма, 1-рўйхат, 369-йиғмажилд.
14. ЎзМА. Р-737-жамғарма, 1-рўйхат, 459-йиғмажилд.
15. ЎзМА. Р-737-жамғарма, 1-рўйхат, 1713-йиғмажилд.
16. ЎзМА. Р-737-жамғарма, 1-рўйхат, 2223-йиғмажилд.

**YANGI O‘ZBEKISTONDA ANTROPOLOGIYA FANINING RIVOJI VA ILMIY
HAMKORLIK ISTIQBOLLARI**

Sulaymanov Amaliddin Nurboyevich
Guliston davlat universiteti, “Tarix” kafedrası dotsenti
<https://orcid.org/0009-0001-3174-0533>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida antropologiya fanining rivojlanish jarayonlari, uning ilmiy va tashkiliy asoslari hamda istiqbolli yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mamlakatdagi yetakchi oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy markazlarda antropologiya va etnologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, ekspeditsiyalar hamda ilmiy hamkorlik masalalari yoritiladi. Shuningdek, o‘zbek olimlari tomonidan Markaziy Osiyo xalqlarining antropologiyasi, etnogenezi va etnik tarixini o‘rganishga qo‘shilgan ilmiy hissalar tahlil qilinadi. Maqolada T.K. Xodjayov, A. Asqarov, K. Shoniyozov kabi olimlarning tadqiqotlari asosida mintaqa aholisi antropologiyasiga oid ilmiy natijalar va xulosalar ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti hamda yirik universitetlar qoshida faoliyat yuritayotgan ilmiy markazlarning antropologiya fanini rivojlantirishdagi o‘rni ochib beriladi. Tadqiqot natijasida Yangi O‘zbekistonda antropologiya fanining rivoji, ilmiy kadrlar tayyorlash tizimi hamda xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish istiqbollari muhim ahamiyat kasb etishi asoslab beriladi.

Kalitso‘zlar: Yangi O‘zbekiston, antropologiya, etnologiya, Markaziy Osiyo xalqlari, etnogenez, etnik tarix, antropologik tadqiqotlar, ilmiy ekspeditsiyalar, ilmiy hamkorlik, antropologik maktab, ilmiy markazlar, antropologiya istiqbollari.

**РАЗВИТИЕ АНТРОПОЛОГИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ НАУЧНОГО
СОТРУДНИЧЕСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ**

Сулейманов Амалиддин Нурбоевич
Гулистанский государственный университет, доцент кафедры «История»

Аннотация: В данной статье анализируются процессы развития науки антропологии в условиях Нового Узбекистана, её научно-организационные основы и перспективные направления. Рассматриваются вопросы научно-исследовательской работы, экспедиций и научного сотрудничества в области антропологии и этнологии, проводимых в ведущих высших учебных заведениях и научных центрах страны. Также анализируются научные достижения узбекских учёных в изучении антропологии, этногенеза и этнической истории народов Центральной Азии. В статье рассматриваются научные результаты и выводы по антропологии населения региона, основанные на исследованиях таких учёных, как Т.К. Ходжаев, А. Аскарров, К. Шонёзов. Кроме того, раскрывается роль Института истории Академии наук Узбекистана и научных центров, действующих при ведущих университетах, в развитии науки антропологии. Обосновывается важность развития науки антропологии в Новом Узбекистане, система подготовки научных кадров и перспективы расширения международного научного сотрудничества.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, антропология, этнология, народы Центральной Азии, этногенез, этническая история, антропологические исследования, научные экспедиции, научное сотрудничество, антропологическая школа, научные центры, перспективы антропологии.

DEVELOPMENT OF ANTHROPOLOGY AND PROSPECTS OF SCIENTIFIC COOPERATION IN NEW UZBEKISTAN

Sulaymanov Amaliddin Nurboyevich

Gulistan State University, Associate Professor of the Department of "History"

Abstract: This article analyzes the development processes of the science of anthropology in the conditions of New Uzbekistan, its scientific and organizational foundations and promising directions. The study covers the issues of scientific research, expeditions and scientific cooperation in the field of anthropology and ethnology conducted in leading higher educational institutions and scientific centers of the country. It also analyzes the scientific contributions made by Uzbek scientists to the study of anthropology, ethnogenesis and ethnic history of the peoples of Central Asia. The article considers scientific results and conclusions on the anthropology of the population of the region based on the research of scientists such as T.K. Khodjayev, A. Askarov, K. Shoniyozov. In addition, the role of the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan and scientific centers operating at major universities in the development of the science of anthropology is revealed. As a result of the study, it is substantiated that the development of the science of anthropology in New Uzbekistan, the system of training scientific personnel and the prospects for expanding international scientific cooperation are of great importance.

Keywords: New Uzbekistan, anthropology, ethnology, peoples of Central Asia, ethnogenesis, ethnic history, anthropological research, scientific expeditions, scientific cooperation, anthropological school, scientific centers, perspectives of anthropology.

Kirish (Introduction). Yangi O'zbekistonda antropologiya faniga e'tibor, Respublikaning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida Antropologiya kafedralarining, ilmiy tadqiqot institutlari qoshida markazlarning tashkil etilganligi va mutaxassis-kadrlar tayyorlashga alohida ahamiyat berilganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek bu davr ichida mintaqa xalqlari tarixini o'rganishda ko'plab etnografik ma'lumotlardan keng foydalanish, O'zbekiston tarixi fani fidoiy olimlarining tadqiqotlari natijalari asosida o'zbek va mintaqaning boshqa xalqlari etnik tarixiga oid yangi ma'lumotlarning dunyo yuzini ko'rishi, yosh tadqiqotchi-olimlarning turli davrlarga oid antropologik manbalarni ilmiy tahlil qilishga kirishishlari, bunda xorijiy manbalardan keng foydalanilishi bilan ajralib turadi.

Bunda yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan O'zbekiston milliy universitetida, "Antropologiya va etnologiya" kafedrasini yangidan tashkil etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Antropologiya va etnologiya fanining rivojlanishi hamda Markaziy Osiyo xalqlarining antropologik xususiyatlarini o'rganish masalalari ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Xususan, akademik A. Asqarovning ilmiy ishlari o'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o'rganishda antropologik, arxeologik va etnografik manbalarni kompleks tarzda tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Olim etnogenez jarayonlarini tadqiq etishda turli fanlar yutuqlaridan foydalanish muhim ilmiy natijalarga olib kelishini ta'kidlaydi.

Akademik K. Shoniyozovning tadqiqotlari esa o'zbek xalqining shakllanish jarayoni, etnik tarkibi hamda tarixiy taraqqiyotini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Uning asarlarida antropologik va etnografik materiallarga tayangan holda o'zbek xalqining etnik tarixi ilmiy asosda yoritib berilgan. Shuningdek, T.K. Xodjayev tomonidan olib borilgan paleoantropologik va kraniologik tadqiqotlar Markaziy Osiyo aholisi antropologiyasini o'rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Uning ilmiy ishlari mintaqa aholisi antropologik tarkibi va tarixiy rivojlanish jarayonlarini tadqiq etishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tarixiylik, tizimlilik va qiyosiy tahlil tamoyillariga asoslangan ilmiy metodlardan

foydalanildi. Avvalo, antropologiya fanining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini o‘rganishda tarixiy-tahliliy metod qo‘llanilib, O‘zbekistonda olib borilgan antropologik tadqiqotlar hamda ilmiy izlanishlar mazmuni o‘rganildi.

Tadqiqot davomida antropologiya, etnologiya va tarix fanlariga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar hamda maqolalar manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Shuningdek, mintaqa xalqlarining antropologiyasi va etnik tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar qiyosiy usulda o‘rganilib, ularning ilmiy xulosalari umumlashtirildi.

Bundan tashqari, antropologik va etnografik manbalar, ilmiy ekspeditsiyalar natijalari hamda zamonaviy tadqiqot materiallari tahlil qilinib, ular asosida O‘zbekistonda antropologiya fanining rivojlanish yo‘nalishlari va istiqbollari ilmiy jihatdan baholandi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bugungi kunda “Antropologiya va etnologiya” kafedra O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti huzuridagi “Etnologiya va antropologiya” markazi hamda O‘zMU qoshidagi “Amaliy etnologiya” laboratoriyasi bilan hamkorlikda faoliyat olib bormoqda. Kafedra a‘zolari tomonidan qator darsliklar va ilmiy monografiyalar tayyorlanmoqda.

Tadqiqotlarda dunyo xalqlarining etnologik tavsifi, antropologik va lingvistik klassifikatsiyasi, xo‘jalik-madaniy tiplari, moddiy va ma‘naviy madaniyati, an‘anaviy turmush tarzi hamda diniy e‘tiqodlari o‘rganilmoqda. Shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlarining etnogenezi, etnik tarixi, xo‘jaligi va madaniyatiga oid nazariy masalalar tahlil qilinmoqda.

Bundan tashqari, tarixiy antropologiya, etnologik ekspeditsiyalarni tashkil etish usullari, antropologiya va etnologiyaning shakllanish bosqichlari, dala materiallaridan foydalanish hamda antropologik va arxeologik manbalarni ilmiy jihatdan o‘rganish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, antropogenez, antropologik davrlashtirish va mintaqa xalqlarining antropologik hamda lingvistik tasnifiga oid tadqiqotlar ham davom ettirilmoqda.

O‘zbekiston va unga tutash hududlarda antropologik materiallarning ko‘pligi mintaqaga bo‘lgan ilmiy qiziqishning ortishiga sabab bo‘ldi. Bu holat Rossiya Fanlar akademiyasi qoshidagi Mixluko-Maklay nomidagi Antropologiya va etnologiya institutida faoliyat yuritayotgan o‘zbek antropolog olimi T.K. Xodjayovning ham e‘tiborini tortdi.

O‘zbekistonlik antropolog, arxeolog va etnograf olimlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan ekspeditsiyalar natijasida 2007–2016-yillarda antropologiya fani yangi ilmiy ma‘lumotlar bilan boyidi. Jumladan, kraniologiya yo‘nalishiga oid O‘rta Osiyo paleoantropologiyasi bo‘yicha muhim tadqiqotlar amalga oshirildi.

T.K. Xodjayovning 2007-yilda chop etilgan “Население поздней феодальной Бухары” monografiyasida Buxoro va uning atrofidagi 13 ta qo‘rg‘ondan topilgan so‘nggi o‘rta asrlarga oid kraniologik hamda paleodemografik materiallar ilmiy tahlil qilindi. Shuningdek, Buxoro o‘rta asrlar aholisi odontologiyasiga oid ma‘lumotlar G.K. Xodjayova tomonidan o‘rganildi. Tadqiqotlarda qo‘lga kiritilgan materiallar zamonaviy antropologik o‘lchov usullari asosida tahlil qilindi.

Mazkur davr O‘zbekiston va Rossiya antropolog, arxeolog hamda etnograf olimlari o‘rtasidagi ilmiy hamkorlikning rivojlanishi bilan ham xarakterlanadi. 2008-yilda antropolog T.K. Xodjayov Qoraqalpog‘iston arxeologi M.M. Mambetulaev bilan hamkorlikda Qoraqalpog‘iston va Xorazm vohasidagi o‘rta asrlar arxeologik yodgorliklariga oid materiallarni o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlarni davom ettirdi [Ходжаёв Т.К., Мамбетулаев М.М., 2008, С. 432].

2009-yilda T.K. Xodjayov va A.V. Gromov tomonidan Markaziy Osiyo xalqlarining etnik tarkibi, tarixiy taraqqiyoti va antropologik xususiyatlariga bag‘ishlangan monografiya nashr etildi [Ходжаёв Т.К., Громов А.В., 2009, С. 351]. 2012-yilda T.K. Xodjayovning “Ko‘hna Termiz (Baqtriya–Toxariston aholisi antropologiyasiga oid)” nomli monografiyasi chop etilib, unda mintaqa aholisining antik davrdan hozirgi kungacha bo‘lgan antropologik shakllanish jarayonlari yoritildi [Ходжаёв Т.К., Мустафакулов И., Ходжайова Г.К., 2012, С. 320].

Antropologik tadqiqotlar qo'shni davlatlar hududlarida ham davom ettirildi. Jumladan, 2016-yilda T.K. Xodjayovning "Историческая антропология Таджикистана" nomli monografiyasi nashr etilib, unda Tojikiston aholisining qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha bo'lgan antropologik qiyofasining shakllanish jarayoni paleoantropologik materiallar asosida tahlil qilindi.

Mazkur davrda O'zbekistonda antropologiya va etnologiya sohasida xorijiy olimlar bilan ilmiy hamkorlikni rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etib, bu borada qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi [Дониёров А.Х, 2022, Б. 4]. O'zbekiston antropologlari mintaqa aholisi antropologiyasi va etnik tarixini o'rganishda arxeolog, etnograf hamda boshqa soha olimlari bilan yaqin hamkorlikda faoliyat olib bordilar.

Shunday olimlardan biri arxeolog R.X. Suleymanov bo'lib, uning Obi-Rahmat yodgorligida olib borgan qazilma ishlari natijasida 2003-yilda XIX asrga oid inson suyak qoldiqlari topildi. Bu topilmalar antropologlar uchun mintaqa aholisi antropologiyasi va etnik tarixini o'rganishda muhim ilmiy materiallar manbai bo'ldi. Shuningdek, akademik A. Asqarov antropolog T.K. Xodjayov bilan hamkorlikda etnogenezi muammolarini kompleks yondashuv asosida o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Olim etnogenezni tadqiq etishda antropologik, arxeologik, etnografik, lingvistik va yozma manbalardan foydalanish muhimligini qayd etadi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, hozirgi o'zbeklar va voha tojiklariga xos "O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipi" miloddan avvalgi I asr oxiri hamda milodiy I asr boshlarida shakllangan [Шониёзов К, 2001, Б. 462].

O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o'rganishda muhim ilmiy hissa qo'shgan olimlardan biri akademik K. Shoniyozov hisoblanadi. U O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix institutida uzoq yillar samarali faoliyat yuritib, o'zbek xalqining kelib chiqishi va shakllanish jarayoniga oid qator fundamental tadqiqotlar olib bordi. Olimning "Узбеки – карлуки", "К этнической истории узбекского народа", "Qang' davlati va qang'lilar", "Qarluq davlati va qarluqlar", "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni" kabi asarlarida o'zbek xalqining etnogenezi antropologik, arxeologik va etnografik materiallar asosida ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, uning etnogenezga oid maqolalari keyinchalik "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni" nomli asarida umumlashtirilgan [Шониёзов К, 2001, Б. 462].

Mazkur davr antropologiya fanida ilmiy kadrlar tayyorlash va tashkiliy islohotlar bilan ham ajralib turadi. Jumladan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti huzurida faoliyat yuritgan "O'zbek xalqi etnografiyasi" hamda "Etnogenezi va etnik tarix" bo'limlari 2020-yildan boshlab "Etnologiya va antropologiya" markazi sifatida faoliyat yuritishni boshladi. Markaz olimlari o'zbek xalqining etnik tarixi, tarixiy etnografiyasi va zamonaviy etnografik jarayonlarni o'rganish bilan bir qatorda etnoekologiya, iqtisodiy antropologiya, shahar antropologiyasi, madaniy va tibbiy antropologiya yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar. Shuningdek, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O'zbekiston milliy universiteti va Fanlar akademiyasi Tarix instituti olimlari hamkorligida Markaziy Osiyo xalqlarining etnik tarixi va antropologiyasiga oid qator ilmiy asarlar yaratilmoqda. Jumladan, A.X. Doniyorov, A. Ashirov va O. Bo'rievlar hammuallifligida chop etilgan "Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi" o'quv qo'llanmasida mintaqa xalqlarining antropologiyasi va til tasnifi yoritilgan [Дониёров А.Х., Бўриев О., Аширов А.А, 2011, Б. 39].

2020-yilda Toshkent davlat sharqshunoslik institutiga universitet maqomi berilishi natijasida Sharq mamlakatlari tarixini chuqur o'rganish uchun yangi ilmiy imkoniyatlar yaratildi. Shu asosda "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" hamda "Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va tarixshunosligi" kabi kafedralar tashkil etilib, mintaqa xalqlarining etnogenezi va tarixini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yanada kengaytirildi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, o'zbek antropolog olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida O'zbekiston hamda qo'shni davlatlar – Turkmaniston, Tojikiston, Qozog'iston va Qirg'iziston hududlarida yashagan xalqlarning antropologiyasi va etnik tarixiga oid muhim ilmiy asarlar yaratildi. Shuningdek, O'zbekistonning

yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy institutlarida Sharq mamlakatlari va Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, etnik hamda antropologik tarixiga oid tadqiqotlar olib borilib, ushbu yo'nalishlarda malakali mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Natijada mamlakatda sharqshunoslik, etnografiya va antropologiya sohalari bo'yicha ilmiy maktablar shakllanib, O'zbekiston ushbu yo'nalishlarda xalqaro ilmiy maydonda munosib o'rin egallab bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Асқаров А.А. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихининг баъзи бир назарий масалалари // Ўзбек халқининг келиб чиқиши: илмий-методологик ёндашувлар, этногенетик ва этник тарих: Республика илмий-назарий семинари материаллари. – Тошкент, 2004. – 19–20 ноябрь. – Б. 8.
2. Дониёров А.Х., Бўриев О., Аширов А.А. Марказий Осиё халқлари этнографияси, этногенези ва этник тарихи: ўқув қўлланма. – Тошкент: Янги нашр, 2011. – 316 б. – Б. 39.
3. Дониёров А.Х. Ўзбекистон этнологияси тарихшунослигининг бугунги ҳолати ҳақида баъзи мулоҳазалар // Oriental Journal of Social Sciences. – 2022. – Б. 4.
4. Ходжаёв Т.К., Мамбетулаев М.М. Средневековый некрополь Куюккала. – М.: ЭКОСТ, 2008. – 432 с.
5. Ходжаёв Т.К., Громов А.В. Палеодемография Средней Азии. – М.: ИЭА РАН, 2009. – 351 с.
6. Ходжаёв Т.К., Мустафакулов И., Ходжайова Г.К. Старый Термез (К антропологии населения Бактрии-Тохаристана). – Актобе, 2012. – 320 с.
7. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 462 б.

1925–1991 YILLARDA O‘ZSSRDA PEDAGOGIK KADRLAR TAYYORLASH HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Abdihakurov Bobomurod Faxriddin o‘g‘li,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 1-bosqich magistranti
ORCID: 0009-0007-0323-3618

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1925–1991 yillarda O‘zbekiston SSRda pedagogik kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishi va evolyutsiyasi tarixiy manbalar hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda sovet ma‘muriy-mafkuraviy siyosatining ta‘lim tizimi tashkiloti va o‘qituvchilar salohiyatiga ta‘siri, 1933-yilgi “kadrlarni tozalash” kampaniyasining oqibatlarini, pedagoglarning moddiy ahvoli va oliy ta‘lim tizimidagi institutsional muammolar kompleks yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining tashkil topishi, ilmiy muassasalar faoliyatining ta‘lim sifatiga ta‘siri tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: pedagogik kadrlar, Sovet ta‘lim siyosati, mahalliy akademiklar, Rabpros, moddiy ta‘minot, siyosiy tozalashlar (1933), O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, oliy ta‘lim tizimi, pedagoglar yetishmovchiligi, mafkuraviy nazorat, mehnat-ta‘lim integratsiyasi, Finlandiya ta‘lim modeli

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ПОДГОТОВКЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ В УЗССР В 1925–1991 ГОДАХ

Абдишукуров Бобомурод Фахриддин угли
магистрант 1 курса Чирчикского государственного педагогического университета

Аннотация: В данной статье на основе исторических источников и современных научных исследований анализируются становление и эволюция системы подготовки педагогических кадров в Узбекской ССР в 1925–1991 годах. В исследовании комплексно освещены влияние советской административно-идеологической политики на организацию системы образования и потенциал учителей, последствия кампании «очистки кадров» 1933 года, материальное положение педагогов, а также институциональные проблемы системы высшего образования. Кроме того, проанализировано создание Академии наук Узбекистана и влияние деятельности научных учреждений на качество образования.

Ключевые слова: педагогические кадры, советская образовательная политика, местные академики, Рабпрос, материальное обеспечение, политические чистки (1933), Академия наук Узбекистана, система высшего образования, нехватка педагогов, идеологический контроль, интеграция труда и образования, финская модель образования.

SOME REFLECTIONS ON THE TRAINING OF PEDAGOGICAL PERSONNEL IN THE UZBEK SSR (1925–1991)

Abdihakurov Bobomurod Faxriddin o‘g‘li,
1st-year Master’s student, Chirchik State Pedagogical University

Abstract: This article analyzes the formation and evolution of the system of training pedagogical personnel in the Uzbek SSR during 1925–1991 based on historical sources and modern scientific studies. The research comprehensively examines the influence of Soviet administrative and ideological policies on the organization of the education system and the professional capacity of teachers, the consequences of the 1933 “purge of personnel” campaign, the material conditions of teachers, and institutional problems within the higher education system. In addition, the establishment of the Academy of Sciences of Uzbekistan and the impact of scientific institutions on the quality of education are analyzed.

Keywords: pedagogical personnel, Soviet education policy, local academics, Rabpros, material

support, political purges (1933), Academy of Sciences of Uzbekistan, higher education system, shortage of teachers, ideological control, labor–education integration, Finnish education model.

Kirish. XX asrning 20–90-yillari O‘zbekiston ta’lim tarixida tub modernizatsiya, ma’rifiy siyosatning mafkuraviylashtirilishi va mahalliy pedagog kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Sovet Ittifoqi tomonidan ilgari surilgan “yangi sotsialistik jamiyat qurish” g‘oyasi ta’lim tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqishni, yangi institutlar, kadrlash siyosati va ideologik tarbiya mexanizmlarini joriy etishni talab qildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mazkur mavzu bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar bir necha yo‘nalishda shakllangan. Ş. Akyıldız (2022) Sovet O‘zbekistonida mahalliy akademiklarni tayyorlash siyosatini tahlil qilib, kadrlar shakllanish jarayonining mafkuraviy asoslarini ochib beradi. S. Fitzpatrick (1979) esa 1920–1930-yillardagi ta’lim tizimining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va pedagoglarning moddiy ahvoli bo‘yicha fundamental xulosalarni keltiradi.

Mahalliy mualliflar K. Hashimov va S. Nishonova (2005) O‘zbekiston ta’lim tarixidagi asosiy bosqichlar, pedagogik jarayonlar va mahalliy kadrlar siyosatini yoritadi. Shuningdek, Sh. Mardonov va U. Zokirova (2021) oliy ta’lim tizimining shakllanishi va pedagogik nazariya rivojini tahlil qiladi. Xorijiy tadqiqotchilar

M. J. Madalińska-Michalak va N. Misirova (2020) O‘zbekiston maktab ta’limi rivojining tarixiy omillarini xalqaro kontekstda baholasa, M. Rasulova va X. Toshtemirova (2022) 1917–1991-yillardagi pedagogik fikrlar rivoji va mafkuraviy ta’sirlarni tizimli yoritadi. Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar mavzuning muhim jihatlarini yoritgan bo‘lsa-da, ularning aksariyati masalani alohida bosqichlar yoki mavzu bo‘yicha o‘rgangan. Mazkur maqolaning yangiligi ushbu tadqiqotlarni kompleks ravishda solishtirib, 1925–1991-yillardagi pedagog kadrlar siyosatini yaxlit tahlil qilish va Finlandiya tajribasi bilan bog‘lab qayta baholashidan iborat.

Asosiy qism. Shu munosabat bilan 1925–1991 yillarda O‘zSSRda pedagog kadrlar tayyorlash jarayonining real holatini, davlat siyosati ta’sirini, mahalliy o‘qituvchilarning shakllanish jarayonini mahalliy va xorijiy manbalar asosida tahlil qilish zarur. Mazkur ilmiy maqola aynan shu tarixiy davrning ijtimoiy-siyosiy kontekstida pedagogik kadrlar masalasini qayta ko‘rib chiqadi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston hududida ta’lim tizimini tubdan qayta tashkil etish jarayoni boshlandi. Şevket Akyıldızning ta’kidlashicha, mahalliy akademik kadrlarni noldan shakllantirish jarayoni deyarli uch yarim o‘n yillikka 1924 yildan 1960 yilgacha cho‘zilgan bo‘lib, bu Sovet ma’muriy-siyosiy modelining mintaqadagi asosiy vazifalaridan biri sifatida ko‘rilgan (Akyıldız, 2022, pp. 5–6). Tadqiqotchi fikriga ko‘ra, mahalliy aholining an’anaviy ijtimoiy tuzumi va maorif tizimi zamonaviy yevropacha bilim va akademik tayyorgarlik talablariga mos kelmagani bois, sovetlashtirish jarayoni dastlab murakkab kechgan.

Sovet hokimiyati tomonidan jamiyatning ma’rifiy poydevorini yangilash va “yangi sotsialistik shaxs”ni tarbiyalash asosiy siyosiy vazifa sifatida belgilandi. Ta’lim tizimi ushbu maqsadni amalga oshirishda bosh vosita sifatida qaralib, yangi maktablar, texnikumlar, pedagogik bilim yurtlari va institutlar barpo etildi. Bu muassasalar orqali aholining savodxonligini oshirish, iqtisodiyot uchun zarur kadrlar tayyorlash va eng muhimi, sovet mafkurasini mustahkamlash ko‘zda tutilgan edi.

Shu tariqa, ta’lim tizimi faqat bilim beruvchi mexanizm emas, balki Sovet davlatining ijtimoiy-siyosiy strategiyasini amalga oshiruvchi kuchli ideologik institutga aylandi.

1920-yillar Sovet ta’lim tizimi uchun keskin iqtisodiy sinov yillari bo‘lib, o‘qituvchilarning moddiy ahvoli bu davrning eng og‘riqli masalalaridan biri sifatida namoyon bo‘lgan. Sheila Fitzpatrickning tadqiqotlari ushbu davrda pedagoglarning ijtimoiy-iqtisodiy holati qanchalik nochor bo‘lganini aniq ko‘rsatadi. 1924-yilda boshlang‘ich hamda o‘rta maktablarda faoliyat yuritgan o‘qituvchilarning maoshi oyiga o‘rtacha 30 rubl atrofida bo‘lib, bu miqdor urushgacha bo‘lgan davrdagi eng past ko‘rsatkichlardan ham past edi (Fitzpatrick, 1979, p. 44). Oradan to‘rt yil o‘tib, 1928-yilda ham vaziyat sezilarli darajada o‘zgarmagan: boshlang‘ich maktab o‘qituvchilari

avvalgi davrdagi maoshning atigi 66 foizini olishda davom etgan (Fitzpatrick, 1979, p. 47). Bunday iqtisodiy cheklolvar nafaqat o'qituvchilarning kundalik turmushi, balki kasbning obro'si va jamiyatdagi o'rniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Moddiy ta'minotning pastligi Sovet hokimiyatining ta'limni kengaytirish bo'yicha ulkan rejalari bilan mutanosib emas edi. Aholining savodxonligini oshirish, yangi maktablar ochish va ta'lim tizimini kengaytirish borasidagi siyosiy topshiriqlar kuchaygan bir paytda o'qituvchilarning mehnati yetarlicha qadrlanmasligi kasbning jozibadorligini pasaytirdi. Natijada o'qituvchilik kasbiga kiruvchilar soni kamaydi, mavjud pedagoglar esa og'ir iqtisodiy sharoitlarga moslashishga majbur bo'ldilar.

Shu tariqa, 1920-yillardagi moliyaviy inqiroz pedagogik tizimning sifat ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatib, Sovet davlatining ta'lim sohasidagi maqsadlariga erishishni sezilarli darajada murakkablashtirdi.

1933-yilda VKP(b) Markaziy Qo'mitasining O'rta Osiyo byurosi tomonidan qabul qilingan "o'qituvchi kadrlar safini tozalash"ga oid qaror Sovet ta'lim siyosatining eng keskin repressiv bosqichlaridan biri sifatida tarixda muhrlangan. Mazkur siyosatning maqsadi maktablarda faoliyat yuritayotgan pedagoglarni mafkuraviy jihatdan tekshirish, "ishonchsiz", "reaksion", "sinfi yot" deb baholangan shaxslarni ta'lim tizimidan chiqarib tashlashdan iborat edi. Qaror ijrosi qisqa vaqt ichida keng ko'lamli kampaniyaga aylanib, mavjud 700 o'qituvchidan atigi 120 nafari o'z lavozimida qolishga "loyiq" deb topilgan (Hashimov & Nishonova, 2005, pp. 238–240).

Bu jarayon ta'lim tizimiga bir nechta salbiy oqibatlar keltirib chiqardi. Eng avvalo, o'qituvchilar safini keskin qisqartirish natijasida pedagoglar yetishmovchiligi yanada chuqurlashdi. Maktablarda malakali mutaxassislar sonining kamayishi o'quv jarayonining sifati va barqarorligiga bevosita zarar yetkazdi. Shuningdek, bunday repressiv amaliyot ta'lim muassasalarida siyosiy qo'rquv muhitining kuchayishiga, o'qituvchilarning faoliyatini doimiy mafkuraviy nazorat ostida davom ettirishiga sabab bo'ldi. Bu holat nafaqat kasbiy erkinlikni chekladi, balki pedagogik tashabbus, yangicha yondashuv va mustaqil fikrlash imkoniyatlarini ham keskin chegaraladi.

Natijada, 1933-yilgi "tozalash" faqatgina bir martalik kampaniya emas, balki mahalliy ziyolilar qatlamining izchil qisqarishiga, ta'lim tizimida intellektual bo'shliqning vujudga kelishiga olib kelgan omil sifatida baholanadi. Uzoq muddatli nuqtai nazardan qaraganda, ushbu jarayon Sovet O'zbekistonida pedagogik kadrlar shakllanishining tabiiy rivoj yo'lini izdan chiqarib, keyingi o'n yilliklarda ham o'qituvchilar yetishmovchiligi va ta'lim sifatidagi muammolarni kuchaytirgan.

1943-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining tashkil topishi respublikaning ilmiy-intellektual taraqqiyotida tub burilish yasagan voqea sifatida baholanadi. Mazkur akademiya nafaqat ilmiy-tadqiqot faoliyatining markazlashuviga, balki milliy ilmiy maktablarning shakllanishiga xizmat qilgan yirik ilmiy institutga aylandi. Uning birinchi prezidenti etib tanlangan T.N. Qori-Niyoziy rahbarligida akademiya qisqa muddat ichida ilmiy salohiyatni tiklash va rivojlantirishga qaratilgan izchil siyosatni yo'lga qo'ydi. Aynan shu davrda respublikada fizika, matematika, geologiya, kimyo, tarix, sharqshunoslik va boshqa sohalarda ilmiy yo'nalishlarning professional institut sifatida shakllanishi tezlashdi.

Ikkinchi jahon urushi sharoitiga qaramay, Fanlar akademiyasi tarkibidagi ilmiy muassasalar faoliyati izchil davom etdi. Turli front shaharlardan, jumladan Moskva, Leningrad, Kiev va Minskdan evakuatsiya qilingan olimlarning O'zbekistonga joylashtirilishi mahalliy ilmiy muhitning jadal rivojlanishiga sezilarli turtki berdi. 1943–1950-yillar oralig'ida 22 ta ilmiy muassasada 818 nafar ilmiy va ilmiy-texnik xodim faoliyat yuritgani respublikaning ilmiy salohiyatini kengaytirish borasida muhim ko'rsatkich bo'ldi (Mardonov & Zokirova, 2021, pp. 118–120). Bunday ilmiy muhit tajriba almashinuvi, kadrlar tayyorlash va yangi ilmiy maktablarning vujudga kelish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirdi.

Shunday qilib, O'zbekiston Fanlar akademiyasining tashkil etilishi respublika ilm-fanning institutsional poydevorini yaratibgina qolmay, keyingi o'n yilliklarda oliy ta'lim va ilmiy kadrlar tayyorlash jarayoniga barqaror asos bo'lib xizmat qildi.

Oliy ta'lim tizimidagi muammolar 1940–1960-yillar davomida O'zbekiston oliy ta'lim tizimi son jihatdan kengayayotgan bo'lsa-da, sifat ko'rsatkichlari bo'yicha bir qator jiddiy muammolarga duch kelgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1958-yilda oliy o'quv yurtlarida taxminan 5 ming nafar professor-o'qituvchi faoliyat yuritgan bo'lsa, 1965-yilga kelib bu ko'rsatkich 8 ming nafarga yetgan. Biroq pedagoglar sonining ortishi ta'lim sifati oshishini ta'minlamagan, aksincha, mavjud tizimdagi strukturaviy kamchiliklar yanada yaqqol ko'zga tashlangan.

Avvalo, oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasi talab darajasida rivojlanmagan edi. Ko'plab institutlarda laboratoriyalar, o'quv jihozlari, tajriba maydonlari va zamonaviy metodik vositalar yetishmasligi o'quv jarayonining amaliy mazmunini cheklab qo'yar edi. Bu esa, ayniqsa, tabiiy fanlar va texnika yo'nalishlaridagi kadrlar tayyorlash sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ikkinchidan, malakali professor-o'qituvchilar yetishmovchiligi tizimning asosiy muammolaridan biri bo'lib qoldi. O'zbekiston o'z ilmiy maktablarini endi shakllantira boshlagan davrda tajribali olimlar sonining kamligi sababli ko'plab fanlar bo'yicha dars berish jarayoni yosh, malakasi yetarli bo'lmagan mutaxassislariga yuklatildi. Bunday holat ilmiy darajali pedagoglarning yuqori ulushini talab qiladigan oliy ta'lim tizimi uchun jiddiy kamchilik edi.

Uchinchidan, 1950–1960-yillarda keng ommalashgan sirtqi va kechki ta'lim shakllari ta'limning ommaviylashuviga xizmat qilgan bo'lsa-da, ular sifat jihatdan muntazam tanqidlarga sabab bo'lgan. Ishlab chiqarishda band bo'lgan tinglovchilar uchun tashkil etilgan bunday shakllar ko'pincha nazariy bilimlarning yuzaki o'zlashtirilishiga, pedagogik jarayonning real natijalar bermasligiga olib kelgan.

1960-yillarga kelib, respublikadagi o'qituvchilarning atigi uchdan bir qismi oliy ma'lumotga ega edi. Bu ko'rsatkich oliy ta'limning umumiy darajasi, kadrlar tayyorlash tizimining salohiyati va maktablarda malakali mutaxassislar yetishmovchiligining davom etayotganini ko'rsatadi. Shunday qilib, son jihatidagi o'sishga qaramay, oliy ta'lim tizimining sifat ko'rsatkichlari murakkab muammolar bilan to'qnashgan va keyingi islohotlar uchun asosiy muammo sifatida shakllangan.

Sovet davrining so'nggi bosqichida pedagog tayyorlash tizimi (1960–1991) Bu davrda ta'lim tizimi mafkuraviy nazorat ostida bo'lib, “sinfiy yondashuv”, “kommunistik tarbiya”, “mehnat jamoalariga sodiqlik” kabi g'oyalar ustuvor edi. Sovet davrining so'nggi bosqichida pedagog tayyorlash tizimi (1960–1991) 1960–1991-yillar davomida O'zSSR ta'lim tizimi Sovet davlati mafkuraviy siyosati bilan chambarchas bog'liq holda rivojlandi. Bu davrning asosiy xususiyatlari sifatida ta'lim jarayonining to'liq ideologiyalashtirilishi, “sinfiy yondashuv”, “kommunistik tarbiya”, “mehnat jamoalariga sodiqlik” kabi g'oyalar ustuvorligi, o'quv dasturlarining mafkuraviy filtrlardan o'tkazilishi va pedagog faoliyatining qattiq nazorat ostida olib borilishi qayd etiladi. Ta'lim nafaqat bilim berish mexanizmi, balki siyosiy tarbiya vositasi sifatida qaraldi.

Ta'limning mehnat bilan integratsiyasi 1959-yilda qabul qilingan “Maktabning hayot bilan bog'liqligini mustahkamlash to'g'risida”gi qonun Sovet pedagogik siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, o'quv jarayonini ishlab chiqarish bilan uyg'unlashtirishni maqsad qilgan edi. Bu siyosatga ko'ra, o'quvchilar korxonalar, kolxozlar, sanoat ob'ektlarida amaliy mehnat faoliyatiga jalb etildi va bunday tajriba “mehnat orqali tarbiya” tamoyilining amaliy ifodasi sifatida talqin qilindi. Ammo mazkur integratsiya ko'plab maktablarda kutilgan pedagogik samarani bermadi. Ishlab chiqarishning real talab va sharoitlariga moslashmagan holda tashkil etilgan mehnat jarayonlari o'quvchilarni haddan tashqari band qildi va natijada asosiy ta'lim jarayoniga ajratiladigan vaqt qisqardi. Bu esa o'quv dasturlarining chuqur o'zlashtirilmasligi, nazariy tayyorgarlikning sustlashuvi va umumiy o'quv sifati pasayishiga olib keldi. Shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarining aksariyati ta'lim bilan uyg'un faoliyat ko'rsatishga tayyor emas edi, bu esa tajribaning tashkiliy jihatdan sust kechishiga sabab bo'ldi.

Shu tariqa, mehnat-ta'lim integratsiyasi mafkuraviy jihatdan targ'ib qilingan bo'lsada, uning amaliy natijalari ko'plab muammolarni yuzaga chiqargan va ta'lim sifatini barqaror pasaytirgan

omil sifatida baholanadi.

Ta'limning mehnat bilan integratsiyasi 1959-yilgi "Maktabning hayot bilan bog'liqligini mustahkamlash to'g'risida"gi qonun asosida o'quvchilarni ishlab chiqarishga jalb etish siyosati yo'lga qo'yilgan. Biroq bu amaliyot ko'plab maktablarda o'quv sifatining pasayishiga olib keldi.

Sovet davrining so'nggi bosqichida pedagog kadrlar masalasi O'zbekiston ta'lim tizimining eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qoldi. Ta'lim muassasalarining son jihatdan kengayishi, yangi maktablarning barpo etilishi va ta'limning ommaviylashuvi o'qituvchilarga bo'lgan talabni keskin oshirdi. Biroq mavjud oliy ta'lim infratuzilmasi bunday sur'atda kadr tayyorlash imkoniyatiga ega emas edi. Natijada maktablarda faoliyat yuritayotgan ko'plab pedagoglar yetarli kasbiy tayyorgarliksiz, qisqa muddatli kurslar, malaka oshirish yig'inlari yoki sirtqi ta'lim shakllari asosida ishga jalb qilindi.

Bunday qisqa muddatli tayyorlov dasturlari o'qituvchilarni nazariy va metodik jihatdan to'liq shakllantirib bera olmas edi. Dars jarayonining ilmiy-metodik asoslarda tashkil etilmasligi, yangi pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirishdagi cheklovlar, o'quv materiallarini yetarli chuqurlikda tahlil qilish ko'nikmalarining sustligi bularning barchasi ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatgan omillar bo'ldi. Ayniqsa, tabiiy fanlar, matematika, fizika, kimyo va begona tillar bo'yicha malakali mutaxassislarining tanqisligi maktablarda o'quv dasturlarining to'liq amalga oshirilishiga to'sqinlik qildi.

Pedagog kadrlar yetishmovchiligi nafaqat sifat, balki hududlar bo'yicha teng taqsimlanish masalasida ham keskin nomutanosibliklarni keltirib chiqardi. Shahar maktablarida o'qituvchi ta'minoti nisbatan barqaror bo'lgan bo'lsa-da, qishloq va chekka hududlarda malakali pedagoglarning yetishmasligi yanada keskin sezildi. Bu esa ta'limning hududlar bo'yicha teng emas rivojlanishiga sabab bo'lib, respublika darajasida umumta'limning sifat ko'rsatkichlarini izdan chiqardi.

Shunday qilib, 1960–1991-yillarda pedagog kadrlar yetishmovchiligi ta'lim tizimining tizimli muammosiga aylanishi bilan birga, sovet ta'lim siyosatining miqdoriy ko'rsatkichlar ortidan quvish, ammo sifat masalasiga yetarli e'tibor qaratmaslik kamchiligini yaqqol namoyon etdi.

Finlandiya ta'lim tizimining yuksak samaradorligini ta'minlab turgan eng muhim omillardan biri bu o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojini qo'llab-quvvatlovchi puxta metodik infratuzilma va ishonchga asoslangan boshqaruv modelidir. Ushbu tajriba O'zbekiston pedagogik tizimi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Amaliyotga yo'naltirilgan o'quv kurslarining joriy etilishi, o'qituvchilarning mustaqil fikrlash, dars jarayonida ijodkorlik namoyon etish va o'quvchilar bilan individual ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu maqsadda qisqa muddatli modul dasturlari asosida tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlar markaziy o'rin tutishi, pedagoglarning nazariy bilimlarini real pedagogik vaziyatlarda qo'llash malakasini kuchaytirishi mumkin.

Finlandiya tajribasining yana bir asosiy elementi "Kasbiy o'quvchilar hamjamiyati" tamoyili (Professional Learning Community) tamoyilidir. Kasbiy o'quvchilar hamjamiyati o'qituvchilarning muntazam hamkorligi, tajriba almashinuvi, dars tahlili va o'zaro kuzatuv orqali kasbiy mahoratni oshirishni ko'zda tutadi. O'zbekistonda maktablar, tuman va viloyat miqyosida bunday professional hamjamiyatlarni tashkil etish, pedagoglarning o'zaro o'rganish madaniyatini shakllantiradi va ta'lim sifatini oshirishda sezilarli ijobiy natija beradi.

Shu bilan birga, Finlandiyaning yetakchi universitetlari, Jyväskylä, Tampere va Helsinki bilan qo'shma ta'lim dasturlari tashkil etilishi, o'qituvchilarning xalqaro ilmiy-pedagogik tajribani bevosita o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Har yili kamida 100 nafar pedagogni qisqa muddatli stajirovkalarga yuborish nafaqat malaka oshirish tizimini sifat jihatidan boyitadi, balki respublika miqyosida yangi metodik g'oyalar va innovatsion yondashuvlarning kirib kelishiga xizmat qiladi.

Masofaviy malaka oshirish tizimini yaratish Zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida masofaviy ta'lim imkoniyatlari pedagoglarning uzluksiz o'qishini qo'llab-quvvatlovchi eng qulay

mexanizmlardan biriga aylanmoqda. Finlandiyada muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan eNorssi platformasi o'qituvchilar uchun markazlashgan, tizimli, ochiq va amaliyotga yo'naltirilgan raqamli ta'lim muhiti yaratishga xizmat qiladi. O'zbekiston sharoitida shunga o'xshash milliy onlayn markaz tashkil etilishi pedagoglarning hududidan qat'i nazar sifatli malaka oshirish resurslariga teng imkoniyatda kirishishini ta'minlaydi.

Har bir pedagog uchun shaxsiy raqamli portfel tizimini joriy etish ham muhim ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchining kasbiy rivojlanish jarayoni sertifikatlar, dars ishlanmalari, malaka oshirish natijalari, tadqiqotlar hamda metodik materiallar yagona elektron muhitda saqlanadi. Bu tizim o'qituvchining individual rivojlanish dinamikasini monitoring qilish, ta'lim muassasalarining ichki nazoratini takomillashtirish va pedagog faoliyatining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Finlandiya amaliyotida mavjud bo'lganidek, har yili kamida uch kunni "Professional o'sish kuni" sifatida belgilash o'qituvchilarga o'z ustida mustaqil ishlash, yangi metodik yo'nalishlarni o'rganish va zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan tanishish imkonini beradi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish Finlandiya ta'lim sifatining asosiy tayanchlaridan biri maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda ilmiy-tadqiqot faoliyatining bevosita amaliyot bilan integratsiya qilinishi hisoblanadi. Xususan, "Action Research" (amaliy tadqiqot) modeli o'qituvchilarning o'z pedagogik faoliyatini muntazam tahlil qilib borishiga, muammolarni aniqlab, tajriba asosida yechim ishlab chiqishiga imkon yaratadi. Bu yondashuv pedagogni nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki o'z kasbini rivojlantiruvchi tadqiqotchi sifatida shakllantiradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ushbu modelni joriy etish maqsadida maktablarda kichik amaliy tadqiqot laboratoriyalarini tashkil etish, dars jarayonini kuzatish, tahlil qilish va yangicha metodik ishlanmalarni sinovdan o'tkazish mexanizmlarini yo'lga qo'yish zarur. Bundan tashqari, har bir viloyatda pedagogik innovatsiyalar markazlarini tashkil etish o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi muhim platforma vazifasini bajaradi. Bu markazlar xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, tajriba almashishni yo'lga qo'yish va yangi pedagogik yondashuvlarni milliy amaliyotga moslashtirish imkonini yaratadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, 1925–1991 yillar davomida O'zSSRda pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitda shakllandi. Sovet hokimiyatining mafkuraviy yondashuvi, iqtisodiy cheklovlar va mahalliy aholining yangi tizimga adaptatsiyasi o'qituvchilar tayyorlash jarayoniga chuqur ta'sir ko'rsatdi.

1925–1991-yillarda O'zSSRda pedagogik kadrlar tayyorlash jarayoni murakkab, ziddiyatli va ko'p qatlamli tarixiy hodisa sifatida namoyon bo'ldi. Bir tomondan, sovet hokimiyati qisqa muddat ichida savodsizlikni tugatish, yangi turdagi maktablar, texnikumlar va oliy o'quv yurtlarini tashkil etish orqali ta'lim tizimini institutsional jihatdan shakllantirishga erishdi, mahalliy ilmiy maktablar va Fanlar akademiyasi kabi tuzilmalar barpo qilindi. Ikkinchi tomondan esa, bu jarayon kuchli mafkuraviy nazorat, sinfiy yondashuv, siyosiy "tozalashlar" va o'qituvchilarning og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bilan kechdi, natijada pedagogik kadrlar tizimi tabiiy rivojlanish yo'lidan chetga chiqdi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, 1920–1930-yillarda o'qituvchilar mehnatiga yetarlicha moddiy baho berilmagani, 1933-yilgi repressiv kadrlar siyosati, urush va urushdan keyingi yillarda oliy ta'limning tezkor, lekin nomutanosib kengayishi pedagogik kadrlar tanqisligi va ta'lim sifati pasayishining asosiy omillaridan bo'ldi. 1960–1991-yillarda ta'lim tizimi miqdoriy ko'rsatkichlar maktablar soni, o'quvchilar va o'qituvchilar soni oshishi bilan tavsiflangan bo'lsa-da, malakali professor-o'qituvchilar ulushi, moddiy-texnik baza, sirtqi va kechki ta'lim sifati kabi ko'rsatkichlar bo'yicha chuqur strukturaviy muammolar saqlanib qoldi. Pedagog kadrlar yetishmovchiligi, ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda ta'limning hududlar bo'yicha teng rivojlanishiga to'sqinlik qildi.

Maqolada olib borilgan tahlillar Sovet davri tajribasini biryoqlama inkor etmasdan, balki uning

ijobiy va salbiy jihatlarini kompleks baholash zarurligini ko'rsatadi. Savodxonlik darajasining oshishi, ilmiy muassasalarning tashkil topishi va ayrim oliy ta'lim yo'nalishlarining shakllanishi shubhasiz ijobiy natija bo'lsa, mafkuraviy bosim, siyosiy repressiyalar, kadrlar siyosatidagi keskinlik va iqtisodiy cheklovlar pedagogik tizimning barqaror, sifatli rivojlanishiga jiddiy to'sqinlik qilgan. Shu ma'noda, sovet davri tajribasi bugungi ta'lim islohotlari uchun tarixiy saboq va ogohlantiruvchi omil sifatida qaralishi lozim.

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa o'qituvchini faqat "ijrochi kadr" emas, balki mustaqil fikrlovchi, tadqiqotchi, ijodkor va hamkorlikka ochiq professional sifatida shakllantirishdir. Finlandiya ta'lim tizimi misolida tahlil qilingan "Kasbiy o'quvchilar hamjamiyati" modeli, Action Research yondashuvi, masofaviy malaka oshirish platformalari va raqamli portfel tizimi kabi mexanizmlarni milliy sharoitga moslashtirish pedagogik kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishda yangi bosqichga chiqish imkonini beradi. O'zbekiston uchun eng muhim masala tarixiy tajriba, jumladan 1925–1991-yillardagi yutuq va xatolarni chuqur tahlil qilgan holda, o'qituvchi shaxsini ishonchga asoslangan boshqaruv, erkin professional muhit va ilmiy-amaliy hamkorlik markaziga aylantirishdir.

Shu tariqa, mazkur tadqiqot natijalari sovet davridagi pedagogik kadrlar siyosatini qayta o'ylash, zamonaviy islohotlarda tarixiy determinantlarni hisobga olish va Finlandiya tajribasiga asoslangan innovatsion yondashuvlarni milliy ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya etish zaruratini ilmiy asoslaydi.

Adabiyotlar:

Akyıldız, Ş. An introductory history of Soviet Uzbek academics (1924–1960). – London: SOAS University of London, 2022.

Fitzpatrick, S. Education and Social Mobility in the Soviet Union: 1921–1934. – Cambridge; New York: Cambridge University Press, 1979.

Hashimov, K.; Nishonova, S. Pedagogika tarixi: darslik. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. – 240 b.

Mardonov, Sh.; Zokirova, U. Pedagogika nazariyasi va tarixi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Ishonchli hamkor", 2021. – 120 b.

Madalińska-Michalak, M. J.; Misirova, N. The development of school education in Uzbekistan // Studia Pedagogiczne. – 2020. – T. 36. – P. 5–21.

Rasulova, M. F. Q.; Toshtemirova, X. N. 1917–1991-yillarda pedagogik fikrlar rivoji // Central Asian Academic Journal of Scientific Research. – 2022. – № 10.

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

JAHON ADABIYOTIDA HIKOYA JANRI GENEZISI HERMAN HESSE IJODIYOTI

*Abdullayeva Ulfat Turaxonovna,
Toshkent davlat agrar universiteti Xorijiy tillar kafedrası mudiri, dotsent*

Annotatsiya. Mazkur maqolada jahon adabiyotida hikoyaning kirib kelishi va shakllanish bosqichlari haqida soʻz boradi. Shuningdek, unda janrning umumiy va xususiy jihatlari hamda Herman Hesse ijodiyotiga batafsil toʻxtalib oʻtilgan.

Kalit soʻz: tasvir, hikoya, idrok, davr, obraz, anitk, epos, lirizm.

Maʼlumki, fan taraqqiyoti naqafat sanʼatni, balki boshqa yondosh sohalarning ham misli koʻrilmagan tarzda taraqqiy etishiga zamin hozirladi. Chunki globallashuv sharoiti oʻzining imkon qadar izchil taraqqiyot strategiyasini adabiy aloqalarsiz, madaniyatlararo jipslashuvsiz yechib boʻlmay qoldi. Mana shu murakkab sharoitda adabiyot va sanʼat ham oʻz taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtishi shart boʻladi. Axir, XXI asr kishisi ruhiyatida bir vaqtning oʻzida “yangi odam”, “z”, “alfa”, “beta”, “geta” kabi avlod aralashmasi yashab qolishi tayin. Bir avlod oʻzidan oldingilari bilan oʻsish hamda oʻzgarishga majburdir. 1800-1900 yillar Gʻarbu sharq badiiyati negizida juda koʻplab afsonalarning yangilanishi roʻy berdi. Nemis adabiyoti haqida tasavvur uygʻonsa koʻz oldimizga Gyote, Fridrix Nitʼıye, Herman Hese, Jeyms Kryus, Bertolt Brext va uning zamondoshlari keladi. Avlodlar yangilanadi, rivojlanadi, bir-biriga oʻzaro taʼsir oʻtkazadi. Tadqiqotimizda ana shu jihatlarga jiddiy toʻxtalishni lozim koʻrdik. Bular quyidagicha mohiyatda aks etishi tayin.

Nemis adabiyoti va sanʼatiga bir nazar. Adabiy atamalarning (janr) tushunchasiga kelishi uchun juda koʻplab hodisalar roʻy berishi tayin. Biror xalqning adabiyoti haqida gap ketsa, oʻz safdoshlari, izdoshlari, fikrdoshlari, nazariyotchi olimlari boʻladi. Manasha adabiyotda ular oʻzlarining boy adabiy merosi bilan xalq muliki, balki boshqa millat hamda elatlar ruhida oʻchmas iz qoldirishi tayin. Oʻzbek adabiyoti ham ana shunday silsilalar davrida taraqqiy etib, bir-birini toʻldirib, rivojlanib oʻzaro taʼsir qilib keldilar. Nemis xalqining ajralmas bir qismi u tomoni azim Yevropada sargoʻzashtlilik fonidagi badiiy solnomalar muayyan qoliplarni buzib oʻz-oʻzidan bino boʻlib qolgan emas! Axir, har qanday moddaning organik va noorganik xususiyatlari mavjud. Hikoya ham ana shunday ikki tipdagi bir butun yaxlit gʻoyaga olib boruvchi turli yoʻllarning ijodiy tafakkur hosilasi oʻlaroq ishlanmasidir. Biz tadqiqotimizda muayyan oraliqni tanlab olib, shular orasidagi mushtarak hamda alohidalik jihatlarga toʻxtalib oʻtishni lozim topdik.

1. Hikoya nima? degan savolga aniqlik kiritib olish muhim. “Birgina hikoyachilikni oladigan boʻlsak, uning ilk bor yuzaga kelishidagi manbalar – latifa, ertak va hikoyatlardan ajralib chiqishini, mustaqil janr sifatida vujudga kelishida namoyon etgan oʻziga xos xususiyatlarni, oʻzbek adabiyotining nasriy janrlari sistemasida tutgan oʻrni va ahamiyatini, milliy realistik hikoyachilik maktabining tugʻilishi, qaror topishi, taraqqiyot tendensiyalari, yetakchi adiblarning ijodiyotining novatorlik alomatlarini, badiiy shakl va uslubiy izlanishlarini, sanʼatkorlar dunyoqarashi va ijodiy metodlar taʼsirida hikoyalarimiz obrazlar sistemasidagi gʻoyaviy-badiiy xususiyatlaridagi shakli va ichki tuzilishidagi oʻzgarishlarni, yangilanish unsurlarini oʻrganishni taqozolaydi. Shu maʼnoda, olimlarimiz haqli ravishda eʼtirof etib oʻtganidek, har qanday janr oʻzining muhim ijtimoiy manbalari, sabablariga koʻra taraqqiyot yoʻliga oʻtadi. Mana shu masalada har bir adabiyot aniq faktlar negizida oʻz taraqqiyot yoʻlini belgilab olaveradi.

Taʼkidlash lozimki, XX asrga qadar yaratilgan janrlarning sargoʻzashtlilik xususiyatlari nafaqat neims, ingliz, ispan, fransuz, italyan xalqi adabiyotlari negizida taraqqiy etib, yoki boʻlmasa aralash holda zuhur etildi. Mavjud anʼanalar har bir janrning mustaqil modusini ham aniqlab olishda qoʻl

keldi. Demak, nemis ma'rifatparvarlik adabiyotida – hikoyadan, qissaga, romanga o'tib turish tamoyili, (drama, she'r) tadrijida ham bu narsalarga munosib tayyorgarlik ko'rildi. Adabiyot xalqlar o'rtasidagi ko'prik hamdir. O'zbek adabiyoti nemis klassik adabiyotida ham aniq janriy-kompozision taraqqiyotni belgilab ola oldi desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Negaki, Isajon Sulton ham G'arbu Sharq adabiyotidan katta ilohm tuygan milliy vorislarimizdandir. "Roman va novella ham shakl, ham ichki jihatdan bir-biriga o'xshamagani uchun hech qachon bir xil paytda, bir xil sur'atda rivojlana olmagan. Ma'lum bir davrda ma'lum bir adabiyotda yo hikoyachilik, yo romanchilik taraqqiy qilgan. Hikoya biror bir qarama-qarshilik, nomutanosiblik, anglashmovchilik yoki ziddiyat asosida qurilishi lozim. Hikoya latifa singari o'zining butun og'irligini yakuniy qismga to'plab boradi. Xuddi samolyotdan tashlangan snaryad misoli u yuqori tezlikda pastga qulab, kerakli nuqtaga o'tkir uchi bilan sanchilishi kerak. "Short story" – "hikoya" ikki shartning kelishishi asosida vujudga kelgan atama: kichik hajm va yakundagi syujetli zarba. Novella o'z shakllanish davrlarida AQSH xalq og'zaki ijodidagi hikoyachilik bilan yaqin bog'liqlikda bo'lsa, eng yangi amerika adabiyotida bu bog'liqlik yo'qoladi. Chunki bu paytga kelib xalq ijodi ham ma'lum darajada milliy so'z san'atidagi o'rnini yo'qotgan bo'ladi". Darhaqiqat, hikoyaning ilk ildizlari ham, yashash quvvati ham, shakllanish jarayoni ham oson kechgan emas.

Nemis ma'rifatparvarlik adabiyotining yorqin namoyondalari romantizm davriga to'g'ri keladi. Ma'rifat deganda, qashshoq va boqimanda xalqni emas, biror yo'lga manzil izlab chiqqan hodisalar ham singib, aralashib ketadi. Biz ana shu muayyan hodisalarda juda ko'p chalkashliklarni ajratib olishni ma'qul ko'rmaymiz. Rus adabiyotshunos olimi G.P.Pospelov: "Hikoya qisqa vaqtda, sahnadagi kundalik maishiy hayotni tasvirlaydi, novellada esa yozuvchi qahramon hayotidagi hayratomuz namunalarni ko'rsatadi", degan qarashlarni ilgari suradi.

Hikoyada sersuvlilik, sertarmoqlik ham ko'p kuzatiladi. ayniqsa, romantik bo'yoqdor hikoyalar har bir davr afsonalarini yangilaydi, sintezlaydi. Ana shu jarayonda bular o'zlarining katta universal hodisaga qo'l urganliklarini anglab-anglamay qoladilar. Jamiyatda yozuvchining voqelikka munosabati ham turlicha bo'ladi. Ana shu turli xillik yozuvchi ijodida bo'rtib ko'rinmasa, unda yozganlari quruq gapdan naryog'iga o'ta olmasligi tayin. Hikoyanavis o'ta mahoratga ega bo'lib, o'z mas'uliyatini unutmagan holda qalam tebratishi shart. Negaki, o'zining g'oyalarini so'z vositasida ifodalar ekan, aniqlik, qisqalik, sahnaviylik, moddiyun olamida esa yanada go'zallikni sevuvchi, olijanob tuyg'ularni qadrllovchi bo'lishi tayin. Rus olimi V.P.Skobelev "hikoya" va "novella" atamalarining janriy ayrichaligini o'rganar ekan: "Novella o'quvchida qiziqish uyg'otadigan g'aroyib maishiy hodisa, sarguzashtni tasvirlashi zarur: novelladan farqli o'laroq, hikoya – bu tipik maishiy munosabatlar va jamoat axloqiy holati haqidagi qisqa asar hisoblanib, u kundalik hayot manzaralarini tasvirlaydi. Novellada yozuvchi qahramonlar hayotidan g'aroyib voqeani ko'rsatmoqchi bo'ladi, hikoyada bu aynan odatiy holga, ya'ni har kuni hayotda bo'ladigan narsaga e'tibor qaratiladi". Haqiqatdan ham, har bir janr ichki va tashqi hodisalar qurshovida taraqqiy etib boradi.

Hikoyaning kompozision qurilishi haqida olimlar quyidagi mulohazalarni ajratib ko'rsatadilar: 1) roviyning xolis "kuzatuvchi" mavqeida turishi; 2) hikoya qilinayotgan voqeaning yuz berish vaqti bilan hikoya qilinish vaqtining bir-biriga mosligi; 3) "sahnaviylik" – o'quvchi nazdida hayot sahnasida kechayotgan voqeani tomosha qilayotganlik illyuziyasining yuzaga keltirilishi; 4) syujetning shiddatli rivojlanishiyu kutilmagan burilishlarga egaligi bilan ajralib turadi. Haqiqatdan ham, yozuvchi yoki shoir masalaga diqqat bilan yondashar ekan, ana shu ko'tarinkilik ruhida yashaydi. Chunki ijodkorning qalbidagi daryo tuyg'ular muhim bir muammoning mohiyati sari yetaklaydi. Hikoya janri va hikoyatdagi formalar haqida so'z borganda o'zbek adabiyotida Rabg'o'ziy badiiy olami ko'z o'ngimizda gavdalanadi: "Syujetlarning safar yo'llari va g'aroyib kutilmagan ko'rinsa ham, lekin ularning folklordan yozma adabiyotga, bir xalqning adabiyotidan boshqa bir milliy adabiyotga, bir qit'adan boshqa bir qit'aga, o'tishda, butun jahonga yoyilishida o'zining qat'iy tarixiy va madaniy qonunlari doimo mavjud. Rabo'ziyning 70 dan ortiq hikoyat va qissalari, o'zbek xalqining rivoyat va mif, ertaklaridan tashkil topgan asari ham bu oddiy bir

to‘plam emas, XIV asrga xos romanbop ulkan janr - eposdir” . Binobarin, bu nazariy iqtobsga qo‘shimcha trzda yana keltirish mumkinki, G‘arb adabiyotiga Sharq adabiyotining ta‘siri ham benihoya katta ekanligi ayonlashadi. Chunki Herman Hessega qadar nemis adabiyotida ma‘rifat va antik yunon madaniyati qorishig‘i istifoda etilgan. Ixcham hikoyalar negizida xalq hayotini tasvirlash masalasi ham kun tartibida bo‘lgan.

Nemis romantizmi. Germaniyada ham xuddi Fransiya, Angliya, Ispaniya, Italiya kabi taraqqiy etish, sanoat hamda fan-ta‘lim, ishlab chiqarish kabi jarayonlarning jadallashuvi badiiy shakl (ong) da kechuvchi hodisalarni bir mahrajda ko‘rsatish an‘anasi davom etdi. Demak, neim romantiklari orasida shunday aqida ham yuradi. Fixtning: “O‘z-o‘zingni o‘rab turgan atrof-olamga emas, balki o‘zinga qarat”, – degan falsafiy qarashlarni ilgari surdilar. Fridirix Shlegel badiiy adabiyotga ana shu mezondan turib yondashar ekan, “Odamlar yer yuzidagi boshqa mavjudotlardan qanchalik ustun bo‘lsa, san‘atkorlar odamlardan shunchalik ustundir” – deya yozadi . Shunday qilib yozuvchi va san‘at arbobi o‘z xalqining adabiyotiga romantik kinoya tushunchasini olib kirdi.

Ernst Teador Amadey Gofman ham romantik ruhdagi ertak, novella hamda hikoyalarida – inson qalbining o‘ta murakkab tuyg‘ularini, mehrni, muhabbatni ulug‘ladi. Bu tushunchalar keyinchalik Herman Hesse adabiyotida va uning zamondoshlari ijodida yanada mukammallashti. Rus munaqqid V.G.Belinskiy ham Gofmanga qiziqish bildirib, nemis xalqining ulug‘ shoiri va mutafakkiri, san‘at va san‘at deb yonib yashagan ijodkordir deya katta baholarni berib o‘tgandi.

Nemis romantiklaridan yana biri Herman Hessedir. U juda noyob qobiliyat egasi bo‘lish bilan bir qatorda tuzumning kirdikorlarini, fosh qilish adabiyotda juda katta burilishlarni yuzaga kelishiga sababchi bo‘lgan yozuvchilardan biridir.

U o‘z tarjimai holida shunday yozadi: Qiziq, boshdan o‘tgan voqealar vaqt o‘tishi bilan odamning xayolidan ham ko‘tarilib ketarkan! Hatto minglab turfa kechinmalarga guvoh bo‘lgan butun boshli yillar ham asta-sekin unutilib ketishi mumkin ekan. Bolalarning maktab tomon borishayotganini ko‘rib turib, o‘zimning o‘quvchilik davrimni bir eslab qo‘yish xayolimga ham kelmaydi. Bordi-yu, gimnaziya talabalariga ko‘zim tushgudek bo‘lsa, o‘zimam bir vaqtlar shularga o‘xshagan talaba bo‘lganimni eslayolmayman ham. Mashinasozlarning o‘z ustaxonalariga yoki bo‘lmasam havoyi, beburd ish boshilarning o‘z idoralariga erinibgina kirib ketishayotganini ko‘rib turaman-u, o‘zimning ham bir zamonlar ana shunday yo‘llardan yurganim, egnimga havorang korjoma ilib, ishlaganim yoxud tirsaklari yaltirab ketgan kitel kiyib, kotiblik qilganimni paqqos unutilib qo‘yaman .

Yozuvchi o‘ta katta iste‘dod egasi bo‘lish bilan bir qatorda an‘analarni yangilash borasida ham bilim hamda saviyasini rivojlantirib borgan. Chunki yozuvchi axloq va madaniyat bobida o‘ta ziyraklik qilib, vaziyat nuqtai nazaridan ko‘p joylarda faoliyat yuritgan. Odamlarni o‘rgangan, ulardan ilhomlangan, ularning taqdir ajoyibotlariga qiziqqan hamda, ilohiy bir nur, mujda sabab badiiy olamini ham mukammallashtirib borgan.

Hermann Hesse shoir. O‘z asarlarida liro-romantik ruh va pafosni uyg‘un ifodalay olgan san‘atkor bir she‘rida shunday yozadi:

Naqadar og‘irdir bunday mushtoqlik,
 Yurakni isitar bir olov ham yo‘q.
 Oftob jilmaymaydi yuzimga boqib,
 Neki bor, muzlagan, neki bor, sovuq.
 Azizim, ko‘zlari pok yulduzlaring,
 Qaragin, qandayin parishon boqar.
 Neki bor, abasdir – oshkoralikda
 Bu ishq ham bitadi avval yo oxir...

Hermann Hesse tabiatida shoirona tafakur tarzi hamda universal mushohada tig‘izlashuvi uyg‘unlashib ketadi. Buni V.G.Belinskiy ham shoir va yozuvchi maqolasida katta nazariy-ilmiy mushohadalari bilan tadqiq etadi. Bunday deyishimizga sabab, Hermann Hesse adabiyotga

liro-romantik ruhning nasriy shaklda istifoda etilishini olib kira oldi. Buni quyidagi 4 ta jihatda tavsiflash lozim:

1. Mutafakkir adib voqelikka shoirona nigoh bilan qaraydi, shu tufaylik voqelik o'z-o'zidan quyuuq tasvir fragmentlariga o'rnini bo'shatib beradi.

2. Voqelikning asosiy qismi haqida xabar beradi-yu, shu voqelikni xotimada muohkamaga tortadi.

3. Qahramonlari ko'pchiligi yuvosh, kamgap, hamda muloyim tabiatga ega obrazlar sirasiga kiradi.

4. Oddiy tabiatning fasl almashinuvidan olam-olam ma'no topa oladi, shu tufayli asosiy muammoni tanlov darajasiga chiqarishga muvaffaq bo'ladi.

Mana shu sanab o'tilgan jihatlar uning nihoyatda go'zal shoirona hamda tiyrak tafakkur sohibi ekanligini kafolatlaydi.

Xulosa shuki, munaqqid va yozuvchi Hermann Hesse haqda shunday yozadi: "Kitob orqali tasavvur qilingan dunyo bilan mavjud voqelik mos kelmasligi, bir-birini inkor etishi Gesse asarlari fabulasining asosiy xususiyatiga aylandi. Kitob orqali, musiqa orqali tasavvur qilingan dunyoni tarannum etish, odamzodni ana shu dunyo sari boshlash, uning og'riq, musibat, zalolat to'la qalbini ana shu dunyoning go'zalligi, nafosati, orzu-xayollari bilan davolash Gesse ijodining maqsadiga, kredosiga aylandi." Darhaqiqat, Hesselar oilasi juda ko'p kitob o'quvchi, ota-onalari esa Hindistonda shu qadar kasb bilan muntazam shug'ullangani haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Hesse tabiatida kitob orqali hayotni qkrish mumkinligi chizib ko'rsatilgan. Shuning barobarida go'zallikning inqirozga yuz tutishi – ma'rifatparvarsizlik orqali kelishiga ishoralar asarlarining turli nuqtalarida namoyondir.

O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM TIZIMIDA MADANIY KOMPETENTLIKNI INNOVATSION VOSITALAR ORQALI RIVOJLANTIRISH (ISPAN TILI TA’LIMI MISOLIDA)

*Anastasiya Aleksandrovna Tkacheva,
SamDCHTI, “Ispan va Italyan filologiyasi” kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida talabalarning madaniy kompetentligini rivojlantirish masalalari ispan tili ta’limi misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlar, raqamli ta’lim texnologiyalari, multimodal didaktik vositalar, autentik madaniy materiallar hamda virtual ta’lim muhitlarining talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, ispan tili ta’limida madaniy kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodik strategiyalar va innovatsion pedagogik texnologiyalar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish talabalarning madaniy tafakkurini kengaytirish, kommunikativ moslashuvchanlikni rivojlantirish hamda global madaniyatlararo muloqotga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: madaniy kompetentlik, lingvodidaktika, ispan tili, innovatsion ta’lim texnologiyalari, madaniyatlararo kommunikatsiya, raqamli ta’lim, multimodal didaktika.

ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА ПОСРЕДСТВОМ ИННОВАЦИОННЫХ СРЕДСТВ (НА ПРИМЕРЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСПАНСКОГО ЯЗЫКА)

*Анастасия Александровна Ткачева,
СамГИИЯ, доцент кафедры «испанской и итальянской филологии», кандидат филологических наук*

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития культурной компетентности студентов в системе высшего образования Узбекистана на примере обучения испанскому языку. Анализируется роль современных лингводидактических подходов, цифровых образовательных технологий, мультимодальных средств обучения и аутентичных культурных материалов в формировании межкультурной коммуникации. Отмечается, что использование инновационных педагогических технологий способствует формированию у студентов культурного мышления, коммуникативной гибкости и готовности к взаимодействию в глобальной образовательной среде.

Ключевые слова: культурная компетентность, инновационная дидактика, испанский язык, межкультурная коммуникация, цифровое обучение.

CULTURAL COMPETENCE DEVELOPMENT IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN THROUGH INNOVATIVE TOOLS (A CASE OF SPANISH LANGUAGE EDUCATION)

*Anastasiya Aleksandrovna Tkacheva,
Associate Professor of the Department of Spanish and Italian Philology, Samarkand State Institute of Foreign Languages, Candidate of Philological Sciences*

Abstract: The article examines the development of cultural competence among students in the higher education system of Uzbekistan through innovative educational tools in Spanish language teaching. The research highlights the role of modern linguodidactic approaches, digital technologies, multimodal learning environments, and authentic cultural materials in the formation of intercultural communication skills. The study demonstrates that the integration of innovative

pedagogical technologies significantly contributes to students' cultural awareness, communicative adaptability, and readiness for global intercultural interaction.

Keywords: cultural competence, innovative didactics, Spanish language, intercultural communication, digital education.

Ijtimoiy va madaniyatlararo aloqalar jadal rivojlanib borayotgan hozirgi globallashuv davrida chet tillarini o'qitish jarayoni faqat lingvistik bilimlarni shakllantirish bilan cheklanmaydi. Zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlarga ko'ra, tilni samarali o'zlashtirish uchun uning madaniy kontekstini ham chuqur anglash zarur. Shu sababli oliy ta'lim tizimida talabalarning madaniy kompetentligini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Madaniy kompetentlik til o'rganuvchining turli madaniy muhitlarda samarali muloqot qila olish, boshqa xalqlarning qadriyatlarini va ijtimoiy me'yorlarini tushunish hamda madaniyatlararo tafovutlarni to'g'ri talqin qilish qobiliyatini anglatadi. Ayniqsa ispan tilini o'rganish jarayonida bu kompetensiya alohida ahamiyatga ega, chunki ispan tili dunyoning turli mintaqalarida, jumladan Yevropa va Lotin Amerikasi davlatlarida keng tarqalgan bo'lib, har bir hudud o'ziga xos madaniy an'ana va kommunikativ xususiyatlarga ega [Kramersch, 1998, p.8].

Ilmiy adabiyotlarda madaniy kompetentlik tushunchasi ko'p qirrali pedagogik kategoriya sifatida talqin qilinadi. Michael Byram konsepsiyasiga ko'ra, madaniy kompetentlik shaxsning boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot qilish jarayonida zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va munosabatlar majmuasidan iborat bo'lib, u madaniy bilimlar, kommunikativ moslashuv, madaniyatlararo tafakkur hamda tolerantlik kabi elementlarni o'z ichiga oladi [Byram, 1997, p.60]. Ispan tili ta'limida ushbu kompetensiyani shakllantirish talabalarning ispan tilida so'zlashuvchi jamiyatlarning ijtimoiy hayoti, mentaliteti va kommunikativ an'analarini tushunishiga yordam beradi. Masalan, Ispaniya va Lotin Amerikasi mamlakatlarida kundalik muloqot jarayonida samimiylik va yaqinlik muhim kommunikativ omil hisoblanadi. Bu esa nutq etiketi, murojaat shakllari va pragmatik ifodalar orqali namoyon bo'ladi [García, 2020, p.74].

Zamonaviy ta'lim tizimida madaniy kompetentlikni rivojlantirishda innovatsion didaktik vositalar muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar, multimodal platformalar va interaktiv o'quv resurslarining joriy etilishi talabalarning madaniy tafakkurini kengaytirishga xizmat qiladi. Multimodal ta'lim konsepsiyasiga ko'ra, bilimlarni turli formatlarda, ya'ni vizual, audio va matnli shakllarda taqdim etish o'quv materialining samarali o'zlashtirilishini ta'minlaydi [Mayer, 2014, p.67]. Masalan, ispan tilini o'rganish jarayonida virtual muzeylar, interaktiv xaritalar, madaniy videodarslar va raqamli madaniy arxivlardan foydalanish talabalarga real madaniy muhitni yanada yaqinroq his qilish imkonini beradi. Bunday yondashuv o'quvchilarning nafaqat lingvistik, balki madaniy bilimlarini ham rivojlantiradi [Chapelle, 2009, p.141].

So'nggi yillarda raqamli ta'lim platformalari chet tillarini o'qitish metodikasida keng qo'llanila boshladi. Moodle, Kahoot, Quizlet, Edpuzzle kabi platformalar interaktiv ta'lim muhitini yaratish orqali talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshiradi [Hubbard, 2016, p.115]. Masalan, Edpuzzle platformasi yordamida ispan madaniyatiga oid videolar asosida interaktiv topshiriqlar tuzish mumkin. Talabalar videoni tomosha qilib, undagi madaniy elementlar haqida savollarga javob beradilar, bu esa ularning madaniy tafakkurini rivojlantiradi. Shuningdek, ispan tilidagi hujjatli filmlar, madaniy podkastlar va videobloglar talabalarning real kommunikativ muhit bilan tanishishiga yordam beradi.

Madaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida autentik materiallardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Autentik materiallar real kommunikativ muhitda yaratilgan bo'lib, tilning tabiiy shaklini aks ettiradi. Gazeta maqolalari, teleko'rsatuvlar, intervyular, kino fragmentlari va madaniy bloglar talabalarga ispan tilida so'zlashuvchi jamiyatning ijtimoiy hayoti haqida aniq tasavvur beradi [Richards, 2001, p.253]. Masalan, Ispaniya va Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi milliy bayramlar va madaniy an'analar haqida materiallardan foydalanish talabalarning madaniyatlararo tafakkurini kengaytiradi. Jumladan, Meksikadagi "Día de los Muertos",

Ispaniyadagi “Feria de Abril” yoki Perudagi “Inti Raymi” kabi madaniy tadbirlar ispan tilida so‘zlashuvchi xalqlarning tarixiy va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi [Moreno, 2017, p.142]. Bunday materiallar orqali talabalar turli madaniy kontekstlarni solishtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Talabalarning mustaqil faoliyatiga asoslangan innovatsion pedagogik metodlar ham madaniy kompetentlikni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Masalan, loyiha asosida o‘qitish, rolli o‘yinlar, madaniyatlararo muhokamalar va taqdimotlar talabalarning madaniy tafakkurini rivojlantiradi. Talabalar ispan tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar madaniyati haqida taqdimotlar tayyorlashi, videolavhalar yaratishi yoki madaniy intervyular o‘tkazishi mumkin. Bunday faoliyat jarayonida talaba nafaqat tilni o‘rganadi, balki madaniyatni ham o‘zlashtiradi. Lingvodidaktika nuqtai nazaridan til va madaniyatni ajratib o‘rganish mumkin emas, chunki til madaniy tajribaning asosiy ifoda vositasi hisoblanadi [Rodríguez, 2020, p.65].

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida chet tillarini o‘qitish jarayonini modernizatsiya qilish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar madaniy kompetentlikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi. Xususan, chet tillarini o‘qitishni takomillashtirishga qaratilgan davlat dasturlari va konsepsiyalarda talabalarning madaniyatlararo kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifa sifatida belgilangan [O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2021, b.4]. Bu esa ta’lim jarayoniga zamonaviy didaktik texnologiyalarni keng joriy etish, innovatsion o‘quv materiallarini ishlab chiqish va talabalarning global kommunikatsiya muhitiga moslashuvchanligini oshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shunday qilib, ispan tili ta’limida madaniy kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy lingvodidaktikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Innovatsion didaktik vositalar, raqamli platformalar va autentik madaniy materiallardan foydalanish talabalarning madaniy tafakkurini rivojlantirishga, ularning kommunikativ moslashuvchanligini oshirishga hamda global madaniyatlararo muloqotga tayyorlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ushbu yondashuvlarni izchil qo‘llash kelajakda yuqori malakali, madaniyatlararo kommunikatsiya ko‘nikmalariga ega mutaxassislarini tayyorlashga muhim hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – 214 p.

Kramsch C. Language and Culture. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 134 p.

Chapelle C. Computer Applications in Second Language Acquisition. – Cambridge University Press, 2009. – 215 p.

Mayer R. Multimedia Learning. – Cambridge University Press, 2014. – 341 p.

Hubbard P. Language Learning and Technology. – New York: Routledge, 2016. – 289 p.

Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2001. – 270 p.

Moreno J. Cultura hispánica y enseñanza del español. – Madrid: Edinumen, 2017. – 168 p.

García S. Cultura y comunicación en el aula de ELE. – Madrid: Edelsa, 2020. – 192 p.

Salazar P. Métodos contemporáneos en la enseñanza del español. – Madrid: ELE Ediciones, 2019. – 259 p.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Chet tillarini o‘qitishni takomillashtirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2021. – 12 b.

SLENGNING NORMATIV TILGA KIRISH JARAYONI

Majidova Mehrinigor Shavkat qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda sleng birliklarining normativ tilga kirish jarayonlari tahlil qilinadi. Ishda sleng so'zlarning paydo bo'lishi, ularning dastlab norasmiy nutqda qo'llanilishi hamda vaqt o'tishi bilan jamiyatda keng tarqalib, normativ til tarkibiga kirish bosqichlari o'rganiladi. Tadqiqotda sleng so'zlarning normativlashuviga ta'sir etuvchi ijtimoiy, lingvistik, pragmatik va konnotativ omillar yoritiladi. Shuningdek, sleng birliklarining til tizimiga fonetik, grafemik va morfologik jihatdan moslashuvi misollar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar :Sleng, normativ til, slengning normativlashuvi, til tizimi, lingvistik mexanizmlar, grafemik moslashuv, fonetik moslashuv, morfologik moslashuv, ijtimoiy omillar, pragmatik omillar.

ПРОЦЕСС ВХОЖДЕНИЯ СЛЕНГА В НОРМАТИВНЫЙ ЯЗЫК

Аннотация:В данном исследовании рассматриваются процессы вхождения сленговых единиц в нормативный язык. В работе анализируется возникновение сленговых выражений, их первоначальное использование в неформальной речи, а также постепенное распространение в обществе и переход в состав литературного языка. Особое внимание уделяется социальным, лингвистическим, прагматическим и коннотативным факторам, влияющим на нормализацию сленговых единиц. Кроме того, на примерах рассматриваются фонетическая, графемная и морфологическая адаптация сленговых слов в языковой системе.

Ключевые слова :Сленг, нормативный язык, нормализация сленга, языковая система, лингвистические механизмы, графемическая адаптация, фонетическая адаптация, морфологическая адаптация, социальные факторы, прагматические факторы.

THE PROCESS OF SLANG ENTERING THE STANDARD (NORMATIVE) LANGUAGE

Annotation:This study examines the processes through which slang words enter the normative language. The research analyzes the emergence of slang expressions, their initial use in informal communication, and their gradual spread in society until they become part of the standard language. The study also highlights the social, linguistic, pragmatic, and connotative factors that influence the normalization of slang units. In addition, the phonetic, graphemic, and morphological adaptation of slang words to the language system is analyzed with examples.

Keywords :Slang, normative language, slang normalization, language system, linguistic mechanisms, graphemic adaptation, phonetic adaptation, morphological adaptation, social factors, pragmatic factors.

Kirish. Birinchi bo'lib o'zi sleng nima ?,Normativ tilga kirish jarayoni haqida qisqacha aytib o'tsak.Sleng – bu guruhlar yoki yoshlar o'rtasida ishlatiladigan, rasmiy lug'atga kirmagan, ko'pincha qisqartmalar, metaforalar va yangi so'zlardan tashkil topgan til shakli.Normativ tilga kirish – bu jarayon, bunda ilgari faqat noformal kontekstda ishlatilgan sleng so'zlari asta-sekin rivojlanib, ommalashib, rasmiy matnlarda, lug'atlarda va standart nutqda qabul qilinadi. Sleng so'zlarining “do'stlar va internetdan” rasmiy tilda ishlatiladigan tilga o'tish jarayoni.

Asosiy qism. Sleng so'zlarining normativ tilga kirish mexanizmlari mavjud.Bular quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy omillar-Sleng so'zlarning normativ tilga kirishida ijtimoiy omillar muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy omillar deganda jamiyat a'zolarining yangi so'zlarni qabul qilishi, qo'llashi

va ommalashtirishi tushuniladi. Agar bir sleng soʻz yoshlar orasida keng ishlatilsa va ijtimoiy tarmoqlar orqali tez tarqalsa, u asta-sekin umumiy nutqqa kirib boradi. Bloggerlar, mashhurlar va ommaviy axborot vositalari ham bu jarayonni tezlashtiradi. Shuningdek, globalizatsiya va ingliz tilining taʼsiri natijasida koʻplab internet slenglari boshqa tillarga oʻtadi. Jamiyat tomonidan keng qabul qilingan soʻzlar vaqt oʻtishi bilan normativ tilning bir qismiga aylanadi.

- Yoshlar va internet foydalanuvchilari slengni tez tarqatadi (Telegram, Instagram, TikTok, YouTube). Misol qilib aytganda, "layk bosing" -bu sleng Instagram tarmogʻida eng mashhur va koʻp tarqalgan slenglardan bittasi hisoblanadi.

- Media, bloggerlar va pop-kultura (seriallar, filmlar, musiqalar) yordamida soʻzlar mashhur boʻladi. Masalan, "istoriya" -bu sleng hozirda koʻpgina oʻzbek film va seriallarida tarqalgan sleng hisoblanadi.

- Agar keng auditoriya soʻzni qabul qilsa, u rasmiy nutqga kiradi. Xususan yoshlar oʻrtasida keng tarqaladi.

2. Lingvistik mexanizmlar-Sleng soʻzlarning normativ tilga kirishida lingvistik mexanizmlar muhim ahamiyatga ega. Lingvistik mexanizmlar deganda soʻzning til tizimiga ichki qonuniyatlar asosida moslashuvi tushuniladi. Avvalo, sleng soʻzi fonetik jihatdan moslashadi, yaʼni talaffuzi oʻzbek tilining tovush tizimiga yaqinlashadi. Keyinchalik u grafemik jihatdan moslashib, yozuv shakli oʻzbek alifbosiga moslashtiriladi. Shuningdek, soʻz morfologik integratsiyadan oʻtadi, yaʼni unga oʻzbekcha qoʻshimchalar qoʻshilib, feʼl, ot yoki sifat shaklida ishlatiladi. Bundan tashqari, semantik moslashuv jarayoni ham yuz beradi, bunda soʻzning maʼnosi torayishi, kengayishi yoki oʻzgarishi mumkin. Shu tarzda sleng birliklari til tizimiga singib, asta-sekin normativ tilning tarkibiy qismiga aylanadi.

- Fonetik moslashuv – sleng soʻzi talaffuz jihatdan oʻzbek tiliga moslashadi (masalan, "cringe" → "kring").

- Grafemik moslashuv – lotincha yozilgan soʻz kirillga oʻtkaziladi (LOL → ЛОЛ).

- Morfologik integratsiya – soʻz turkumga kiradi va feʼl, sifat yoki ot shaklida ishlatiladi ("memlashmoq" → feʼl).

- Semantik adaptatsiya – asl maʼnosi biroz oʻzgartiriladi yoki kengayadi.

3. Pragmatik va konnotativ omillar-sleng soʻzlarning normativ tilga kirishida pragmatik va konnotativ omillar ham muhim rol oʻynaydi. Pragmatik omillar deganda soʻzning nutq jarayonida qanday vazifada va qanday maqsadda qoʻllanilishi tushuniladi. Masalan, sleng soʻzlar koʻpincha hazil, kinoya, emotsiya yoki yaqinlikni ifodalash uchun ishlatiladi. Agar bunday soʻzlar muloqotda samarali va qulay vosita sifatida xizmat qilsa, ular kengroq qoʻllanila boshlaydi.

Konnotativ omillar esa soʻzning qoʻshimcha, yaʼni hissiy yoki baholovchi maʼnolari bilan bogʻliqdir. Sleng soʻzlar odatda kuchli emotsional rangga ega boʻladi va muayyan kayfiyatni ifodalaydi. Vaqt oʻtishi bilan bu hissiy yuklama susayishi yoki neytrallashtirishi mumkin. Natijada soʻz faqat norasmiy emas, balki nisbatan rasmiy nutqda ham ishlatila boshlaydi. Shu tariqa pragmatik va konnotativ oʻzgarishlar sleng birliklarining normativ tilga integratsiyalanishiga yordam beradi.

Sleng soʻzi boshida noformal, kulgili yoki ironik boʻladi. Sleng soʻzi boshida noformal, kulgili yoki ironik boʻladi, yaʼni u dastlab rasmiy nutqda emas, balki doʻstlar orasidagi oddiy suhbatlarda yoki internet muloqotida ishlatiladi. Bunday soʻzlar koʻpincha hazil qilish, kinoya bildirish yoki emotsiyani kuchliroq ifodalash uchun qoʻllanadi. Shu sababli sleng birliklari odatda kulgili yoki istehzoli maʼnoga ega boʻladi. Masalan, ingliz tilidagi "cringe" soʻzi avval internet slengi sifatida odamni uyaltiradigan yoki noqulay vaziyatni kulgili tarzda ifodalash uchun ishlatilgan. Vaqt oʻtishi bilan bunday soʻzlar keng tarqalib, koʻproq odamlar tomonidan ishlatilishi mumkin.

Vaqt oʻtishi bilan, ijtimoiy kontekstga qarab, rasmiy nutqda ham ishlatiladi (masalan, "selfie" hozir lugʻatlarda mavjud).

Slengning normativ tilga kirish bosqichlari quyidagilardan iborat.

1. Birlamchi qabul – guruhlar va onlayn platformalarda soʻz ishlatiladi. Bu bosqichda sleng soʻz maʼlum bir ijtimoiy guruh orasida paydo boʻladi va ishlatila boshlaydi. Odatda bu yoshlar, talabalar yoki internet foydalanuvchilari boʻladi. Soʻz hali keng ommaga tanish emas.

Misollar:

“Cringe” soʻzi dastlab internet foydalanuvchilari orasida ishlatilgan.

“Top” (zoʻr maʼnosida) yoshlar nutqida faol qoʻllanilgan.

“Zumer” (Z avlod vakili) avval internet muhitida paydo boʻlgan.

2. Tarqalish va mashhurlash – media va pop-kulturada qoʻllanadi. Agar sleng soʻz ommalashsa, u ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, seriallar, qoʻshiqlar orqali keng tarqaladi. Mashhurlar va blogerlar uni ishlatishi jarayonni tezlashtiradi.

Misollar:

“Selfie” avval internet slengi edi, keyinchalik barcha ijtimoiy tarmoqlarda keng qoʻllanila boshlandi.

“Trend” soʻzi blogerlar va reklama sohasida faol ishlatildi.

“Hashtag” dastlab Twitter muhitida paydo boʻlgan, keyin barcha platformalarga tarqalgan.

3. Til tizimiga moslashuv – talaffuz, yozuv va morfologik xususiyatlar oʻzbek tiliga moslashtiriladi. Bu bosqichda sleng soʻz oʻzbek tilining ichki qonuniyatlariga moslasha boshlaydi.

Fonetik moslashuv:

“Selfie” → “Selfi” (talaffuz oʻzbekchaga yaqinlashadi)

“Hashtag” → “Xeshteg”

Grafemik moslashuv:

Inglizcha yozuv oʻrniga oʻzbek alifbosiga mos yozuv paydo boʻladi. Grafemik moslashuv — bu sleng yoki oʻzlashma soʻzlarning yozilish shakli qabul qiluvchi tilning alifbo va imlo qoidalariga moslashtirilishi jarayonidir. Yaʼni soʻz avval boshqa til yozuvida boʻladi, keyinchalik esa oʻzbek yozuviga mos shaklda yozila boshlaydi.

Misollar:

1. Selfie → selfi

Ingliz tilidagi selfie soʻzi oʻzbek tilida selfi tarzida yozilib, oʻzbek alifbosiga moslashgan.

2. Hashtag → xeshteg

Bu soʻz ingliz tilida hashtag deb yoziladi, lekin oʻzbek nutqida xeshteg shakli ham qoʻllanadi.

3. Blog → blog / bloger

Ingliz tilidagi blogger soʻzi oʻzbek tilida bloger shaklida yoziladi.

4. Like → layk

Internet slengi boʻlgan like soʻzi oʻzbek yozuvida layk shaklida ifodalanadi.

Morfologik moslashuv:

• “Selfilar” (koʻplik qoʻshimchasi)

• “Trendda” (kelishik qoʻshimchasi)

• “Like bosmoq” (feʼl shakli)

4. Normativlashuv – soʻz rasmiy lugʻatlarga kiradi yoki matnlarda ishlatiladi. Soʻnggi bosqichda sleng soʻz rasmiy lugʻatlarga kiritiladi yoki ilmiy, publitsistik matnlarda ishlatila boshlaydi. Soʻz endi faqat norasmiy emas, balki nisbatan neytral birlik sifatida qabul qilinadi.

Misollar:

“Internet”, “online”, “selfi” kabi soʻzlar koʻplab lugʻatlarda mavjud.

“Raqamli” va “digital” atamaları rasmiy hujjatlarda ishlatilmoqda.

“Blogger” soʻzi ham rasmiy matnlarda qoʻllanmoqda.

Xulosa. Sleng birliklarining normativ tilga kirishi murakkab va koʻp bosqichli jarayon hisoblanadi. Dastlab sleng soʻzlar maʼlum ijtimoiy guruhlar, ayniqsa yoshlar va internet foydalanuvchilari nutqida norasmiy birlik sifatida paydo boʻladi. Vaqt oʻtishi bilan ular ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va pop-madaniyat orqali keng tarqaladi. Natijada bunday soʻzlar asta-sekin jamiyat tomonidan qabul qilinib, umumiy nutq tarkibiga kirib boradi.

Shuningdek, sleng birliklarining normativlashuvida turli lingvistik mexanizmlar muhim rol o'ynaydi. Jumladan, fonetik, grafemik va morfologik moslashuv jarayonlari orqali sleng so'zlar til tizimiga moslashadi. Bunda ijtimoiy, pragmatik va konnotativ omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillar sleng birliklarining keng qo'llanilishiga va asta-sekin normativ tilning bir qismiga aylanishiga xizmat qiladi.

Demak, sleng so'zlar faqat norasmiy nutq elementi bo'lib qolmay, balki til rivojining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ular zamonaviy jamiyatdagi kommunikativ ehtiyojlar va madaniy o'zgarishlarni aks ettirib, til leksikasining boyishiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Omonov A., Madvaliyev A. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019.

Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.

Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.

Allan K., Burridge K. Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.

www.britannica.com

www.cambridge.org

www.linguisticsociety.org

O'ZBEK XALQ DOSTONLARIDA RANG LARNING POETIK XUSUSIYATLARI

Nayimova Dinora Uchqun qizi,
BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi I bosqich magistranti

Annotatsiya: Xalq og'zaki ijodi namunlari ichida dostonlar eng yirik hajmli va katta hodisalarni qamrab oluvchi janr sifatida ajralib turadi. Shuningdek har bir dostonda qahramonlar ruhiyatiga, hodisalar qamroviga ta'sir qiluvchi ranglar alohida ahamiyatga ega. Dostonlarda ranglarning kelishi alohida ahamiyatga ega, shuningdek poetik xususiyat kasb etadi. Ranglar nafaqat dostonlarning badiiy qiyofasini boyitadi, balki voqealar rivoji, qahramonlar xarakteri va ularning ruhiy holatini ifodalashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: doston, ramz, ranglar, qahramon, voqealar rivoji

Annotation: Among the examples of folk oral literature, epics stand out as a genre with the largest volume that encompasses major events. In addition, colors that influence the psychological state of the characters and the scope of events have special significance in each epic. The use of colors in epics is particularly important and possesses poetic qualities. Colors not only enrich the artistic image of the epics, but also serve as an important means of expressing the development of events, the characters' traits, and their emotional and psychological states.

Keywords: epic, symbol, colors, hero, development of events.

Аннотация: Среди образцов устного народного творчества эпические поэмы (достоны) выделяются как жанр наибольшего объема, охватывающий крупные и значительные события. Кроме того, в каждом достоне особое значение имеют цвета, которые оказывают влияние на внутренний мир героев и на масштаб происходящих событий. Использование цветов в достонах имеет особую значимость и приобретает поэтический характер. Цвета не только обогащают художественный облик достонов, но и служат важным средством выражения развития событий, характера героев и их эмоционально-психологического состояния.

Ключевые слова: дастан, символ, цвета, герой, развитие событий.

San'at insonning ichki olamini, ruhiy kechinmalarini idrok etish tarzini ifodalovchi eng nozik va ta'sirchan vositalardan biridir. Ayniqsa, rang san'at asarining ruhini belgilovchi, tomoshabinning ichki holatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim badiiy mahorat sifatida namoyon bo'ladi. Ranglar orqali rassom o'z ichki kechinmalarini, borliqqa munosabatini, ruhiy holatini va hissiy tajribalarini ifodalaydi. Shu bois ranglar nafaqat estetik bezak, balki inson psixikasining aksadosi, his-tuyg'ular, kayfiyat va ichki ziddiyatlarning ramziy ifodasidir. Rassom ijodida rang tanlovi tasodifiy bo'lmay, u ko'pincha rassomning ichki holati, emotsional kechinmalari, ruhiy jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Rang tushunchasi xalq og'zaki ijodida sof estetik hodisa bo'lish bilan birga, chuqur semantik va ramziy mazmunga ega. Qahramon libosi, ot rangi, makon va zamon tasviri, tabiat manzaralari aynan ranglar orqali ma'no jihatdan boyitiladi. O'zbek xalq eposlarida ranglar mifologik tafakkur bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular qadimgi kosmogonik tasavvurlar, animistik va totemistik qarashlar asosida shakllangan. Har bir rang o'zing timsoli, xarakteri, ramziyligi va tabiatiga ega bo'ladi. Kundalik turmush tarzimizda ham oq va qora rangni esga olganimizda ko'nglimizda xavotir va tushkunlik paydo bo'ladi. Chunki kichkinaligimizdan ko'rganimizki, motam marosimlarida ayollar asosan, oq va qora libosda kiyinganlar. Yashil rangni ko'rganda o'z-o'zimizdan quvonamiz va yashargandek his qilamiz, ko'z o'ngimizda bahor fasli jonlanadi. Demak har bir rang o'ziga xos timsol aks etadi. Rang inson tafakkurida borliqni anglash, uni baholash va badiiy talqin qilish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek xalq eposlarida ranglar ana shu ko'p qatlamli ma'no tizimi orqali mifopoetik mazmun kasb etib, epik obraz

va voqealarning semantik chuqurligini ta'minlaydi. Shu sababli rang tushunchasini nazariy jihatdan tahlil qilish keyingi boblarda rang ramziyligining mifopoetik, semiotik va psixologik xususiyatlarini ochib berish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ranglarning magik kuchiga ishonish, ularni magik himoya vositasi deb qarash barcha xalqlar o'rtasida mavjud. Bu xil e'tiqodiy qarash izlarini yer yuzida umrgu'zoronlik qilayotgan barcha qabila, elat, xalqlarning marosimlari, folklori va ko'hna san'at namunalarida kuzatamiz. Qadimgi davrlarda odamlar barcha ranglarni to'liq ilg'ay olishmagan. Ular tasavvurida uch asosiy bo'yoq — oq, qizil, qora ranglar muhim rol o'ynaganligini ranglar ibtidosi, ularning tadrijiy rivoji, ma'no ko'lamlarining kengayishi tadqiq etilgan barcha tadqiqotlarda o'qish mumkin. Ko'rinayaptiki, insonlar qadimdanoq oq, qizil, qora ranglarni o'z ibtidoiy turmushlarining ma'lum qirralari bilan bog'lab tushunganlar. Har bir dostonda har bir rang alohida ruhiy holat va timsolda keladi. Masalan: "Xoldorxon" dostonida : "Og'zi-burnidan qora qonini keltirsam kerak "degan jumlada qora qon deganda qizil rang tushunilgan." Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida esa : "Boshiga men qora kunlar solayin "jumlasida qora kun bu yomon va zulmatga cho'mgan ,og'ir kun ma'nosida kelgan. Demak har bir rang kontekstda turlicha ma'nolar kasb etadi Yana dostonlarda obrazlarning ismi ham ranglar bilan qo'llanishi mumkin. Bunga misol tarzida

Qoradev, Qorajon, Qorabotir, Qoraxon, Qoratoy kabilar kelishi mumkin. Bunda bu obrazlar yovuz yoki yomon kimsalar emas balki nom sifatida kelgan. O'zbek xalq marosimlari va folklorida ham oq, qizil, qora ranglarning umuminsoniy ramziy ma'nolarga uyg'unmazzunga ega ekanligini ko'rish mumkin.

Estetik nuqtayi nazardan rang badiiy tasvirning ajralmas unsuri hisoblanadi. Ranglar orqali obrazlar jonlanadi, voqea-hodisalarga emotsional tus beriladi va estetik ta'sir kuchayadi. Xalq eposlarida ranglar tasviri voqea rivoji va obraz xarakterini ochishda muhim rol o'ynaydi. Ranglar epik matnda tasviriylik bilan birga, ramziy ma'no ham kasb etib, o'quvchi yoki tinglovchining estetik idrokiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ranglar eposning badiiy yaxlitligini ta'minlovchi asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Eshonqulov J. "Folklor :obraz va talqin"—Qarshi: Nasaf, 1993

Ro'ziyeva M. "O'zbek folklorida rang simvolikasi"—Fan nashriyoti: Toshkent-2016

O .Safarov D. O'rayeva O'zbek xalq yig'ilar va yo'qlovlari—Buxoro, 2004

THE CONCEPT OF CREATIVE WRITING COMPETENCE AND ITS COMPONENTS

Norboyeva Shahnoza Jurabekovna,

Student at Bukhara State Pedagogical Institute Faculty of Languages

Annotation: This article explores the concept of creative writing competence and explains its main components in a clear and practical way. Drawing on established theories of creativity and writing pedagogy, as well as classroom-based case studies and learner examples, the article shows how creative writing competence develops through guided practice, feedback, and reflection. In addition, personal opinions and pedagogical insights are included to make the discussion more realistic and classroom-oriented. The article concludes that creative writing competence should be treated as a core educational goal rather than a marginal or optional skill

Key words: creative writing competence, creativity in education, narrative competence, stylistic awareness, reflective writing, writing pedagogy, imagination, metacognition language skills.

Creative writing competence is a complex but developable ability that enables individuals to produce original, meaningful, and emotionally engaging texts. It extends far beyond grammatical accuracy and formal correctness and instead brings together imagination, linguistic awareness, storytelling skills, and reflective thinking. The concept of creative writing involves a multifaceted approach to storytelling and expression, merging imagination with linguistic skill. It encompasses various forms, such as fiction, poetry, and non-fiction, each offering distinct opportunities for writers to share ideas, emotions, and experiences. This diversity allows writers to explore different voices, purposes, and audiences while developing a deeper understanding of how language can be used creatively. Creative writing basics therefore involve combining imagination with language skills across genres such as fiction, poetry, and non-fiction. Important elements include developing characters, constructing plots, and mastering storytelling techniques. Writers need a strong grasp of narrative structure, dialogue, and theme development, and they must learn how to use metaphor and simile to convey deeper meanings.

Trying out different writing styles and forms contributes to the development of a unique writing voice. Progress in creative writing typically emerges through sustained practice, feedback, and engagement with different kinds of writing. For those who aspire to become writers, mastering these fundamentals not only improves storytelling skills but also strengthens the ability to connect effectively with readers and sustain their attention. Writing competence is a complex, multi-component phenomenon, in its structure several sub-competences are distinguished. Thus, in the research conducted by N. P. Golovin, writing competence is defined as consisting of four components, each of which, in turn, includes relevant skills that underlie a number of other models: strategic (the ability to understand the communicative intention of the subject and plan a communicative event); tactical (the ability to choose appropriate and optimal means and methods); genre (the ability to organize discourse in accordance with the canons of the genre) and textual component (the ability to transform utterances into a coherent text) [7; p.311]. N.M. Ahmedova, on the other hand, expands discursive competence with a rhetorical component, which includes the ability to create texts based on generally accepted rhetorical methods and rhetorical techniques in the development of written speech [1; p. 110-115]

Creative writing competence can be described as the integrated ability to generate original ideas and transform them into coherent, expressive, and contextually appropriate texts. It brings together imagination, vocabulary, grammar, narrative organization, stylistic awareness, emotional sensitivity, and reflective thinking. This definition highlights that creativity and correctness are not opposing forces but complementary dimensions of effective writing. Without sufficient linguistic control, creative ideas remain vague or confusing, while without imagination and originality, correct language use becomes mechanical and uninspiring. Creative writing also demands an

understanding of language that is both broad and deep, encouraging writers to experiment with narrative structure, character development, and the use of metaphor and simile to convey deeper meanings. Writers learn to craft vivid settings, develop intriguing characters, and construct engaging plots that sustain reader interest and convey thematic depth.

To understand how creative writing competence develops in practice, classroom-based observations and analyses of student writing provide valuable insight. In one educational context, secondary school students aged fourteen to sixteen participated in a ten-week creative writing module that included visual prompts, story starters, metaphor-building tasks, and peer feedback workshops. In another context, university-level EFL students wrote short stories, rewrote texts in different genres, and kept reflective journals documenting their writing processes. Student drafts, teacher feedback notes, and reflective entries were examined to identify changes in originality, narrative coherence, stylistic richness, and revision behaviour. These materials were analysed qualitatively to trace how learners experimented with ideas, reorganized narratives, expanded descriptions, and refined language choices over time. Such classroom-based data are particularly informative because they reveal how creative writing competence emerges through guided practice rather than appearing spontaneously.

Several interrelated abilities were observed to form the core of creative writing competence. One of the most central is imaginative and ideational competence, which refers to the capacity to generate original ideas, images, metaphors, and storylines. For example, a student wrote, “The clock on the wall was not measuring time; it was counting her courage.” In this sentence, an ordinary object is transformed into a symbolic representation of emotional pressure and inner strength. This kind of imaginative reinterpretation adds depth to a simple statement and encourages the reader to move beyond literal meaning toward thematic interpretation. It illustrates how metaphor allows writers to compress complex emotions into compact and evocative language. Another key element is linguistic and expressive competence, which includes vocabulary range, grammatical flexibility, and sensitivity to word choice. The difference between the sentence “He was tired” and “Fatigue dragged his eyelids down like heavy curtains” demonstrates how expressive language can intensify meaning. The second version not only communicates physical exhaustion but also creates a visual and emotional image that enables the reader to experience the character’s condition more vividly. This contrast shows why vocabulary and grammar should be developed not only for accuracy but also for stylistic and emotional effect.

Narrative and structural competence refers to the ability to organize ideas into a coherent story or text. It includes control of plot development, pacing, paragraphing, and logical flow. A short story that begins with a dramatic moment and only later explains the events leading up to it creates suspense and sustains reader engagement. This narrative technique illustrates how structure shapes meaning and emotional impact. Many weak student texts do not fail because of grammatical errors but because they lack tension, direction, or a clear narrative purpose. Instruction in narrative organization can therefore lead to substantial improvements in writing quality. Stylistic and genre competence involves adapting tone, register, and style to genre and audience. When learners rewrite the same event as a diary entry, a news report, and a poem, they demonstrate an understanding that language use is context-dependent. A diary entry invites emotional intimacy, a news report requires neutrality and factual precision, and a poem allows symbolic and lyrical expression. This variation shows that there is no single correct way to write and that effective communication depends on aligning form, voice, and purpose.

Emotional and affective competence refers to the ability to express feelings and create emotional resonance. The sentence “She smiled, but her eyes refused to believe her own happiness” reflects emotional complexity rather than a single surface emotion. This type of writing suggests inner conflict and psychological depth, which strengthens reader engagement and realism. Emotional nuance of this kind contributes to the memorability and authenticity of creative texts.

Reflective and metacognitive competence involves evaluating one's own writing, revising drafts, and learning from feedback. A student commented, "I removed three paragraphs because they repeated the same idea without adding tension." This remark demonstrates awareness of redundancy, narrative purpose, and reader impact. It also illustrates how reflection supports improvement by encouraging writers to make deliberate, goal-oriented revisions rather than superficial edits.

The classroom examples further support these observations. In the secondary school group, the sentence "The boy walked into the forest. He was scared" later became "The boy stepped into the forest, each crack of branches echoing his fear." The revised version shows greater descriptive richness, emotional intensity, and imaginative engagement. This change illustrates how guided practice and feedback can strengthen both expressive language and narrative impact. In the university group, students developed stronger authorial voice, improved stylistic control, and more substantial revisions across drafts. These developments indicate that creative writing competence can continue to grow even at advanced stages of language learning.

Creative writing also appears in a wide range of forms. Fiction includes novels and short stories that allow authors to invent worlds or comment on social realities. Poetry relies on rhythm, imagery, and condensed language to express emotions and ideas. Playwriting and screenwriting focus on dialogue and action to bring stories to life on stage or screen. Creative nonfiction blends real-life storytelling with literary techniques in memoirs and personal essays. Blogging and digital content writing represent contemporary outlets for creative writing, enabling writers to engage audiences on diverse topics through narrative and stylistic strategies. Recognizing these forms helps learners understand that creative writing is not limited to traditional literature. Several key skills support creative writing competence. Imagination and originality allow writers to avoid clichés and generate fresh ideas. Strong vocabulary and language skills make expression clearer, richer, and more precise. Character and plot development sustain reader interest and emotional involvement. Editing and proofreading transform initial drafts into coherent and polished texts. The principle that writing is rewriting highlights the importance of revision as a central component of the creative process rather than a final technical step.

Creative writing competence integrates imagination, language mastery, narrative organization, stylistic sensitivity, emotional depth, and reflective awareness. It develops through guided practice, experimentation, feedback, and sustained engagement with different genres and forms of writing. Teaching writing without creativity limits learners to mechanical reproduction rather than meaningful expression. Educational contexts that value creativity alongside accuracy are more likely to cultivate confident, reflective, and expressive writers. With appropriate support and instructional design, creative writing competence can be developed by learners at all levels.

REFERENCES:

Axmedova N.M. The pedagogical conditions of effective training of future foreign language teachers for using game technologies in professional activity// O'zMU xabarлари ilmiy- uslubiy jurnal. –Toshkent, 2018.- №4. -110-115

Bereiter, C., & Scardamalia, M. (1987). *The psychology of written composition*. Lawrence Erlbaum Associates.

Bishop, W., & Ostrom, H. (Eds.). (1994). *Colors of a different horse: Rethinking creative writing theory and pedagogy*. National Council of Teachers of English.

Flower, L., & Hayes, J. R. (1981). A cognitive process theory of writing. *College Composition and Communication*, 32(4), 365–387. <https://doi.org/10.2307/356600>

Harmer, J. (2015). *How to teach writing* (2nd ed.). Longman.

Hyland, K. (2016). *Teaching and researching writing* (3rd ed.). Routledge.

Maley, A. (2009). *Creative writing for language learners (and teachers)*. British Council TeachingEnglish. <https://www.teachingenglish.org.uk>

RAMZLARNING MA'NO XUSUSIYATLARI VA ULARNING TALQINLARI

*Nutfulllayeva Ferangiz G'ayrat qizi,
BuxDPI 7-O'TA guruh 1-kurs magistranti*

Anotatsiya: Mazkur maqolada ramzlarning semantik xususiyatlari hamda ularning badiiy va psixologik talqinlari tahlil qilinadi. Ramz tushunchasi tilshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilib, uning ko'p qatlamli ma'nosi, assotsiativ xususiyati va madaniy shartlanganligi yoritiladi. Shuningdek, tushlarda uchraydigan ramziy obrazlar misollar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ramzlar inson tafakkuri va madaniy tajribasining ifodasi bo'lib, badiiy matnning estetik va semantik boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Tayanch tushunchalar: ramz, semantika, ramziy obraz, assotsiativlik, madaniy kontekst, tush ramzlari, badiiy talqin.

Аннотация : В данной статье анализируются семантические особенности символов, а также их художественные и психологические интерпретации. Понятие символа рассматривается с точки зрения лингвистики, литературоведения и культурологии, раскрываются его многослойное значение, ассоциативные свойства и культурная обусловленность. Кроме того, на основе примеров анализируются символические образы, встречающиеся во снах. Результаты исследования показывают, что символы являются выражением человеческого мышления и культурного опыта и способствуют усилению эстетической и семантической насыщенности художественного текста.

Ключевые слова: символ, семантика, символический образ, ассоциативность, культурный контекст, символы сновидений, художественная интерпретация.

Abstract: This article analyzes the semantic features of symbols and their artistic and psychological interpretations. The concept of the symbol is examined from the perspectives of linguistics, literary studies, and cultural studies, highlighting its multilayered meaning, associative nature, and cultural conditioning. In addition, symbolic images that appear in dreams are analyzed based on illustrative examples. The results of the study show that symbols represent human thinking and cultural experience and contribute to enhancing the aesthetic and semantic richness of literary texts.

Keywords: symbol, semantics, symbolic image, associativity, cultural context, dream symbols, artistic interpretation.

Kirish. Ramzlar inson tafakkuri va madaniyatining muhim tarkibiy unsurlaridan biridir. Ramz — bu ma'lum bir narsa, hodisa yoki tushunchani bevosita emas, balki bilvosita, yashirin ma'noda ifodalovchi belgi yoki obrazdir. Ramz orqali oddiy ko'rinadigan narsa ortida chuqur ma'no yashirinadi.

Ramzning asosiy xususiyatlari: Ko'p ma'nolilik – bitta ramz turli vaziyatda turlicha talqin qilinishi mumkin. Assotsiativlik – u inson ongida ma'lum tasavvur yoki hisni uyg'otadi. Madaniy bog'liqlik – har bir xalqda ramzlarning ma'nosi farq qilishi mumkin. Yashirinlik – ramz ochiq aytilmagan fikrni anglatadi. Insoniyat tarixida ramzlar orqali murakkab g'oyalar, ruhiy holatlar va madaniy tajribalar ifodalangan. Ramzlar adabiyot, san'at va folklorida keng qo'llanib, badiiy obrazlarning chuqur semantik mazmunini ochishga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda ramz tushunchasi turlicha izohlanadi. Masalan, rus faylasufi A. F. Losev ramzni obraz va g'oyaning birligi sifatida talqin qilib, unda ma'no va shaklning uyg'unligi mavjudligini ta'kidlaydi¹. Shuningdek, psixolog Carl Gustav Jung ramzlarni insoniyatning kollektiv ongida shakllangan arxetipik obrazlar bilan bog'laydi. Madaniy nuqtai nazardan, ramzlar har bir

xalqning tarixiy tajribasi, urf-odati va dunyoqarashi bilan bog'liq holda shakllanadi. Masalan, ayrim ranglar yoki tabiat hodisalari bir madaniyatda ijobiy ma'no bersa, boshqasida salbiy mazmun anglatishi mumkin. Bu esa ramzlarning milliy-madaniy xususiyatiga ega ekanini ko'rsatadi. Badiiy adabiyotda ramz muallifning estetik niyatini ifodalovchi muhim vosita hisoblanadi. Yozuvchi yoki shoir ramz yordamida fikrni bevosita bayon etmasdan, o'quvchini mushohada qilishga undaydi. Natijada asarda ifodalangan ma'no yanada chuqurlashadi va o'quvchi bilan muallif o'rtasida intellektual hamkorlik yuzaga keladi. Shuningdek, ramz folklor janrlarida, xususan ertak va tush motivlarida ham keng qo'llanadi. Bu yerda ramzlar ko'pincha insonning ichki kechinmalari, qo'rquv va orzularini ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi

Ramzlarning muhim xususiyati ularning ko'p qatlamli semantik tuzilishga ega ekanligidir. Masalan, o'zbek folklorida oq rang poklik va ezgulik ramzi sifatida talqin qilinadi. "Oq yo'l" iborasi esa muvaffaqiyat tilagini bildiradi. Bu holat ramzlarning umumlashgan ma'noga ega ekanini ko'rsatadi. Ramzlar inson ongida muayyan assotsiatsiyalarni uyg'otadi. Masalan, gul obrazi mumtoz adabiyotda go'zallik va muhabbat ramzi sifatida qo'llanadi. Bu haqda A. N. Veselovskiy obrazli tafakkur nazariyasida ta'kidlaydi. Ramzlarning ma'nosi madaniyatga bog'liq holda shakllanadi. Masalan, o'zbek tilidagi "qora kunlar" iborasi qayg'u va qiyinchilikni anglatadi. Bu yerda rang ramzi xalqning tarixiy tajribasi bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Folklorida ko'p hollarda ertaklarda, hayotda esa inson ko'radigan tushlarda ramzlarni yaqol ko'rishimiz ayni haqiqatdir. Ertaklarda ham tush motivi mavjud bo'lib, undagi voqea - hodisa ramz sifatida belgi, ishora berib turuvchi, yo'l ko'rsatuvchi vosita epizoddir. Tush ogohlantiruvchi va yo'l ko'rsatuvchi ramz vazifasini bajaradi. Ramz bu oddiy belgidan ko'ra chuqurroq ma'no yuklangan vosita bo'lib, u inson tafakkuri, madaniyati va estetik qarashlari bilan chambarchas bog'liq. Adabiyotda ramz badiiy vosita sifatida ishlatiladi. Yozuvchi yoki shoir o'z fikrini to'g'ridan-to'g'ri aytmay, ramz orqali ifodalaydi. Masalan: Gul — go'zallik yoki o'tkinchilik ramzi, yo'l — hayot yo'li ramzi, tun — g'am, iztirob yoki sirli holat.

Folklorida, xalq ertaklari va tush talqinida ham ramzlar muhim. Masalan: Suv - hayot yoki tozalanish, olov - sinov yoki kuch, parvoz - erkinlik ramzidir.

Folklorshunoslikda tush motivi quyidagi vazifalarni bajaradi: Bashorat vazifasi: kelajakni oldindan aytadi. Ogohlantiruvchi vazifasi: xavf haqida signal beradi. Yo'l ko'rsatuvchi vazifasi: qahramonga yo'l-yo'riq beradi. Psixologik yondashuvga ko'ra, tush ramzlari insonning ichki dunyosi bilan bog'liq. Jung nazariyasida tush ramzlari arxetipik xarakterga ega².

Misollar: Suv – ong osti va ruhiy holat ramzi¹, uchish – erkinlik va maqsadlarga intilish belgisi², yo'l – hayot yo'li va tanlovlar ramzi⁴, daraxt – hayot va rivojlanish timsoli³, ilon – xavf yoki yangilanish ramzi. Bu ramzlar insonning psixologik kechinmalarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Ramzlar detallar, voqea-hodisalar, predmetlar, jonli va jonsiz narsalarda ham hatto namoyon bo'ladi. Masalan: insonlar tush ko'rishadi, shu tushida nimalardir qaysidir bir belgiga ishora qiladi. Tush yuzasidan bo'ladigan turli belgilarning xususiyatlari ham ramziylikka ega. Inson tush ko'radi. U yaxshi yo yomon bo'lishi mumkin. Uning ijobiy yo salbiyligi tushdagi ma'lum bir belgiga ishora qiladi. Masalan inson tushida oq otga, oq libosda hurlar kabi kiyinib o'sha otdan tushmay chopib borayotgan bo'ladi. Bu yerda oq ot - dev ramzi, oq libos - kafan ramzi, hurlarday bo'lishlik - u dunyoga ravona bo'lish ramzini bildiradi. Bu tushning umumiy yaxlit ramzi sifatida tushda ko'rilgan shaxsning yaqin kunlarda bu dunyoni tark etishidan dalolat beradi. Bu tush aynan o'sha xondon sohiblarining birida bo'ladi. Chunki oldindan ularga tush orqali belgi berib bildirib, sezdirib quyish maqsadida. Bu tushda mana predmet, shaxs, hayvon kabi belgilar ramzning yaqol ko'rinishidan e'tiborga molikdir. Yana tushlarda turli ko'rinishda ramzlar namoyon bo'lishi mumkin. Tushda ko'riladigan hayvonlar arvoq ramzida, dev ramzida turli belgilarga ishora qiladi. Tushda oq otda insonning chopib borishida ham ramziylik belgisi mavjud.

Oq rangning o'zida motamlilik ramzi bor. Ot esa to'rt oyoqli cho'bin tobutga ishorali, otning ham oyog'i to'rtaligidan ishora, belgi beryapti. Umumiy ma'no esa u dunyoning yaqin

kelayotganligi, vafot etishlikni oldindan tush orqali ushbu vositalarni ramz qilib sezdirib qo'ymoqda. Tushda ko'riladigan ilonlar, chayonlar arvoth ramzi sifatida keladi. Deyarli bunday tushlar ko'p. Tushda ko'riladigan turli xildagi voqea -hodisalar mavjud. Ularning tag ma'nosida ildizida ramz vositasi turadi. Bu holatlarni insonni o'zi tafakkuri ostida o'laydi va nimaga ishoraligini anglaydi. Masalan tushda oq holva ko'rilsa yaxshilik, xursandchilik, baxt ramzi sifatida talqin qilinadi Ramzlar detallar , voqea-hodisalar , predmetlar, jonli va jonsiz narsalarda ham hatto namoyon bo'ladi. Masalan : insonlar tush ko'rishadi, shu tushida nimalardir qaysidir bir belgiga ishora qiladi. Tush yuzasidan bo'ladigan turli belgilarning xususiyatlari ham ramziylikka ega. Inson tush ko'radi .U yaxshi yo yomon bo'lishi mumkin. Uning ijobiy yo salbiyligi tushdagi ma'lum bir belgiga ishora qiladi.

Masalan inson tushida oq otga ,oq libosda hurlar kabi kiyinib o'sha otdan tushmay chopib borayotgan bo'ladi. Bu yerda oq ot - dev ramzi, oq libos - kafan ramzi ,hurlarday bo'lishlik - u dunyoga ravona bo'lish ramzini bildiradi. Bu tushning umumiy yaxlit ramzi sifatida tushda ko'rilgan shaxsning yaqin kunlarda bu dunyoni tark etishidan dalolat beradi. Bu tush aynan o'sha xondon sohiblarining birida bo'ladi.

Chunki oldindan ularga tush orqali belgi berib bildirib, sezdirib quyish maqsadida. Bu tushda mana predmet, shaxs, hayvon kabi belgilar ramzning yaqol ko'rinishidan e'tiborga molikdir. Yana tushlarda turli ko'rinishda ramzlar namoyon bo'lishi mumkin. Tushda ko'riladigan hayvonlar arvoth ramzida ,dev ramzida turli belgilarga ishora qiladi. Tushda oq otda insonning chopib borishida ham ramziylik belgisi mavjud . Oq rangning o'zida motamlilik ramzi bor. Ot esa to'rt oyoqli cho'bin tobutga ishoraliligi, otning ham oyog'i to'rtaligidan ishora , belgi beryapti.

Umumiy ma'no esa u dunyoning yaqin kelayotganligi ,vafot etishlikni oldindan tush orqali ushbu vositalarni ramz qilib sezdirib qo'ymoqda.

Tushda ko'riladigan ilonlar, chayonlar arvoth ramzi sifatida keladi. Deyarli bunday tushlar ko'p. Tushda ko'riladigan turli xildagi voqea -hodisalar mavjud . Ularning tag ma'nosida ildizida ramz vositasi turadi. Bu holatlarni insonni o'zi tafakkuri ostida o'laydi va nimaga ishoraligini anglaydi.

Masalan tushda oq holva ko'rilsa yaxshilik, xursandchilik, baxt ramzi sifatida. Tushda baliq obrazi ko'rilsa bolasi nobut bo'lishlik ramzi sifatida keladi. Chunki uning sababi baliqning bola tashlaydigan xususiyati borligia ishora, bu esa ramziy ma'no kasb etmoqda. Tilla -taqinchoqlar ham tushda ramz bo'lib kela oladi. Bu tug'iladigan farzandning jinsini ya'ni o'g'il yo qiz farzand ekanligini ishora qilib ko'rsatadi. Tush yuzasidan bo'ladigan turli belgilarning xususiyatlari ham ramziylikka ega. Inson tush ko'radi .U yaxshi yo yomon bo'lishi mumkin. Uning ijobiy yo salbiyligi tushdagi ma'lum bir belgiga ishora qiladi. Masalan inson tushida oq otga ,oq libosda hurlar kabi kiyinib o'sha otdan tushmay chopib borayotgan bo'ladi. Bu yerda oq ot - dev ramzi, oq libos - kafan ramzi ,hurlarday bo'lishlik - u dunyoga ravona bo'lish ramzini bildiradi. Bu tushning umumiy yaxlit ramzi sifatida tushda ko'rilgan shaxsning yaqin kunlarda bu dunyoni tark etishidan dalolat beradi. Bu tush aynan o'sha xondon sohiblarining birida bo'ladi . Chunki oldindan ularga tush orqali belgi berib bildirib, sezdirib quyish maqsadida. Bu tushda mana predmet, shaxs, hayvon kabi belgilar ramzning yaqol ko'rinishidan e'tiborga molikdir. Yana tushlarda turli ko'rinishda ramzlar namoyon bo'lishi mumkin. Tushda ko'riladigan hayvonlar arvoth ramzida ,dev ramzida turli belgilarga ishora qiladi. Tushda oq otda insonning chopib borishida ham ramziylik belgisi mavjud . Oq rangning o'zida motamlilik ramzi bor. Ot esa to'rt oyoqli cho'bin tobutga ishoraliligi, otning ham oyog'i to'rtaligidan ishora , belgi beryapti. Umumiy ma'no esa u dunyoning yaqin kelayotganligi, vafot etishlikni oldindan tush orqali ushbu vositalarni ramz qilib sezdirib qo'ymoqda. Tushda ko'riladigan ilonlar, chayonlar arvoth ramzi sifatida keladi. Deyarli bunday tushlar ko'p. Tushda ko'riladigan turli xildagi voqea -hodisalar mavjud . Ularning tag ma'nosida ildizida ramz vositasi turadi. Dostonlarda , qissa va hikoyatlarda tush motivi mavjud bo'lib, so'ng uning tabiri ramziylikka ,belgiga ishora tarzida namoyon bo'ladi .Masalan : Qur'ondagi Yusuf qissasida Yusuf

(a.s) tush ko'radi. Tushida 11 yulduz, quyosh va oy unga sajda qilayotganini ko'radi. Tushning tabirining ramzi sifatida, 11 yulduz, quyosh va oyning sajda qilishi Yusufning yuqori martabaga erishib, aka-ukalari va ota-onasi uning huzurida kelib unga hurmat ko'rsatishidan dalolat beradi. Tush insonlarni oldindan bo'ladigan voqea-hodisalardan ogoh qiladi, yo'l ko'rsatadi, xabardor qiladi va ramzlar orqali ishora qilib bilintirib qoyadi.

Xulosa: Ramzlar til va madaniyat tizimida muhim semantik birlik hisoblanadi. Ularning asosiy xususiyatlari ko'p qatlamlilik, assotsiativlik va madaniy shartlanganlik bilan belgilanadi. Tush ramzlari esa inson psixologiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning ichki kechinmalarini aks ettiradi. Ramzlarni o'rganish badiiy matnlarni chuqurroq anglash va inson tafakkurini tahlil qilishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

Losev A. F. Problema simvola i realisticheskoye iskusstvo. Moskva, 1976.

Toporov V. N. Mif. Ritual. Simvol. Moskva, 1995.

Veselovskiy A. N. Istoricheskaya poetika. Moskva, 1989.

Tokarev S. A. Mifologiya narodov mira. Moskva, 1991

Vladimir Propp. Morfologiya skazki. — Leningrad, 1928.

THE ROLE OF TERMINOLOGY IN KNOWLEDGE REPRESENTATION

Ruzmetova Ozoda Alimovna,

Associate professor, Doctor of philosophy in philological sciences (PhD)
Foreign Philology Faculty, The English Language and Literature department
Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni

Abstract: This article examines the role of terminology in knowledge representation, focusing on how terms structure, standardize, and facilitate the communication of specialized knowledge. Drawing on established theories in terminology studies and knowledge representation, the article highlights the importance of conceptual clarity, consistency, and systematic organization. It also discusses practical applications in information systems, artificial intelligence, and translation, as well as challenges such as terminological variation and rapid term evolution.

Key words: terminology, knowledge representation, conceptual clarity, standardization, information systems, artificial intelligence.

Annotatsiya: Ushbu maqola bilimlarni ifodalashda terminologiyaning rolini o'rganadi, jumladan, terminlar qanday qilib maxsus bilimlarni ifodalashda, standartlashtirishda va samarali kommunikatsiyada yordam berishini tahlil qiladi. Terminologiya tadqiqotlari va bilimlarni ifodalash nazariyalariga tayangan holda, maqola tushuncha aniqligi, izchillik va tizimli tashkil etishning ahamiyatini yoritadi. Shuningdek, maqolada terminologiyaning axborot tizimlarida, sun'iy intellektda va tarjimada qo'llanilishi kabi amaliy jihatlari hamda terminlarning o'zgaruvchanligi va tez paydo bo'ladigan yangi terminlar kabi muammolar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: terminologiya, bilimlarni ifodalash, tushunchaviy aniqlik, standartlashtirish, axborot tizimlari, sun'iy intellekt.

Аннотация: Эта статья рассматривает роль терминологии в представлении знаний, сосредотачиваясь на том, как термины структурируют, стандартизируют и облегчают коммуникацию специализированных знаний. Опираясь на устоявшиеся теории в области изучения терминологии и представления знаний, статья подчеркивает важность концептуальной ясности, последовательности и системной организации. Кроме того, обсуждаются практические приложения терминологии в информационных системах, искусственном интеллекте и переводе, а также такие проблемы, как вариативность терминов и быстрое появление новых терминов.

Ключевые слова: терминология, представление знаний, концептуальная ясность, стандартизация, информационные системы, искусственный интеллект.

лингвистическое и психолингвистическое явление, а также расширяют методологические подходы к анализу драматического дискурса.

Ключевые слова: драматический монолог, структура речи, драматический дискурс, скрытый диалог, адресатность, коммуникативная стратегия, прагматика, семантическая насыщенность, синтаксическая редукция, психологическая нагрузка, художественная речь

Kirish. Ma'lumki, dramatik asarda monolog qahramon nutqining eng murakkab va funksional jihatdan ko'p qatlamli shakllaridan biri bo'lib, u dramatik harakatning muhim semantik unsurlaridan biri hisoblanadi. Dramatik monolog epik asardagi monologdan farqli ravishda, nafaqat qahramonning ichki kechinmalarini ifodalash, balki sahnaviy vaziyatni harakatga keltirish, konfliktni chuqurlashtirish va tomoshabin yoki o'quvchiga bevosita kommunikativ ta'sir ko'rsatish vazifasini ham bajaradi. Shu bois dramatik monologni sof adabiy hodisa sifatida emas, balki lisoniy-kommunikativ birlik sifatida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. [1, 432]

Dramatik monolog dramatik matnning badiiy nutq shakli sifatida talqin qilinadi va u drama poetikasining o'ziga xosligini belgilovchi asosiy unsurlardan biridir. Nasriy matnda monolog ko'pincha muallif nutqi yoki rivoyatchi diskursi bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'lsa, dramatik matnda monolog muallif vositachiligisiz, to'g'ridan-to'g'ri personaj nutqi orqali ifodalanadi. Ya'ni dramatik monologda voqelik hikoya qilinmaydi, balki nutq jarayonida sodir bo'ladi. Shu jihatdan dramatik monolog dialogga qarama-qarshi qo'yiluvchi birlik emas, balki dramatik matn ichida dialog bilan bir qatorda harakat qiluvchi, ammo o'ziga xos lisoniy va pragmatik yuklamaga ega bo'lgan nutq shaklidir. [2, 1014]

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Dramatik monolog zamonaviy jahon tilshunosligi, adabiyot nazariyasi va teatr semiotikasida ko'p qirrali nutq hodisasi sifatida talqin qilinib, uning tabiati turli fanlar kesishmasida o'rganib kelingan. Ana shu ko'p yondashuvlilik dramatik monologning o'zi ham murakkab, ko'p qatlamli va polisistemaviy hodisa ekanini ko'rsatadi. Avvalo, M.Baxtinning dialogizm nazariyasi doirasida monolog mutlaqo mustaqil nutq shakli sifatida emas, balki dialogik tafakkurning bir ko'rinishi sifatida talqin qilinadi. Baxtinning fikricha, har qanday monolog ichida yashirin tarzda boshqa ovozlari, qarama-qarshi pozitsiyalar, tasavvurlar mavjud bo'ladi, shu bois monolog "yakka ovoqli" emas, balki ichki dialogik kuchga ega nutqdir. Olim monologni ko'p ovozlilikni bir nuqtaga jamlaydigan struktura sifatida ko'rib, personajning nutqiy mustaqilligi ham shartli ekanini ta'kidlaydi. Chunki monolog subyekti hamisha oldingi kontekstlar, ijtimoiy diskurslar va boshqa personajlarning nutqidan sezilarli darajada ta'sir oladi. [3, 424] Bu yondashuv monologning mazmuniy qatlamlarini kengaytiradi, uning ichki murakkabligini va subtekstual dialogik maydonini ochib beradi.

I.R.Galperin monologni matnning mantiqiy-kompozitsion yaxlitligi bilan bog'lab, tema-rema munosabatlari, leksik takrorlar, parallel sintaktik konstruktsiyalar hamda frazeologik birliklarning qo'llanishi monologning ichki izchilligini ta'minlovchi vositalar ekanini ko'rsatadi. [4, 138] Z.Y.Turayeva esa monologni matnning lingvopoetik xususiyatlari bilan bog'lab, undagi semantik rivojlanish jarayonini, mantiqiy ketma-ketlikni, kompozitsion markazlarni tahlil qiladi. Bu tadqiqotchilarning fikricha, monolog faqat dramatik matnning sahnaviy bo'lagi bo'lib qolmay, balki matnshunoslikning mustaqil tadqiq obyektidir. [5, 127]

Dramatik monologning lisoniy xususiyatlari, avvalo, uning adresatga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Formal jihatdan monolog yakka nutq shakli bo'lsa-da, u har doim yashirin yoki ochiq adresatni nazarda tutadi. Bu adresat sahnadagi boshqa personaj, tomoshabin yoki o'quvchi bo'lishi mumkin. Shu sababli dramatik monolog kommunikativ nuqtayi nazardan "soxta yakka nutq" sifatida baholanadi. Unda nutq subyekti bitta bo'lsa-da, kommunikativ vaziyat dialogik xarakter kasb etadi. Dramatik monologda sintaktik konstruktsiya ko'pincha ellipsis, takror, ritorik savol va pazalar bilan xarakterlanadi. Ushbu birliklar qahramonning psixologik holatini, ichki ziddiyatini va nutq jarayonidagi emotsional keskinlikni ifodalashga xizmat qiladi. [6, 416] Prosodik jihatdan

esa dramatik monolog ohang, urg'u, tembr va pauzalar orqali boyitiladi. Bu xususiyatlar dramatik monologni sof lingvistik birlikdan sahnaviy nutqqa aylantiradi.

Tilshunoslik va adabiyotshunoslikda dramatik monolog masalasi turli yo'nalishlarda tadqiq qilingan. Xususan, M.H.Abrams [7, 134] dramatik monologni bir personaj tomonidan aytiladigan, ammo bilvosita tinglovchini nazarda tutuvchi nutq shakli sifatida ta'riflaydi. R.Langbaum dramatik monologni qahramon niyatini bevosita nutq orqali ochib beruvchi poetik shakl deb baholaydi. [8, 134] M.Pfister esa dramatik monologni dramatik matnning ichki kommunikativ mexanizmi sifatida talqin qilib, uning sahnaviy harakat bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi. [9, 233]

Keir Elam teatr va drama semiotikasi doirasida dramatik monologni verbal va noverbal belgilar kesishgan nuqta sifatida izohlaydi. [10, 112] Uning fikricha, dramatik monolog sahnada faqat og'zaki nutq emas, balki harakat, makon va vaqt bilan birgalikda yaxlit butunlikni hosil qiladi. Ann Ubersfeld esa dramatik monologni o'qish va sahna talqini o'rtasida joylashgan murakkab nutq shakli sifatida baholab, unda subtekst va yashirin ma'nolar muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. [11]

Natijalar va muhokama. Dramatik monologning lisoniy tabiatini chuqurroq anglash uchun uni dramatik diskurs doirasida ko'rib chiqish zarur. Dramatik diskurs – bu faqat personajlar o'rtasidagi nutq almashinuvi emas, balki sahnaviy vaziyat, makon, vaqt va kommunikativ niyatlarning o'zaro kesishgan murakkab tizimidir. Ushbu tizimda dramatik monolog personaj nutqining maksimal darajada konsentratsiyalashgan shakli sifatida namoyon bo'lib, dramatik konflikt va g'oyaviy yukning muhim qismini o'zida jamlaydi. Dramatik monolog ko'pincha dramatik asarning kulminatsion nuqtalarida qo'llanilib, qahramonning ichki ziddiyati, axloqiy tanlovi yoki ruhiy inqirozini ochib berishga xizmat qiladi. Shu jihatdan u faqat nutqiy birlik emas, balki dramatik harakatni chuqurlashtiruvchi psixolingvistik hodisa sifatida ham talqin etiladi. Qahramon monologi orqali tomoshabin yoki o'quvchi dramatik vaziyatni tashqi harakatlar emas, balki ichki nutq va tafakkur jarayoni orqali idrok etadi. Dramatik monologning lisoniy tuzilishida modallik kategoriyasi alohida o'rin tutadi. Monologda qahramonning munosabati, bahosi, shubha va ishonchi modal so'zlar, fe'l zamonlari, shart mayli, inkor shakllari orqali ifodalanadi. Zamonaviy ingliz matnshunoslari Lich va Short ta'kidlaganidek, dramatik monologda modal birliklar nutq subyektining psixologik holatini tasvirlashning asosiy vositalaridan biridir. Ayniqsa, shubha, ikkilanish va ichki qarama-qarshilik holatlarida modal konstruksiyalar monologning semantik yadrosini tashkil etadi. Dramatik monologning sintaktik jihatdan tahlili shuni ko'rsatadiki, unda to'liq grammatik tuzilmalar bilan bir qatorda, to'liqsiz gaplar, sintaktik uzilishlar keng qo'llaniladi. Bu holat qahramon tafakkurining uzluksiz va tartibsiz oqimini ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu sintaktik xususiyatlar dramatik monologni epik monologdan farqlaydi, chunki epik matnda muallif nutqi sintaktik jihatdan nisbatan barqaror va izchil bo'ladi. [12]

Pragmatik nuqtayi nazardan dramatik monolog nutq aktlari nazariyasi asosida ham tahlil qilinadi. Monolog tarkibida bayon, buyruq, iltimos, tahdid, o'zini oqlash kabi turli illokutiv aktlar mujassam bo'lishi mumkin. Shu sababli dramatik monolog ko'pincha monofunksional emas, balki polifunksional nutq birligi sifatida namoyon bo'ladi. Qahramon bir vaqtning o'zida o'ziga murojaat qilishi, boshqa personajga ta'sir ko'rsatishi va tomoshabinga yashirin xabar uzatishi mumkin. Narratologik yondashuvda dramatik monolog dramatik asarda hikoyaviylik funksiyasini qisman bajaruvchi birlik sifatida baholanadi. [13, 34] An'anaviy dramada hikoyachi mavjud bo'lmagani sababli, voqealar rivoji, vaqt o'zgarishi va sabab-oqibat munosabatlari ko'pincha monologlar orqali anglashiladi. Shu jihatdan dramatik monolog dramatik matnning narrativ bo'shliqlarini to'ldiruvchi mexanizm vazifasini bajaradi.

O'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida monolog masalasi nutq turlari nazariyasi, badiiy nutq strukturasi hamda psixologik tasvir muammolari bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etilgan. Mavjud ilmiy qarashlar monologni faqat nutq shakli sifatida emas, balki obraz tafakkuri va ruhiy holatini ochib beruvchi murakkab lingvopoetik hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi. Bu yondashuv monologni badiiy matnning ichki harakatini ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan

biri sifatida ko‘rishga asos yaratadi. Xususan, D.Quronov monologni badiiy nutqning yetakchi shakllaridan biri sifatida baholab, uning asosiy vazifasi voqealar rivojini emas, balki obrazning ichki dunyosini ochishdan iborat ekanini ta’kidlaydi. [14] Ushbu fikr monologning lingvistik va poetik tabiatini anglashda muhim ahamiyatga ega, chunki monologda tashqi harakat emas, balki ichki ruhiy jarayonlar til birliklari orqali modellashtiriladi. Demak, monolog badiiy matnda semantik yuklamasi yuqori bo‘lgan ichki nutq shakli sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek adabiyotshunosligida dramatik monolog masalasi asosan dialog bilan qiyosiy tarzda talqin qilinib, uning dramatik konfliktini ochishdagi roli alohida ta’kidlanadi. [15] T.Boboyev va I.Sulton ishlari dramatik monologni personaj xarakterini ochuvchi muhim nutqiy vosita sifatida baholaydi. M.Yo‘ldoshev tadqiqotlarida esa monolog badiiy nutqning stilistik shakli sifatida tahlil qilinadi. [16]

Monologning lingvistik asoslarini yoritishda nutqiy faoliyat va kommunikativ maqsad masalalari ham muhim o‘rin tutadi. F.Sholimovning monologik nutqni shakllantirishga oid tadqiqotlarida monolog nutqining tuzilishi, semantik rivoji va kommunikativ yo‘naltirilganligi lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda monologik nutqning til birliklari orqali rejalashtirilishi, fikrning izchil bayon qilinishi va mazmunning mantiqiy yakunlanishi uning asosiy lingvistik belgilaridan biri sifatida ko‘rsatiladi. [17] Bu holat monologni til tizimi va nutq faoliyatining uzviy mahsuli sifatida tushuntirishga xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunos olimlarining tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, monolog nutqi lingvistik jihatdan ko‘p qatlamli tuzilishga ega bo‘lib, unda sintaktik izchillik, semantik zichlik va leksik tanlov alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ichki monologda til birliklari qisqargan va emotsional jihatdan boy shaklda namoyon bo‘lib, bu holat qahramon ongida kechayotgan tafakkur jarayonlarining lingvistik aksini tashkil etadi. Shu jihatdan monologik nutq o‘zbek tilshunosligida nafaqat kommunikativ hodisa, balki tafakkur va til munosabatlarini ifodalovchi murakkab lingvistik birlik sifatida baholanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, dramatik monolog lisoniy, kommunikativ va semiotik jihatdan murakkab hamda ko‘p qatlamli nutq hodisasi bo‘lib, u dramatik matnda qahramonning ichki dunyosini ochish, konfliktini chuqurlashtirish va sahnaviy harakatni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Monolog dialogdan ajralgan holda emas, balki u bilan uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritib, dramatik diskursning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning til qurilishi qahramonning psixologik holatini, ichki ziddiyatlarini va emotsional keskinligini ifodalashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, dramatik monolog adresatga yo‘naltirilganligi sababli kommunikativ jihatdan “yakka nutq” bo‘lishiga qaramay, dialogik xususiyat kasb etadi. Turli lingvistik, adabiy va semiotik yondashuvlar dramatik monologning nafaqat matn ichidagi, balki sahnaviy ijrodagi ahamiyatini ham ochib beradi. Demak, dramatik monologni tahlil qilish dramatik asarning mazmuniy, estetik va kommunikativ butunligini anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Abrams M. H., Harpham G. A glossary of literary terms. – 10th ed. – Boston, MA : Cengage Learning, 2015. – 432 p.
2. Cuddon J. A. The Penguin Dictionary of Literary Terms and Literary Theory. – 4th ed. – London : Penguin Books, 2000. – 1014 p.
3. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. – М. : Искусство, 1979. – 424 с.
4. Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М. : Наука, 1981. – 138 с.
5. Тураева З. Я. Лингвистика текста. – М. : Просвещение, 1986. – 127 с.
6. Baldick C. The Oxford Dictionary of Literary Terms (4th ed.). – Oxford: Oxford University Press. 2015, –P., 416.
7. Abrams M.H., Harpham, G. A glossary of literary terms (11th ed.). – Boston, MA: Cengage

Learning. 2015 –P., 70.

8. Langbaum R. The poetry of experience: The dramatic monologue in modern literary tradition. –London: Chatto and Windus. 1957. –P., 134.

9. Pfister M. The theory and analysis of drama (J. Halliday, Trans.). – Cambridge: Cambridge University Press. 1988. –P., 233.

10. Elam K. The semiotics of theatre and drama. –London: Methuen. 1980. –P., 112.

11. Ubersfeld A. Reading theatre (F. Pavis, Trans.). –Toronto: University of Toronto Press. 1999.

12. Leech G., Short, M. Style in fiction: A linguistic introduction to English fictional prose (2nd ed.). Harlow, –England: Pearson Education. 2007.

13. Prince G. A dictionary of narratology. –Lincoln, NE: University of Nebraska Press. 2003. –P.,34.

14. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akadernashr, 2018.

15. Boboyev T.A. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi. 1979.

16. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili. – Toshkent: Fan. 2008.

17. Shoimova F. The methodology for instructing foreign monologue speaking // Samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar jurnali. – Toshkent, 2025.

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA “ZIG-ZAG” METODIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

*Abdukarimova Rayxona Akmalovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada matematika fanini o‘qitishda interfaol metodlardan biri bo‘lgan “Zig-zag” metodining pedagogik imkoniyatlari va samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarni faol o‘quv jarayoniga jalb etish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda jamoaviy hamkorlik asosida bilimlarni o‘zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida “Zig-zag” metodining matematik mavzularni o‘qitishda qo‘llash bosqichlari, uning afzalliklari hamda ta’lim samaradorligiga ta’siri o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ushbu metod ta’lim oluvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradi, analitik fikrlashni kuchaytiradi va o‘quv materialini chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: interfaol metodlar, zig-zag metodi, matematika ta’limi, pedagogik texnologiyalar, jamoaviy o‘qitish, analitik fikrlash.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДА «ЗИГЗАГ» ПРИ ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ

*Абдукаримова Райхона Акмаловна,
Магистрант Бухарского государственного педагогического института*

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические возможности и эффективность использования интерактивного метода «Зигзаг» при обучении математике. В условиях современной системы образования особое значение приобретает активное вовлечение обучающихся в учебный процесс, развитие их самостоятельного мышления и формирование навыков коллективной работы. В ходе исследования были проанализированы этапы применения метода «Зигзаг» при изучении математических тем, а также его влияние на эффективность обучения. Полученные результаты показывают, что использование данного метода способствует развитию коммуникативных компетенций обучающихся, повышает уровень аналитического мышления и обеспечивает более глубокое усвоение учебного материала.

Ключевые слова: интерактивные методы, метод «зигзаг», обучение математике, педагогические технологии, коллективное обучение, аналитическое мышление.

THE EFFECTIVENESS OF USING THE “ZIGZAG” METHOD IN TEACHING MATHEMATICS

*Abdukarimova Rayxona Akmalovna,
Master’s Degree Student at Bukhara State Pedagogical Institute*

Abstract: This article analyzes the pedagogical potential and effectiveness of the “Zigzag” interactive method in teaching mathematics. In the modern educational system, special attention is given to engaging students actively in the learning process, developing their independent thinking skills, and fostering collaborative learning. The study examines the stages of implementing the “Zigzag” method in teaching mathematical topics and evaluates its impact on the effectiveness of the educational process. The results indicate that the use of this method contributes to the development of students’ communicative competencies, enhances analytical thinking, and promotes deeper understanding of learning materials.

Keywords: interactive methods, zigzag method, mathematics education, pedagogical technologies, cooperative learning, analytical thinking.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda takomillashib bormoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni hal qila olish qobiliyatlarini shakllantirish hamda o'quv jarayonida faol ishtirokini ta'minlashdan iborat.

An'anaviy o'qitish metodlarida o'qituvchi asosiy axborot manbai bo'lib, talabalar esa ko'proq passiv tinglovchi rolini bajaradi. Bunday yondashuv ko'pincha talabalarning ijodiy fikrlashi va mustaqil bilim olish qobiliyatini yetarli darajada rivojlantirmaydi. Shu sababli zamonaviy pedagogikada interfaol metodlardan foydalanish keng qo'llanilmoqda.

Interfaol metodlar talabalarning o'zaro muloqoti, hamkorligi va faol ishtirokiga asoslangan bo'lib, ular bilimlarni samarali o'zlashtirishga yordam beradi. Shunday metodlardan biri "Zig-zag" metodi hisoblanadi.

"Zig-zag" metodi o'quv materialini qismlarga ajratish va uni jamoaviy o'rganish orqali talabalarning bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu metod ayniqsa matematik fanlarni o'qitishda samarali hisoblanadi, chunki matematika ko'p bosqichli mantiqiy tahlilni talab qiladigan fanlardan biridir.

Matematika fanini o'qitishda talabalar ko'pincha murakkab nazariy tushunchalarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Interfaol metodlardan foydalanish esa ushbu jarayonni osonlashtiradi. "Zig-zag" metodidan foydalanish natijasida talabalar o'quv materialini qismlarga ajratib o'rganadi, so'ngra uni umumlashtirib, yaxlit bilim tizimini shakllantiradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi matematika fanini o'qitishda "Zig-zag" metodining pedagogik samaradorligini tahlil qilish va uning o'quv jarayoniga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlardan foydalanish talabalarning bilimlarni faol o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa matematika fanini o'qitishda bunday metodlar murakkab nazariy tushunchalarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtiradi. Interfaol metodlar o'quv jarayonini talabalarga yo'naltirilgan holda tashkil etishga yordam beradi hamda ularning bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu jihatdan "Zig-zag" metodi matematika ta'limida samarali pedagogik vositalardan biri sifatida qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida bir qator pedagogik va ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan:

- pedagogik kuzatuv;
- taqqoslash tahlili;
- eksperimental o'qitish;
- statistik tahlil.

Tadqiqot oliy ta'lim muassasasida matematika fanini o'rganayotgan talabalar ishtirokida olib borildi. Eksperiment jarayonida talabalar ikki guruhga bo'lindi:

Nazorat guruhi – an'anaviy o'qitish metodlari qo'llanildi.

Tajriba guruhi – "Zig-zag" metodi asosida o'qitish tashkil etildi.

Tajriba davomida quyidagi matematik mavzular o'rganildi:

- ko'pburchaklar;
- trigonometrik funksiyalar;
- natural sonlar ustida bajariladigan amallar xossalari.

"Zig-zag" metodini qo'llash jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi.

1-bosqich. O'quv materialini qismlarga ajratish

O'qituvchi o'rganiladigan mavzuni bir necha mantiqiy tugallangan qismlarga ajratdi.

2-bosqich. Boshlang'ich guruhlarni tashkil etish

Talabalar kichik guruhlarga bo‘lindi. Har bir guruh a‘zosi o‘quv materialining ma‘lum bir qismini o‘rganish uchun mas‘ul etib tayinlandi.

3-bosqich. Ekspert guruhlarini shakllantirish

Bir xil raqamli talabalar birlashib ekspert guruhlarini tashkil etdi. Bu guruhda ular o‘zlariga berilgan materialni chuqur o‘rganib chiqdi.

4-bosqich. Axborot almashish

Ekspertlar o‘z boshlang‘ich guruhlariga qaytib, o‘rganilgan materialni boshqa guruh a‘zolariga tushuntirdi.

5-bosqich. Baholash

Talabalarining bilim darajasi quyidagi usullar orqali baholandi:

test topshiriqlari;

yo‘zma ishlar;

savol-javoblar;

taqdimotlar.

1-jadval - An‘anaviy metod va “Zig-zag” metodining taqqoslanishi

O‘qitish usuli	Talabalar faolligi	Bilimni o‘zlashtirish	Jamoaviy ishlash
An‘anaviy metod	Past	O‘rtacha	Kam
“Zig-zag” metodi	Yuqori	Yuqori	Kuchli

An‘anaviy o‘qitish metodlari va “Zig-zag” metodining samaradorligi 1-jadvalda keltirilgan.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, “Zig-zag” metodidan foydalanish talabalarining o‘quv jarayonidagi faolligini sezilarli darajada oshiradi.

Ekspert natijalariga ko‘ra:

talabalar o‘rtasida o‘zaro muloqot kuchaydi;

jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllandi;

murakkab matematik tushunchalarni tushunish osonlashdi.

Tajriba guruhi talabalarining bilim ko‘rsatkichlari nazorat guruhi bilan solishtirilganda yuqoriroq bo‘ldi. Ayniqsa quyidagi ko‘rsatkichlar sezilarli darajada oshdi:

tahliliy fikrlash darajasi;

mustaqil ishlash ko‘nikmasi;

mavzuni tushuntirib berish qobiliyati.

Talabalar o‘z fikrlarini erkin bayon qila boshladi va dars jarayonida faol ishtirok etdi.

Ekspert davomida talabalar bilim darajasini aniqlash uchun test natijalari ham tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida o‘qigan talabalar nazorat guruhiga nisbatan matematik tushunchalarni ancha chuqurroq o‘zlashtirgan. Ayniqsa muammoli masalalarni yechishda turli yondashuvlardan foydalanish darajasi yuqori bo‘ldi. Bu esa “Zig-zag” metodining talabalarining analitik fikrlashini rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatadi.

2-jadval - Eksperiment natijalarining taqqoslanishi

Guruh	O'rtacha test natijasi	Faollik darajasi
Nazorat guruhi	68 %	O'rtacha
Tajriba guruhi	85 %	Yuqori

Eksperiment natijalarining umumiy ko'rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

Muhokama. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, "Zig-zag" metodi matematika fanini o'qitishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

Ushbu metodning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydi.

Jamoaviy hamkorlikni rivojlantiradi.

Murakkab nazariy materialni qismlarga ajratib o'rganishga imkon beradi.

Analitik va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Shuningdek, ushbu metod talabalarni bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki uni faol ravishda shakllantiruvchi subyektga aylantiradi.

Biroq metodni qo'llash jarayonida ayrim qiyinchiliklar ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan:

dars jarayonida shovqin-suron bo'lishi;

vaqtni to'g'ri taqsimlash zarurati;

barcha talabalarni teng darajada jalb etish masalasi.

Shu sababli o'qituvchi dars jarayonini to'g'ri tashkil etishi va guruhlar faoliyatini samarali boshqarishi muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, "Zig-zag" metodini qo'llash talabalarda o'zaro hamkorlik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Talabalar o'quv materialini birgalikda o'rganish jarayonida bir-birining fikrini tahlil qiladi, muammoli vaziyatlarni muhokama qiladi va umumiy xulosaga keladi. Bu esa o'quv jarayonining samaradorligini yanada oshiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, "Zig-zag" metodi matematika fanini o'qitishda samarali interfaol metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu metod yordamida talabalar murakkab matematik tushunchalarni chuqurroq o'zlashtiradi, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda o'z fikrlarini erkin ifoda etishni o'rganadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "Zig-zag" metodini matematika fanini o'qitishda qo'llash o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi va talabalarning bilim darajasini yaxshilaydi.

Kelgusida ushbu metodni boshqa matematik fanlar hamda turli ta'lim bosqichlarida qo'llash bo'yicha qo'shimcha ilmiy tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, "Zig-zag" metodidan foydalanish o'qituvchilarga dars jarayonini innovatsion tarzda tashkil etish imkonini beradi. Bu metod talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish bilan birga, ularning bilimlarni tizimli ravishda o'zlashtirishiga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019.

Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2017.

Azizxodjaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2016.

Johnson D., Johnson R. Active Learning in Education. – New York, 2018.

Egamberdiyev R. Matematika ta'limida innovatsion metodlardan foydalanish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 198 b.

Shodmonov Sh. Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. – Toshkent: Fan, 2019. – 210 b.

Safarova N.N. The importance of professional skills in developing the competence of mathematics teachers in modern education // Education and Innovative Research. – Bukhara, 2023. – №8. – pp. 212–222.

Safarova N.N., Abdugarimova R.A. Private methodology of teaching mathematics // Scientist of the XXI Century. – 2022. – №3 (94). – pp. 35–36.

Safarova N.N., Abdugarimova R.A. “Pedagogik kompetentlik va kreativlik” // Uslubiy qo‘llanma. –Buxoro. “Buxara Hamd Print” nashryoti, 2022. –188 b.

Safarova N.N., Abdugarimova R.A. “Matematikani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” // O‘quv-metodik qo‘llanma. –Buxoro. “Buxara Hamd Print” nashryoti, 2023. – 108 b.

TALABALARDA SOG'LOM MA'NAVİY MUHITGA QADRIYATLI MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Davronova Dildora Saidovna,

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida dotsenti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)*

Mazkur maqolada talabalarda sog'lom ma'naviy muhitga qadriyatli munosabatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ilmiy – nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek maqolada, qadriyatlar tizimi, ma'naviy orientatsiyalar va ularning talaba yoshlar shaxsiy rivojlanishi, motivatsiya va emotsional-intellektual faoliyati bilan bog'liqligi ham ko'rib chiqilgan. Bu tahlil sog'lom ma'naviy muhitni barqarorlashtirishda pedagogik strategiyalar va psixologik metodlarni samarali qo'llash imkoniyatlarini belgilaydi.

Kalit so'zlar: sog'lom ma'naviy muhit, talaba, tarbiya, qadriyatli munosabat, ma'naviy tarbiya, ijtimoiy-psixologik rivojlanish, axloqiy tarbiya, shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlar, o'quv jarayonida tarbiya, pedagogik strategiya, psixologik metodlar

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЦЕННОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫХ ОТНОШЕНИЙ СО ЗДОРОВОЙ ДУХОВНОЙ СРЕДОЙ У СТУДЕНТОВ

Давронова Дилдора Саидовна,

Доцент кафедры «Педагогика и психология», Узбекский государственный университет мировых языков. Доктор философии в области педагогических наук

В данной статье научно и теоретически анализируются педагогические и психологические особенности формирования у учащихся ценных установок в отношении здоровой духовной среды. Кроме того, в статье рассматривается система ценностей, духовные ориентиры и их связь с личностным развитием, мотивацией и эмоционально-интеллектуальной деятельностью молодых учащихся. Анализ выявляет возможности эффективного применения педагогических стратегий и психологических методов в создании здоровой духовной среды.

Ключевые слова: здоровая духовная среда, ученик, воспитание, ценностно-ориентированное отношение, духовное воспитание, социально-психологическое развитие, нравственное воспитание, личностные и социальные ценности, воспитание в образовательном процессе, педагогическая стратегия, психологические методы

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING VALUE- ORIENTED RELATIONSHIPS WITH A HEALTHY SPIRITUAL ENVIRONMENT IN STUDENTS

Davronova Dildora Saidovna,

*Associate Professor, Department of Pedagogy and Psychology, Uzbek State University of
World Languages*

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences

This article provides a scientific and theoretical analysis of the pedagogical and psychological aspects of developing students' valuable attitudes toward a healthy spiritual environment. Furthermore, the article examines the value system, spiritual guidelines, and their connection to the personal development, motivation, and emotional-intellectual activity of young students. The analysis reveals opportunities for the effective application of pedagogical strategies and psychological methods in creating a healthy spiritual environment.

Key words: healthy spiritual environment, student, education, value-oriented attitude, spiritual education, social and psychological development, moral education, personal and social values, education in the educational process, pedagogical strategy, psychological methods

Jahonda ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y berayotgan bugungi kunda, talabalarda sog'lom ma'naviy muhitga qadriyatli munosabatlarni shakllantirish orqali sog'lom raqobat muhitini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va o'zgarmoqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o'zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqea hodisalar sodir bo'lmoqda. Har bir kunimiz kuchli yangilik oqimi ostida kechmoqda. Axborot oqimi bizni har joyda, uyda, ishxona va hattoki ta'tilda ham ta'qib etadi. Inson axborot ta'siridan holi normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o'rganish axborotlarni yig'ish va o'zlashtirish orqali kechadi. [1]

Insonning bilimlilik darajasi ham ma'lum davr ichida shaxs tomonidan o'zlashtirilgan axborotlarning ko'r yoki ozligi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning nafaqat bilim olish darajasi, balki ularning axborotni tanlash, tahlil qilish va unga ongli munosabat bildirish qobiliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Axborotlar oqimining keskin ortib borishi sharoitida talabalarda sog'lom ma'naviy muhitga qadriyatli munosabatlarni shakllantirish — ularni turli salbiy ta'sirlardan himoya qilishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi tezkor o'zgaruvchan dunyoda yoshlar turli g'oyaviy, madaniy va axborot bosimlariga duch kelmoqda. Shuning uchun ham ularda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va axborotni saralash ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Aynan sog'lom ma'naviy muhit va to'g'ri shakllangan qadriyatlar tizimi talabalarni zararli axborotlardan ajrata olish, ijtimoiy hayotda faol va mas'uliyatli ishtirok etishiga yordam beradi. Bundan tashqari, sog'lom ma'naviy muhit talabalarda sog'lom raqobatni shakllantirish uchun ham muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki bunday muhitda raqobat:

- halollik va adolat tamoyillariga asoslanadi;
- o'zaro hurmat va hamkorlik bilan uyg'unlashadi;
- shaxsiy rivojlanishga xizmat qiladi, destruktiv emas, konstruktiv xarakterga ega bo'ladi.

Bugungi ta'lim jarayonida "bilaman" va "bilmayman" tushunchalari nafaqat bilim darajasini, balki axloqiy bahoni ham ifodalay boshlaydi, ya'ni ular "yaxshi" va "yomon" mezonlari bilan uyg'unlashadi. Shu asosda talabaning ongida olamning yaxlit va ko'p darajali obrazi shakllanib, unda o'zini va boshqalarni anglash, makon va zamon hodisalarini tushunish jarayoni yuz beradi. Bu jarayon bevosita o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik orqali amalga oshadi.

Aynan shuning uchun ham qadriyatli munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirishda tanlangan pedagogik strategiya muhim ahamiyat kasb etadi. To'g'ri yo'lga qo'yilgan o'qituvchi-talaba hamkorligi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni sog'lom ma'naviy muhitni vujudga keltiradi va unda talabaning axloqiy, intellektual hamda ijtimoiy rivoji uyg'un tarzda ta'minlanadi.

Natijada, talabalarda nafaqat yuqori bilim olishga intilish, balki o'z ustida ishlash, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish kabi muhim sifatlar shakllanadi. Shu bois, pedagogik jarayonda talabalarning ma'naviy dunyosini boyitish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, hamda zamonaviy axborot muhitida to'g'ri yo'nalish bera olish — sog'lom va raqobatbardosh avlodni shakllantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.[8]

Sh.Mardonov ochiq onlayn internet maqolasida "Qadriyatli munosabatni shakllantirishning o'ziga xosligi shundaki, unda atrof olamni anglash (bilish) ulg'ayib borayotgan kishida boshqalar ishtirokida sodir bo'ladi, demakki, bilimlarni boshqalar orqali qabul qilib olish, ikki marotaba emotsional tusga ega: o'qituvchi shaxsiy emotsional bahosi hamda bolaning o'z tuyg'usi"-ekanligi e'tirof etib o'tilgan. [3]

Qadriyatlar – falsafiy kategoriya bo'lib, insoniyatning ma'naviy taraqqiyoti yo'lida erishgan muhim yutuq'i sifatida vujudga keldi. U olamdagi narsa, hodisa va jarayonlar mohiyatini inson hamda jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan bilish, idrok etish yo'lidagi muhim qadam, mohiyatni bilishga yangicha yondashishdir.[2]

Faylasuf Q. Nazarov o'z monografiyasida ta'kidlaganidek, insoniyat taraqqiyotining tub o'zgarish nuqtalari va ijtimoiy-siyosiy transformatsiyalar davrida “qadriyat nima?” degan savol tabiiy ravishda paydo bo'ladi, chunki tarixiy rivojlanish asosan qadriyatlar tizimining almashinuvi orqali namoyon bo'ladi.[4]

Muallifning fikrlarini mantiqiy davom ettirsak, qadriyatlar tizimining o'zgarishi ijtimoiy siyosiy transformatsiyalar bilan bog'liq jarayon sifatida hamda insoniyat taraqqiyoti va qadriyatlar almashinuvi nuqtai nazaridan tushuntirilishi mumkin. Aksiologiya falsafasi bu jarayonni ilmiy jihatdan tahlil qiladi va shu orqali talabalarda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishda muhim vosita vazifasini o'taydi. Pedagogik va psixologik jihatdan qadriyatlarning ahamiyati insonning axloqiy qarashlari, ijtimoiy faolligi va o'zaro munosabatlarini barqarorlashtirishga xizmat qiladi, shuningdek, ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyani samarali amalga oshirishni ta'minlaydi.

Talabalarda sog'lom ma'naviy muhitga qadriyatli munosabatni shakllantirish ko'p jihatdan o'qituvchining to'g'ri tanlangan pedagogik strategiyasiga bog'liq. Jumladan, o'quv jarayonida izlanish doirasini belgilash, faoliyatni baholash, mustaqillik darajasini rivojlantirish, individual va jamoaviy ishlarni uyg'unlashtirish hamda emotsional motivatsiyani qo'llab-quvvatlash orqali talabalarning muvaffaqiyatga erishishi ta'minlanadi. Bu esa ularda ijobiy qadriyatlar mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, o'quv predmetlarini integratsiyalash orqali turli fanlardagi bilimlarning o'zaro bog'liqligini anglash imkoniyati yaratiladi. Bu jarayon talabalarning bilimlarini tizimlashtirib, nazariy bilimlarning hayotiy ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Natijada, talabalarda ongli ravishda shakllangan qadriyatlar tizimi asosida sog'lom ma'naviy muhitga barqaror va mas'uliyatli munosabat qaror topadi.

Adabiyotlar tahliliga tayanib aytishimiz mumkinki talabalarda sog'lom ma'naviy muhitga qadriyatli munosabatlarni shakllantirish — bu ta'lim-tarbiya jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u talabalarni barkamol rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayon pedagogik va psixologik jihatdan quyidagi xususiyatlarga ega:

Talabalarda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish pedagogik jarayonda aniq maqsadga yo'naltirilgan, uzluksiz va tizimli yondashuvni talab etadi. Bu jarayon milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy yetuklikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, fanlararo integratsiya asosida ma'naviy qadriyatlarni barcha o'quv fanlari mazmuniga singdirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olish hamda oila, ta'lim muassasasi va jamiyat hamkorligini yo'lga qo'yish ushbu jarayon samaradorligini ta'minlaydi.

Talabalarda sog'lom ma'naviy muhitga qadriyatli munosabatni shakllantirish psixologik jihatdan ichki motivatsiya va ehtiyojlarni rivojlantirish, to'g'ri qadriyatlar tizimini shakllantirish hamda emotsional barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq. Bunday muhit talabalarda o'zini jamiyatning bir qismi sifatida anglash, ijtimoiy faollik va mas'uliyatni kuchaytiradi, shu bilan birga refleksiya va o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu jarayon ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, trening va psixologik mashg'ulotlar, muammoli vaziyatlar asosida o'qitish, rol o'yinlari, interaktiv metodlar hamda ustozning shaxsiy namunasiga tayangan holda samarali amalga oshiriladi.

Pedagogik adabiyotlar va lug'atlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qadriyatlar muammosi insoniyat tarixi davomida shakllanib, rivojlanib kelgan. Qadim zamonlardan oq inson o'zini o'rab turgan olam, jamiyat va insonlararo munosabatlarga baho berib, ularning qadri va ahamiyatini anglashga intilgan. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy muhitdagi global o'zgarishlar esa qadriyatlar mazmuni va namoyon bo'lish shakllarini yanada boyitib, ularni ilmiy jihatdan o'rganishga ehtiyojni

kuchaytirgan.

Qadriyatlar tizimi jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Chunki ular insonning axloqiy me'yorlari, dunyoqarashi va ijtimoiy xulq-atvorini belgilab beradi. Sog'lom ma'naviy muhit esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanadigan, insonparvarlik, o'zaro hurmat va hamjihatlik ustuvor bo'lgan ijtimoiy makon sifatida namoyon bo'ladi.

Qadriyatlar ma'naviy taraqqiyotning sifat jihatidan yangi bosqichidir. Ma'naviyat va qadriyat tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ma'naviyat qadriyat tushunchasiga nisbatan boy va keng qamrovli tushunchadir. Qadriyat ma'naviyat tarkibiga kiradi va uni rivojlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.[2]

Ma'naviy qadriyatlar inson kamoloti va dunyoqarashi rivojlanishida markaziy omil hisoblanadi. Ular qadriyatli orientatsiya etalonlariga intilishda talaba yoshlarning hayotiy tajribasi, maqsad va ustuvorliklarini o'z ichiga oladi hamda ma'naviy kamolotga erishish jarayonini tartibga soladi. SHuningdek, ma'naviy qadriyatlar yoshlar hayotida motivatsion, emotsional va intellektual sohalarni integral tizimda birlashtirib, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy faoliyatda samarali ishtirok etish imkonini beradi.

Qadriyatli orientatsiya etalonlari – bu talabalarning hayotiy faoliyatda, ijtimoiy munosabatlarda va shaxsiy qarorlar qabul qilishda yo'nalishini belgilaydigan asosiy qiymat va printsiplar tizimi sifatida tahlil qiladigan bo'lsak. uning asosiy xususiyatlari va turlari quyidagicha ilmiy uslubda qayd etishimiz mumkin:

Aksil qiymatlar va printsiplar – shaxsning ma'naviy qarashlari va axloqiy me'yorlari, masalan, adolat, hurmat, mas'uliyat, mehr muhabbat.

Shaxsiy rivojlanish yo'nalishi – individual maqsad va hayotiy orientirlar, o'zini rivojlantirish, bilim va malakaga intilish.

Ijtimoiy orientatsiyalar – jamiyat va boshqalar bilan munosabatlardagi qiymatlar, masalan, hamkorlik, solidarlik, ijtimoiy adolat.

Madaniy va ma'naviy qiymatlar – millat va jamiyat madaniyati, an'analar va umuminsoniy qadriyatlar (erkinlik, inson huquqlari, ilm va san'at qadri).

Ekologik va global qarashlar – atrof muhitni asrash, tabiat va insoniyat manfaatlari o'rtasida muvozanatni saqlash.

Ilmiy jihatdan qaralganda, qadriyatli orientatsiya etalonlari talabalar va yoshlarda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi, pedagogik va psixologik rivojlanishning barqarorligi uchun qiymatlar tizimini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur pedagogik-psixologik yondashuvlar natijasida talabalarda axloqiy yetuklik va ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyalari shakllanadi, ularning ijtimoiy faolligi hamda tashabbuskorlik darajasi ortadi. Natijada barqaror sog'lom psixologik muhit qaror topib, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan ongli va izchil munosabat mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда ижтимоиймаънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5938-сонли Фармони.

2.Adilova D. N Pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarida ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tizimini rivojlantirish (Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari misolida) Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. Toshkent 2022

3.Mardonov Sh.Q. Yangi ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. T.:Fan, 2006.-232 b.

4.Назаров, Қ. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). Тошкент: Файласуфлар миллий жамияти нашриоти, 2004.

5. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi.-T.: O'zbekiston, 1998.
6. Shayxova X., Nazarov Q. Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolat. – T.:O'zbekiston, 1992.
7. Shukurullo Mardonov, Saida Qodirova T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston PFITI b/b., p.f.d., prof., Qadriyatli munosabatni shakllantirishning o'ziga xosligi <https://doi.org/10.5281/zenodo.11186898>
8. Давронова Д.С. Влияние национальных традиций на образование детей в узбекских семьях. <https://interscience.uz/index.php/home/article/view/3292>

DIFFERENSIAL YONDASHUVGA ASOSLANGAN DASTURIY VOSITA YORDAMIDA O'QITISH METODIKASI

Fayziyev Nozim Asfandiyorovich¹, Yallayev Baxtiyor Salimovich²
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti¹,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi²

Annotasiya: Ushbu maqolada differensial yondashuvga asoslangan dasturiy vosita yordamida o'qitish metodikasi muhokoma qilingan. Hozirgi vaqtda jamiyatdagi jadal ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar tufayli shaxsning samarali kasbiy o'sishi uchun shart-sharoitlar keskin o'zgardi. Hozirgi kunda sifatli ta'lim berish, talabalarning malaka hamda qobiliyatlarini yuqori darajada rivojlantirish, pedagogika ta'lim yo'nalishida "axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanini differensial yondashuvga asoslangan dasturiy vosita yordamida o'qitish metodikasini takomillashtirish, shaxsiy va kasbiy o'sishda differensial yondashuvning istiqbolli yo'nalishlarini belgilashda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Kalit so'zlar: differensial yondashuv, dasturiy vosita, kasbiy faoliyatda qo'llash, metodika, takomillashtirish, ta'lim, kasbiy o'sish, zamonaviy pedagogika.

TEACHING METHODOLOGY USING SOFTWARE BASED ON DIFFERENTIAL APPROACH

Abstract: This article discusses the methodology of teaching using software tools based on a differential approach. Currently, due to rapid socio-economic changes in society, the conditions for effective professional growth of a person have changed dramatically. Currently, systematic work is being carried out to provide high-quality education, develop students' skills and abilities at a high level, improve the methodology of teaching the subject «application of information technologies in professional activities» in the pedagogical education field using software tools based on a differential approach, and identify promising areas of a differential approach in personal and professional growth.

Keywords: differential approach, software tool, application in professional activities, methodology, improvement, education, professional growth, modern pedagogy.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО ПОДХОДА

Аннотация: В данной статье рассматривается методология обучения с использованием программных средств, основанных на дифференцированном подходе. В настоящее время, в связи с быстрыми социально-экономическими изменениями в обществе, условия эффективного профессионального роста человека претерпели кардинальные изменения. В настоящее время ведется систематическая работа по обеспечению качественного образования, развитию навыков и способностей студентов на высоком уровне, совершенствованию методологии преподавания предмета «применение информационных технологий в профессиональной деятельности» в педагогической сфере с использованием программных средств, основанных на дифференцированном подходе, а также по выявлению перспективных направлений применения дифференцированного подхода в личном и профессиональном росте.

Ключевые слова: дифференциальный подход, программный инструмент, применение в профессиональной деятельности, методология, совершенствование, образование, профессиональный рост, современная педагогика.

Kirish. Pedagogika ta'lim yo'nalishida "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanini an'anaviy ta'lim metodikasida o'quv mashg'ulotlari asosan dars beruvchi tomonidan doskada, bo'r, video proyektor, elektron doska, katta manitor va boshqalarda oddiy slaydlar asosida tushuntiriladi. Kompyuter vositalari va axborot texnologiyalari yordamida "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanidan dars berishda o'quv materiallarini modellar yordamida namoyish qilish orqali ta'lim oluvchilarga tushuntirish mumkin. "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanini o'qitish boshqa fanlarga nisbatan alohida o'rinda turadi. Buning boisi, "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fani zamonaviy kompyuter va dasturiy ta'minotning asosini tashkil etadi. "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanining ma'ruza mashg'uloti mavzulari asosiy hisoblanib, bu bo'limlarni o'zlashtirgan o'quvchilarda dasturiy ta'minot yaratish uchun kerakli bilim va ko'nikma hosil bo'ladi. Shuning uchun ta'lim oluvchilarga ushbu mavzularni o'zlashtirishlari maqsadida kerakli amaliy va nazariy bilimlarni berish lozim. Hozirgi zamon ta'lim tizimida ushbu masalani yechish uchun turli ko'rinishdagi usul va metodikalarni qo'llash mumkin. Bulardan biri differensial yondashuv asosida dars jarayonini tashkil qilishdan iborat [1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ta'limda axborot-kommunikatsion texnologiyalarini joriy etish, elektron ta'limni rivojlantirish, elektron axborot-ta'lim resurslari va dasturiy qobiqlarni yaratish va qo'llashga oid tadqiqotlar yurtimizda: A.A.Abdudodirov, M.M.Aripov, R.R.Boqiev, F.M.Zakirova, M.H.Lutfillaev, A.A.Abdqvasieva, D.E.Toshtemirov, N.A.Muslimov, N.I.Taylaqov, M.E.Musaeva, B.Sapaev, B.Boltaev, U.Yu.Yuldashev, Ya.Mamatova, M.A.Fayziev, M.R.Fayzievalarning ishlarida tadqiq etilgan.

Respublikamizda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha ilmiy izlanishlar bir qator tadqiqotlarda amalga oshirilgan bo'lib, ta'limni axborotlashtirish vositalarini yaratish va ulardan foydalanishning nazariy asoslari U.Sh.Begimkulov, R.X.Hamdami, N.I.Taylakov, ta'limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning metodik masalalari M.M.Abdurazakov, M.M.Aripov, ta'limda pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha G.Abilkasimova, A.X.Abdullaev, M.Allamberganova, A.R.Marahimov, O.A.Omarovlar, N.Shodiev, Z.Ilyasova, M.A.Fayziev, Q.T.Olimovlar tomonidan izlanishlar olib borilgan.

Ta'limda differensial yondashuvlar, talabalar ehtiyojlariga moslashtirilgan o'qitish usullari D.H.Fayzullayeva va F.E.Qodirov, differensial yondashuv asosida tarbiyalanuvchilar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish Y.Yarmanova va F.Ahmedova, differensial ta'lim mazmuni va uning pedagogik imkoniyatlari S.M.Shodmonova, oliy ta'lim massasalarida ingliz tili darslarida differensial yondashuvning o'rni H.A.Sarsenbayev,

Bundan tashqari, tabaqalashtirilgan yondashuv muammosining turli tomonlarini (N.N.Vertsinskaya, G.Klaus, N.M.Magomedov, N.I.Murachkovskiy, I.E.Unt, N.I.Chuprikova, I.A.Churikov, I.S.Yakimanskaya va boshqalar) turli jihatlari bo'yicha ko'plab ilmiy va chuqur monografik tadqiqotlar o'tkazilganiga qaramay, u konseptual tarzda ishlab chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Differensial yondashuv asosida o'qitish jarayonidan kelib chiqqan holda uning tashkil etish va tabaqalashtirish jarayonini dasturiy vosita asosida yoritishga harakat qilamiz.

Tadqiqotda qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda o'quvchilarni "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanidan differensial yondashuv asosida kreativ (bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq) fikrlashiga qaratilgan veb-texnologiyalarni qo'llagan holda o'zlashtirish darajasini aniqlovchi me'zonlar, hamkorlik printsiplarini assimillatsiyalashga (shaxs tomonidan jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan xatti - harakatlar, tushunchalar, xulq-atvor shakllarini o'zlashtirish jarayonida) asoslangan dasturiy orqali sun'iy intellekt (bu aqlli kompyuter tizimlari orqali tilni tushunish, o'rganish, fikr yuritish, muammolarni hal qilish va boshqa muammolarni hal qila

olishdir) jarayonlarini tasavvur qilish ko‘nikmalari rivojlantirilgan. Pedagogika ta’lim yo‘nalishida “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash” fanini differensial yondashuvga asoslangan dasturiy vositadan foydalanib mazmunan yoritib berilgan.

Bu dasturiy vosita platforma sifatida tayyorlangan bo‘lib, bundan foydalanish uchun kompyuterlarda, planshetlarda va mobil telefonlarda barcha brauzerlar orqali <http://localhost/kurs1/index.html> manziliga murojaat qilib kirish mumkin. Mazkur platforma har qanday qurilmada ochilganda ham to‘liq ekran rejimiga moslashtirilgan.

Mazkur dasturiy vosita zamonaviy veb-texnologiyalar asosida platforma ko‘rinishida ishlab chiqilgan bo‘lib, undan foydalanish uchun foydalanuvchidan maxsus qo‘shimcha dastur o‘rnatish talab etilmaydi. Platformaga kompyuterlar, noutbuklar, planshetlar va mobil telefonlar orqali istalgan zamonaviy brauzer yordamida kirish mumkin. Buning uchun foydalanuvchi brauzer manzil satriga <http://localhost/kurs1/index.html> havolasini kiritishi kifoya qiladi.


Ushbu platforma lokal server muhitida ishlashga mo‘ljallangan bo‘lib, odatda o‘quv jarayonlari, amaliy mashg‘ulotlar yoki sinov tariqasida foydalanish uchun qulay hisoblanadi. Tizimning brauzer orqali ishlashi uning operatsion tizimdan mustaqil ekanligini ta’minlaydi, ya’ni Windows, Linux, macOS yoki mobil operatsion tizimlarda bir xil ko‘rinishda faoliyat yurita oladi.

Platforma moslashuvchan (responsive) dizayn asosida ishlab chiqilgan. Bu esa uning turli o‘lchamdagi ekranlarga avtomatik ravishda moslashishini anglatadi. Qurilma ekranining hajmidan qat’i nazar, interfeys elementlari — menyular, tugmalar, matnlar va grafik obyektlar — foydalanuvchiga qulay va tushunarli tarzda joylashadi. Mobil telefonlarda platforma ixcham va ergonomik ko‘rinishda aks etsa, katta monitorlarda to‘liq ekran rejimidan samarali foydalanadi.

Shuningdek, platforma to‘liq ekran (full screen) rejimiga optimallashtirilgan bo‘lib, foydalanuvchiga ortiqcha oynalar yoki keraksiz elementlarsiz ishlash imkonini beradi. Bu esa ayniqsa ta’lim jarayonida, taqdimotlarda yoki mustaqil o‘rganishda diqqatni asosiy mazmunga qaratishga yordam beradi.

Umuman olganda, mazkur dasturiy platforma qulaylik, moslashuvchanlik va universallik tamoyillari asosida yaratilgan bo‘lib, foydalanuvchilarga turli qurilmalarda bir xil darajada samarali ishlash imkoniyatini taqdim etadi.

Ixtiyoriy qurilma brauzerida <http://localhost/kurs1/index.html> manziliga murojaat qilganimizda yuqoridagi 1-rasmda ko‘rsatilgan oyna ochiladi.



1-rasm. Kirish oynasi


Kirish oynasida foydalanuvchi bilan dastlabki muloqot amalga oshiriladi. Ushbu oynada bir nechta muhim bandlar joylashgan bo‘lib, ular orqali tizimdan foydalanish jarayoni boshlanadi.

Oynaning asosiy qismida F.I.Sh. kiritish maydoni mavjud bo'lib, bu yerga talabalar o'zlarining familiya, ism va shariflarini to'liq va to'g'ri shaklda kiritishlari talab etiladi. Ma'lumotlarni aniq kiritish foydalanuvchini tizimda identifikatsiya qilish hamda keyingi bosqichlarga to'g'ri yo'naltirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar. Foydalanuvchi F.I.Sh. ma'lumotlarini kiritib bo'lgach, oynaning pastki qismida joylashgan "Boshlash" tugmasini bosadi. Ushbu tugma tizimga kiritilgan ma'lumotlarni qabul qilish va keyingi bosqichga o'tish vazifasini bajaradi. Agar kiritilgan ma'lumotlar talab darajasida bo'lsa (ya'ni bo'sh qoldirilmagan va to'g'ri formatda yozilgan bo'lsa), tizim avtomatik ravishda keyingi oynani ochadi.

"Boshlash" tugmasi bosilgandan so'ng foydalanuvchi uchun tanlash oynasi ochiladi (2-rasmga qarang). Mazkur oynada foydalanuvchi o'ziga kerakli bo'lim yoki funksiyani tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Tanlash oynasi tizimning asosiy menyusi hisoblanib, u orqali foydalanuvchi test topshirish, ma'lumotlarni ko'rish yoki boshqa amallarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, kirish oynasi foydalanuvchini tizimga kiritish va uni kerakli bo'limga yo'naltirish vazifasini bajaradi. Bu bosqich tizimning to'g'ri va samarali ishlashida muhim ahamiyat kasb etadi.



2-rasm. Talaba guruhini tanlash oynasi

Yuqorida berilgan oynada "TAJRIBA GURUHI", "NAZORAT GURUHI" va "Orqaga" bandlari keltirilgan. Pedagogika ta'lim yo'nalishida "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanini differensial yondashuvga asoslangan dasturiy vosita yordamida o'qiydigan talabalar oynadagi "TAJRIBA GURUHI" bandiga kirishlari kerak. Talabalar aytilgan banga kirganlarida quyidagi fan bazasi oynasi ochiladi (3-rasmga qarang).


Yuqorida keltirilgan oynada foydalanuvchi uchun uchta asosiy band taqdim etilgan bo'lib, ular: "TAJRIBA GURUHI", "NAZORAT GURUHI" va "Orqaga" tugmalaridir. Ushbu bandlar tizimdan foydalanish jarayonini tartibga solish va talabalarni tegishli guruhlariga yo'naltirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Pedagogika ta'lim yo'nalishida "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanini differensial yondashuvga asoslangan dasturiy vosita yordamida o'zlashtirayotgan talabalar oynadagi "TAJRIBA GURUHI" bandini tanlashlari lozim. Mazkur band tajriba-sinov jarayonida ishtirok etayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, ular aynan maxsus ishlab chiqilgan interaktiv va moslashuvchan o'quv muhitiga yo'naltiriladi.

Shuningdek, mazkur oynada talabalar o'zlariga kerakli mavzuni tanlash, nazariy ma'lumotlar bilan tanishish, amaliy topshiriqlarni bajarish hamda o'z bilimlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga, talabalarning mustaqil

ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

“NAZORAT GURUHI” bandi esa an'anaviy usulda ta'lim olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, ular orqali taqqoslash va tahlil ishlari amalga oshiriladi. “Orqaga” tugmasi yordamida foydalanuvchi avvalgi oynaga qaytish imkoniyatiga ega bo'ladi.



3-rasm. Fan bazasi oynasi

Xulosa. Differensial yondashuvga asoslangan dasturiy vositalar modulli tuzilishga ega bo'lib, boshlang'ich, o'rta va yuqori darajalarni qamrab oladi. Boshlang'ich modul asosiy tushuncha va ko'nikmalarni shakllantiradi, o'rta modul amaliy faoliyatni rivojlantiradi, yuqori modul esa ijodiy va tahliliy fikrlashni takomillashtiradi. Nazorat, baholash va tahlil modullari orqali talabaning o'zlashtirish darajasi muntazam monitoring qilinadi hamda individual tavsiyalar beriladi. Bu esa o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan va moslashuvchan tizimga aylantiradi.

Dasturiy vosita yaratish jarayoni ham tahlil, loyihalash, dasturlash, sinov va joriy etish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Har bir bosqich ta'lim samaradorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, natijada barqaror, ishonchli va pedagogik jihatdan asoslangan tizim yaratiladi. Bunday vositalar yordamida o'quv jarayoni individuallashtiriladi, talabalarning kasbiy kompetensiyalari shakllantiriladi va ularning mustaqil fikrlashi rivojlanadi.

Umuman olganda, differensial yondashuvga asoslangan dasturiy vositalar ta'lim sifatini oshirish, har bir talabaning salohiyatini ro'yobga chiqarish va zamonaviy kasbiy talablar darajasida raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv ta'lim jarayonini insonparvar, adolatli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Nigora M Goyibova., (2024) PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR DIFFERENTIATED WRITING INSTRUCTION: ENHANCING STUDENT LEARNING. Innovative Development in Educational Activities, 3(7), 184–187.

Selevko G.K. Ensiklopediya obrazovatel'nix texnologiy. V 2-x t. T. 1. – M.: Narodnoye obrazovaniye.

C.A. Tomlinson, (2011) Differentiate instruction in mixed-ability classrooms [Online]. Available: https://d1wqtxts1xzle7.cloudfront.net/44098361/Carol_Ann_Tomlinson_How_to_Differentiate_InstrucBookSee.org-with-cover-page-v2.pdf?Expires=1631251576&Signature=YZi5pSld61OpLx2~tuG4isXixDt0Sg9yLDjEz_0yeUm1X~y576UCjpIIUsfAzAEMlyH2OtfXM~95owzfu8j8R6kQCZ3v6IE

Asfandiyorovich F. N. Teaching the Subject of Repetitive Algorithms Based on Multimedia

Electronic Manuals //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 16. – C. 42-45.

Fayziyev Nozim Asfandiyorovich. (2022). TARMOQLANUVCHI ALGORITMLAR MAVZUSINIDOIR KOMPYUTER IMITASIION MODELIASOSIDATAKOMILLASHTIRISH. RESEARCH AND EDUCATION, 1(2), 273–278.

Fayziyev, N. (2023). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA "INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI" FANINI MULTIMEDIALI ELEKTRON QO'LLANMA ASOSIDA O'QITISH SAMARADORLIGINI ANIQLASH. International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming, 1(01). Retrieved from <http://ojs.qarshidu.uz/index.php/con/article/view/175>

Fayziyev Nozim Asfandiyorovich, & Toxirqulov Zufar Jurabek o'g'li. (2023). Registering and Creating Presentations on prezi.com. World of Semantics: Journal of Philosophy and Linguistics, 1(1), 66–71. Retrieved from <http://wos.semanticjournals.org/index.php/JPL/article/view/11>

Nozim Asfandiyorovich, F., & Ramziddin Toshpo'latovich, R. (2023). IMPROVING THE TEACHING OF THE SUBJECT «COMPUTER TOOLS IN LINGUISTIC RESEARCH» BASED ON SOFTWARE TOOLS. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(10), 674–676. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2295>

Fayziyev Nozim Asfandiyorovich. (2023). UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA "INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI" FANINI TAKOMILLASHTIRILGAN METODIKA ASOSIDA O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(5), 198–200. Retrieved from <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/515>

Fayziyev Nozim Asfandiyorovich. (2023). TEACHING THE SUBJECTS OF «INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGY» ON THE BASIS OF MULTIMEDIA. Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation (2993-2777), 1(10), 135–137. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/AJLISI/article/view/2300>

OLIV TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI GEYMIFIKATSIYALASHGAN YONDASHUV ORQALI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Malikov Ruslan Raufovich

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbumaqolada oliy ta'limda axborot texnologiyalarini fanini geymifikatsiyalashgan yondashuv orqali o'qitishni takomillashtirish ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Mavjud muammolarni hal etish maqsadida kognitiv pedagogika tamoyillariga asoslangan geymifikatsiya elementlarini va interaktiv ta'lim platformalarini joriy etishning didaktik tizimi ishlab chiqildi. Geymifikatsiya nafaqat formativ baholash vositasi, balki o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiruvchi, uzluksiz qayta aloqani ta'minlovchi, o'quv kontentini o'yin tafakkuri bilan moslashtiruvchi analitik baza va iqtisodiy-pedagogik samaradorlik metrikasi bo'yicha yuqori xarajat-samaradorlikka ega yondashuv sifatida talqin qilingan. Tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv yondashuv talabalarning kognitiv o'zlashtirish darajasini 52% gacha, faol ishtirokini esa 60-70% gacha oshirgan.

Kalit so'zlar: kognitiv pedagogika, geymifikatsiya, o'yin tafakkuri, axborot texnologiyalari, LAYS metrikasi, ta'lim analitikasi, didaktik tizim, faol ishtirokchi, qayta aloqa.

IMPROVING TEACHING IN INFORMATION TECHNOLOGY IN HIGHER EDUCATION THROUGH A GAMICIZED APPROACH

Abstract: This article analyzes the shortcomings of traditional methods, psychological barriers in students' cognitive activities, and factors affecting educational effectiveness in teaching Information Technology (IT) courses in higher education. A didactic system for introducing gamification elements and interactive educational platforms based on cognitive pedagogy principles has been developed. Gamification is interpreted not only as a formative assessment tool but also as a method that turns learners into active participants, provides continuous feedback, aligns instructional content with game thinking, serves as an analytical base, and is a highly cost-effective approach according to the LAYS metric. Experimental results showed that the data-driven interactive approach increased students' cognitive retention up to 52% and active participation by 60-70%.

Keywords: cognitive pedagogy, gamification, game thinking, information technology, LAYS metric, educational analytics, didactic system, active participant, feedback.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ С ПОМОЩЬЮ ИГРОВОГО ПОДХОДА

Аннотация: В статье анализируются недостатки традиционных методов, психологические барьеры в когнитивной деятельности студентов и факторы, влияющие на эффективность обучения предмету информационные технологии (ИТ) в высшей школе. Разработана дидактическая система внедрения элементов геймификации и интерактивных образовательных платформ на основе принципов когнитивной педагогики. Геймификация рассматривается не только как инструмент формативного оценивания, но и как метод, превращающий учащегося в активного участника, обеспечивающий непрерывную обратную связь (feedback), согласующий учебный контент с игровым мышлением (game thinking), аналитическую базу и высоко рентабельный подход согласно метрике LAYS. Результаты эксперимента показали, что интерактивный подход повысил

уровень когнитивного усвоения студентов до 52%, а активное участие - на 60-70%.

Ключевые слова: когнитивная педагогика, геймификация, игровое мышление, информационные технологии, метрика LAYS, образовательная аналитика, дидактическая система, активный участник.

KIRISH. Zamonaviy global raqamlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardosh axborot texnologiyalari (IT) mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish davr talabiga aylandi. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, sun'iy intellekt texnologiyalarining keng qo'llanilishi va big data tahlilining ahamiyati ortishi bilan IT sohasidagi mutaxassislarga bo'lgan talab har yili 15-20% ga oshib bormoqda. Kognitiv pedagogika shaxsning ijodiy fikrlash jarayonini va olamni bilishga intilishini o'rganuvchi istiqbolli yo'nalish bo'lib, talabalarning kognitiv faoliyati bevosita ta'lim sifatini belgilab beradi.

Biroq, an'anaviy ta'lim tizimi bir qator jiddiy muammolarga yuz tutmoqda:

Birinchi, OTMLlarda talabalar bilimni baholash asosan standartlashtirilgan yakuniy testlar orqali amalga oshiriladi. I. Levy-Feldman (2025) ta'kidlaganidek, bunday "barchaga birdek tushadigan" yondashuv ta'limdagi tengsizlikni keltirib chiqaradi. Bizning kuzatuvlarimizga ko'ra, Samarqand davlat chet tillar institutida 2024-2025 o'quv yilida o'tkazilgan so'rovdan 68% talabalar an'anaviy test tizimi ularning haqiqiy bilim darajasini aks ettirmasligini ta'kidlagan.

Ikkinchi, o'qitish metodikalarini ishlab chiqishda ishonchli ta'lim analitikasi yetishmaydi. AQSh Boshlang'ich maktab direktorlari milliy assotsiatsiyasi (NAESP) ta'kidlaganidek, ma'lumotlar (data) uzluksiz ta'limni yaxshilash siklining ajralmas qismiga aylanishi zarur. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ta'lim analitikasi tizimi hali to'liq shakllanmagan bo'lib, o'qituvchilar talabalarning o'zlashtirish dinamikasini real vaqtda kuzatish imkoniyatiga ega emaslar.

Uchinchi, N. Angrist va hammualliflarning tadqiqotlariga ko'ra, o'qitishni talabaning shaxsiy o'zlashtirish darajasiga moslashtirish (targeted instruction) "Ta'lim sifatini hisobga oluvchi ta'lim yillari" (LAYS) metrikasi bo'yicha eng xarajat-samarador usul hisoblanadi. Bizning hisob-kitoblarimizga ko'ra, an'anaviy usulda o'tilgan har bir akademik soat uchun talaba o'rtacha 35% ma'lumotni eslab qoladi, geymifikatsiyalashgan yondashuvda esa bu ko'rsatkich 52% ga yetadi [1].

Ushbu muammolarni hal etishda geymifikatsiya eng kuchli kognitiv qurol hisoblanadi. Xalqaro ekspert Karl M. Kapp (2012) ta'kidlaganidek, o'yinlar har qanday ijobiy o'quv tajribasining tamal toshi bo'lgan "jalb qilish" (engagement) hissini yaratadi. F.M. Nuriddinova (2025), R. Aslonova (2024) va M.E. Jurayeva (2026) izlanishlari ham geymifikatsiya darsni monologdan dialogga o'tkazib, ta'lim oluvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishini isbotlagan. Axborot texnologiyalari fanini o'qitishda ushbu tamoyillarga asoslangan kognitiv-didaktik tizimni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – oliy ta'limda axborot texnologiyalari fanini o'qitish samaradorligini geymifikatsiya elementlari yordamida oshirishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishdir. Tadqiqotning yangiligi shundaki, muallif tomonidan LAYS metrikasi va ta'lim analitikasi asosida geymifikatsiyaning iqtisodiy-pedagogik samaradorligi birinchi marta kompleks o'rganildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqot kognitiv psixologiya, ta'lim analitikasi va iqtisodiy-pedagogik samaradorlik (LAYS) nazariyalariga tayanadi. Geymifikatsiya dizayni bo'yicha metodologik asos sifatida Karl Kappning «barcha geymifikatsiya harakatlari bir xil emasligi, u o'quv kontentini to'g'ri o'yin mexanikasi va o'yin tafakkuri (game thinking) bilan moslashtirishni talab etishi» haqidagi fundamental qoidasi qabul qilindi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil – kognitiv pedagogika, geymifikatsiya va ta'lim analitikasi bo'yicha mavjud ilmiy manbalarni o'rganish;

Ekspirimental tadqiqot – Samarqand davlat chet tillar institutining 120 nafar talabasi ishtirokida 3 oylik pedagogik tajriba-sinov o‘tkazish;

Statistik tahlil – SPSS 26.0 dasturi yordamida olingan ma’lumotlarni qayta ishlash;

Taqqoslash metodi – nazorat guruhi (an’anaviy usul) va eksperimental guruh (geymifikatsiyalashgan usul) natijalarini solishtirish;

So‘rovnoma va intervyu – talabalar va o‘qituvchilarning fikr-mulohazalarini o‘rganish.

Tadqiqot bazasi. Tadqiqot 2025-yil sentyabr-dekabr oylarida Samarqand davlat chet tillar institutining «Axborot texnologiyalari» fani bo‘yicha o‘tkazildi. Eksperimental guruhda 60 nafar talaba (30 nafar erkak, 30 nafar ayol), nazorat guruhida 60 nafar talaba ishtirok etdi. Guruhlar boshlang‘ich bilim darajasi bo‘yicha tenglashtirildi ($p>0.05$).

Axborot texnologiyalari fanini o‘qitish bo‘yicha ishlab chiqilgan kognitiv-didaktik tizim quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Maqsad: Talabaning mantiqiy tafakkurini evristik usulda rivojlantirish hamda ishonchli ta’lim ma’lumotlari asosida o‘quv jarayonining LAYS ko‘rsatkichini oshirish. Bizning hisob-kitoblarimizga ko‘ra, LAYS ko‘rsatkichini hisoblash formulasi quyidagicha:

$$LAYS = \frac{O'zlashtirish\% \times Faol\ ishtirok\%}{Xarajat\ (soat)}$$

Mazmun: IT fani (algoritmika, dasturlash asoslari) kontentini o‘yin tafakkuriga moslashuvchan, qiyinchilik darajasi bosqichma-bosqich oshib boruvchi (levels) darajalarga ajratish [3]. Biz tomonidan ishlab chiqilgan kontent strukturasi 5 darajadan iborat:

1-daraja: Boshlang‘ich tushunchalar (100 ball)

2-daraja: Asosiy algoritmlar (200 ball)

3-daraja: Dasturlash amaliyoti (350 ball)

4-daraja: Loyiha ishlari (500 ball)

5-daraja: Yakuniy kompetensiyalar (750 ball)

Metod: Reproduktiv, izlanuvchanlikka undovchi evristik yondashuvlarni o‘z ichiga olgan o‘yin mexanikalari. Har bir mavzu bo‘yicha topshiriqlar 3 xil qiyinchilik darajasida taqdim etildi:

Oson – barcha talabalar uchun majburiy (bazaviy ball)

O‘rta – qo‘shimcha ball uchun tanlovli

Qiyin – bonus ball va reyting uchun

Vosita: F.M. Nuriddinova tadqiqotlarida samarali deb topilgan Kahoot! (42%), Wordwall (36%) va Quizizz (18%) kabi interaktiv platformalar hamda analitik dushbordlar. Bizning tadqiqotimizda bu platformalarning qo‘llanilish nisbati quyidagicha taqsimlandi:

Kahoot! – haftalik viktorinalar uchun (45%)

Wordwall – interaktiv mashqlar uchun (35%)

Quizizz – uy vazifalari va mustaqil ishlar uchun (20%)

Tadqiqotning etikasi. Barcha ishtirokchilar tadqiqot maqsadi haqida to‘liq xabardor qilindi va ularning roziligi olindi. Shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi ta’minlandi va natijalar faqat umumlashtirilgan holda taqdim etildi [4].

Muhokama. Didaktik tizimning amaliyotga joriy etilishi kognitiv ta’lim jarayonini axborot tahlili va iqtisodiy-pedagogik samaradorlik bilan mukammal bog‘ladi. Quyida olingan natijalarni batafsil tahlil qilamiz.

1. Kognitiv faoliyat, Jalb qilish va Psixologik muvozanat

Kompyuter savodxonligi va axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishda ma’ruza o‘rniga virtual missiyalar qo‘llanildi. F.M. Nuriddinova (2025) va M.D. Xayrullayeva (2025) qayd etganidek, darajalar va reyting tizimi past baholi va kam faol o‘quvchilarni darsga tortishda kuchli vosita bo‘ldi [5].

Bizning kuzatuvlarimizga ko'ra, eksperimental guruhda darsga qatnashish ko'rsatkichi 94% ni tashkil etdi, nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 76% bo'ldi. Reyting tizimining ta'sirini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

Ko'rsatkich	Nazorat guruhi	Eksperimental guruh	Farq
Darsga qatnashish	76%	94%	+18%
Uy vazifasi bajarish	68%	89%	+21%
Faol savol berish	23%	67%	+44%

Biroq, psixologik muvozanatni saqlash o'ta muhim hisoblanadi. Ammo ayrim (taxminan 18%) past ijtimoiy faollikka ega o'quvchilarda ortiqcha raqobat stress keltirib chiqarishini inobatga olib, xatolik jazolanmaydigan (Try Again) differensial yondashuv qo'llanildi.

Bizning tajribamizda stress darajasini o'lchash uchun PSS (Perceived Stress Scale) shkalasidan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki:

Eksperimental guruh boshida: o'rtacha stress darajasi 18.4 ball

Eksperimental guruh oxirida: o'rtacha stress darajasi 14.2 ball

Nazorat guruhi oxirida: o'rtacha stress darajasi 19.1 ball

«Try Again» mexanizmi qo'llanilgandan so'ng, past faollikka ega talabalarning darsga qiziqishi 34% ga oshdi. Bu shuni ko'rsatadiki, xatoliklarni jazolamaslik, balki ularni o'rganish jarayoni sifatida qabul qilish talabalarning psixologik qulayligini ta'minlaydi.

2. Ma'lumotlarga asoslangan o'quv qarorlari va Qayta aloqa (Feedback)

O'qituvchilar uchun tahlil qilish qismi uchun platforma har bir talabaning qaysi texnologiyani tushinishda xato qilayotgani haqida aniq ma'lumot beradi. M.E. Jurayeva va F.M. Nuriddinova ta'kidlaganidek, darsda vaqt taqsimoti (o'yin-nazariya nisbati) buzilmasligini nazorat qilish va qayta aloqani (feedback) ta'minlash muhim ahamiyat kasb etdi [6].

Biz tomonidan ishlab chiqilgan analitik dushbord quyidagi ma'lumotlarni real vaqtda taqdim etdi:

Har bir talabaning o'zlashtirish dinamikasi (haftalik)

Mavzular bo'yicha o'rtacha xatolik darajasi

Eng ko'p qiyinchilik tug'dirgan savollar

Talabalararo taqqoslash (anonim holda)

O'qituvchi uchun foyda: Analitik ma'lumotlar asosida o'qituvchi dars rejasini operativ ravishda o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Masalan, agar 60% dan ortiq talabalar ma'lum bir mavzuda xatoga yo'l qo'ysa, keyingi darsda shu mavzuga qo'shimcha vaqt ajratildi.

Talabalar uchun o'z-o'zini tahlil qilish (Student ownership): NAESP (2011) ko'rsatib o'tganidek, talaba o'zining yig'gan tajriba ballarini ko'rib, o'z-o'ziga ishonchi ortadi va mustaqil maqsad qo'yadi [7].

Bizning so'rovnomamiz natijalariga ko'ra:

78% talabalar o'z progressini kuzatish ularni ko'proq harakat qilishga undadi

65% talabalar haftalik maqsadlar qo'yishni boshladi

71% talabalar o'z-o'zini baholash ko'nikmasi rivojlanganini ta'kidladi

3. Ta'lim unumdorligi va Xarajat-samaradorligi (LAYS)

Geymifikatsiya olingan ma'lumotlar asosida ta'limni shaxsiylashtirdi (targeted instruction). Bu axborot texnologiyalari fanida har bir sarflangan akademik soat uchun talabaning miyasida ko'proq real bilim qoldiruvchi LAYS ko'rsatkichini oshiradi.

LAYS metrikasi hisob-kitobi:

LAYS metrikasi hisob-kitobi:

Parametr	Nazorat guruhi	Eksperimental guruh
O'zlashtirish darajasi	35%	52%
Faol ishtirok	42%	68%
Sarflangan soat	48 soat	48 soat
LAYS ko'rsatkichi	0.306	0.737

LAYS ko'rsatkichi eksperimental guruhda 2.4 marta yuqori bo'ldi. Bu shuni anglatadiki, geymifikatsiyalashgan yondashuv har bir sarflangan akademik soat uchun 2.4 marta ko'proq ta'lim samarasini beradi.

4. Pedagogik tajriba-sinov natijalari va Statistik tahlil

Axborot texnologiyalari darslarida olib borilgan 3 oylik tajriba-sinov ishlari ilg'or tadqiqotlarni (jumladan, F.M. Nuriddinovaning tahlilini) to'liq tasdiqladi:

Boshlang'ich test natijalari (eksperiment boshida):

Nazorat guruhi o'rtacha: 62.4 ball

Eksperimental guruh o'rtacha: 63.1 ball

Statistik farq: $p=0.78$ (ahamiyatsiz)

Yakuniy test natijalari (eksperiment oxirida):

Nazorat guruhi o'rtacha: 71.2 ball

Eksperimental guruh o'rtacha: 84.6 ball

Statistik farq: $p<0.001$ (juda ahamiyatli)

Asosiy ko'rsatkichlar:

O'quvchilarning 71% i geymifikatsiyalashgan AT darslarini «ko'proq qiziqarli» deb baholadi.

Talabalarning darsdagi faol ishtiroki (engagement) 60% dan 70% gacha oshdi (63% talaba o'yinlar orqali ishtirokchanligi oshganini ta'kidladi).

Murakkab AT algoritmlarini o'zlashtirish va kognitiv xotira ko'rsatkichi 52% gacha yaxshilandi.

SPSS tahlili natijalari:

T-test: $t=8.47$, $df=118$, $p<0.001$

Effekt hajmi (Cohen's d): 1.54 (katta effekt)

Ishonchlik intervalli (95%): [10.2, 16.8] ball

Bu natijalar geymifikatsiyaning ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sirini statistik jihatdan isbotlaydi.

Natijalar. Tadqiqot natijalarini quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha umumlashtiramiz:

1. Kognitiv o'zlashtirish darajasining oshishi

Eksperimental guruhda o'quv materiallarini eslab qolish va tushunish darajasi 52% ga yetdi, nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 35% ni tashkil etdi. Bu farq statistik jihatdan ahamiyatli ($p<0.001$). Kognitiv o'zlashtirishning oshishi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

Ko'p takrorlash imkoniyati (o'yin mexanikasi orqali)

Darhol qayta aloqa olish

Motivatsiyaning ortishi

Kontekstual o'rganish (amaliy misollar orqali)

2. Faol ishtirokning sezilarli darajada oshishi

Talabalarning darsdagi faol ishtiroki 60% dan 70% gacha oshdi. Buning sabablari:

Reyting tizimi raqobat muhitini yaratdi

Ball to'plash mexanizmi qiziqishni oshirdi

Darajalarni bosqichma-bosqich o'tish muvaffaqiyat hissini berdi

Jamoaviy vazifalar hamkorlikni rivojlantirdi

3. Ta'lim xarajat-samaradorligining oshishi

LAYS metrikasi bo'yicha hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, geymifikatsiyalashgan yondashuv an'anaviy usulga nisbatan 2.4 marta samaraliroq. Bu oliy ta'lim muassasalari uchun resurslardan optimall foydalanish imkonini beradi.

4. Talabalarning motivatsiya darajasi

So'rovnomana natijalariga ko'ra:

89% talabalar darsga qiziqish bilan kelishini ta'kidladi

76% talabalar mustaqil o'rganishga ko'proq vaqt ajratdi

82% talabalar geymifikatsiyani boshqa fanlarda ham qo'llashni istadi

5. O'qituvchilar uchun qulaylik

O'qituvchilarning fikriga ko'ra:

91% o'qituvchilar analitik dushbord ishni yengillashtirganini aytdi

85% o'qituvchilar talabalarning zaif tomonlarini aniqlash osonlashganini ta'kidladi

78% o'qituvchilar dars rejasini moslashtirish imkoniyati paydo bo'lganini qayd etdi

6. Cheklovlar va kamchiliklar

Tadqiqotning ba'zi cheklovlari mavjud:

Tajriba faqat bir institutda o'tkazildi

3 oylik muddat nisbatan qisqa

Texnik infratuzilma talablari yuqori

O'qituvchilarning qo'shimcha tayyorgarligi zarur

Kelajakda ko'proq OTMlarda va uzoqroq muddatda tadqiqot o'tkazish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalari fanini kognitiv pedagogika va geymifikatsiya sintezi asosida o'qitish oliy ta'limdagi dolzarb muammolarni kompleks hal etadi. Evristik metodlar va K. Kapp ta'kidlagan o'yin tafakkuri (game thinking) yordamida diqqat jamlanadi, darsdagi faollik 70% gacha, IT sohasidagi murakkab bilimlarni o'zlashtirish esa 52% gacha oshadi.

Asosiy xulosalar:

Geymifikatsiya talabalarning kognitiv o'zlashtirish darajasini 52% ga oshiradi

Faol ishtirok ko'rsatkichi 60-70% oralig'ida ta'minlanadi

LAYS metrikasi bo'yicha samaradorlik 2.4 marta oshadi

Talabalarning motivatsiya darajasi sezilarli darajada ortadi

O'qituvchilar uchun ta'lim analitikasi imkoniyatlari kengayadi

Amaliy tavsiyalar:

1. Texnologik infratuzilmani yaxshilash: Oliy ta'lim muassasalarini sifatli internet, kompyuter va interaktiv vositalar bilan ta'minlashsiz IT fanlarida geymifikatsiya to'laqonli ishlamaydi. Har bir o'quv xonasida kamida 1 ta interaktiv panel, barqaror internet aloqasi va talabalar uchun qurilmalarga kirish imkoniyati bo'lishi zarur.

2. Metodik tayyorgarlik: Professor-o'qituvchilar uchun axborot texnologiyalari kontentini o'yin tafakkuriga moslashtirish (game-based thinking) va Kahoot, Wordwall kabi platformalarni muvozanatli tatbiq etish bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslari tashkil etish zarur. Kurslar quyidagi yo'nalishlarni qamrab olishi kerak:

Geymifikatsiya nazariyasi va amaliyoti

Interaktiv platformalardan foydalanish

Ta'lim analitikasi asoslari

Psixologik jihatlar va stress menejmenti

3. Psixologik moslashuv: Har bir raqobatli vazifa o'quvchi ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi uchun shaxsga yo'naltirilgan differensial yondashuv tavsiyalari ishlab chiqilishi lozim. «Try Again» mexanizmi, individual progress kuzatish va stress darajasini monitoring qilish tizimlari joriy etilishi kerak.

4. Davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlash: Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan

geymifikatsiyani joriy etish bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqish va OTMlarga moliyaviy yordam ko'rsatish tavsiya etiladi.

Kelajak tadqiqotlari uchun yo'nalishlar:

Sun'iy intellekt va geymifikatsiya integratsiyasi

Virtual va augmented reality elementlarini qo'shish

Ko'p institutli keng qamrovli tadqiqotlar

Uzoq muddatli ta'sirni o'rganish (1-2 yil)

Turli fanlarda qo'llanilishini tadqiq etish

Ushbu tadqiqot oliy ta'limda axborot texnologiyalari fanini o'qitish samaradorligini oshirishning ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan tasdiqlangan yondashuvini taqdim etadi. Geymifikatsiya nafaqat o'quv jarayonini qiziqarli qiladi, balki ta'lim sifatini tubdan yaxshilash va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Levy-Feldman, I. (2025). The Role of Assessment in Improving Education and Promoting Educational Equity. *Education Sciences*, 15(2), 224. URL: <https://doi.org/10.3390/educsci15020224>

Kapp, K.M. (2012). *The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education*. San Francisco: Pfeiffer, 456 p.

Zichermann, G., Cunningham, C. (2011). *Gamification by Design: Implementing Game Mechanics in Web and Mobile Apps*. Sebastopol: O'Reilly Media.

Nuriddinova, F.M. (2025). Ta'limda geymifikatsiya jarayoni va uni metodik rivojlantirish. *INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY*, ISSUE 7, 58-67.

Xayrullayeva, M.D. (2025). Ta'limda geymifikatsiya jarayoni va uni metodik rivojlantirish. *Problems and Solutions of Scientific and Innovative Research*, 3(1), 70-78.

Jurayeva, M.E. (2026). Ta'limda geymifikatsiya: o'quv jarayonini o'yinlashtirishning samaradorligi. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 2(1), 30-38.

National Association of Elementary School Principals (NAESP). (2011). *Using Student Achievement Data to Support Instructional Decision Making*. Alexandria, VA. URL: <https://www.naesp.org>

RETROSPEKTIV YONDASHUV ASOSIDA QORAQALPOQ MUSIQA SAN'ATINING EVOLYUTSION RIVOJLANISH KONTSEPTSIYASI

Moynov Iqlasbay Jiyenbaevich,

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida dotsenti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)*

Mazkur maqolada retrospektiv yondashuv asosida Qoraqalpoq musiqa san'atining evolyutsion rivojlanish kontseptsiyasi tahlil qilingan. Shuningdek maqolada, milliy musiqiy merosning shakllanish bosqichlari, uning tarixiy ildizlari va ijtimoiy-madaniy omillar ta'siridagi taraqqiyot jarayonlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Qoraqalpoq musiqa san'ati, retrospektiv yondashuv, evolyutsion rivojlanish, milliy musiqiy meros, musiqiy pedagogika, an'anaviy va zamonaviy uyg'unlik, ta'lim-tarbiya jarayoni, estetik tarbiya, madaniy qadriyatlar, integratsiya, kompetentsiyaviy yondashuv.

КОНЦЕПЦИЯ ЭВОЛЮЦИОННОГО РАЗВИТИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА КАРАКАЛКАЛПОКА НА ОСНОВЕ РЕТРОСПЕКТИВНОГО ПОДХОДА

Моянов Ыкласбай Джиенбаевич,

Доцент кафедры «Педагогика и психология» Узбекского государственного университета мировых языков

Доктор философии в области педагогических наук

В данной статье на ретроспективном уровне анализируется концепция эволюционного развития каракалпакского музыкального искусства. Также в статье научно обосновываются этапы формирования национального музыкального наследия, его исторические корни и процессы развития под влиянием социокультурных факторов.

Ключевые слова: каракалпакское музыкальное искусство, ретроспективный подход, эволюционное развитие, национальное музыкальное наследие, музыкальная педагогика, гармония традиции и современности, образовательный процесс, эстетическое воспитание, культурные ценности, интеграция, компетентностный подход.

THE CONCEPT OF THE EVOLUTIONARY DEVELOPMENT OF KARAKALCALPOKA MUSICAL ART BASED ON A RETROSPECTIVE APPROACH

Iklasbay Dzhiyenbaevich Moyanov,

Associate Professor, Department of Pedagogy and Psychology, Uzbek State University of World Languages

Doctor of Philosophy in Pedagogical Science

This article analyzes the concept of the evolutionary development of Karakalpak musical art from a retrospective perspective. It also provides a scientific justification for the stages of the formation of the national musical heritage, its historical roots, and the processes of development influenced by sociocultural factors.

Key words: Karakalpak musical art, retrospective approach, evolutionary development, national musical heritage, music pedagogy, harmony of tradition and modernity, educational process, aesthetic education, cultural values, integration, competence-based approach.

Kirish: Har bir xalqning madaniy taraqqiyoti, ayniqsa musiqiy merosi, uning tarixiy shakllanishi, ijtimoiy hayoti va ma'naviy qadriyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, qoraqalpoq xalqining musiqiy madaniyati ham uzoq tarixiy ildizlarga ega bo'lib, u milliy o'zlikni anglash, ma'naviy merosni saqlash va yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoraqalpoq xalq musiqiy madaniyati o'zining chuqur tarixiy ildizlari, mazmunan boy va serqirra xususiyatlari, shuningdek, o'tmish avlodlar tomonidan asrlar davomida jamlangan beqiyos bilim va amaliy tajribalar bilan sug'orilganligi bilan ajralib turadi. U milliy madaniy merosning ajralmas va muhim tarkibiy qismi sifatida nafaqat estetik qadriyatlarni, balki xalqning ijtimoiy-tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va ma'naviy-axloqiy tamoyillarini ham o'zida mujassam etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 fevral 2022 yildagi PQ-112-sonli "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarorida "2022/2023 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash" masalalariga alohida urg'u berib o'tilgan. [1]

Shu o'rinda 2018–2022 yillarda milliy madaniyatni rivojlantirish kontseptsiyasida xalqimizning ma'naviy qadriyatlarini asrab-avaylash, ma'naviy-ma'rifiy merosni jahon madaniyati bilan uyg'un holda kelajak avlodga etkazish va milliy madaniyatning global miqyosdagi o'rnini targ'ib etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu bilan birga, hujjatda tarixiy-madaniy merosni saqlash va uni yosh avlod tarbiyasida samarali qo'llashga alohida e'tibor qaratilgan.

Kontsepsiya doirasida etnik madaniy an'analarni muhofaza qilish va xalq ijodiyotini qo'llab-quvvatlash, xalq san'atini rivojlantirish hamda uning turli shakl va uslublarini takomillashtirish nazarda tutiladi. Bunda mahalliy an'analar, hududiy xususiyatlar va jamoalarning o'ziga xosligi hisobga olingan holda ommaviy tashabbuslarni rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ajdodlar musiqa merosini asrash, uni zamonaviy sharoitlarda rivojlantirish va keng ommaga etkazish, xalq og'zaki va musiqa ijodi namunalarini yig'ish, tadqiq etish hamda targ'ib qilishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish belgilangan.

Alohida e'tirof etish lozimki, Kontsepsiyada san'at ta'limi sohasida esa shaxsning erkin rivojlanishini ta'minlash ustuvor bo'lib, musiqa va san'at ta'limi bo'yicha davlat siyosatini izchil amalga oshirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanish asosiy yo'nalishlar sifatida qayd etilgan.[1].

Yuqorida keltirilgan hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, avvalo, ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, retrospektiv yondashuv asosida Qoraqalpoq musiqa san'atining evolyutsion rivojlanish kontseptsiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv orqali musiqa san'atining shakllanish bosqichlari, taraqqiyot tendentsiyalari va ichki qonuniyatlarini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Insoniyat o'z hayoti qonuniyatlarini to'g'ri anglab etishi uchun ta'lim bilan bog'liq manbalarni bilmog'i zarur. [3] Haqiqatdan ham global oqimlar dunyo bo'ylab tez sur'at bilan tarqalayotgan zamonda, avlodlarimizga o'tmish tariximizni chuqur o'rgatish muhim ijtimoiy pedagogik ahamiyat kasb etadi. O'sib kelayotgan yoshlar o'z avlodini anglab, milliy merosni qadrlash orqali tarixiy bilim va an'anaviy qadriyatlar asosida zamonaviy pedagogik jarayonni shakllantirib, ma'naviy va madaniy rivojlanish uchun poydevor yaratadilar.

Zero, Qoraqalpoq musiqa san'atining shakllanishi va taraqqiyotini xolis baholash uchun uning ildizlari, bosqichma-bosqich rivojlanish jarayonlari hamda ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liqligi atroflicha o'rganilishi lozim.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, eng avvalo, boy tarixiy-madaniy merosimizning chuqur va har tomonlama o'rganilayotganligi bilan belgilanadi. Zero, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ularning Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur kabi buyuk ajdodlar avlodi ekanligini anglashi muhim ma'naviy omil hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, Qoraqalpoq madaniyati va ma'naviyatining shakllanishi hamda rivojlanishida muhim o'rin tutgan ilmiy va badiiy meros alohida ahamiyatga ega. Ushbu meros nafaqat tarixiy qimmatga ega, balki bugungi kunda ham ta'lim-tarbiya jarayonida samarali manba sifatida qo'llanilmoqda.

Xususan, Kunxoja (Qoraqalpoq adabiyotining asoschilaridan biri, ma'rifiy g'oyalarni targ'ib qilgan shoir), Ajiniyoz (ijtimoiy-siyosiy va axloqiy mavzularni chuqur yoritgan ijodkor), Berdaq (xalqparvarlik va erkinlik g'oyalarni ilgari surgan buyuk mutafakkir) hamda O'tesh (ma'rifatparvarlik yo'nalishida faoliyat yuritgan ijodkor) kabi namoyondalarning ijodiy merosi yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol toptirishda muhim o'rin tutadi.

Retrospektiv tahlil shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpoq musiqa san'ati doimo ijtimoiy-tarixiy sharoitlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. U jamiyatning ma'naviy ehtiyojlarini aks ettirib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan madaniy meros sifatida saqlanib qolgan.[12]

Nazariy-metodologik jihatdan qaralganda, Qoraqalpoq musiqa san'ati xalq og'zaki ijodi, an'anaviy ijrochilik maktablari va milliy estetik qarashlar tizimiga tayanadi. Bu erda musiqiy merosni o'rganishda tizimlilik, tarixiylik va vorisiylik tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, musiqa pedagogikasi, etnomusiqa va madaniyatshunoslik kabi fanlar ushbu sohani tadqiq etishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tarixiy nuqtai nazardan esa, Qoraqalpoq musiqa san'atining rivojlanishi bir necha bosqichlarda kechgan: qadimgi marosim va mehnat qo'shiqlaridan boshlab, epik dostonchilik an'analari, jo'ravozlik va yakkaxonlik ijrochiligi orqali murakkab shakllargacha taraqqiy etgan. Ayniqsa, baxshichilik san'ati, xalq cholg'ulari va an'anaviy kuy-qo'shiqlar milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllangan.

Tarixiylik tamoyiliga ko'ra, har qanday millat asrlar davomida o'zining boy madaniy va ma'naviy qadriyatlarini yaratib kelgan. Ushbu qadriyatlarda millatga xos bo'lgan belgilar, fazilatlar, his-tuyg'ular, shuningdek, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan moddiy va ma'naviy an'analari asosiy o'rinni egallaydi.

Mazkur qadriyatlar muayyan millat vakillari uchun nafaqat madaniy meros sifatida, balki milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash va ijtimoiy birlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu ma'noda, ular umummilliy qadriyatlar tizimining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, tarixiylik tamoyili asosida ushbu qadriyatlarni o'rganish ularning shakllanish manbalari, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy jamiyat hayotidagi ahamiyatini chuqur anglash imkonini beradi.

Mavzu mohiyatini chuqur va har tomonlama yoritish, uni ilmiy asosda tadqiq etish uchun, avvalo, asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyatini aniqlash va ularni nazariy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, "retrospektiv yondashuv", Qoraqalpoq musiqa san'ati hamda "evolyutsion rivojlanish" kabi tushunchalarning lug'aviy va ilmiy ta'riflarini o'rganish mazkur tadqiqotning nazariy asosini belgilaydi.

Retrospektiv yondashuv tadqiq etilayotgan hodisaning o'tmishdagi holati, shakllanish bosqichlari va tarixiy taraqqiyot yo'lini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, u orqali musiqiy pedagogik an'analarning ildizlari va ularning zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati ochib beriladi. Shu bilan birga, evolyutsion rivojlanish tushunchasi ma'lum bir ijtimoiy-madaniy hodisaning bosqichma-bosqich, izchil va qonuniyatli taraqqiyotini anglatib, Qoraqalpoq musiqa san'atining tarixi va uning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Qoraqalpoq musiqa san'ati — Qoraqalpoq xalqining ko'p asrlik tarixiy, madaniy va ma'naviy tajribasini o'zida mujassam etgan noyob san'at turi bo'lib, u xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi va estetik ideallarini ifoda etadi.

Ilmiy nuqtai nazardan, Qoraqalpoq musiqa san'ati an'anaviy musiqiy meros sifatida shakllanib, og'zaki ijod namunalari, xalq qo'shiqlari, dostonlar va kuylar tizimi orqali avloddan-avlodga uzatib kelingan. Ushbu san'at turi nafaqat estetik zavq bag'ishlash, balki tarbiyaviy, axloqiy va ma'rifiy vazifalarni ham bajaradi.

Evolyutsion rivojlanish — muayyan tizim, hodisa yoki jarayonning vaqt davomida bosqichma-bosqich, izchil va qonuniyatli ravishda o'zgarib, takomillashib borishini ifodalovchi ilmiy tushunchadir.

Ilmiy adabiyotlarda evolyutsion rivojlanish tabiiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarning ichki

qonuniyatlar asosida, keskin sakrashlarsiz, balki asta-sekinlik bilan rivojlanishini anglatadi. Bu tushuncha, ayniqsa, jamiyat, madaniyat va ta'lim tizimlarini tahlil qilishda keng qo'llaniladi.[10]

Evolyutsion rivojlanishning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

izchillik — rivojlanish jarayoni ma'lum bir mantiqiy ketma-ketlikka ega bo'ladi;

davomiylik — o'zgarishlar uzluksiz ravishda amalga oshadi;

vorisiylik — yangi bosqichlar avvalgi tajriba va an'analarga tayanadi;

moslashuvchanlik — tashqi muhit va ijtimoiy talablarga mos ravishda o'zgarish yuz beradi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, evolyutsion rivojlanish ta'lim-tarbiya tizimining tarixiy taraqqiyotini, uning mazmuni va shakllaridagi o'zgarishlarni ilmiy asosda tushuntirishga xizmat qiladi. Jumladan, milliy madaniyat elementlari, xususan, Qoraqalpoq musiqa san'ati ham aynan evolyutsion jarayon orqali shakllanib, zamonaviy ta'lim jarayoniga moslashib bormoqda. [8]

Xulosa qilib aytganda, evolyutsion rivojlanish tushunchasi har qanday ijtimoiy-madaniy hodisaning o'tmish, bugun va kelajak o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy jihatdan asoslab berish muhim metodologik ahamiyatga ega Retrospektiv yondashuv asosida Qoraqalpoq musiqa san'atining evolyutsion rivojlanishini tadqiq etish uning tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari va zamonaviy taraqqiyot tendentsiyalarini chuqur anglash imkonini beradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy musiqiy meros izchillik va vorisiylik tamoyillari asosida rivojlanib, har bir davrda ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirida boyib borgan.

Shuningdek, evolyutsion rivojlanish jarayonida an'anaviy va zamonaviy elementlarning uyg'unlashuvi muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Bu esa mazkur san'at turini zamonaviy ta'lim tizimiga samarali integratsiya qilish, yosh avlodning estetik didi, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Natijada, Qoraqalpoq musiqa san'atidan ta'lim-tarbiya jarayonida maqsadli va tizimli foydalanish milliy qadriyatlarni asrash va ularni kelgusi avlodlarga etkazishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 fevral 2022 yildagi PQ-112-sonli "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori. <https://lex.uz/docs>

2. Aleuov U. Qoraqalpoqstanda t'lim-tarbiyaliq oylarid' qaliplesio'i h'm rao'ajlan'yo'yi.- N'kis: Bilim, 1993. – 503 b. 40. Aleuov U. Qoraqalpoq xalq'ym' etnopedagogikas'yi. – N'kis: Bilim, 1994. – 56 b.

3. Utebaev T. T. Qoraqalpog'istonda Xx asr ikkinchi yarmi –Xxi asr boshida ta'lim-tarbiyaviy fikrlarning rivojlanishi. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent 2016

4. Mardonov Sh.Q. Sharq allomalari merosi – pedagog mutaxassislar tayyorlash asosi //Xalq ta'limi-Toshkent. 2004.- №2. B. 25-27.

5. Allayarov A. Qoraqalpoq xalq musiqasi tarixi va rivoji. – Nukus: Qoraqalpoqstan nashriyoti, 1998.

6. Esenov J. Qoraqalpoq xalqining musiqiy madaniyati va pedagogik an'analari. – Nukus: Ilimi, 2007.

7. Tileganov A.T Xalq dostonlari vositasida o'smirlarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash («Alpomish» dostoni misolida). Ped. fan. nomz. ...diss. Toshkent 1998

8. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. Pedagogika oliy o'quv yurtlari va dorilfunun talabalari uchun darslik. – T.: Milliy kutubxona nashriyoti, 2005. -320 b.

9. Qurboniyozova Z. K. Tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchilarda milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik asoslari (Qoraqalpoq maktablarining VII-IX sinflari misolida): Ped.fanl. nomz. ... diss. avtoref. – T.: 2002. – 21 b.

10. Falsafa: qomusiy lug'at. T.: Sharq, 2004. – 496 b

11. Davronova D. S. Milliy va ma'naviy tarbiyaning qadimiy va zamonaviy ijtimoiy - pedagogik tamoyillari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2025 yil № 3)

12. <https://www.mirarab.uz/ruknlar/1599>

O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARDA G'OYALARNI GENERATSIYALASH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Rustamov Nazir Choriyevich,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: mazkur maqolada o'smir yoshdagi o'quvchilarda g'oyalarni generatsiyalash ko'nikmasini rivojlantirishning mazmun-mohiyati, pedagoglar tomonidan ta'lim jarayonida o'quvchilar orasidagi ijodkorlikni rivojlantirishi uchun kolleboratsiyaga e'tibor berishlariga alohida urg'u berib o'tilgan. O'quvchilarda yangi g'oyalar yaratish va uni namoyon etish ko'nikmasini shakllantirishga oid MDH va xorijlik olimlarning qarashlariga e'tibor qaratilgan. O'quvchilarning o'qituvchilar, ota-onalar va tengdoshlari bilan ijodiy hamkorligi, ulardayangidan-yanagi g'oyalarning tug'ilishiga asos bo'lishi haqida fikr yuritilgan. Ta'lim jarayonida ijodiy fikrlash, muammolarni mustaqil yechish va turli fikrlarni shakllantira olish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim metodlarining tutgan o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mazkur maqola keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan bo'lib, tadqiqotchilar, o'qituvchilar, talabalar uchun manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mustaqillik, o'smir, ijodiy erkinlik, g'oyalar generatsiyasi, shaxslararo dialog, jamoaviy g'oya ishlab chiqish, hamkorlik, kreativlik, eksteriorizatsiya va interiorizatsiya.

Abstract: This article emphasizes the essence and significance of developing idea-generation skills in adolescent students, with particular attention to the importance of collaboration in fostering students' creativity within the educational process. It highlights the views of CIS and foreign scholars on the formation of students' abilities to generate and present new ideas. The article also discusses how students' creative cooperation with teachers, parents, and peers serves as a foundation for the emergence of ever new ideas. Furthermore, it provides a scholarly substantiation of the role and importance of teaching methods in developing such skills as creative thinking, independent problem-solving, and the ability to formulate diverse ideas in the educational process. This article is intended for a wide audience and may serve as a source for researchers, teachers, and students.

Keywords: independence, adolescent, creative freedom, idea generation, interpersonal dialogue, collective idea development, collaboration, creativity, exteriorization, and interiorization.

Аннотация: В данной статье раскрываются сущность и содержание развития навыков генерации идей у подростков, при этом особо подчеркивается необходимость внимания педагогов к коллаборации как важному условию развития творческих способностей учащихся в образовательном процессе. Особое внимание уделено взглядам ученых стран СНГ и зарубежных исследователей на формирование у учащихся умений создавать новые идеи и представлять их. Также рассматривается мысль о том, что творческое сотрудничество учащихся с учителями, родителями и сверстниками служит основой для возникновения всё новых идей. Научно обоснованы роль и значение методов обучения в развитии таких навыков, как творческое мышление, самостоятельное решение проблем и способность формировать разнообразные идеи в образовательном процессе. Данная статья предназначена для широкой общественности и может служить источником для исследователей, преподавателей и студентов.

Ключевые слова: независимость, подросток, творческая свобода, генерация идей, межличностный диалог, коллективная разработка идей, сотрудничество, креативность, экстериоризация и интериоризация.

Hozirgi ijtimoiy madaniy jarayonda o'smir yoshdagi o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanib,

intellektual jihatdan rivojlanishi, o'zini-o'zi rivojlanlantirishi, "madaniyatli shaxs" sifatida muayyan kasbni tanlashi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Shaxsiy faollik va mas'uliyatlilik kabi sifatlarni o'smir yoshdagi o'quvchilarda shakllantirish ularning qobiliyatlarini tizimli tarzda rivojlantirishga asos bo'ladi. O'smir yoshdagi o'quvchilarda mustaqillik, qo'llab-quvvatlash va hamkorlikda ishlashdan holi bo'lishni anglatmaydi. Aksincha, o'smir yoshdagi o'quvchilardagi o'ziga xoslik, betakrorlikning namoyon bo'lishida, ularni qo'llab quvvatlash, hamkorlikka kirishish taqozo qilinadi. O'smirlarga taqdim etiladigan erkinlik o'quv va intellektual rivojlanishdagi erkinlik, tanlov erkinlik, ijodiy erkinlik kabilarni o'z ichiga oladi. Shu bilan bir qatorda, mustaqil mulohaza yuritish, mas'uliyatli qarorlar qabul qilishini qo'llab quvvatlash va hamkorlik jarayonida rivojlanadi. O'smir yoshdagi o'quvchilar o'quv hamda ijodiy faoliyat jarayonida, birinchi navbatda, o'zini anglash ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.

O'smir yoshdagi o'quvchilarda mustaqillikni rivojlantirish uchun mustaqil va ijodiy ishlarning o'zi yetarli emas. Ularning mustaqilligini ta'minlash uchun dars va darsdan tashqari jarayonlarda erkin tanlovni amalga oshirishlariga sharoit yaratish lozim. Natijada, g'oyalarni generatsiyalash uchun qulay vaziyat vujudga keladi. O'quvchilarga taqdim etiladigan mustaqilik va qo'llab quvvatlov ularda mustaqillikni rivojlantirishi, o'z-o'zini rivojlantirishi uchun sharoit yaratish, o'zlashtirilgan bilimlarini ijodiy qo'llashlari uchun qulay muhit taqdim etish, kasb tanlash erkinligini qadrlash talab etiladi.

O'smir yoshdagi o'quvchilar birinchi navbatda, atrofdagilar bilan hamkorlikka kirishish ko'nikmasiga ega bo'lishlari talab etiladi. Ularning samarali hamkorlik muhitiga kirishishlari hamkorlikdagi ijodiy faoliyat tajribasiga ega bo'lishlarini taqozo etadi. Hamkorlik madaniyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri, yangi g'oyalarni yaratish va ularni namoyon ifoda eta olish ko'nikmasiga ega bo'lishdir.

Yangi g'oyalar yaratish va uni namoyon etish ko'nikmasini shakllantirishning o'ziga xos mezonlari mavjud. Ushbu mezonlar sirasiga, o'smir yoshdagi o'quvchilarda shakllangan ijtimoiy kreativlik hamda dialogga asoslangan shaxslararo munosabatlarni ko'rsatish mumkin. O'smir yoshdagi o'quvchilarda shakllangan ijtimoiy kreativlikning ko'rsatgichlari - muammolarga yangi, noodatiy yechimlar topish, shaxslararo ta'sir jarayonida o'z ijodiy g'oyalari va mualliflik loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'nikmalaridir.

O'smir yoshdagi o'quvchilarda ijtimoiy kreativlikning shakllanganlik darajasini aniqlashda, taniqli psixolog N.P.Fetiskinning "Shaxs ijtimoiy kreativligini aniqlash metodikasi"ga asoslandik. Ushbu metodika yordamida shaxs hayotiy faoliyatining nostandart vaziyatlarida o'z-o'zini baholash asosida, atrofdagilar bilan o'zaro hamkorlik jarayonida namoyon bo'ladigan ijodiy salohiyat darajasini aniqlash imkonini beradi [1].

O'smirlardagi o'quv mustaqilligining asosiy ko'rsatgichi sifatida shaxslararo dialogga asoslangan munosabatlarni ko'rsatish mumkin. Bu jarayon subyektlari orasida samarali muloqotni amalga oshirish, o'smir yoshdagi o'quvchini o'z fikrini to'laqonli namoyish etishi uchun sharoit yaratish, uni tinglash va maslahatlar berish, g'oyalarni qo'llab-quvvatlashda namoyon bo'ladi. Dialogga asoslangan shaxslararo munosabatlar jarayonida o'quvchilar ilgari surilgan g'oyalar qo'llab quvvatlanadi. Yangi g'oyalarni qo'llab quvvatlash uchun motivatsiya hosil qilinadi.

Dialogga asoslangan shaxslararo munosabatlar birinchi navbatda, qo'llab quvvatlash va hamkorlik g'oyalarga asoslanadi. Shu tariqa, dialogga asoslangan munosabatlar texnologiyasi va o'quv hamkorligi yordamida o'smir yoshdagi o'quvchilar tomonidan yaratilgan g'oyalar qo'llab quvvatlanadi.

O'smirlarda mustaqillikni shakllantirish, mustaqil qarorlar qabul qilish ko'nikmasini qaror toptirish, ularni ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. O'quvchilarning mustaqil o'zlashtirgan va ijtimoiy tajribasiga kirgan bilimlari ulardagi xavotir, qo'rquv, ishonchsizlik, bezovtalik, ikkilanish hissini pasaytiradi. Bu nafaqat, o'quv jarayonidagi, balki, atrofdagilar va moddiy borliq bilan munosabatlarning samarali kechishini ta'minlaydi [2].

O'quv mustaqilligiga oid faoliyat nazariyasi [3] hamda xalqning madaniy-tarixiy tajribani o'zlashtirish mexanizmlari [4] o'quvchilarning ijodkorlik motivlarini rivojlantiradi. Bu sifatlar o'quvchilarning o'quv va ijodiy mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'quv mustaqilligi faqat eksteriorizatsiya va interiorizatsiya [5] jarayonida boshlanib, tizimli tarzda rivojlanadi. Bu jarayonda pedagog alohida o'rin egallaydi. Uning asosiy vazifasi, o'quvchilar faoliyatini o'quv maqsadlariga bog'liq holda to'g'ri tashkil etishdan iborat. Ayniqsa, interiorizatsiya bosqichida - amalga oshiriladigan ijodiy faoliyat natijalarini o'quvchilar ongida shakllantirishda o'qituvchining kasbiy ijodkorligi muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda o'quvchilar tomonidan amalga oshiriladigan kichik tadqiqotlar yordamida ularning ijodkorlik sifatleri namoyon bo'ladi. Eksteriorizatsiya jarayonida esa o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyati amalga oshadi.

O'quvchilarning o'qituvchilar, ota-onalar va tengdoshlari bilan ijodiy hamkorligi, ularda yangidan-yanagi g'oyalarning tug'ilishiga asos bo'ladi. Natijada, o'quvchilarda g'oyalarni generatsiyalash motivatsiyasi vujudga keladi. Ijod qilish uchun zarur bilim va ko'nikmalarning mavjudligi o'quvchilarning mustaqil kreativ faoliyatga tayyorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Chunki, ijodiy mustaqillik o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini harakatga keltiradigan, ularning tashqaridan yordam olmasdan mustaqil harakat qilishlarini ta'minlaydi.

Buning uchun o'quv jarayoniga faol va interfaol metodlarni kiritish nazarda tutiladi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilar nafaqat darsda berilgan o'quv topshiriqlarini, balki, real ijtimoiy yoki kasbiy ahamiyatga ega muammolarni tahlil qilishi uchun ularni kvazi-professional faoliyat vaziyatlariga olib kirishlari muhimdir. Bunda hamkorlik jarayoni subyektlarining birgalikdagi faoliyati bilan amalga oshirilishi lozim.

Shulardan kelib chiqqan holda, quyidagilarni amalga oshirish zarur degan xulosaga keldik. Ko'rsatilgan sifatlarning rivojlanishi o'quvchilarni umumiy o'rta ta'lim muassasasidagi o'quv jarayoni doirasida tashkil etiladigan o'zaro hamkorlik vaziyatlariga jalb qilishni talab etadi. Bunday hamkorlik natijasida, o'quvchilarning o'quv mustaqilligi va o'quv tashabbuskorligi rivojlantiriladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, hamkorlik jarayonida bir qator qiyinchiliklar mavjud bo'lib, bu o'qituvchidan alohida pedagogik mahoratni talab qiladi. Shunga ko'ra, hamkorlik jarayonini tashkil etishni o'qituvchi puxta loyihalashtirishi lozim. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarni g'oyalarni generatsiyalashga o'rgatishga alohida e'tibor qaratish orqali, ularni istiqbolda munosib kasbni egallashga yo'naltirish talab etiladi. G'oyalarni generatsiyalash hamkorlikda faoliyat tajribasiga ega bo'lishni talab qiladi. Shu bilan bir qatorda, ushbu jarayonda o'quvchilarning kreativligi ham muhim ahamiyatga ega.

Kreativlikni shakllantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri, pedagogik jarayonda innovatsiyalarni qo'llashdan iborat. Ta'limning innovatsion xarakteriga ega bo'lishini ta'minlash orqali o'quvchilarda kreativlik rivojlantiriladi. O'quvchilar g'oyalar yaratish va uni amalga oshirish jarayonida o'z kreativliklarini namoyon etadilar.

O'quvchilarda o'quv mustaqilligini rivojlantirish orqali ularning kreativ fikrlash imkoniyatlari kengaytiriladi. AQSh olimi Jozef Renzulli - boyitilgan ta'lim konsepsiyasida o'quvchilarni mahsuldor faoliyatga jalb qilish g'oyasini ilgari surgan [6].

O'quvchilarda g'oyalarni generatsiyalash ko'nikmasini rivojlantirishda Renzulli tomonidan ilgari surgan g'oyalardan foydalanishga to'xtaldik.

Renzulli modelida o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarga yangi "g'oya top!" deb bosim qilmaydi, balki, ochiq yakunli vazifalar beradi hamda bir muammo uchun turli rol va nuqtayi nazarlar qo'llaydi. Masalan, vaziyatdan kelib chiqqan holda mijoz, muhandis, jurnalist, ekolog nuqtai nazaridan. Tanqidni kechiktirish ya'ni, avval ko'paytirish, keyin saralash tartiblari bilan ishlab, o'quvchilarni mazkur faoliyatga jalb qiladi.

Renzulli muammoni an'anaviy yo'l bilan yechishdan oldin uni aniqlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. U bunga qanday ehtiyoj borligi zarurligini ta'kidlagan holda, quyidagi savollarga javob topishga harakat qiladi:

- a) “Nimani o‘zgartirish mumkin?”
- b) “Qayerda ehtiyoj bor?”
- d) “Kimga foyda keltiradi?”

Shu savollarga javob topilganda yaratilgan yangi g‘oyalari ko‘proq hayotga tegishli va amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Renzullining 3-halqali qarashida g‘oya paydo bo‘lishi uchun quyidagilarni zarur deb hisoblagan. Ular:

- ijodkorlik;
- topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashish;
- qobiliyat [7].

Biz o‘smir yoshdagi o‘quvchilar bilan g‘oyalarni jamoaviy tarzda generatsiyalash metodidan foydalanadik.

Bu o‘quvchilarning ma’lum bir muammo, vazifa yoki loyiha yuzasidan birgalikda yangi fikr va yechimlar ishlab chiqish jarayoni hisoblanadi. Ushbu metodning asosiy maqsadi, qisqa vaqt ichida imkon qadar ko‘proq va xilma-xil g‘oyalarni to‘plashdan iborat. Jamoaviy fikrlash jarayonida ishtirokchi o‘quvchilar o‘z bilim, tajriba va dunyoqarashlariga tayangan holda takliflar bildiradilar, natijada individual fikrlashga nisbatan kengroq va ijodiyroq natijaga erishiladi.

Bu usul ayniqsa ta’lim - tarbiya sohasida samarali hisoblanadi. Jamoaviy g‘oya ishlab chiqish jarayonida tanqid dastlabki bosqichda cheklanadi, chunki, erkin ijodkorlik muhiti ijodkorlik ko‘lamini kengaytiradi. Keyingi bosqichda esa ilgari surilgan g‘oyalari tahlil qilinadi, baholanadi va eng maqbullari tanlab olinadi.

Mazkur metod o‘quvchilar jamoasida hamkorlik muhitini vujudga keltiradi, o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ularga muammolarga turli nuqtai nazardan yondashish imkonini beradi. Shuning uchun ham g‘oyalarni jamoaviy generatsiyalash metodidan pedagogik jarayonda tizimli tarzda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

G‘oyalarni jamoaviy generatsiyalash usullari sirasiga, aqliy hujum, brainwriting, nominal guruh texnikasi, aqliy xarita, reverse brainstormingni kiritishimiz mumkin.

Bugungi ta’lim jarayonida ijodiy fikrlash, muammolarni mustaqil yechish va turli fikrlarni shakllantira olish kabi ko‘nikmalar muhim ahamiyatga ega. Bunga erishishda aqliy hujum metodi muhim vositadir. Bu metod nafaqat g‘oyalarni tez va samarali ishlab chiqarishga yordam beradi, balki o‘quvchilarda fikrlash jarayoni, hamkorlik va innovatsiya kabi qobiliyatlarni ham shakllantiradi.

Aqliy hujum metodi - muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llaniladigan metod hisoblanadi [8].

Aqliy hujum - bu guruhli ta’lim sharoitida muammo yoki vazifa bo‘yicha erkin, tezkor va tanqidsiz g‘oyalari chiqarish jarayoni. Bu metodda o‘quvchilar yangi, noyob va turlicha fikrlarni ilgari suradilar, hech biri dastlab tanqid qilinmaydi. Keyinchalik, bu g‘oyalari tahlil qilinadi, saralanadi va eng maqbullari tanlab olinadi.

Ushbu metod Alex Faivor tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u ijodiy jarayonda “tanqidni keyinga qoldirish” prinsipi orqali yangi fikrlarni bayon qilish erkinligini bayon qiladi [9].

“Aqliy hujum” - o‘quv jarayonida muayyan muammo yoki savol bo‘yicha qisqa vaqt ichida ko‘p g‘oyalarni to‘plashga xizmat qiladigan metod. Uni qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad - ko‘plab variantlarni ilgari surgan holda, ular orasidan eng to‘g‘risini tanlab olishdan iborat. Shuning uchun aqliy hujum ko‘pincha ijodiy fikrlashni rivojlantirish, muammoli vaziyatlarga yechim topish, loyiha metodi asosida yangi g‘oyalarni izlab topish, darsni qiziqarli, jonli tarzda tashkil etish va o‘quvchilarda kreativ faollikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Aqliy hujum metodi alohida pedagogik ahamiyatga ega. U o‘quvchilarni bilimlarni tayyor holda qabul qilish emas, yangi g‘oyalarni yaratishga undaydi. An’anaviy darslarda o‘quvchi xato qilishdan qo‘rqib, birgina javob bilan cheklanadi. O‘z fikrini aniq bayon qilishga tortinadi.

Aqliy hujum metodining qoidalariga ko'ra o'quvchi xato qilishi mumkin, bir necha javobni ilgari surish imkoniyatiga ega, degan qoidalar orqali o'quvchilarning g'oyalarni generatsiyalash imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada, o'quvchilar ko'proq o'ylash, ko'proq gapirish, o'z fikrini bayon qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Aqliy hujumning asosini "divergent fikrlash" tashkil etadi. Divergent fikrlash (tarqoq yoki ko'p yo'nalishli fikrlash) - muammo yoki savolga bitta "to'g'ri" javob izlashdan ko'ra, imkon qadar ko'p variantli yechimlarni yaratishga qaratilgan tafakkur jarayonidir. Psixologiyada u ko'pincha kreativ fikrlashning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi: o'quvchi ayni bir vaziyatning o'zida turli ehtimollarni ko'radi, noodatiy bog'lanishlarni topadi, g'oyalarni ko'paytiradi va keyin ularni saralash (konvergent fikrlash) bosqichiga olib o'tadi. Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasi lug'atida [10] divergent fikrlash muammoni yechishda odatiy strategiyalardan chetga chiqib, bir nechta yo'lni sinab ko'rishga tayanuvchi ijodiy fikrlash sifatida izohlanadi.

Divergent fikrlashning ilmiy ahamiyati shundaki, u insonning "ijodiy salohiyati" bilan bog'liq ko'rsatkichlardan biri sifatida ko'p tadqiq qilingan. Guilford o'zining kreativlik psixologiyasi yo'nalishidagi asarida divergent fikrlashni insonning bir vaziyatga nisbatan ko'p alternativ yechimlar ishlab chiqish qobiliyati sifatida izohlagan va uning mazkur shaxs kreativligiga bag'ishlangan tadqiqotlarda asosiy tushunchalaridan biriga aylangan.

Divergent fikrlash odatda bir nechta parametrlarda o'z ifodasini topadi. Divergent fikrlashning ko'p tarqalgan 4 ta ko'rsatkichi mavjud. Ular:

- ravonlik - bunda o'quvchining nechta g'oya yarata olganligiga e'tibor qaratiladi;
- moslashuvchanlik - g'oyalar nechta guruhga mansubligi aniqlanadi;
- originallik - g'oyalar originalligi ya'ni betakrorligi nazarda tutiladi.
- batafsillik - yoki aniqlik. Bunda o'quvchi tomonidan taqdim etilgan g'oyaning qanchalik aniqlashtirilgan va rivojlantirilganligiga e'tibor qaratiladi. Mazkur ko'rsatkichlar, Torrance testlari va boshqa kreativlikni baholash mezonlarida keng qo'llaniladi.

Shu bilan bir qatorda, divergent fikrlashning kuchliligi o'quvchi ijodkorligini yuqori natijadorligini ko'rsatmaydi. G'oyalarning ko'pligi o'quvchi shaxshining ijodiy imkoniyatlari bilan bog'liq. Bu uning motivatsiyasi, qiziqishlariga mos tushadigan bilimlar majmui, kasb tanlash faoliyati, o'qiydigan materiallarini tanlash va tahlil qila olish ko'nikmalariga bevosita bog'liq. Runco va Acarning ko'rsatishicha, shaxsning divergent fikrlashini aniqlovchi testlar keng qo'llaniladi, lekin kutilgan natijani aniq kafolatlamaydi [12].

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda divergent fikrlashni rivojlantirish muhim bo'lib, u o'quvchilarni rang barang fikrlashga o'rgatadi [13]. Natijada, o'quvchilar real hayotiy voqealarning ochiqqligini his etadilar. Divergent fikrlash o'quvchilarga muammolarga turli tomondan yondashish, muammolarning muqobil yechimini topish, kreativ yondashuvni amalga oshirish, o'z fikrini erkin ifodalash imkonini beradi. Britannica ensiklopediyasida [14] ham divergent fikrlashni yangi ma'lumot va ilgari topilmagan yechimlarga olib boradigan faoliyat sifatida, ta'rif berib o'tilgan. Divergent fikrlashga moslashuvchanlik va betakrorlik xosligini e'tirof etilgan.

O'quvchilarda g'oyalarni generatsiyalashni rivojlantirishda Brainwriting usulining ham o'rni beqiyosdir. Brainwriting g'oyalarni generatsiyalashning shunday usuliki, unda guruh ishtirokchilari bo'lgan o'quvchilar fikrlarini og'zaki bayon qilib, bahsga kirishmaydilar, balki g'oyalarni bir vaqtning o'zida muayyan izchilikda parallel tarzda bayon qiladilar.

Brainwritingning eng mashhur varianti - 6-3-5: 6 nafar ishtirokchi 5 daqiqada 3 tadan g'oya yozadi, shundan keyin g'oyalar yozilgan varaqalarni so'ng varaqalarni navbatma-navbat almashadilar. Muayyan vaqt moboynda g'oyalar ko'payadi. Mazkur metodning metodning pedagogik ahamiyati shundaki, guruh ishtirokchisi bo'lgan o'quvchi guruhdoshlarining g'oyalari bilan tanishib, uni boyitadi, unga o'zining yangi g'oyalarni qo'shadi.

Ushbu usul yordamida o'quvchilar tinglovchi rolidan yangi g'oyalarni generatsiyalovchi mavqeiga o'tadilar. Bu usul yordamida ishlaganda o'quvchilar g'oyalarni yaratish va to'plashda faoli shtirok etadilar. Bunday pedagogik vaziyat o'quvchilar uchun qiziqarli va jozibali

hisoblanadi. Brainwriting o'quvchilarda fikrni lo'nda aniq ifodalash ko'nikmasini rivojlantiradi. Chunki, yozma g'oya odatda 1-2 jumla yoki kalit iboralar bilan yoziladi. Bu o'quvchini "uzun gap"dan ko'ra, muammoning mohiyatiga mos, qisqa taklif berishga o'rgatadi. Natijada, keyingi bosqichda g'oyalarni guruhlash (klasterlash), takrorlarini birlashtirish va saralash osonlashadi. Brainwritingning ta'riflarida ham u ko'p g'oyani tez yig'ish, keyin ularni ko'rib chiqish uchun qulaylikni ta'minlashi ta'kidlangan.

Brainwriting usulida o'quvchilar samarali ishlashi uchun bir qator pedagogik shart sharoitlar talab qilinadi. Birinchi navbatda, o'quvchilar oldiga qo'yiladigan muammo yoki savol aniq ifodalanishi kerak.

Brainwriting usulining o'ziga xos xususiyatlari shundaki, u og'zaki brainstormingdan farqli tarzda o'quvchilarni parallel tarzda ishlashga undaydi, g'oyalarning yozma shaklda saqlash imkoniyatini ta'minlaydi, pedagogik jarayon demokratik xarakter kasb etib, dominant ishtirokchi tomonidan ko'rsatiladigan bosim bosimi kamayadi. Varaqlar o'zaro almashinilgani tufayli g'oyalar bir-birini boyitadi hamda kognitiv stimulatsiya kuchayadi.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu usul ta'lim jarayonida o'quvchilarni g'oyalarni generatsiyalashga o'rgatishda alohida pedagogik ahamiyat kasb etib, didaktik vaziyatning samarali kechishini ta'minlaydi. Pedagogik jarayonda, ta'limiy va tarbiyaviy maqsadning bir yo'la amlga oshirilishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Фетискин Н.П. Социально-психологическая диагностика развития личности и малых групп. М.: Психотерапия, 2009. 544 с.
2. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. - T.: O'qituvchi, 2002. - 272 b
3. Гальперин П.Я. Развитие взглядов на психическую деятельность в советской психологии // Введение в психологию: учебное пособие для вузов. М.: Кн. дом «Университет», 1999. С. 47-64.
4. Выготский Л.С. Собрание сочинений: в 6 т. М., 2006. Т. 2. 314 с. .
5. Lev Vygotsky. Thinking and Speech. - Cambridge, MA: MIT Press, 1986. - 287 p.
6. Joseph S. Renzulli, Sally M. Reis. The Schoolwide Enrichment Model: A Comprehensive Plan for Educational Excellence. - Mansfield Center, CT: Creative Learning Press, 1997. - 464 p.
7. Joseph S. Renzulli. The Enrichment Triad Model: A Guide for Developing Defensible Programs for the Gifted and Talented. - Mansfield Center, CT: Creative Learning Press, 1977. - 64 p.
8. Pedagogika: ensiklopediya / tuzuvchilar: Jamoa. - Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. 320-b. 190-bet.
9. Osborn A. F. How to Think Up. - New York: McGraw Hill Book Company, Inc., 1942. - 50 p.
10. Gary R. VandenBos. American Psychological Association dictionary of psychology. - 2nd ed. - Washington, DC: American Psychological Association, 2015. - 1204 p.
11. Guilford J.P. Creativity // American Psychologist. - 1950. - Vol. 5, № 9, P. 444-454.
12. Runco M. A., Acar S. Divergent Thinking as an Indicator of Creative Potential // Creativity Research Journal. - 2012. - Vol. 24, № 1. - P. 66-75.
13. María Luisa Vecina Jiménez. Creativity. Papeles del Psicólogo, 2006. Vol. 27(1), pp. 31-39.
14. Encyclopedia Britannica, Inc. - Chicago: Encyclopædia Britannica. - 2026. - Elektron resurs. URL: <https://www.britannica.com/topic/thought/Creative-thinking>.

KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI VA BOSQICHLARI

Safarova Nigora Nasilloevna,

*Buxoro davlat pedagogika institutining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,
p.f.f.d (PhD), dotsent*

Annotatsiya: Mazkur maqolada kompetensiya tushunchasining ilmiy adabiyotlarda talqin qilinishi, uning integrativ mohiyati va tarkibiy komponentlari tahlil qilinadi. Kompetensiya bilim, ko'nikma, tajriba, shaxsiy fazilatlar va mas'uliyat uyg'unligi sifatida yoritiladi. Kasbiy, kommunikativ, kognitiv, intellektual, psixologik-pedagogik hamda professional kompetensiya turlarining mazmuni ochib beriladi. Tadqiqotchilar qarashlari asosida kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'limning ahamiyati, amaliy faoliyatda qo'llanishi va shaxsiy rivojlanishdagi roli asoslanadi hamda uning ta'lim sifati oshishi, kasbiy samaradorlikni ta'minlash, ijtimoiy moslashuvchanlikni kuchaytirish va umrbod o'rganish jarayonidagi strategik ahamiyati yoritib beriladi, nazariy hamda amaliy xulosalar bilan boyitilgan ilmiy pedagogik tadqiqotlar uchun muhim manba sifatida tavsiya etiladi keng.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, kognitiv kompetensiya, intellektual kompetensiya, professional kompetensiya, psixologik-pedagogik kompetensiya, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, shaxsiy rivojlanish.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ И ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Сафарова Нигора Насиллоевна,

Проректор по научной работе и инновациям Бухарского государственного педагогического института, PhD по педагогическим наукам, доцент.

Аннотация: В данной статье анализируется интерпретация понятия компетентности в научной литературе, его интегративная сущность и структурные компоненты. Компетентность описывается как сочетание знаний, навыков, опыта, личностных качеств и ответственности. Раскрывается содержание профессиональной, коммуникативной, познавательной, интеллектуальной, психолого-педагогической и профессиональной компетенций. На основе взглядов исследователей обосновывается важность компетентностного образования, его применение в практической деятельности и роль в личностном развитии, подчеркивается его стратегическое значение в повышении качества образования, обеспечении профессиональной эффективности, укреплении социальной адаптивности и процессе обучения на протяжении всей жизни, а также дается широкая рекомендация как важный источник научно-педагогических исследований, обогащенный теоретическими и практическими выводами.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, коммуникативная компетентность, когнитивная компетентность, интеллектуальная компетентность, профессиональная компетентность, психолого-педагогическая компетентность, компетентностно-ориентированное образование, личностное развитие.

CONCEPTUAL FRAMEWORK AND STAGES OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE

Safarova Nigora Nasilloevna,

Vice-Rector for Research and Innovation of the Bukhara State Pedagogical Institute,
 PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor.

Abstract: This article analyzes the interpretation of the concept of competence in the scientific literature, its integrative essence, and structural components. Competence is described as a combination of knowledge, skills, experience, personal qualities, and responsibility. The article explores the content of professional, communicative, cognitive, intellectual, psychological, pedagogical, and professional competencies. Based on the views of researchers, the importance of competency-based education, its application in practice, and its role in personal development are substantiated. Its strategic significance in improving the quality of education, ensuring professional effectiveness, strengthening social adaptability, and lifelong learning is emphasized. A broad recommendation is given as an important source of scientific and pedagogical research, enriched with theoretical and practical findings.

Key words: competence, professional competence, communicative competence, cognitive competence, intellectual competence, professional competence, psychological and pedagogical competence, competence-oriented education, personal development.

Kompetensiya atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilingan. Kompetensiya (lot. Compete – erishyapman, munosibman, loyiqman) – muayyan davlat organi (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquqiy va burchlari doirasi, u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba [1].

Kompetensiya (lot. Compete – layoqatli, munosib bo‘lmoq) muayyan organ yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi, vakolat. Shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi.

Kompetensiya shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi. Demak, kompetensiya fan bo‘yicha egallangan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy faoliyatlarda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib amaliyotda qo‘llay olishdir.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliy faoliyatda yuqori darajada qo‘llay olinishi.

Ayrim ilmiy manbalarda kompetensiya shaxsning muayyan faoliyat turini bilishi va ushbu sohada yetarli tajribaga ega bo‘lishi natijasida ob‘ektiv xulosalar chiqarish hamda asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi sifat sifatida e‘tirof etiladi [2]. Britaniyalik psixolog J. Raven kompetensiyani muayyan fan yoki faoliyat sohasida aniq harakatlarni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan yuqori darajada ixtisoslashgan bilimlar, maxsus ko‘nikmalar, fikrlash usullari hamda o‘z faoliyati natijalari uchun mas‘uliyatni anglashni o‘z ichiga olgan kompleks qobiliyat sifatida ta‘riflaydi. D.I. Ushakov tahriri ostida nashr etilgan izohli lug‘atda kompetensiya xabardorlik va vakolat doirasi bilan izohlanadi.

Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan kompetensiyaga berilgan ta‘riflar ham mazkur tushunchaning ko‘p qirrali ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, S.G. Vershlovskiy va Yu.N. Kulyutkin kompetensiyani shaxsning individual xususiyati sifatida talqin qilsa, V.Yu. Krichevskiy uni funksiyalarni samarali amalga oshirish bilan bog‘laydi. V.A. Slastenin kompetensiyani shaxsning kommunikativ, konstruktiv va tashkiliy ko‘nikmalari majmui sifatida izohlasa, L.I. Panarin uni sub‘ektning shaxsiy sifati, ijtimoiy va texnik mehnat taqsimoti tizimidagi ixtisoslashgan faoliyati, ko‘nikmalar majmui hamda ularni amaliy faoliyatda qo‘llashga bo‘lgan tayyorligi sifatida tavsiflaydi [3].

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili kompetensiya tushunchasining integrativ xarakterga ega ekanligini, ya'ni u bilim, ko'nikma, tajriba, shaxsiy fazilatlar va mas'uliyatning uzviy uyg'unlashuvi asosida shakllanadigan murakkab va dinamik hodisa ekanligini ko'rsatadi.

Ko'plab tadqiqotchilar kompetensiyani shaxsning faqat muayyan bilimlarga egaligi bilan cheklab bo'lmaydigan, balki muammolarni malakali va samarali hal etishga bo'lgan potentsial tayyorligini ifodalovchi murakkab sifat sifatida talqin etadilar. Xususan, M.A. Choshanov kompetensiyani uchta asosiy xususiyatning integratsiyasi sifatida izohlaydi. Birinchidan, bilimlarning harakatchanligi, ya'ni operatsion va mobil bilimlarga egalik qilish; ikkinchidan, usullarning moslashuvchanligi, ya'ni muayyan vaziyatda mavjud sharoitlarga eng maqbul bo'lgan faoliyat usulini tanlash va qo'llay olish qobiliyati; uchinchi esa tanqidiy fikrlash bo'lib, u turli yechimlar orasidan eng samaralisini aniqlash, asossiz qarorlarni dalillar asosida rad etish hamda taklif etilayotgan yechimlarni tanqidiy baholash imkonini beradi [4].

Amerikalik tadqiqotchi R. Meyers kompetensiyani nafaqat oldindan belgilangan professional standartlar va mezonlarga rioya etish, balki real faoliyat jarayonida xulq-atvor vazifalarini amalda bajarish orqali namoyon bo'ladigan sifat sifatida ta'riflaydi. Mazkur yondashuv kompetensiyaning faoliyatga yo'naltirilgan komponentini alohida ta'kidlab, uning qo'llanish doirasini sezilarli darajada kengaytiradi. S. Velde esa kompetensiyani shaxsiy xususiyatlar, bilimlar, qobiliyatlar, ko'nikmalar hamda moslashuvchan fikrlashni o'zida mujassam etgan kompleks sifatlar majmui sifatida tavsiflaydi.

Rossiyalik olimlarning tadqiqotlarini umumlashtirgan holda, E.F. Zeer kompetensiyani nazariy va empirik bilimlarning integratsiyasi hamda ularni muayyan amaliy vaziyatlarda samarali qo'llash qobiliyati sifatida izohlaydi. Uning ta'kidlashicha, kompetensiya tushunchalar, tamoyillar, ma'no hosil qiluvchi qoidalar va professional faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlovchi umumlashtirilgan harakat usullari shaklida namoyon bo'ladi.

N.L. Goncharova kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini farqlab, kompetensiyani real, aniq bir shaxsga xos va sub'ektga bog'liq bo'lgan xususiyat sifatida talqin qiladi. Uning fikriga ko'ra, kompetensiya shaxs tomonidan ushbu sifatga egalik qilinishi va u amaliy faoliyat jarayonida namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. A.V. Xutorskoy esa kompetensiyani talabaning tegishli kompetentsiyaga egaligi, shu jumladan, ushbu kompetensiyaga va faoliyat sub'ekti sifatida o'ziga bo'lgan shaxsiy munosabati bilan bog'laydi. Tadqiqotchining ta'rifiga ko'ra, kompetensiya — bu talabaning muayyan ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega faoliyat sohasidagi tajribasi asosida shakllangan shaxsiy fazilatlar majmui bo'lib, u qiymat-semantik yo'nalishlar, bilimlar, ko'nikmalar va qobiliyatlarni o'z ichiga oladi [5].

Shunday qilib, mazkur yondashuvlar tahlili kompetensiya tushunchasining ko'p qirrali, faoliyatga yo'naltirilgan va shaxsiy omillar bilan chambarchas bog'liq integrativ kategoriya ekanligini ko'rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda kompetensiyaning bir qator turlari ajratib ko'rsatiladi bo'lib, ular orasida kommunikativ kompetensiya alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur kompetensiya turi G.S. Trofimova tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Tadqiqotchining ta'rifiga ko'ra, kommunikativ kompetensiya shaxsning gumanistik fazilatlariga tayanadigan, kommunikativ faoliyatning samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan hamda shaxslararo muloqot tajribasi, tayyorgarligi, tarbiyasi va rivojlanish darajasi bilan shartlangan integrativ qobiliyatdir. G.S. Trofimova pedagogik kommunikativ kompetensiya konsepsiyasini ishlab chiqib, uning o'lchash metodologiyasini, didaktik modelini hamda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning tarkibiy va mazmuniy bosqichlarini ilmiy asoslab berdi.

Olim tomonidan kommunikativ kompetensiyani didaktik vositalar orqali rivojlantirishning samarali usullari va yondashuvlari aniqlanib, nazariy jihatdan asoslandi. Ushbu yondashuv o'quv jarayonini kommunikativ jarayon sifatida talqin qilishni hamda ta'lim jarayonining kommunikativ tabiatidan talabalarning shaxsiy va kasbiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, didaktik sharoitlar shaxsda gumanistik sifatning

shakllanishi va rivojlanishining muhim omili sifatida qaraladi.

G.S. Trofimova tadqiqotlarida ilk bor “kommunikativ kompetensiya” va “kommunikativ kompetentlik” tushunchalari ilmiy-nazariy jihatdan farqlanadi. Mazkur talqinga ko‘ra, kommunikativ kompetensiya muloqot jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, asosan ijtimoiy psixologiya va pedagogika sohalarida qo‘llaniladi, kommunikativ kompetentlik esa kognitiv faoliyat bilan uzviy aloqada bo‘lib, ko‘proq tilshunoslik tadqiqotlarida qo‘llaniladigan tushuncha sifatida izohlanadi. Shu bois kommunikativ kompetensiya muammosi gumanitar bilimlarning turli sohalarida, xususan, falsafa, umumiy va ijtimoiy psixologiya, pedagogika hamda ijtimoiy pedagogika doirasida dolzarb ilmiy masala sifatida qaraladi.

Kognitiv kompetensiya ilmiy adabiyotlarda “jamiyat madaniyatida shakllangan tamoyillar, qadriyatlar va bilish usullari tizimiga mos keladigan shaxsning individual bilish faoliyati darajasi” sifatida talqin etiladi. Ushbu kompetensiya shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirishga yo‘naltirilgan, mustaqil va proaktiv faoliyatining metodologik asosini tashkil etadi. Ta‘lim jarayonida talaba oldida faqat muayyan fan asoslarini egallash emas, balki o‘qish jarayonida o‘zining individual kognitiv resurslarini kengaytirish va murakkablashtirish vazifasi ham turadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samarali o‘rganish natijalariga faqat tayyor bilimlarga ega bo‘lgan shaxslar emas, balki bilimlarni egallash, ularni tizimlashtirish va amaliy faoliyatda qo‘llash mexanizmlarini ongli ravishda shakllantirgan o‘quvchilar erishadilar. Shu nuqtai nazardan, kognitiv kompetensiya umumiy akademik ko‘nikmalar majmuiga tayanadi hamda bilimlarni mustaqil ravishda izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi.

Kompetensiyaga asoslangan ta‘lim sifatini oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri umumiy akademik ko‘nikmalarni maqsadli va tizimli rivojlantirishdan iboratdir. Bunday ko‘nikmalarga muammolarni hal etish uchun zarur axborotni topish, uni qayta ishlash va qo‘llash, muammoli vaziyatlarni aniqlash, tahlil qilish hamda samarali yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlari kiradi. Natijada kognitiv kompetensiyaning rivojlanishi talabaning bilim olish jarayonidagi faolligini oshirib, uning akademik va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo‘lishiga zamin yaratadi.

Intellektual kompetensiya shaxsning bilimlarni tizimli ravishda tashkil etish, tahlil qilish va ulardan samarali qarorlar qabul qilish jarayonida, jumladan, murakkab va ekstremal sharoitlarda ham oqilona foydalanish imkonini beruvchi integrativ qobiliyat sifatida talqin etiladi. Ilmiy tadqiqotlarda kompetent shaxsni tavsiflovchi intellektual bilimlarning quyidagi muhim elementlari ajratib ko‘rsatiladi: bilimlarning xilma-xilligi va aniqligi, ularning o‘zaro bog‘liqligi, moslashuvchanligi va tez yangilanib borishi, turli vaziyatlarda qo‘llash imkoniyati, asosiy (tayanch) elementlarning mavjudligi, bilimlarning kategoriyaviy tuzilishi hamda muayyan faoliyatni qanday amalga oshirishga doir protseduraviy bilimlarga egalik. Mazkur jihatlar intellektual kompetensiyaning yuqori darajada shakllanganligini va shaxsning murakkab muammolarni tahliliy yondashuv asosida hal etish qobiliyatini belgilaydi.

Intellektual-korporativ kompetensiya esa tashkilot yoki kompaniya faoliyati doirasida yuzaga keladigan optimallashtirish va rivojlanish bilan bog‘liq vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan murakkab psixologik xususiyat sifatida qaraladi. Ushbu kompetensiya kompaniyaning korporativ tizim sifatida samarali faoliyat yuritishini ta‘minlovchi ko‘nikma va qobiliyatlar majmuini o‘z ichiga oladi. Jumladan, unga strategik maqsadlarni belgilash, loyihadan oldingi tahliliy tadqiqotlarni amalga oshirish, axborot texnologiyalarini loyihalash va joriy etish, innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish hamda kompaniya rivojlanishining uzoq muddatli strategiyalarini shakllantirish qobiliyatlari kiradi. Shu jihatdan, intellektual-korporativ kompetensiya shaxsning individual intellektual salohiyati bilan tashkilot manfaatlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiluvchi muhim kasbiy sifat sifatida namoyon bo‘ladi [6].

N.N. Man‘ko talqiniga ko‘ra, o‘qituvchining texnologik kompetensiyasi pedagogik voqelik obyektlarini maqsadga muvofiq ravishda o‘zgartirishga yo‘naltirilgan ijodiy-texnologik bilimlar,

qobiliyatlar hamda instrumental faoliyat stereotiplari tizimidan iborat bo'lgan integrativ kasbiy sifatdir. Muallif ta'kidlashicha, boshqaruv va shakllantiruvchi faoliyatning texnologik-pedagogik asoslari kognitiv faoliyatning sensor va intellektual mexanizmlarini takomillashtirish, didaktik vositalar yordamida o'quv-bilish faoliyatining tashqi rejasini tashkil etish hamda ta'lim jarayonini dasturlashni o'z ichiga oladi. Ushbu kompetensiya o'qituvchining umumiy kasbiy kompetensiyasi tarkibida muhim va o'ziga xos bo'lim sifatida namoyon bo'ladi.

N.V. Andronovanning ta'kidlashicha, psixologik kompetensiya mutaxassisning professional faoliyatini samarali amalga oshirishini ta'minlovchi muhim shaxsiy-psixologik vosita bo'lib, u psixologik madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqotchi o'qituvchining psixologik kompetensiyasi tuzilmasida ikki asosiy blokni ajratadi: intellektual (kognitiv) va amaliy (samarali). Intellektual blok psixologik bilimlar tizimi va psixologik tafakkurni qamrab olsa, amaliy blok psixologik ko'nikmalar, malakalar hamda kasbiy faoliyat jarayonida ularni qo'llash qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.

Psixologik-pedagogik kompetensiya M.I. Lukyanova tomonidan pedagogik faoliyatga yuqori darajada tayyorlangan, ta'lim jarayonida talabalar bilan samarali muloqot o'rnatiladigan shaxsning muhim kasbiy fazilatlari va xususiyatlari majmui sifatida talqin etiladi. Muallif mazkur kompetensiyani o'qituvchining kasbiy samaradorligini belgilovchi yetakchi omillardan biri sifatida baholab, uning ta'lim jarayonida o'quvchilar shaxsini rivojlantirish va pedagogik o'zaro ta'sirni samarali tashkil etishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Professional kompetensiya A.K. Markova tomonidan mutaxassisning kasbiy faoliyatni egallash darajasini sifat jihatidan ifodalovchi integrativ shaxsiy xususiyat sifatida talqin etilgan. Markova ta'kidlaydiki, professional kompetensiya quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: kasbiy faoliyatga bo'lgan motivatsiyani anglash, shaxsiy fazilatlar va xususiyatlarni baholash, o'z professional rivojlanishini rejalashtirish, shaxsiy takomillashuv hamda o'zini o'zi o'qitish qobiliyati. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, professional kompetensiya uch komponentdan tashkil topadi: mazmunli (bilim va ko'nikmalar), motivatsion (kasbiy intilish va faollik) va samaradorlik (amaliy faoliyatda natijaga erishish qobiliyati) komponentlar.

V.A. Yakunin esa professional kompetensiyani yanada kengroq talqin qilib, unga quyidagi tarkibiy elementlarni kiritadi: professional bilim, ko'nikma va qobiliyatlar tizimi; professional muammolarni mustaqil va ijodiy hal qilish istagi va qobiliyati; odamlar bilan ishlash va ularni boshqarishga ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik; mafkuraviy va axloqiy yetuklik hamda siyosiy madaniyat. Shu bilan birga, ijtimoiy va psixologik kompetensiya odamlar bilan samarali ishlashni ta'minlaydigan ilmiy asoslangan psixologik texnikalarga ega bo'lish va muloqot jarayonida samarali faoliyat yuritishga tayyorlikni anglatadi.

Ta'lim kompetensiyasi S.N. Ulasevich nazariy va amaliy tayyorgarlikning integratsiyasini ifodalovchi, shuningdek, talabaning ushbu tayyorgarlikni amalda qo'llash imkoniyatini beradigan faoliyat qobiliyatini shakllantiruvchi shaxsiy xususiyat sifatida talqin etadi. Shu nuqtai nazardan, professional va ta'lim kompetensiyalari bir-birini to'ldiruvchi komponentlar sifatida pedagogik va kasbiy tayyorgarlik jarayonida o'rganiladi hamda mutaxassisning samarali faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qiladi [7].

Kompetensiya nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalar, tajriba hamda shaxsning kasbiy va ta'lim vazifalarini samarali bajarishi uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlarni o'z ichiga oluvchi integrativ tushuncha sifatida talqin etiladi. Kompetensiyaning tarkibi bir nechta asosiy elementlardan iborat: bilim, ko'nikma, tajriba va shaxsiy fazilatlar. Ushbu komponentlar o'zaro uzviy bog'lanib, kasbiy va ijtimoiy sohalarida yuzaga keladigan muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi.

Ta'lim va kasbiy faoliyatda kompetensiyaga asoslangan yondashuv akademik bilimlarni egallash bilan bir qatorda ularni real vaziyatlarda qo'llash, shaxsiy va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Kompetensiya o'rganish va kasbiy faoliyat jarayonida, shuningdek tajriba va atrof-muhitdagi o'zgarishlar ta'sirida doimiy ravishda rivojlanadigan dinamik hodisa

sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish doimiy bilim yangilashni, professional va ijtimoiy sohalardagi o‘zgarishlarga moslashuvchanlikni, shuningdek, shaxsiy rivojlanish va o‘zini o‘zi takomillashtirish qobiliyatini talab qiladi.

Kompetensiya nafaqat mutaxassisning kasbiy faoliyati uchun, balki jamiyatda samarali va uyg‘un o‘zaro ta’sirlarni ta’minlash uchun ham muhim ahamiyatga ega. U professional va shaxsiy fazilatlarni birlashtirib, jamoada konstruktiv muloqot va muammolarni samarali hal qilishga hissa qo‘shadi. Shu tariqa, kompetensiya o‘rganish, kasbiy faoliyat va ijtimoiy faoliyatning uzviy integratsiyasi sifatida ko‘riladi hamda umrbod o‘rganish va shaxsiy rivojlanishning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Markova A. K. Professional kompetensiya va uning tarkibi // Kasbiy Ta’lim Jurnal. – 2014. – T. 7, №1. – B. 12–20.

Muslimov N. A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. – Toshkent: Fan, 2004. – 256 b.

Zeer E. F. Kompetensiya: nazariyasi va amaliyoti // Psixologiya va Pedagogika. – 2008. – T. 14, №1. – B. 19–27.

Safarova N. N., Abdukarimova R. A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik. – Buxoro: Buxara Hamd Print, 2022. – 188 b.

Safarova N. N. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari // Pedagogik mahorat. – 2023. – №7. – B. 78–85.

Safarova N. N. O‘qituvchining kasbiy mahorati va kompetentligi // Sustainable Development: Problems, Analysis, Prospects. International Scientific and Practical Conference. – Poland, 2023. – B. 10–15.

Safarova N. N. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari // International Conference on Multidisciplinary Science. – India, 2023. – B. 56–61.

THE HARMONY OF TOLERANCE IN THE UPBRINGING AND FORMATION OF A MATURE GENERATION

Saparov Murod Yuldashovich,
International Islamic Academy of Uzbekistan
Department of «Psychology of Religion and Pedagogy» (PhD)

ANNOTATION: To form a harmonious generation, it is necessary to correctly explain the essence of secularism in our state's policy in the cognitive development of tolerance in the personality and thinking of young people.

Key words: Youth, high intellectual, spiritual competence, spiritual - educational, national and universal, values, etiquette - morality, character - character, interpersonal communication, secularism.

ГАРМОНИЯ ТОЛЕРАНТНОСТИ В ВОСПИТАНИИ И ФОРМИРОВАНИИ ЗРЕЛОГО ПОКОЛЕНИЯ

Сапаров Мурод Юлдашович,
Международная исламская академия Узбекистан
доцент кафедры «Психология религии и педагогика», (PhD)

АННОТАЦИЯ: Для формирования гармоничного поколения необходимо правильно объяснить сущность секуляризма в государственной политике в рамках познавательного развития толерантности в личности и мышлении молодежи.

Ключевые слова: Молодость, высокий интеллект, духовная компетентность, духовно-воспитательная, национальная и универсальная, ценности, этикет-нравственность, характер-характер, межличностное общение, секуляризм.

БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШ ВА ШАКЛЛАНИШИДА БАҒРИКЕНГЛИКНИНГ УЙҒУНЛИГИ

Saparov Murod Yuldashovich,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
"Din psixologiyasi va pedagogika" kafedrasida dotsenti, (PhD)

ANNOTATSIIYA: Баркамол авлодни шакллантириши учун ёшларнинг шахслилиги ва тафаккурида толерантликни когнитив ривожлантиришида давлатимиз сиёсатидаги секуляризмнинг моҳиятини тўғри тушунириши лозим.

Kalit so'zlar: Ёшлар, юсак интеллектуал, маънавий салоҳият, маънавий – маърифий, миллий ва умуминсоний, қадриятлар, одоб – ахлоқ, ҳулқ – атвор, шахслараро муомала, секуляризм.

Давлатимиз раҳбари Ш.М.Мирзиёев ташаббуслари билан қуйидаги масалага алоҳида урғу бериб ўтилган “Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юсак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз” .

Миллий тарихимиз зарварақларига назар ташласак, босиб ўтилган давларда баркамол авлодни тарбиясига алоҳида эътибор берилганлигини гувоҳи бўламиз. Баркамол авлодни тарбияси маҳсули сифатида, комил инсонни олдиндан кўра билган буюк боболаримиз ёш авлодни тарбиясига икки устун орқали ёндошганликлари гувоҳи бўламиз.

Биринчи устун дунёвий билим асосини дунё ва ўзини англашга доир табиий фанлар

камраб олган.

Иккинчи устун ижтимоий диний билим асосини маънавий – маърифий миллий ва умуминсоний кадриятларни англашга доир фанлар камраб олган. Юқоридаги ҳар иккала йўналишдаги фанларни ўзлаштириб амалиётда қўллай олган шахсларгина замонасини етук мутафаккури деб тан олинган. Мазкур шарқона таълим – тарбияни маҳсули бўлмиш дунёни ҳамон лол қолдириб келаётган фозилу – уломо боболаримизни номларини ўзи бир нечта жилдли китобни ташкил этади десак хато бўлмайди.

Истиқлолимизни даслабки кунларидан давлатимиз раҳбарияти узликсиз талим тизимини шакллантириб, ёш авлодни ҳар томонлама замонамизга мос баркамол инсон бўлиб етишишига аълоҳида эътиборини қаратиб келмоқда.

Шарқона таълим – тарбияга асосланган узликсиз таълим тизимини асосини Биринчи Президентимиз Ислон Каримов асарларида урғу берган “... ҳар бир ватандошимиз, айниқса, ёшлар фақат ислом дини тўғрисида эмас, умуман дунёдаги мавжуд динлар, уларни тарихи, моҳияти тўғрисида тўлиқ тасаввурга эга бўлсин. Ижтимоий соҳага оид дарсларда ёшларга дин билан дунёвий ҳаёт масалаларини, бу икки тушунчанинг бир – бирига таъсирини, улар ўртасидаги мўътадил муносабат бўлиши зарурлигини очиб бериш керак” деган чуқур мантиқий мушоҳадага асосланади. Юқоридаги таълимотларга асосланиб, баркамол авлодни шакллантириш учун ёшларнинг шахслилик тафаккурида толерантликни когнитив ривожлантиришда давлатимиз сиёсатидаги секуляризмнинг моҳиятини тўғри тушунтириш лозим.

Таниқли маърифатпарвар Абдурауф Фитрат айтгандек, “Агар бир мамлакат аҳолиси ахлоқсизлик ва жоҳиллик билан оилавий муносабатларни заифлаштириб юборса ва интизомсизликка йўл қўйса, шунда бу миллатнинг саодати ва ҳаёти шубҳа остида қолади”.

“Толерантлик” – лотинча “tolerare”, яъни “чидамоқ” маъносини англатиб, шахснинг ўз дунё қараши ва қатъий тушунчалари бўлиши билан бирга ўзгаларни фикр ва мулоҳазаларини тинглай олиши ҳамда уларни мушоҳада учун қабул қилиши тушинилади. Диний бағрикенглик - динлараро эзгу ғояларини қадирлаш, бир – бирини ҳурмат қилиш, шунинг билан бирга ўзаро ҳамкорликда фаолиятни аъмалга оширишларни англатади. “Секуляризм” – дин ва диний маросим ҳамда диний ақидаларга нисбатан муросали ва мўътадил муносабада бўлиш тушинилади. Диний ақида ва маросимларни миллий кадриятлар билан уйғунлашган ҳолатларида уларга нисбатан давлат сиёсатидаги муросали муносабатини секуляризм деб ҳам тушунтириш мумкин. Мисол учун давлатимиз раҳбарияти томонидан давлатимиз ҳудудида фаолият кўрсатаётган динларнинг диний маросимларини ўтказиш учун кенг шароитлар яратиб берилганлиги. Янада аниқ мисол келтирадиган бўлсак диний байрам кунларини дам олиш куни деб эълон қилиниши, Ҳаж ва Умра сафарларини давлат томонидан беғараз уюштирилиши ва хоказолар.

Секуляризмни давлатимиз раҳбарияти фаолиятида энг ёрқин кўриниши мамлакатимизда собиқ иттифоқ мамлакатлари ичида биринчи бўлиб Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси ва уни қошида ихтисослашган Ислон академик лицейи очилиши ва Тошкент Ислон Институти (Маҳад) ҳамда Ҳадичай Кубро хотин – қизлар диний билим марказини фаолиятини йўлга қўйилганлигида кўришимиз мумкин. Булардан ташқари ислом динидан бошқа динларга эътиқод қилувчиларнинг ҳам диний ўқув марказлари фаолият кўрсатмоқда.

Юртбошимиз таъкидлаганларидек “Ижтимоий соҳага оид дарсларда ёшларга дин билан дунёвий ҳаёт масалаларини, бу икки тушунчанинг бир – бирига таъсирини, улар ўртасидаги мўътадил муносабат бўлиши зарурлигини очиб бериш керак”.

Бир неча асрлар давомида шаклланган миллий кадриятлар асосидаги одоб – ахлоқ, ҳулқ – атвор ва шахслараро муомала жараёнини умуман олганда ижтимоий соҳага оид билимларни дин билан дунёвий ҳаёт масалаларга этопсихологияни ҳисобга олган ҳолда илмий ёндашув орқали ёшлар онгида шакллантириш давр талаби ҳисобланади.

Динни халқдан ажратиб бўлмаганидек миллий тарбия асосини диний тарбиядан ажратиб

бўлмайди. Демак юртбошимиз илгари сурган “Биз дин билан дунёни, дунё билан динни ўрганамиз” таълимоти бугунги кунда ўз давримизга мос илмий ҳамда тарихий асосига эга эканлигига исбот талаб этмайди.

Баркамол авлодни ҳар томонлама етук шахс бўлиб етишишида дунёвий билимлар билан бир қаторда диний билимларни миллий ва ижтимоий қадриятларни акс эттириш омили сифатида қўлланилиши мақсадга мувофиқдир. Ватанга муҳаббат, ота – она ва устозга муносабат, табиат ва ижтимоий муҳитга муносиблик, ҳалоллик, ростгўйлик ҳамда касб – ҳунар эгаллаш моҳияти ҳақидаги оят ва ҳадислардан унумли фойдаланиш барча даврларда ўзини ижобий натижасини бериб келган.

Асосли диний билимлар ёшларда турли диний эстремистик, террористик, ақидапараст ва мутаассиб оқимларни таъсирга тушиб қолишга нисбатан иммунитет ҳосил қилиш билан бирга дунёвий билимларни эгаллашга туртки вазифасини ўташи табиий. Диний бағрикенглик ёш авлодда ижтимоий жамиятдаги турли ирк, миллат ва диндаги тенгдошларига нисбатан ҳурмат ҳиссини шакллантириш баробарида турли чет тилларни ўзлаштиришга замин яратади. Баркамол авлодни асосий хусусиятларидан бири бугунги кунда ахборот технологияларидан ва чет тилларини эгаллаганлигида кўринади. Бирор бир технология бўйича янгилик яратиш ёки чет тилини ўрганиш ҳамда инсонлар билан мулоқот қилишни шакллантириш, тинглиқ олиш орқали ёш авлодда ўша миллатга нисбатан қизиқиш ортиб бағрикенглик юзага келади.

Юқорида тақидлаганимиздек баркамол авлод маҳсули бўлмиш шахс ва комил инсон муаммоси барча ижтимоий фанлар қаторида психологияни ҳам ўрганиш объекти сифатида қизиқтириб келади. Психология фанлари доктори профессор Э.Ғ.Ғозиев томонидан шахс ва комил инсонга берилган таърифига эътибор қаратадиган бўлсак;

Муайян жамоа аъзоси, жисмоний, жинсий, ижтимоий камолотга эришган, биологик ва социологик шартланган ҳислатлар эгаси, ўз имкониятларини рўёбга чиқарувчи, билишга интилувчи, фаолият хулқ, муомала субъекти шахс дейилади” деб таъкидлаб ўтади .

Субъектликнинг инстационал, супер соционал таркибларни ўзида мужассамлаштиришга, табиат, жамият қонунлари ҳақидаги билимларнинг соҳиби , хулқ-атвори тўқис, ўзлигини бизлик билан умумлаштирган, бошқа оламлар тўғрисидаги тасаввурларни кашф қилувчи донишманд зот (аллома, даҳо) комил инсон деб аталади.

Шахс ва комил инсон таърифидан кўриш мумкинки ёш авлод ижтимоий камолотга эришиши учун табиат, жамият қонунлари ҳақидаги билимларни ўзида мужассамлаштириши лозим экан. Ёшлар камолотига алоҳида эътибор қаратиб келаётган давлатимиз раҳбариятини диний бағрикенглик ва секуляризмга диққатини қаратиши келажаги буюк давлатни пойдеворини абадийлигига замин яратишдир.

Диний бағрикенглик ва секуляризм баркамол ёш авлодни тарбиясида бир – бирини тўлдирувчи намунавий омил вазифасини ўташини салкам чорак асрлик тарихга эга мустақил давлатимиз зар варақлари гувоҳ бўла олади.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Мирзиев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. ”Ўзбекистон”.Т. 2016.16 б.

2.Ислом Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент.: 2008 й. 189 б.

3. Фитрат А. Оила.–Т.: “Маънавият”, 1998. 8 б..

4. Э.Ғ.Ғозиев “Онтогенез психологияси” Тошкент 2000 й;.152 б.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA AXBOROTLARNI LOYIHALASHTIRISH YONDASHUVI ASOSIDA TAYYORGARLIGINI AMALGA OSHIRISH METODIKASI

*Shukurov Akmal Uktamovich,
Qarshi davlat texnika universiteti, “Axborot tizimlari va texnologiyalari” kafedrasida dotsenti,
p.f.f.d. (PhD)*

*Berdiyev Kamoliddin Roziqovich,
Osiyo xalqaro universiteti magistranti*

Annotatsiya: Boshlang‘ich ta’limda modellashtirish metodining umumlashgan modelini tadbiq etish uchun tayyorlanadigan o‘quvchilar tayyorlash jarayoni ularning shaxsiy qobiliyatlarini, psixologik, pedagogik, notiqlik, topqirlik iqtidorlarini ham shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Boshlang‘ich sinif o‘quvchisining mantiqiy fikrini o‘stirishga, tafakkurining shakllanishiga yordam beradigan topshiriqlar ularning yoshiga va soddadan murakkabga qarab ta’minlanishi kerak.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich, ta’lim, model, maktab, o‘quvchi, texnologiya, pedagogik, umumiy, o‘rta, o‘quv, kurs, shaxsiy, qobiliyat, topshiriq, rasm, metod.

Абстрактный: Процесс подготовки учащихся к внедрению обобщенной модели метода моделирования в начальном образовании включает в себя формирование их личностных способностей, психологических, педагогических, ораторских, находчивых способностей.

Задания, способствующие развитию логического мышления учащихся начальных классов, формированию их мышления, должны обеспечиваться в соответствии с их возрастом и от простого к сложному.

Ключевые слова: Начальное, образование, модель, школа, ученик, технология, педагогическое, общее, среднее, учебное, курс, личное, способность, задание, рисунок, метод.

Abstract: The process of preparing students for the implementation of the generalized model of the modeling method in primary education includes the formation of their personal abilities, psychological, pedagogical, oratory, and inventive talents.

Tasks that contribute to the development of logical thinking and the formation of thinking in primary school students should be provided according to their age and from simple to complex.

Key words: Elementary, educational, model, school, student, technology, pedagogical, general, secondary, educational, course, personal, ability, task, drawing, method.

KIRISH. Boshlang‘ich sinif o‘quvchilarida modulli ta’limasosida modellashtirish metodini shakllantirishga oid tarqatma materiallar, didaktik va ularning o‘ziga xos jihatlari hamda o‘qitish metodlarini zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanib, pedagogik tajriba-sinov jarayonida sinab ko‘rish ma’qullandi. Tanlangan materiallarni tajriba-sinov jarayonida amaliyotga tatbiq etish tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi bo‘lib xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinif tabiiy fanlar o‘qitishda modellashtirish metodi asosida joriy etish amaliyotini o‘ziga havola etishdan oldin muhim bir masalani hal etish lozim bo‘ladi. Bu tadqiqotda ko‘zda tutilgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Ya’ni boshlang‘ich ta’limda modellashtirish metodini joriy etish uchun tabiiy fanlar fanidan o‘quvchilarini tayyorlov bosqichidan o‘tkazish lozim bo‘ladi [1,7].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion metodika va texnologiyalar asosida o‘quv-uslubiy harakatlarini shakllantirish

yuzasidan xorijiy pedagoglardan K.Meredit, D.Stil, Ch.Templ, S.Uolter, D.Xalpern va boshqalar shug'ullanganlar.

Tezkor axborotlar almashinuvi davrida o'quv materiallarining hajmi tobora kengayib borayotganligini hisobga oladigan bo'lsak, o'qituvchilarning ta'limjarayoniga innovatsion metodiklarni tadbiiq etishga tayyorlash muammosini hal etish pedagogik zaruriyatga aylanganligini ko'rishimiz mumkin [1, 10].

TADDIQOT METODOLOGIYASI. Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarini o'qitishga modellashtirish metodini joriy etish uchun mazkur fan o'qituvchilarini tayyorlashda ilmiylik, uzviylik va izchillik tamoyillariga amal qilishni taqozo etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimni oshirish orqali ularni modellashtirish metodlaridan foydalanish amaliyotiga tayyorlashda tajriba sinov ishini olib borish, Milliy o'quv dasturi talablari asosida dars amaliyotini tashkil qilishda modellashtirish metodlarini qo'llashda asosiy e'tibor:

- boshlang'ich sinf o'qituvchisining an'anaviy ta'limva modellashtirish metodiga asoslangan ta'limda hal qiluvchi omillarni aniqlab olishiga qaratilishi;

- boshlang'ich ta'limda fanlarni o'qitishning asosiy komponentlariga modellashtirish metodini qo'llash ketma-ketligiga amal qilishi kabi mezonlarga qaratiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'quv fanlarini o'qitishning metodik bazasini yaratish lozim. Bunda:

- boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni o'qitishda modellashtirish metodlarini yaratish;

- boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun tabiiy fanlarni o'qitishda to'garaklar ishlab chiqish;

- boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun turli xil ko'rinishidagi metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish;

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida modulli ta'limasosida modellashtirish metodini shakllantirishdan maqsad qilgan har bir o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mashg'ulotlarni tuzishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchisining mantiqiy fikrini o'stirishga, tafakkurining shakllanishiga yordam beradigan topshiriqlar ularning yoshiga va soddadan murakkabga qarab ta'minlanishi kerak. Masalan, 3-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan topshiriqlarda jadvallar asosida, rasmlar keltirilib, ularning o'xshash yoki farqli tomonlari so'ralishi, moslashtirish, o'rnini topish topshiriq sifatida berilishini tavsiya etiladi.

2. Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlari uchun ishlab chiqiladigan qiziqarli topshiriqlar va vazifalar zo'riqtirmasligi kerak. Bunda har bir berilgan topshiriq uchun o'rtacha 3-4 daqiqa sarflanishi kerak. Har bir vazifa yoki topshiriq yechimi uchun 2 daqiqa sarf etadigan o'quvchi "yaxshi" bahoga sazovor bo'lishi etalon sifatida tavsiya etiladi.

Diagrammada hayvonlarning nomlari va ularga xos ta'riflar aralashtirib berilgan. Matn va rasmlarni moslang. Bu hayvonlar haqida yana nima deya olasiz?

(1.1-jadval)

I. Ot, poni, eshak	1.Fermadagi hayvonlardan go'sht, sut va jun olinadi.	Ot, poni,eshak- Minib, uzoq masofalarga boriladigan, yuk tashiladigan hayvonlar
II. Sa'va, to'tiqush, bulbul	2.Uy hayvonlari kemiruvchilarni tutadi,uyni qo'riqlaydi	Sa'va, to'tiqush, bulbul- Sayroqi qushlar chiroyli,yoqimli sayrab,insonga huzur bag'ishlaydi. Manzarali qushlar odamning ko'zini quvontiradi.
III. Mushuk, it	3.Sayroqi qushlar chiroyli,yoqimli sayrab,insonga huzur bag'ishlaydi. Manzarali qushlar odamning ko'zini quvontiradi.	Mushuk, it- Uy hayvonlari kemiruvchilarni tutadi,uyni qo'riqlaydi.
IV. G'oz, tovuq, o'rdak, kurka, bedana	4.Minib, uzoq masofalarga boriladigan, yuk tashiladigan hayvonlar	Go'z, tovuq, o'rdak, kurka, bedana- Xonaki parrandalardan go'sht,tuxum,pat va par olinadi.
V. Echki, sigir, buqa, qo'y,qo'chqor	5.Xonaki parrandalardan go'sht,tuxum,pat va par olinadi.	Echki, sigir, buqa, qo'y, qo'chqor- Fermadagi hayvonlardan go'sht,sut va jun olinadi.



Boshlang'ich sinfo'quvchilari uchun tabiiy fanlardan "Yosh tabiatshunoslar" to'garagini tashkil etildi. To'garak darslari orqali o'quvchilarga modellashtirish metodlari orqali samaradorlikka erishish mumkinligi kuzatildi.

Boshlang'ich ta'limfanlarini o'qitishda modellashtirish metodini joriy etishning asosiy shartlaridan yana biri modellashtirish metodining umumlashgan modelini ishlab chiqishdan iborat. (1.2-jadval)

1.2-jadval

Boshlang‘ich ta‘limda modellashtirish metodini ishlab chiqish	Rasm, chizma va jadvallar asosida
---	-----------------------------------

1.2-jadval. Boshlang‘ich ta‘limda ikki yo‘nalish bo‘yicha hamda ikkita omil bo‘yicha modellashtirish metodini tadbiiq etishning umumlashgani

Boshlang‘ich ta‘lim fanlarini o‘qitishda modellashtirish metodini joriy etish maqsadida malaka oshirish kurslarida ko‘zda tutilgan dasturlar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar ikki tomonlamalik tamoyiliga asoslangan bo‘lishi lozim. Ikki tomonlamalik tamoyilining mohiyati shundan iboratki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi modellashtirish metodiga asoslangan darsni o‘tish jarayonida o‘quvchilar tomonidan sodir etiladigan reaksiyalarni hisobga olib borishi kerak. Boshlang‘ich ta‘limfanlariga modellashtirish metodini joriy etishni maqsad qilgan dastur va qo‘llanmalarda kichik yoshdagi o‘quvchilar tomonidan sodir etiladigan reaksiyalar ko‘zda tutildi[5,12].

TAHLIL VA NATIJALAR

Modellashtirish metodini Davlat Ta‘lim Standarti va Milliy o‘quv dasturi, zamonaviy ta‘limtizimi talablaridan boshqa mazkur tavsiya etiladigan modellashtirish metodining baholash uchun mezonlar qatoriga o‘qituvchi va o‘quvchi imkoniyatlari to‘g‘ri kelishi, gigiyenik talablarga muvofiqligi, salomatlikni asrash va insonparvarlik hamda iqtisodiy omillarning hisobga olinishi kabi talablarni kiritish mumkin. Modellashtirish metodini baholash uchun qabul qilinadigan mezonlar orasida asosiy talablar shu paytgacha o‘tkazilgan tadqiqotda keng muhokama etilgan va tavsiyalar berilgan.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘quv-bilish faoliyatini modellashtirish asosida takomillashtirishning har qanday shakllarini o‘quv amaliyotiga tatbiiq etish masalasi boshlang‘ich ta‘limda modellashtirish metodini tatbiiq etishning umumlashgan modelining birinchi yo‘nalishi talablari va tamoyillari asosida sodir bo‘ladi. Mazkur tadqiqotlar davomida shu narsaga amin bo‘ldikki, modellashtirish metodini boshlang‘ich ta‘limgato‘liq tatbiiq etish jarayonining samarali va qisqa fursatlar ichida amalga oshirilishini ta‘minlash.

Modellashtirish metodiga asoslangan dars davomida esa o‘quvchining quyidagi xususiyatlari aks etishi lozim:

- mavzuni tushunganlik darajasi;
- faolliqi va fikrini ifodalash qobiliyati;
- sinfidagi boshqa o‘quvchilarning fikrlarini tinglashi va o‘z fikri bilan taqqoslay bilishi;
- fikrlar asosida xulosa qilish, mavjud xulosalarni umumlashtira olishi.

Demak, boshlang‘ich ta‘limmodellashtirish metodini umumlashtirilgan modelini tatbiiq etish uchun birinchi galda yangi o‘quv darsliklari, o‘quv qo‘llanma va qo‘shimcha adabiyotlar yaratish lozim bo‘lsa, ikkinchidan modellashtirish metodi asosida ta‘limolgan o‘qituvchilarni tayyorlash taqozo etiladi[11,16].

Boshlang‘ich ta‘limda modellashtirish metodining umumlashtirilgan modellarini tatbiiq etish uchun o‘qituvchi yangi darsliklar, uslubiy adabiyotlar va qo‘shimcha manbalarda keltirilgan mavzularga oid tushunchalarni shakllantirishning barcha variantlarini o‘zlashtirgan holda o‘quvchilarning diqqatini umumiy mavzuga torta olish, bahs mavzulari, mulohaza obyektlarini topa bilish, o‘quvchilarning faolliklarini qayd etib borishda tezkorlikni namoyon qilish qobiliyatiga

ham ega bo'lishi talab etiladi. O'quv dasturida ko'zda tutilgan mavzularni to'liq o'zlashtirgan, darslikda berilgan vazifalarni turli variantlarda yecha oladigan, ammo o'quvchilarning "qalbidan o'rin egallash" ni uddalamaydigan o'qituvchi uchun modellashtirish metodining umumlashgan modelini o'z darslariga tadbiiq etishi imkonsizdir.

Shuninguchun boshlang'ich ta'limda modellashtirish metodining umumlashgan modelini tadbiiq etish uchun o'qituvchilarni tayyorlash faqat mavjud kurslar, malaka oshirish muassasalarining samaradorligiga emas, o'qituvchining shaxsiy qobiliyatiga ham bog'liq.

Muammoning qo'yilish tarzidan ham ko'rinib turibdiki, ta'limda modellashtirish metodining umumlashgan modelini tadbiiq etish uchun tayyorlanadigan o'quvchilar tayyorlash jarayoni ularning shaxsiy qobiliyatlarini, psixologik, pedagogik, notiqlik, topqirlik iqtidorlarini ham shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining modellashtirish metodini tadbiiq etish bo'yicha tegishli kurslar va qayta tayyorlov muassasalarida tizimli faoliyatga asoslangan yondashuvning har uchala komponentini qo'llashi lozim bo'ladi. Bunda o'qituvchilar:

dars o'tish amaliyotiga tavsiya etiladigan shakllar va metodlarning mavjud sharoitga mos kelish darajasini o'rganib chiqishlari;

o'quv kurslari jarayonida mustaqil ravishda o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash tamoyillari asosida faoliyat olib borishlari;

o'zining ruhiy holatini, mulohazakorlik qobiliyatining shaxsiy, faoliyatlilik, bilim olish, emtsional ko'rinishlarini oshirib borish asosiy talablar sifatida qayd etiladi[6, 15].

XULOSA

Mazkur izlanishlar va tadqiqotlar natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv-bilish faoliyatini modellashtirish asosida takomillashtirish jarayonini tizimli yo'lga qo'yish va ularni o'quv amaliyotiga tadbiiq etish bugungi kundagi eng asosiy muammaolardan biri ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Boshlang'ich ta'lim maktabi o'quvchilarida modellashtirish metodi darajasi 7,9 foizga oshganli aniqlashtirildi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ qobiliyatning shakllanganlik darajasi foizga oshganligi xulosa qilindi[3, 14].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nurullayeva Sh.O'. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik tayyorgarligini modellashtirish nazariyasi va metodikasi. Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Qarshi. 2021.-63 b.

2. Begimkulov U.SH. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya-Toshkent: Fan, 2007.-160 b.

3. Abdusamatov A.S., "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv-bilish faoliyatini modellashtirish asosida takomillashtirish metodikasi (Boshlang'ich ta'lim misolida)". Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Qarshi. 2023.-54 b.

4. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. -T.: Ta'lim markazi, 1999.-55 b.

5. Bahromov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik 3-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik.-Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.-125 b.

6. Shukurov A.U., "Bulutli texnologiyalari asosida talabalarning virtual texnologiyalardan foydalanish kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (Axborot texnologiyalari fani misolida)". Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Qarshi. 2023.-52 b.

7. Akmal Shukurov, "Texnika ixtisosliklari ta'limida axborotlarni loyihalashtirishda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning zamonaviy metodlari". "Ta'lim, fan va innovatsiya". ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal (2024 yil № 1). 116-119-b.

8. Shukurov Akmal Uktamovich, “ Basic professional rules for students of a higher educational institution in the design of information”. International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education. Germany. February 27 th 2024. 8-14 p.

9. Shukurov A. U, “Texnika ixtisosliklari otmida loyihali-axborot ta’lim tizimni shakllantirish”. “Ta’limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash afzalliklari, muammolari va yechimlari”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya 2024. 81-86 b.

10. Shukurov A.U. Didactic opportunities for the introduction of cloud technologies // Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. № 10/2. Урганч, 2021. 29-35. <http://khorezmscience.uz>

11. A. Shukurov. Its features and use in the educational process of web-technologies Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические, 2021. <https://www.internauka.org/>

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRATSIYON YONDASHUV ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI (TEXNOLOGIYA DARSLARI MISOLIDA)

*Tilavova M.M., Buxoro davlat pedagogika instituti,
Boshlang'ich ta'lim kafedrası professori, p.f.n,*

*Salimova X.Y., Buxoro davlat pedagogika instituti
magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda integratsion yondashuv asosida darslarni tashkil etish metodikasi texnologiya darslari misolida yoritiladi. Fanlararo bog'liqlikni ta'minlash orqali o'quvchilarda yaxlit bilim va ko'nikmalarni shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Integratsiyalashgan darslarning o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil ishlashi va amaliy faoliyatga tayyorgarligini oshirishdagi o'rni asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari integratsion yondashuvning samaradorligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: integratsiya, texnologiya darsi, boshlang'ich ta'lim, metodika, fanlararo bog'liqlik, innovatsiya, kompetensiya

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ (НА ПРИМЕРЕ УРОКОВ ТЕХНОЛОГИИ)

*Тилавова М.М., Бухарский государственный педагогический институт,
профессор кафедры начального образования,
кандидат педагогических наук*

*Салимова Х.Й., Бухарский государственный педагогический институт,
магистрант*

Аннотация: В данной статье рассматривается методика организации уроков в начальных классах на основе интеграционного подхода на примере уроков технологии. Анализируются вопросы формирования учащихся целостных знаний и умений посредством обеспечения межпредметной взаимосвязи. Обосновывается роль интегрированных уроков в развитии творческого мышления, самостоятельной деятельности и подготовленности учащихся к практической деятельности. Результаты исследования показывают эффективность интеграционного подхода.

Ключевые слова: интеграция, урок технологии, начальное образование, методика, межпредметная связь, инновация, компетенция

METHODOLOGY OF ORGANIZING LESSONS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH IN PRIMARY GRADES (ON THE EXAMPLE OF TECHNOLOGY LESSONS)

*Tilavova M.M., Bukhara State Pedagogical Institute,
Professor of the Department of Primary Education,*

*Candidate of Pedagogical Sciences
Salimova Kh.Y., Bukhara State Pedagogical Institute,
Master's student*

Abstract: This article examines the methodology of organizing lessons in primary education based on an integrative approach using technology lessons as an example. The issues of forming students' holistic knowledge and skills through interdisciplinary connections are analyzed. The

role of integrated lessons in developing creative thinking, independent learning, and readiness for practical activities is substantiated. The research results demonstrate the effectiveness of the integrative approach.

Keywords: integration, technology lesson, primary education, methodology, interdisciplinary connection, innovation, competence

Kirish. Jahon ta'lim tizimida yuz berayotgan globallashuv, axborotlashuv va modernizatsiya jarayonlari o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, raqobatbardosh, kreativ fikrlaydigan va hayotiy muammolarni nostandart usulda hal eta oladigan shaxs sifatida shakllantirishni talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xususan, Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasi hamda Yangi avlod Milliy o'quv dasturining amaliyotga joriy etilishi o'qitish sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqishni asosiy maqsad qilib qo'ygan. Zamonaviy ta'lim paradigmasida o'quvchilarga shunchaki quruq faktlar va bilimlarni yodlatish emas, balki ularda hayotiy ko'nikmalarni, xususan, XXI asr ko'nikmalari deb ataluvchi tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqotchanlik va hamkorlikni (4K modeli) rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Ushbu strategik vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'quv-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlarni, eng avvalo, integratsion yondashuvni tatbiq etish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

«Integratsiya» tushunchasi lotincha «integer» so'zidan olingan bo'lib, «butun», «yaxlit», «tiklash» kabi ma'nolarni anglatadi. Pedagogika fanida integratsiya – bu o'quv jarayonida alohida o'qitiladigan fanlar mazmunini o'zaro uzviy bog'lash, ularning qismlaridan yagona va yaxlit bir tizimni yaratish jarayonidir. Ta'limda integratsion yondashuvning asosiy maqsadi o'quvchida borliq haqida parchalangan, tarqoq bilimlarni emas, balki o'zaro bog'langan, yaxlit, ilmiy va amaliy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. An'anaviy ta'lim tizimida har bir fan o'zining qat'iy doirasidan chiqmagan holda, alohida-alohida o'qitilishi natijasida o'quvchi turli fanlardan olingan bilimlarni kundalik hayotda yuzaga keladigan kompleks muammolarni hal qilishda birlashtira olmaydi. Integratsiya esa ana shu to'siqni olib tashlab, fanlararo ko'priq vazifasini o'taydi va o'quvchining idrok etish doirasini sezilarli darajada kengaytiradi.

Boshlang'ich ta'lim – bu uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim va poydevor bosqichi hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning intellektual, jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy shakllanishi faol kechadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik va fiziologik xususiyatlari shuni ko'rsatadiki, ularning tafakkuri va dunyoni idrok etishi sinkretik, ya'ni yaxlit xususiyatga ega. Bolalar tabiat hodisalari, jamiyatdagi jarayonlar va atrof-muhitdagi obyektlarni qismlarga ajratilgan holda (masalan, faqat matematik nuqtai nazardan yoki faqat ekologik nuqtai nazardan) emas, balki butun bir holatda qabul qiladi. Shu sababli, boshlang'ich sinflarda o'quv fanlarini qat'iy chegaralangan holda, bir-biridan uzib o'qitish bolaning tabiiy qiziqishlarini susaytirib, ta'lim jarayonini zerikarli va murakkablashtirib qo'yishi mumkin. Ta'limni integratsiyalashgan holda tashkil etish esa o'quvchilarning psixologik tabiatiga to'la mos keladi hamda ularda ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyani keskin oshiradi. Integratsiyalashgan darslarda o'quvchi bir vaqtning o'zida o'lchaydi, o'qiydi, chizadi, xulosa qiladi va yaratadi. Bu esa o'quv materialining xotirada uzoq muddat va mustahkam saqlanishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quv rejasidagi fanlar orasida o'zining ulkan integratsion salohiyati, amaliy yo'naltirilganligi va ijodkorlik muhiti bilan «Texnologiya» fani alohida ajralib turadi. Texnologiya darslari an'anaviy tushunchadagi oddiy «mehnat» darslaridan tubdan farq qiladi. Zamonaviy texnologiya ta'limi o'quvchilarda nafaqat amaliy-mexanik va maishiy ko'nikmalarni, balki texnik ijodkorlik, mantiqiy hamda fazoviy tafakkur, konstruktorlik qobiliyati, iqtisodiy tejamkorlik, estetika va ekologik madaniyatni shakllantiruvchi qamrovdor fan hisoblanadi. Bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, texnologiya darslarini boshqa barcha o'quv fanlari bilan uzviy integratsiyada, xususan, xalqaro STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics)

ta'limi elementlarini qo'llagan holda tashkil etish nihoyatda samaralidir.

Amaliy dars jarayonini tahlil qiladigan bo'lsak, qog'oz, karton yoki tabiiy materiallardan biror buyum yasash jarayonida fanlararo integratsiyaning butun bir ansambli namoyon bo'ladi. Ushbu darsda matematika fani bilan aloqadorlik yaqqol ko'rinadi: o'quvchilar chizg'ich yordamida aniq o'lchov ishlarini olib boradi, geometrik shakllarni tahlil qiladi, perimetr va yuzani hisoblaydi, qismlarning o'zaro nisbati (simmetriya va masshtab) ustida ishlaydi. «Atrofimizdagi olam» yoki tabiatshunoslik fani bilan bog'liqlik foydalanilayotgan xomashyolarning (yog'och, mato, plastilin, metall) fizik xususiyatlarini o'rganish, ularning tabiatda uchrashi, atrof-muhitni asrash, chiqindilarni qayta ishlash (recycling) kabi ekologik bilimlarda ko'zga tashlanadi. Texnologiya darslarini tasviriy san'at fani bilan integratsiyalash o'quvchining dizaynerlik layoqatini ochib beradi: yasalgan buyumni did bilan bo'yash, uyg'un ranglarni tanlash, unga milliy naqshlar va bezaklar berish bolaning estetik didini yuksaltiradi. Shuningdek, ona tili va o'qish savodxonligi fanlari bilan integratsiya amaliyotni nazariya bilan mustahkamlashga xizmat qiladi. O'quvchining o'z yasadigan buyumi yoki ijodiy ishi haqida gapirib berishi, ish algoritmini og'zaki va yozma ravishda to'g'ri bayon qilishi, mehnat qurollarining nomlarini adabiy tilda to'g'ri talaffuz etishi uning nutq madaniyatini hamda taqdimot qilish (prezentatsiya) ko'nikmasini rivojlantiradi.

Biroq, bugungi kunda umumta'lim maktablari amaliyotini kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat boshlang'ich sinf o'qituvchilari darslarda integratsion yondashuvning qadr-qimmatini yaxshi tushunsalar-da, uni real amaliyotga to'g'ri va tizimli tatbiq etishda jiddiy metodik qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Ko'p hollarda texnologiya darslarida boshqa fanlarning faqat yuzaki elementlarini eslab o'tish bilangina cheklanilmoqda. O'quvchilarga o'ziga xos muammoli vaziyatlar yaratish, ularni izlanishga undash, dars jarayonida fanlararo aloqadorlikni sun'iylikdan xoli, uzviy va tabiiy tarzda amalga oshirish metodikasi yetarlicha takomillashmagan. O'qituvchilar uchun ilmiy asoslangan aniq metodik tavsiyalar, majmuaviy integratsiyalashgan dars ishlanmalari (texnologik xaritalar) hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliy mashg'ulotlarga to'g'ri moslashtirish bo'yicha metodik ta'minotga bo'lgan ehtiyoj yuqoriligicha qolmoqda.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar, zamonaviy ta'lim tizimidagi yangilanishlar va maktab amaliyotidagi mavjud ehtiyojlar ushbu tadqiqot ishimizning dolzarbligini belgilab beradi. Tadqiqot ishining asosiy maqsadi – boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan «Texnologiya» fani darslarini turdosh fanlar (matematika, ona tili, tasviriy san'at, atrofimizdagi olam) bilan integratsiyalashgan holda tashkil etishning ilmiy-nazariy va psixologik-pedagogik asoslarini tadqiq qilish hamda uning takomillashtirilgan amaliy-metodik tizimini yaratishdan iborat. Ishlab chiqiladigan ilg'or metodika, dars modellari va tavsiyalar nafaqat texnologiya darslarining sifat va samaradorligini kafolatlaydi, balki o'quvchilarning amaliy qobiliyatlari, mustaqil va mantiqiy fikrlashi, shuningdek, ilm-fanga bo'lgan muhabbatini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa yosh avlodni XXI asr talablariga to'la javob beruvchi, mehnatsevar va bunyodkor shaxs sifatida tarbiyalashdek oliy maqsadimiz ro'yobiga qo'shilgan muhim ilmiy-amaliy hissa bo'ladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ta'lim jarayonida integratsiyalashgan yondashuvni qo'llash va o'quv fanlari o'rtasida o'zaro aloqadorlikni ta'minlash muammosi jahon pedagogikasi hamda psixologiyasi tarixida uzoq o'tmishga borib taqaladigan, doimiy ravishda tadqiq etib kelinayotgan serqirra masalalardan biri hisoblanadi. O'quv materiallarini o'zaro bog'liqlikda o'qitish g'oyasi dastlabki didaktik ta'limotlardayoq o'z ifodasini topgan bo'lib, mumtoz pedagogikaning yirik vakillari tomonidan chuqur tahlil qilingan. Xususan, buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o'zining «Buyuk didaktika» asarida tabiatdagi barcha narsalar o'zaro bog'langanligini, shu sababli ta'limda ham fanlarni bir-biridan uzib qo'ymasdan, ularning uzviyligini ta'minlash lozimligini ta'kidlagan. Shuningdek, I.G.Pestalotsi, J.J.Russo va K.D.Ushinskiy kabi mutafakkirlar bolaning dunyoni yaxlit idrok etishiga e'tibor qaratib, bilimlarni integratsiyalashgan holda berish inson tafakkurini rivojlantirishning asosiy omili ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

Psixologik nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkurning yaxlitligi (sinkretik

xususiyati) borasida qator yirik psixolog olimlar izlanishlar olib borgan. L.S.Vigotskiy, J.Piaje, L.V.Zankov, V.V.Davidov va D.B.Elkonin kabi olimlarning ilmiy ishlarida kichik maktab yoshidagi bolalarning kognitiv rivojlanish bosqichlari tahlil qilinib, ularda sun'iy ravishda parchalangan bilimlarni o'zlashtirish jarayoni qiyin kechishi, aksincha, axborotlarni yaxlit kompleks tarzda idrok etish samaraliroq ekanligi isbotlangan. Bu esa boshlang'ich ta'limda fanlarni integratsiyalash nafaqat didaktik, balki psixologik ehtiyoj ekanligini tasdiqlaydi.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlariga kelib, ta'limda integratsiya masalasi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari va xorijiy davlatlar olimlari tomonidan maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganila boshlandi. I.D.Zverev, V.N.Maksimova, M.N.Berulava, A.Ya. Danilyuk kabi tadqiqotchilar integratsiyaning metodologik asoslarini, uning ta'lim mazmuniga ta'sirini hamda o'quv jarayonini yaxlitlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqdilar. Ularning tadqiqotlarida fanlararo aloqadorlikdan to to'laqonli integratsiyagacha bo'lgan bosqichlar tasniflanib, ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni yoritib berildi. G'arb mamlakatlari pedagogikasida esa bu muammo asosan fanlarni amaliyot bilan bog'lash, loyihaviy ta'lim va zamonaviy STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi doirasida keng miqyosda o'rganilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham pedagogika fanining rivojlanishi davomida ta'limni integratsiyalash, xususan, boshlang'ich ta'lim jarayonini o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos ravishda takomillashtirish bo'yicha salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Respublikamiz olimlaridan R.G.Safarova, M.X.Toxtaxodjayeva, N.N.Azizxodjayeva, B.Ziyomuhammadov kabi tadqiqotchilar o'zlarining ilmiy ishlarida umumiy o'rta ta'lim tizimida fanlararo uzviylikni ta'minlash, ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish va pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishning konseptual asoslarini yaratib berganlar.

Boshlang'ich ta'lim metodikasi xususida so'z yuritilganda, Q.Abdullayeva, S.Matchonov, M.Umarova, R.Ibodova kabi olimlarning ilmiy faoliyatini alohida ta'kidlash lozim. Ular ona tili, o'qish savodxonligi, tabiatshunoslik, matematika kabi asosiy fanlarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlarni tadqiq etgan bo'lsalar-da, bu izlanishlar asosan muayyan bir aniq fan doirasidagi metodikani takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, fanlararo sintez masalalari qisman yoritilgan, xolos.

Mehnat ta'limi, texnologiya fanini o'qitish metodikasi, o'quvchilarda texnik va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalalari respublikamizda U.N.Nishonaliyev, Sh.S.Sharipov, N.A.Muslimov, O.A.Qo'ysinov, shuningdek, professor M.M.Tilavova kabi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, texnologiya darslarida iqtisodiy, ekologik va estetik tarbiya berish kabi dolzarb muammolar xususida qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Biroq, bu ishlarning aksariyati yuqori va o'rta sinf o'quvchilariga mo'ljallangan bo'lib, ko'pincha hunarmandchilik yo'nalishiga ixtisoslashganligini ko'rishimiz mumkin.

Muammoning o'rganilganlik holatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ta'limda integratsiya, boshlang'ich ta'lim metodikasi va texnologiya fanini o'qitish bo'yicha yetarlicha katta ilmiy baza to'plangan. Ammo, bevosita boshlang'ich sinflarda «Texnologiya» darslarini boshqa o'quv fanlari (matematika, tasviriy san'at, atrofimizdagi olam, ona tili) bilan uzviy integratsiyalashgan holda tashkil etishning yaxlit, tizimli va zamonaviy metodikasi yaxlit maxsus tadqiqot obyekti sifatida kompleks darajada o'rganilmagan.

Ayniqsa, bugungi kunda O'zbekiston maktablarida Yangi avlod Milliy o'quv dasturining joriy etilishi, texnologiya darslariga an'anaviy «mehnat» tushunchasidan voz kechib, konstruktorlik, dizayn, loyihalashtirish, mustaqil qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni shakllantiruvchi qamrovdor fan sifatida qaralishi integratsion yondashuvni butunlay yangicha formatda tadqiq etishni taqozo qilmoqda. Mavjud ilmiy adabiyotlarda o'qituvchilar uchun texnologiya darslarida fanlararo aloqadorlikni qanday qilib tabiiy va muammoli vaziyatlar orqali amalga oshirish

mumkinligi, qaysi mavzularni qaysi fanlar bilan qovushtirish ko'proq samara berishi haqidagi aniq integratsiyalashgan dars ishlanmalari, texnologik xaritalar va didaktik o'yinlar mexanizmlari yetarli darajada ochib berilmagan.

Shuningdek, xalqaro tajribalarda o'zini oqlagan va keng ommalashgan ijodiy ta'lim elementlarini O'zbekiston maktablaridagi darsliklarga moslashtirish, amaliy mashg'ulotlarda raqamli texnologiyalar va ijodiy keyslardan integrativ vosita sifatida foydalanish kabi masalalar ham o'zining aniq ilmiy-amaliy yechimini kutmoqda. Maktab o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan kuzatuv va so'rovnomalar shuni ko'rsatmoqdaki, ularda integratsiya g'oyasiga qiziqish yuqori bo'lsa-da, uni amaliyotda to'g'ri va tizimli rejalashtirish bo'yicha keskin metodik bo'shliq mavjud. Darslar aksariyat hollarda bir fanning asosiy, boshqa fanning esa shunchaki axborot vositachisi sifatidagi qatnashuvi bilan o'tmoqda, ya'ni kompetensiyalarni rivojlantiruvchi haqiqiy va teng huquqli integratsiya (sintez) yuz bermayapti.

Asosiy qism. Boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy talablari o'quvchilarni nafaqat nazariy bilimlarni yodlashga, balki ularni amaliyotda qanday qo'llashni o'rgatishga qaratilgan. Bu o'rinda texnologiya fanining ahamiyati beqiyos bo'lib, u umumta'lim fanlari bilan tabiiy ravishda qovushib ketadigan, bolalarda muhim hayotiy kompetensiyalarni shakllantiradigan universal amaliy maydon vazifasini o'taydi. Texnologiya darslarida integratsion yondashuvni qo'llash avvalo o'quvchining aqliy va jismoniy faoliyatini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Bolalar biror buyum yoki modelni yasash jarayonida darsliklarda berilgan abstrakt ma'lumotlarni o'z qo'llari bilan ushlab ko'rish, o'lchash, qirqish va birlashtirish orqali aniq hayotiy tajribaga aylantiradilar. Integratsiya jarayoni darsga sun'iy ravishda tiqishtirilgan element sifatida emas, balki obyektiv zarurat va tabiiy ehtiyoj sifatida yuzaga kelishi kerak. Ya'ni, dars davomida o'quvchi o'z oldida turgan amaliy muammoni hal etish uchun beixtiyor matematika, atrofimizdagi olam, tasviriy san'at yoki ona tili fanlaridan olgan ko'nikmalariga murojaat qilishga majbur bo'lishi lozim. Bunday uslubdagi o'qitish o'zlashtirilgan materialning xotirada uzoq muddat va mustahkam saqlanishini ta'minlaydi.

Texnologiya darslarini matematika fani bilan integratsiyalash eng uzviy va uzluksiz jarayonlardan biri hisoblanadi. Har qanday buyumni yasashdan avval uni rejalashtirish, xomashyo sarfini aniq hisoblash, qismlarning o'zaro mutanosibligini topish va to'g'ri o'lchov ishlarini olib borish talab etiladi. Masalan, qog'oz yoki qalin kartondan muayyan geometrik shakllar asosida quti, bino yoki transport modeli yasash darsida o'quvchilar chizg'ichdan to'g'ri foydalanish, santimetr va millimetrlarni farqlash, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat, doiraning xususiyatlarini yodga olishadi. Ular simmetriya qoidalariga amal qilgan holda qismlarni buklaydi, burchaklarni hisoblaydi va naqshlar ketma-ketligini, ya'ni mantiqiy qonuniyatlarni yaratadi. Bu jarayonda matematik bilimlarsiz va aniq hisob-kitoblarsiz sifatli va mutanosib mahsulot yaratib bo'lmasligini bolalar amaliyotda tushunib yetadilar. O'qituvchi yasash jarayonida qismlarning yuzasi yoki perimetri haqida muammoli savollarni o'rtaga tashlash orqali matematik tafakkurni texnologik jarayon bilan bevosita va ajralmas tarzda bog'laydi.

Tasviriy san'at fani bilan o'zaro integratsiya texnologiya darslarining estetik va ruhiy-hissiy qismini tashkil etadi. O'quvchi yasadigan buyum nafaqat mustahkam, funksional va to'g'ri o'lchamlarga ega bo'lishi, balki ko'zga yoqimli, dizayn jihatdan jozibador bo'lishi ham o'ta muhimdir. Ranglarni to'g'ri tanlash, issiq va sovuq ranglar uyg'unligi, vizual kompozitsiya tuzish, shakl va hajm tushunchalari aynan tasviriy san'at fani orqali o'zlashtiriladi hamda texnologiya darslarida hayotga tatbiq etiladi. Loydan plastilin yordamida buyum yasash yoki matodan applikasiya tayyorlash jarayonida o'quvchilar xalq amaliy san'ati elementlari, milliy naqshlarimiz tarixi va turlari bilan ham tanishib boradilar. Buyumni did bilan bezatish jarayoni bolaning ichki dunyosini, uning ruhiy holatini va o'ziga xos individual dizaynerlik qobiliyatini yuzaga chiqaradi. Natijada, o'quvchilar o'z mehnatiga badiiy yondashishni, har qanday oddiy obyektдан ham go'zal san'at asari yarata olish sirlarini o'rganadilar.

Tabiatshunoslik yoki «Atrofimizdagi olam» fani bilan integratsiyalash texnologiya darslarida materialshunoslik va ekologik madaniyat asoslarini shakllantiradi. Bolalar turli xomashyolar, jumladan yog‘och, qog‘oz, mato, plastmassa, metall hamda tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida ularning tabiatda uchrashi, olinishi, fizik va kimyoviy xususiyatlarini tadqiq qilishadi. Misol uchun, kuzgi barglar, daraxt shoxchalari va urug‘lardan syujetli kompozitsiya yaratish darsida o‘simliklar olami, fasllar almashinuvi haqida qizg‘in suhbatlashiladi. Qog‘ozdan buyum yasash jarayonida esa qog‘ozning aynan daraxtlardan qanday olinishi tushuntirilib, o‘rmonlarni asrab-avaylash muhimligi uqtiriladi. Bugungi kunda chiqindilarga ikkinchi hayot bag‘ishlash, ya’ni qayta ishlash (recycling) mavzulari katta ahamiyat kasb etmoqda. Plastik idishlar, qutilar va eski matolardan foydali ro‘zg‘or buyumlari yasash bolalarda tejamkorlikni hamda tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish madaniyatini yoshlikdan shakllantirishning eng to‘g‘ri yo‘lidir.

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanlari bilan o‘rnatilgan o‘zaro aloqadorlik asosan darsning muloqot va nutq o‘stirish vazifasini bajaradi. Dars jarayonida yangi asbob-uskunalar, materiallar va ish usullarining nomlari o‘rganiladi, bu orqali o‘quvchining lug‘at boyligi kengayadi. Bolalar ishni boshlashdan avval yozma yo‘riqnomani diqqat bilan o‘qib tushunishlari kerak, bu esa matnni idrok etish va o‘qish savodxonligini talab qiladi. Yasalgan buyum tayyor bo‘lgach, o‘quvchi uni qanday yasaganligi, qanday materiallardan foydalanganligi va ishning qaysi bosqichlarida qiyinchilikka uchraganligini mantiqan izchil, ketma-ketlikda og‘zaki bayon qilib berishi kerak bo‘ladi. Ushbu taqdimot jarayoni bolaning fikrni ravon, aniq va adabiy tilda ifodalash ko‘nikmasini o‘stiradi. O‘qituvchi o‘quvchilarga maqollar, topishmoqlar yoki mehnatsevarlik haqidagi badiiy asarlardan parchalar keltirish orqali darsning tarbiyaviy ahamiyatini yanada chuqurlashtiradi.

Bunday integratsion darslarni yuqori saviyada tashkil etish o‘qituvchidan yuksak kasbiy mahoratni, fidoiylik va doimiy izlanishni talab etadi. Mashg‘ulotlar quruq tushuntirish usulida emas, balki loyihaviy ta’lim, kichik guruhlarda ishlash, muammoli vaziyatlarni yechish kabi faol usullarda olib borilishi kerak. Shuningdek, jarayonda nozik qo‘l motorikasining rivojlanishi bolaning bosh miya faoliyatiga, xususan uning xotirasi va diqqatini jamlashiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy isbotlangan fakt. Shu tariqa, integratsion yondashuv texnologiya darslarini shunchaki qoliplangan mexanik mehnatdan, haqiqiy aqliy izlanish va ijodiy kashfiyotlar maydoniga aylantiradi hamda o‘quvchining har tomonlama kamol topishi uchun mustahkam va yaxlit ta’limiy zamin yaratib beradi.

Конец формы

Xulosa. Boshlang‘ich sinflarda integratsion yondashuv asosida tashkil etilgan texnologiya darslari o‘quvchilarning bilimlarini tizimli va chuqur o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil ishlash qobiliyati va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada ta’lim jarayonining samaradorligi oshadi va o‘quvchilarda zamonaviy kompetensiyalar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Yo‘ldoshev J.G. Ta’lim nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2017.

Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2018.

Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2016.

Hasanboyeva O. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent, 2019.

Xo‘jayev B. Umumiy pedagogika. – Toshkent, 2017.

Qodirov B. Ta’limda integratsiya masalalari. – Toshkent, 2020.

Nizomiy nomidagi TDPU ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2021.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TARBIYA KLASTERI SHAROITIDA "TALABA-TALABAGA USTOZ" MEKANIZMINING PEDAGOGIK MODELI

*Toshtemirova Saltanat Abdurashidovna,
Buxoro innovatsiya universiteti magistranti*

Annotatsiya: Maqolada uzluksiz ta'lim tizimida tarbiya klasteri sharoitida "talaba-talabaga ustoz" mexanizmining pedagogik mohiyati va uning bo'lajak mutaxassislarining kasbiy hamda shaxsiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda klaster yondashuvi ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiruvchi pedagogik tizim sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: tarbiya klasteri, mentorlik, talaba-talabaga ustoz, uzluksiz ta'lim tizimi, tadqiqotga asoslangan ta'lim, pedagogik model, ijtimoiy kapital, professional identifikatsiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ МЕХАНИЗМА «СТУДЕНТ — СТУДЕНТУ НАСТАВНИК» В УСЛОВИЯХ КЛАСТЕРА ВОСПИТАНИЯ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Тоштемирова Салтанат Абдурашидовна,
магистрант Бухарского инновационного университета*

Аннотация: В статье анализируется педагогическая сущность механизма «студент — студенту наставник» в условиях кластера воспитания в системе непрерывного образования, а также его влияние на профессиональное и личностное развитие будущих специалистов. В исследовании кластерный подход интерпретируется как педагогическая система, усиливающая сотрудничество между образовательными учреждениями, научно-исследовательскими центрами и социальными институтами.

Ключевые слова: кластер воспитания, наставничество, студент — студенту наставник, система непрерывного образования, обучение на основе исследований, педагогическая модель, социальный капитал, профессиональная идентичность.

PEDAGOGICAL MODEL OF THE "STUDENT-TO-STUDENT MENTOR" MECHANISM IN THE CONTEXT OF AN EDUCATIONAL CLUSTER IN THE SYSTEM OF CONTINUOUS EDUCATION

*Toshtemirova Saltanat Abdurashidovna,
Master's student, Bukhara Innovation University*

Abstract: The article analyzes the pedagogical essence of the "student-to-student mentor" mechanism within the framework of an educational cluster in the system of continuous education and examines its impact on the professional and personal development of future specialists. The study interprets the cluster approach as a pedagogical system that strengthens cooperation among educational institutions, research centers, and social institutions.

Keywords: educational cluster, mentoring, student-to-student mentor, continuous education system, research-based learning, pedagogical model, social capital, professional identity.

Kirish. Uzluksiz ta'lim tizimida tarbiya klasteri tushunchasi ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari, ishlab chiqarish korxonalari va jamoat tashkilotlarining o'zaro manfaatli hamkorligi asosida shakllanadigan, yagona maqsad — barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan dinamik tizimni ifodalaydi. Klasterli yondashuvning pedagogik mohiyati shundaki, u ta'lim va tarbiya jarayonini statik muassasa chegaralaridan chiqarib, uni ijtimoiy-professional muhitning faol qismiga aylantiradi. Klaster sharoitida tarbiya jarayoni nafaqat bilim berish, balki ijtimoiy kapitalni shakllantirish va jamoaviy intellektni rivojlantirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tarbiya klasterining uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rni birinchi navbatda ta'lim bosqichlari (bog'cha, maktab, universitet, ishlab chiqarish) o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash bilan belgilanadi. Zamonaviy universitetlar sharoitida tashkiliy sotsializatsiya jarayonlari talaba-yoshlarning ushbu tizimga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlovchi muhim omildir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, universitet muhitidagi ijtimoiy aloqalar va ichki ishonch darajasi bilimlarni almashish va jamoaviy faoliyat samaradorligini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, tarbiya klasteri nafaqat tashkiliy tuzilma, balki ijtimoiy munosabatlar majmuasi bo'lib, u yerda har bir subyekt boshqasining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tarbiya klasterining pedagogik imkoniyatlari bir necha strategik yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, bu subyektlararo munosabatlarning demokratlashuvi bo'lib, unda talaba nafaqat tarbiya obyekt, balki jarayonning faol subyekt sifatida ishtirok etadi. Ikkinchidan, klaster sharoitida tadqiqotga asoslangan ta'lim (RBL) imkoniyatlari kengayadi. Bu jarayonda talabalar real ijtimoiy-pedagogik loyihalar ustida ishlash orqali o'zlarining professional identifikatsiyasini shakllantiradi. Uchinchidan, klaster tizimi talabalarning chidamlilik darajasini oshirishga xizmat qiladi, chunki ijtimoiy hamkorlik va mentorlik qo'llab-quvvatlashi akademik va hayotiy qiyinchiliklarni yengishda muhim resurs hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotga asoslangan ta'lim (research-based learning) muammosi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda keng o'rganilmoqda. Bir qator xorijiy olimlar mazkur yondashuvning nazariy asoslari va pedagogik imkoniyatlarini turli jihatlardan tahlil qilgan. E. García-Sánchez tadqiqotga asoslangan ta'limning talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ta'sirini o'rganib, ushbu yondashuv analitik fikrlash, muammo yechish va mustaqil tadqiqot olib borish qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. R. Eslava-Zapata mazkur sohada ilmiy ishlanmalarni bibliometrik tahlil asosida o'rganib, tadqiqotga asoslangan ta'lim so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida jadal rivojlanayotgan ilmiy-pedagogik yo'nalishlardan biri ekanligini ko'rsatadi. A. Brew va C. Saunders tadqiqotga asoslangan ta'limni o'qituvchilar tayyorlash tizimidagi muhim pedagogik model sifatida tahlil qilib, uning bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv fikrlash va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslab beradi. A. Monzón-Pinglo tadqiqotga asoslangan ta'limning talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ta'sirini tahlil qilib, mazkur yondashuv muammolarini ilmiy tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. A. Pérez-Gamboa tadqiqotga asoslangan ta'limga oid ilmiy adabiyotlarni sistematik tahlil qilib, ushbu yondashuv talabalarning akademik mustaqilligi va ilmiy faolligini rivojlantirishda muhim pedagogik strategiya ekanligini ko'rsatadi. L. López-González tadqiqotga asoslangan ta'limni didaktik strategiya sifatida tahlil qilib, uning asosiy maqsadi talabalarni bilimni passiv qabul qiluvchidan bilim yaratuvchi sub'ektga aylantirish ekanligini ta'kidlaydi. N. Whitton tadqiqotga asoslangan ta'limni interaktiv va ijodiy ta'lim muhiti bilan bog'lab, uning talabalarning faol ishtirokini ta'minlovchi innovatsion pedagogik mexanizm sifatida ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi. N. Buss tadqiqotga asoslangan ta'limning talabalarning akademik natijalariga ta'sirini tahlil qilib, mazkur yondashuv talabalarning o'quv samaradorligi va tadqiqot faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini qayd etadi. A. Contreras Zapata tadqiqotga asoslangan ta'limni raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish masalalarini o'rganib, bu jarayon talabalarning raqamli kompetensiyalari va ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. C. Gómez Cano oliy ta'limda tadqiqotga yo'naltirilgan tayyorgarlik masalalarini tahlil qilib, tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik professionallashtirishning muhim sharti ekanligini ta'kidlaydi. M. López Rodríguez del Rey pedagogik professionallashtirish jarayonida tadqiqot tayyorgarligining o'rnini tahlil qilib, tadqiqot kompetensiyalari bo'lajak mutaxassislarining kasbiy rivojlanishida muhim omil hisoblanishini ko'rsatadi. A. Gonzales-Tito talabalarning tadqiqot ko'nikmalari bilan akademik natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, tadqiqot faoliyati talabalarning ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishini asoslab beradi. L. Noroña

González tadqiqotga asoslangan ta'limning professional tayyorgarlik tizimidagi ahamiyatini tahlil qilib, uning talabalarda ilmiy madaniyat va kasbiy fikrlashni shakllantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. S. Sirojiddinova talabalarda tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish usullarini tahlil qilib, tadqiqotga asoslangan ta'lim talabalarning mustaqil ilmiy faoliyatini faollashtirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotga asoslangan ta'lim oliy ta'lim tizimida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va ilmiy faolligini oshirishda muhim pedagogik mexanizm hisoblanadi.

Natija va muhokama. Mazkur yondashuv natijasida tarbiya jarayonining tarkibiy tuzilmasi tizimli shaklda namoyon bo'lib, uning asosiy komponentlari, funksional vazifalari hamda pedagogik natijalari o'zaro bog'liq holda shakllanadi. Ushbu komponentlarning mazmuni va pedagogik samaradorligi 1-jadvalda tizimli tarzda keltirilgan.

1-jadval

Tarbiya klasterining asosiy komponentlari va ularning pedagogik natijadorligi

Tarbiya klasterining asosiy komponentlari	Funksional tavsifi	Pedagogik natijadorlik
Ijtimoiy-pedagogik integratsiya	Ta'lim muassasalari va jamiyat o'rtasidagi aloqalarni tizimlashtirish.	Ijtimoiy sotsializatsiya darajasining ortishi.
Bilimlarni boshqarish tizimi	Jamoaviy bilim almashish va innovatsion tajribalarni translyatsiya qilish.	Jamoaviy intellekt va professional kompetensiya o'sishi.
Mentorlik va tyutorlik xizmati	Tajribali mutaxassislar va yuqori kurs talabalarining quyi kurslarga yordami.	Talabalarning professional identifikatsiyasi va ishonchi.
Raqamli ta'lim muhiti	Metaverse va boshqa raqamli texnologiyalar orqali hamkorlikni tashkil etish.	Raqamli kompetensiya va global muloqot qobiliyati.

Klaster sharoitida tarbiya jarayoni individual hayotiy loyihalarni shakllantirishga yo'naltiriladi.

Talaba universitetga kirgandan boshlab o‘zining kelajakdagi professional va shaxsiy maqsadlarini klaster imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirishi lozim . Bu jarayonda psixopedagogik yordam va orientatsiya berish mexanizmlari klaster ichidagi barcha subyektlar hamkorligida amalga oshiriladi . Shunday qilib, tarbiya klasteri uzluksiz ta’lim tizimida shaxs kamolotining dinamik muhiti sifatida namoyon bo‘lib, u yerda har bir element yagona ijtimoiy-pedagogik maqsadga xizmat qiladi.

“Talaba-talabaga ustoz” mexanizmi oliy ta’lim tizimida gorizontol muloqot va tengdoshlararo ta’lim tamoyillariga asoslangan pedagogik texnologiya hisoblanadi. Ushbu mexanizmning nazariy asoslari ijtimoiy konstruktivizm nazariyasiga borib taqaladi, unga ko‘ra bilim va qadriyatlar ijtimoiy muloqot jarayonida subyektlar tomonidan birgalikda quriladi. “Talaba-talabaga ustoz” tizimi doirasida yuqori kurs talabalar (mentorlar) o‘zlarining kichik kursdoshlariga (mentilar) nafaqat akademik bilimlar, balki universitet muhitiga moslashish, ijtimoiy me‘yorlarni o‘zlashtirish va professional qadriyatlarni shakllantirishda yordam beradi .

Ushbu mexanizmning pedagogik mohiyati bir necha fundamental jihatlar bilan tavsiflanadi. Birinchidan, mentor va menti o‘rtasidagi “psixologik yaqinlik” va “umumiy til” darajasi yuqoriligi sababli, axborot uzatish samaradorligi an’anaviy o‘qituvchi-talaba munosabatlariga qaraganda sezilarli darajada yuqori bo‘lishi mumkin. Mentor talaba sifatida o‘zi yaqinda duch kelgan qiyinchiliklarni yaxshi tushunadi va ularni yengishning amaliy yo‘llarini o‘z tengdoshiga osonroq tushuntira oladi. Ikkinchidan, bu tizim mentor-talabaning o‘zida ham mas‘uliyat, liderlik va pedagogik ko‘nikmalarni rivojlantiradi . Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, talabalar o‘zlarini ham tadqiqotchi, ham yetakchi sifatida his qilishlari ularning kasbiy shaxsiyati shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

“Talaba-talabaga ustoz” mexanizmining nazariy asoslarida ijtimoiy kapital va ishonch tushunchalari markaziy o‘rin egallaydi. García-Sánchez tadqiqotlariga ko‘ra, akademik jamoalarda bilimlarni almashish jarayoni o‘zaro ishonch darajasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq . Talabalar o‘rtasidagi norasmiy va yarim-rasmiy aloqalar bilimlarni “hadya qilish” va “yig‘ish” jarayonlarini osonlashtiradi. Bu jarayon, shuningdek, tashkiliy sotsializatsiyaning muhim qismi bo‘lib, yangi talabalarning universitet madaniyatiga tezroq moslashishini ta’minlaydi .

Ushbu mexanizmning yana bir muhim nazariy asosi tadqiqotga asoslangan o‘rganishdir. Mentorlik jarayonida talabalar birgalikda kichik tadqiqot loyihalarini (masalan, Kolumbiya tajribasidagi “Semilleros de Investigación”) amalga oshiradi . Bu nafaqat ilmiy ko‘nikmalarni, balki jamoada ishlash, tanqidiy fikrlash va muammolarni birgalikda hal qilish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Mazkur jarayonda raqamli kompetensiyalarning o‘rni ham beqiyos, chunki zamonaviy mentorlik ko‘pincha raqamli platformalar va virtual muhitlarda kechadi .

Shu nuqtai nazardan qaraganda, mentorlik faoliyati turli nazariy yondashuvlarga tayanadi hamda ularning har biri pedagogik jarayonni tashkil etishda o‘ziga xos mexanizmlar orqali namoyon bo‘ladi. Mentorlikning asosiy nazariy modellari, ularning yo‘nalishlari hamda pedagogik mexanizmlari 2-jadvalda tizimli ravishda keltirilgan.

2-jadval

Mentorlikning nazariy modellari va ularning pedagogik mexanizmlari

Mentorlikning nazariy modellari	Asosiy yoʻnalishi	Pedagogik mexanizmi
Ijtimoiy-konstruktiv model	Bilimni birgalikda yaratish.	Dialogue va hamkorlikdagi muammolar yechimi.
Identifikatsiya modeli	Professional shaxsiyatni shakllantirish.	Rolli oʻyinlar va liderlik amaliyoti.
Sotsializatsiya modeli	Universitet muhitiga integratsiya.	Norasmiy aloqalar va korporativ madaniyat.
Tadqiqotchi mentor modeli	Ilmiy salohiyatni oshirish.	Formativ tadqiqot va "Semilleros" tajribasi.

Xulosa qilib aytganda, "talaba-talabaga ustoz" mexanizmi shunchaki tajriba almashish emas, balki talaba shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi murakkab psixopedagogik jarayondir. Uning negizida oʻzaro yordam, ijtimoiy masʼuliyat va doimiy oʻz-oʻzini takomillashtirish gʻoyalari yotadi. Bu mexanizm talabani kelajakdagi murakkab professional faoliyatga tayyorlashda, unda resiliyentlik va moslashuvchanlik xislatlarini tarbiyalashda muhim vosita boʻlib xizmat qiladi.

Klaster yondashuvi taʼlim bosqichlari oʻrtasidagi uzviylikni taʼminlash bilan birga, subyektlararo hamkorlikning yangi darajasini "talaba-talabaga ustoz" mexanizmini yuzaga chiqaradi. Ushbu mexanizmning pedagogik mohiyati gorizontalsotsializatsiya, ijtimoiy kapitalni oshirish va professional identifikatsiyani shakllantirishda namoyon boʻladi. Nazariy tahlillar shuni tasdiqlaydiki, ishonch, oʻzaro yordam va jamoaviy bilim almashish tamoyillari oliy taʼlimdagi tarbiya jarayonining sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi. Klasterli muhitda mentorlik shunchaki akademik yordam emas, balki talabaning "Hayotiy loyihasi"ni amalga oshirishda strategik psixopedagogik dastakdir.

Oliy taʼlim tizimida mentorlik va tyutorlikni tashkil etish boʻyicha dunyo miqyosida boy tajriba toʻplangan. Xalqaro amaliyotda talaba-talabaga ustozlik qilishning turli modellari mavjud boʻlib, ular muayyan ijtimoiy-madaniy va akademik sharoitlarga moslashgan. Xususan, Lotin Amerikasi mamlakatlarida, ayniqsa Kolumbiyada keng tarqalgan "Semilleros de Investigación" (Tadqiqot maysazorlari yoki inkubatorlari) modeli bu boradagi eng muvaffaqiyatli misollardan biridir.

Kolumbiya tajribasining oʻziga xosligi shundaki, tadqiqot inkubatorlari talabalarning ixtiyoriy birlashmalari boʻlib, ularga tajribali oʻqituvchilar rahbarlik qilsa-da, asosiy "motor" vazifasini yuqori kurs talabalari — mentorlar bajaradilar. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ushbu inkubatorlarda ishtirok etgan talabalarning akademik davomiyligi va oʻzlashtirish koʻrsatkichlari nazorat guruhlariga qaraganda 12,8 foizga yuqori boʻlgan. Bu yerda mentorlik jarayoni nafaqat bilim uzatish, balki tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan.

AQSH va Yevropa universitetlarida peer-mentoring tizimi koʻpincha akademik muvaffaqiyatni

ta'minlash va talabalarni universitet hayotiga integratsiya qilishga yo'naltirilgan. Masalan, "Professional Practice Doctoral Programs" doirasida talabalarining tadqiqotchiligi va yetakchi sifatidagi shaxsiyati shakllanishi mentorlik orqali jadallashtiriladi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, talabalar o'zaro hamkorlikda "Action research" (amaliy tadqiqot) loyihalarini amalga oshirishlari ularning professional kompetensiyalarini real ish joyida qo'llash imkonini beradi.

O'zbekiston amaliyotida pedagogik ta'lim innovatsion klasterlari doirasida "talaba-talabaga ustoz" mexanizmi yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Xususan, Chirchiq davlat pedagogika universiteti tajribasida "O'rgatib o'rganamiz" tamoyili asosida faoliyat olib boradigan talabalar hamjamiyatlari tashkil etilgan. Ushbu tizimda yuqori kurs talabalari quyi kursdoshlariga va maktab o'quvchilariga mentorlik qilishadi, bu esa pedagogik ta'limning uzviyligini ta'minlashda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur tajriba xalqaro pedagogik amaliyot bilan hamohang bo'lib, turli mamlakatlarda mentorlik faoliyatining o'ziga xos modellari shakllangan. Ularning har biri talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyati, akademik moslashuvi yoki kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, turli pedagogik mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Xalqaro va milliy tajribada qo'llanilayotgan mentorlik modellari hamda ularning amaliy natijadorligi 3-jadvalda taqqoslama tahlil asosida keltirilgan.

3-jadval

Turli mamlakatlarda mentorlik modellari va ularning pedagogik samaradorligi

Mamlakat/Tizim	Mentorlik modeli nomi	Asosiy yo'nalishi	Amaliy natijadorlik
Kolumbiya	Semilleros de Investigación	Formativ tadqiqot va jamoaviy o'rganish.	Akademik davomiylik va ilmiy mahsuldorlik o'sishi.
AQSH	EdD Leader-Scholar Communities	Liderlik va amaliy tadqiqot ko'nikmalari.	Professional identifikatsiyaning chuqurlashishi.
Buyuk Britaniya	Peer Assisted Learning (PAL)	Akademik qo'llab-quvvatlash va moslashuv.	Talabalarining psixologik resilientligi ortishi.
O'zbekiston	"O'rgatib o'rganamiz" (Klaster)	Pedagogik mahorat va ijtimoiy hamkorlik.	Maktab-OTM integratsiyasi va kasbiy tayyorgarlik.

Xalqaro tajribalarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mentorlik tizimining muvaffaqiyati

uni tashkiliy jihatdan qanday qo'llab-quvvatlanishiga bog'liq. Kolumbiya modelida universitetlar ushbu inkubatorlar uchun maxsus resurslar, grantlar va rag'batlantirish tizimlarini yaratishadi. O'zbekistonda esa klaster yondashuvi doirasida mentorlik nafaqat universitet ichida, balki "maktab-OTM" hamkorligi darajasida amalga oshirilmoqda. Bu bo'lajak o'qituvchilarning real pedagogik muhitda sotsializatsiyasini ta'minlaydi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, mentorlik munosabatlarida raqamli vositalardan foydalanish ham kengaymoqda. Masalan, "Metaverse" virtual muhitlari talabalarga masofadan turib hamkorlik qilish, simulyatsiyalarda ishtirok etish va tajriba almashish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu, ayniqsa, raqamli asr o'qituvchilarining AKT kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim.

Xalqaro va milliy tajribalarning umumiy jihati shundaki, mentorlik talabani shaxsiy "hayotiy loyihasi"ni shakllantirishda poydevor vazifasini o'taydi. Talaba mentor yordamida o'zining kuchli va kuchsiz tomonlarini tahlil qiladi, professional maqsadlarini aniqlaydi va jamiyatdagi o'rnini anglaydi. Shunday qilib, "talaba-talabaga ustoz" mexanizmi dunyo miqyosida oliy ta'lim sifatini oshirishning universal va samarali pedagogik instrumenti sifatida tan olingan.

Tarbiya klasteri sharoitida "talaba-talabaga ustoz" mexanizmini samarali boshqarish va uning natijadorligini ta'minlash uchun uning yaxlit strukturaviy-funksional modelini ishlab chiqish zarur. Ushbu model tizimli yondashuvga asoslanib, bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan komponentlarni o'z ichiga oladi va klaster subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni optimallashtiradi.

Modelning tarkibiy qismlari va ularning funksional tavsifi quyidagicha tizimlashtirilgan:

1. Maqsadli va motivatsion component. Ushbu blok mexanizmning asosiy maqsadini belgilaydi: talaba-yoshlarning shaxsiy va professional rivojlanishini, ularning sotsializatsiyasini va klaster doirasida jamoaviy bilim almashish madaniyatini shakllantirish. Bu yerda asosiy e'tibor talabani "Hayotiy loyihasi"ga qaratiladi. Mentoring vazifasi — mentini o'z maqsadlarini aniq belgilashga va ularga erishish uchun klaster resurslaridan foydalanishga yo'naltirishdir. Motivatsiya mentor uchun ham, menti uchun ham ijtimoiy tan olinish, yangi ko'nikmalarni o'zlashtirish va professional hamjamiyatga kirish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

2. Tashkiliy-boshqaruv komponenti. Klaster sharoitida mentorlikni tashkil etish universitet ma'muriyati, fakultetlar va klaster hamkorlari (maktablar, ishlab chiqarish) tomonidan muvofiqlashtiriladi. Tashkiliy komponent quyidagilarni o'z ichiga oladi: mentorlarni tanlash va tayyorlash; yuqori akademik ko'rsatkichlarga, liderlik qobiliyatiga va pedagogik intilishga ega talabalarni tanlash; mentor-menti juftliklarini shakllantirish; shaxsiy xususiyatlar, qiziqishlar va professional yo'nalishlar asosida moslashtirish; mentorlik faoliyatining vaqt me'yorlari, uchrashuvlar tartibi va hisobdorlik tizimini ishlab chiqish v.h.r.

3. Mazmunli va texnologik component. Mentorlik jarayonining mazmuni uchta asosiy yo'nalishni qamrab oladi: akademik mentorlik, bunda murakkab mavzularni o'zlashtirish, o'quv strategiyalarini ishlab chiqiladi; tadqiqot mentorligi, bunda esa birgalikda ilmiy loyihalar, maqolalar va izlanishlarni amalga oshirish hamda professional-pedagogik mentorlik, ya'ni bo'lajak o'qituvchilarning maktab amaliyotiga moslashishi, pedagogik mahorat sirlarini o'rganish amalga oshiriladi.

Texnologik jihatdan model zamonaviy raqamli platformalarga tayanadi. Metaverse va bilimlar menejmenti tizimlari (KMS) orqali qaror qabul qilish va hamkorlik qilish jarayonlari osonlashadi. Bu yerda raqamli kompetensiya nafaqat vosita, balki o'rganiladigan kontentning bir qismiga aylanadi.

4. Resilientlik va qo'llab-quvvatlash komponenti. Oliy ta'limdagi tarbiya jarayoni talabalar stressga chidamliligini oshirishni ham nazarda tutadi. Model doirasida mentor psixologik qo'llab-quvvatlovchi va mentining resilientlik darajasini oshiruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Norasmiy muloqot va ijtimoiy kapital ishonchni mustahkamlaydi, bu esa talabani akademik muhitda o'zini xavfsiz va ishonchli his qilishiga yordam beradi.

Mazkur jarayon tizimli tashkil etilganda mentorlik faoliyati ma'lum bosqichlar asosida amalga oshiriladi. Har bir bosqichda aniq pedagogik vazifalar, amaliy harakatlar hamda mas'ul

subyektlar belgilanishi mentorlik modelining samaradorligini ta'minlaydi. Mentorlik jarayonining bosqichlari va ularning amaliy mazmuni 4-jadvalda tizimli ravishda keltirilgan.

4-jadval

Mentorlik modelining bosqichlari va ularning amaliy mazmuni

Model bosqichlari	Amaliy harakatlar	Mas'ul subyektlar
Diagnostika va rejalashtirish	Talabalar ehtiyojlarini o'rganish, mentorlarni tayyorlash.	Tyutorlar, psixologlar, ma'muriyat.
Implementatsiya (Amalga oshirish)	Muntazam mentorlik sessiyalari, hamkorlikdagi loyihalar.	Mentor talabalar, mentilar.
Monitoring va baholash	Natijalarni tahlil qilish, ijtimoiy kapitalni o'lchash.	Ilmiy guruh rahbarlari, koordinatorlar.
Korreksiya va rivojlantirish	Modelni takomillashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish.	Klaster kengashi, IT-mutaxassislar.

5. Natijaviy-tahliliy component. Ushbu blokda mentorlik mexanizmining samaradorligi indikatorlar asosida baholanadi. Bunda nafaqat akademik o'zlashtirish, balki talabalarning professional identifikatsiyasi, ijtimoiy faolligi va ularning kelajakdagi professional hayotga tayyorlik darajasi hisobga olinadi. Natijalar klaster doirasida muhokama qilinib, keyingi bosqichlar uchun strategiyalar belgilanadi.

Strukturaviy-funksional modelning o'ziga xosligi uning dinamikligidadir. U bir martalik aksiya emas, balki talaba klaster tizimida bo'lgan butun vaqt davomida unga hamrohlik qiluvchi uzluksiz pedagogik jarayondir. Ushbu model talabani "passiv o'quvchi"dan "faol ijodkor va o'qituvchi"ga aylantirish imkonini beradi. Shunday qilib, tarbiya klasteri sharoitida "talaba-talabaga ustoz" mexanizmi shaxs kamolatining innovatsion dvigateliga aylanadi.

Xulosa qilib aytish kerakki, Kolumbiyaning "Semilleros" modeli va O'zbekistondagi klaster yondashuvi talabalar salohiyatini ro'yobga chiqarishda o'xshash maqsadlarni ko'zlaydi. Strukturaviy-funksional modelning ishlab chiqilishi ushbu mexanizmni shunchaki tashabbusdan tizimli pedagogik texnologiyaga aylantirish imkonini beradi. Modelning har bir komponenti (maqsadli, tashkiliy, mazmunli, resilientlik va natijaviy) talabaning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarning ushbu modelga integratsiyalashuvi esa uni zamonaviy axborot jamiyati talablariga moslashtiradi. Xulosa qilib aytganda, amaliy asosda tashkil etilgan mentorlik tizimi tarbiya klasterining natijadorligini ta'minlovchi hal qiluvchi bo'g'indir.

Uzluksiz ta'lim tizimida tarbiya klasterini rivojlantirish va "talaba-talabaga ustoz" mexanizmini joriy etish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot quyidagi umumiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

Nazariy jihatdan, tarbiya klasteri shaxsni sotsializatsiya qilish va professional shakllantirishning yaxlit pedagogik tizimidir. Uning samaradorligi subyektlar o'rtasidagi ijtimoiy kapital va ishonch darajasiga bog'liq.

Pedagogik nuqtai nazardan, "talaba-talabaga ustoz" mexanizmi gorizontaal ta'limning eng samarali shakli bo'lib, u talabalarda liderlik, tadqiqotchilik va pedagogik mahoratni erta shakllantirishga yordam beradi. Mentorlik munosabatlari talabaning "Hayotiy loyihasi"ni tizimli amalga oshirishda asosiy dastak bo'lib xizmat qiladi.

Amaliy jihatdan, dunyo tajribasi (masalan, Kolumbiya "Semilleros" modeli) shuni ko'rsatadiki, mentorlik tizimi joriy etilgan muhitda talabalarining akademik davomiyligi va ilmiy natijadorligi sezilarli darajada yuqori bo'ladi. O'zbekistondagi pedagogik klasterlar sharoitida ushbu mexanizm "maktab-OTM" uzviyligini ta'minlashning amaliy vositasi hisoblanadi.

Innovatsion jihatdan, mentorlik jarayonini raqamli texnologiyalar (Metaverse, KMS) va zamonaviy boshqaruv printsiplari bilan boyitish talabalarining XXI asr ko'nikmalarini egallashlarini jadallashtiradi.

Amaliy tavsiyalar:

oliy ta'lim muassasalarida tarbiya klasteri doirasida "Mentorlik markazlari"ni tashkil etish va ularning faoliyatini huquqiy-metodik jihatdan tartibga solish;

yuqori kurs talabalarini mentorlikka tayyorlash bo'yicha maxsus o'quv kurslari va treninglarini joriy etish, ularning faoliyatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimini yaratish;

talabalarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun "Semilleros de Investigación" tipidagi kichik ilmiy guruhlar tarmog'ini kengaytirish;

mentorlik jarayoniga psixopedagogik orientatsiya va resilientlikni oshirish modullarini integratsiya qilish, talabalarining ruhiy salomatligini muntazam monitoring qilib borish.

Mazkur tadqiqot natijalari uzluksiz ta'lim tizimida tarbiya jarayonini modernizatsiya qilish, pedagogik klasterlar faoliyatini takomillashtirish va talaba-yoshlarning professional kamolotini ta'minlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Buss N. The impact of research-based learning on student outcomes in higher education // *Studies in Higher Education*. — 2020. — DOI: 10.1080/03075079.2020.1836484.

Brew A., Saunders C. Making sense of research-based learning in teacher education // *Teaching and Teacher Education*. — 2020. — Vol. 87. — Art. 102935. — DOI: 10.1016/j.tate.2019.102935.

Contreras Zapata A. et al. Research-based learning and digital competencies in higher education // *Revista Cubana de Educación Superior*. — 2024.

Eslava-Zapata R. et al. Scientific production and research-based learning: A bibliometric analysis // *Salud, Ciencia y Tecnología – Serie de Conferencias*. — 2023. — DOI: 10.58763/rc202369.

García-Sánchez E. et al. Impact of research-based learning on the development of professional competences // *International Review of Administrative Sciences*. — 2019. — DOI: 10.1177/0020852316689140.

Gómez Cano C. A. La formación investigativa en la educación superior // *Salud, Ciencia y Tecnología – Serie de Conferencias*. — 2022. — DOI: 10.58763/rc20226.

Gonzales-Tito A. et al. Research skills and academic performance in university students // *Medical Review*. — 2023. — DOI: 10.56294/mr202356.

López-González L. Estrategias didácticas para el aprendizaje basado en la investigación // *Salud, Ciencia y Tecnología – Serie de Conferencias*. — 2023. — DOI: 10.58763/rc2023119.

López Rodríguez del Rey M. M. et al. Research training in the context of pedagogical

professionalization // Salud, Ciencia y Tecnología – Serie de Conferencias. — 2024. — DOI: 10.58763/rc2024245.

Monzón-Pinglo A. et al. Research-based learning and critical thinking in higher education // Pensamiento Americano. — 2023. — Vol. 16, No. 31. — DOI: 10.21803/penamer.16.31.636.

Noroña González L. E. et al. Research-based learning in the training of healthcare professionals // Salud, Ciencia y Tecnología – Serie de Conferencias. — 2023. — DOI: 10.58763/rc202389.

Pérez-Gamboa A. et al. Research-based learning: A systematic review of the literature // Data and Metadata. — 2022. — DOI: 10.56294/dm202292.

Pérez-Gamboa A. et al. Data management and research ethics in higher education // Zenodo. — 2023. — DOI: 10.5281/zenodo.7979972.

Sirojiddinova S. Methods of developing research skills in students // International Journal of Pedagogics. — 2024.

Whitton N. et al. Playful learning in higher education: Developing a research-based framework // Higher Education Research & Development. — 2021. — DOI: 10.1080/07294360.2021.1946016.

ESHITISH NUQSONLARINING TURLARI VA DARAJALARI HAMDA ULARNING O'QUVCHILAR IJTIMOY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

*Ubaydullaeva Xaytbiybi Suleyman qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada eshitish nuqsonlarining turlari va darajalarining o'quvchilar ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda eshitish qobiliyatining pasayishi nafaqat fiziologik nuqson, balki bolaning kognitiv va kommunikativ integratsiyasiga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy omil ekanligi asoslangan.

Kalit so'zlar: eshitish nuqsoni, ijtimoiylashuv, surdopedagogika, verbal izolyatsiya, konsilium yondashuvi, ijtimoiy adaptatsiya, lug'at boyligi, maxsus ta'lim.

ТИПЫ И СТЕПЕНИ НАРУШЕНИЙ СЛУХА И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОЦИАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ УЧАЩИХСЯ

*Убайдуллаева Хайтбийби Сулейман кизи,
Магистрант Чирчикского государственного педагогического университета*

Аннотация: В данной статье проводится системный анализ влияния различных типов и степеней нарушений слуха на социальное развитие учащихся. В исследовании обосновывается, что снижение слуха является не только физиологическим дефектом, но и социальным фактором, препятствующим когнитивной и коммуникативной интеграции ребенка.

Ключевые слова: нарушения слуха, социализация, сурдопедагогика, вербальная изоляция, консилиумный подход, социальная адаптация, словарный запас, специальное образование.

TYPES AND DEGREES OF HEARING IMPAIRMENTS AND THEIR IMPACT ON THE SOCIAL DEVELOPMENT OF STUDENTS

*Ubaydullaeva Khaytbiybi Suleyman qizi,
Master's student of Chirchik State Pedagogical University*

Abstract: This article provides a systematic analysis of the impact of various types and degrees of hearing impairment on the social development of students. The study establishes that hearing loss is not merely a physiological defect but a social factor that hinders a child's cognitive and communicative integration.

Keywords: hearing impairment, socialization, deaf education, verbal isolation, consilium approach, social adaptation, vocabulary, special education.

Kirish. Zamonaviy defektologiya va maxsus psixologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri — eshitish qobiliyati cheklangan bolalarning jamiyatga ijtimoiy moslashuvi va ularning shaxs sifatida shakllanish xususiyatlarini o'rganishdir. Inson kamolotida eshitish analizatori nafaqat tovushlarni qabul qilish, balki nutqni o'zlashtirish, axborot almashinuvi va ijtimoiy kommunikatsiyaning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Biroq, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (WHO) hisobotlariga ko'ra, dunyo miqyosida 466 milliondan ortiq inson eshitish qobiliyatining yo'qotilishidan aziyat chekmoqda, ularning sezilarli qismini maktab yoshidagi bolalar tashkil etadi. Eshitish nuqsonining turli darajalari (yengil darajadan to to'liq karlikkacha) bolaning kognitiv rivojlanishiga va atrof-muhit bilan ijtimoiy aloqalariga to'g'ridan-to'g'ri to'siq bo'ladi.

Rossiyalik taniqli olim L.S. Vigotskiy o'zining defektologik ta'limotida ta'kidlaganidek, nuqsonning o'zi emas, balki u keltirib chiqaradigan "ijtimoiy chiqish" (sotsialniy vivix) asosiy muammo hisoblanadi. Ya'ni, eshitish nuqsoni bolani jamiyatdan ajratib, uning muloqot doirasini

cheklaydi va ijtimoiy izolyatsiyani yuzaga keltiradi. Zamonaviy inklyuziv ta'lim tizimida bu muammo yanada chuqurlashib, sog'lom tengdoshlari orasida eshitish nuqsoni bo'lgan bolaning emotsional-irodaviy sohasi va o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlarida deformatsiyalar kuzatilmoqda. Mahalliy tadqiqotchilarning ishlarida ta'kidlanishicha, O'zbekiston sharoitida maxsus ta'limdan inklyuziv ta'limga o'tish jarayonida eshitishda nuqsoni bor o'quvchilarning ijtimoiy adaptatsiyasi nafaqat texnik vositalarga (eshitish apparatlari), balki pedagogik-psixologik muhitning tayyorligiga ham bog'liq. Eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiy muhitga integratsiyalashuvi bevosita ularning nutqiy rivojlanishi va lug'at boyligi bilan bog'liqdir. Nutq — ijtimoiy aloqaning asosiy instrumenti bo'lgani sababli, so'z zaxirasining cheklanganligi bolaning o'z fikrini ifodalashi va atrofda qiladi. Bu borada mahalliy tadqiqotchilar Y. Abdullayeva va O. Avlayevlar o'z ilmiy izlanishlarida eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishda konsilium yondashuvining ahamiyatini alohida qayd etadilar. Mualliflarning ta'kidlashicha, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiyasi faqatgina yakka tartibdagi mashg'ulotlar bilan emas, balki mutaxassislarining (surdopedagog, psixolog, logoped) kompleks hamkorligi asosida samarali kechadi. Bunday tizimli yondashuv bolaning nafaqat akademik bilimlarini, balki uning jamiyatdagi faol pozitsiyasini belgilovchi kommunikativ kompetensiyalarini ham shakllantiradi.

Xalqaro tadqiqotlarda eshitish darajasi va boshqalarning hissiyotlarini tushunish qobiliyati o'rtasidagi bog'liqlik ko'p bora isbotlangan. Eshitish nuqsonining og'irlik darajasi ortgan sari, bolaning ijtimoiy kognitsiyasi pasayishi va buning natijasida ijtimoiy dezadaptatsiya kuchayishi kuzatiladi. Ushbu ilmiy izlanishning maqsadi eshitish nuqsonlarining turli darajalari va turlarini (konduktiv, sensonevral) tizimli tahlil qilish orqali, ularning o'quvchilar ijtimoiylashuvidagi salbiy ta'sir mexanizmlarini ochib berish hamda ushbu to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va koxlear implantatsiya rivojlangan davrda, tibbiy reabilitatsiyani ijtimoiy reabilitatsiya bilan uzviy bog'lash metodologiyasini takomillashtirish zarurati ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili. Eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiy va intellektual rivojlanishi masalasi pedagogika va psixologiya fanlarining tutash nuqtasida o'rganilib kelinayotgan murakkab fenomendir. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, muammoning fundamental asoslari L.S. Vigotskiyning defektologik konsepsiyasiga borib taqaladi. Olim nuqsonning biologik tabiatidan ko'ra, uning ijtimoiy oqibatlarini bartaraf etish ustuvorligini ta'kidlagan. Bu g'oyaning davomi sifatida, R.M. Boskis eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tizimli klassifikatsiya qilib, nutqning saqlanib qolganlik darajasi ijtimoiylashuvning asosiy determinanti ekanligini isbotlagan.

Mahalliy surdopedagogika maktabi vakillari U. Fayziyeva, F. Qodirova va D. Nazarovalar o'z tadqiqotlarida zaif eshituvchi bolalarni savodga o'rgatish va tilning grammatik qurilishini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. Xususan, U.Y. Fayziyeva zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash jarayonida eshituv idrokini rivojlantirishning metodik asoslarini ishlab chiqqan. Shu bilan birga, U. Nosirovaning izlanishlari eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish yo'llarini zamonaviy yondashuvlar asosida boyitgan.

Biroq, adabiyotlar tahlili sohada ayrim tizimli bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatmoqda. I. Shaban, A.N. Samsonova va boshqa olimlarning ishlarida badiiy asarlar vositasida tarbiyalash va matnni tushunish muammolari ko'tarilgan bo'lsa-da, hozirgi kunda eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni badiiy adabiyot orqali ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha yirik tadqiqotlar yetarli emas. Bu ehtiyoj, ayniqsa, Y. Abdullayeva va O. Avlayevlar tomonidan ilgari surilgan konsilium asosida lug'at boyligini oshirish metodikasi bilan uzviy bog'liq.

Xalqaro tajribada, xususan M.P. Moeller tadqiqotlarida, eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarga erta aralashuv (early intervention) va oilaviy muhitning ta'siri yuqori baholanadi. Bu fikrlarni M.U. Xamidova qo'llab-quvvatlab, bolaning ilk yoshidanoq oilada ijtimoiylashuvi uchun zarur

pedagogik sharoitlarni yaratish muammo va yechimlarini tahlil qilgan .

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini kompleks va qiyosiy tahlil yondashuvi tashkil etadi. Metodologiyaning asosiy urg'usi — eshitish darajasining pasayishi bilan bolaning ijtimoiy muhitdagi faolligi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikni aniqlashga qaratiladi.

Muhokama (Discussion). Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, eshitish nuqsonining og'irlik darajasi o'quvchi ijtimoiylashuviga faqatgina fiziologik to'siq emas, balki murakkab psixologik determinant sifatida ta'sir etadi. Og'ir darajadagi nuqsonlarda (III-IV daraja) ijtimoiylashuvning past ko'rsatkichlari, avvalo, "verbal izolyatsiya" bilan izohlanadi. Bunda bola atrof-dagilarning nutqini to'liq idrok eta olmagan sababli, ijtimoiy kontekst va emotsional ohanglarni tushunishda xatoliklarga yo'l qo'yadi. Natijada, T.G. Bogdanova ta'kidlaganidek, bolaning ijtimoiy kognitsiyasi va boshqalarning ichki dunyosini anglash qobiliyati (Theory of Mind) rivojlanishdan ortda qoladi, bu esa ijtimoiy xavotirlanish va jamoadan o'zini chetga olish (withdrawal) xulq-atvorini shakllantiradi.

Psixologik aspektda surdopedagogik qo'llab-quvvatlashning roli nafaqat tovushlarni farqlashga o'rgatish, balki bolaning "Men" konsepsiyasini ijobiy tomonga o'zgartirishda namoyon bo'ladi. Bizning tadqiqotimiz shuni tasdiqladiki, T.V. Arxireyeva tomonidan ilgari surilgan kritik o'z-o'zini baholash omili eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda juda zaif rivojlangan. Bu esa ularda ijtimoiy muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish hissini kuchaytiradi. L.S. Vigotskiyning ijtimoiy kompensatsiya nazariyasiga tayanib aytish mumkinki, agar ta'lim jarayonida faqat nuqsonni tuzatishga emas, balki bolaning ijtimoiy faolligini (masalan, badiiy asarlar tahlili va jamoaviy loyihalar orqali) oshirishga urg'u berilsa, ijtimoiylashuv darajasi og'ir nuqsonlarda ham 20-25 % ga ko'tarilishi mumkin.

Tadqiqotimizni avvalgi ilmiy ishlar, xususan, U. Fayziyeva va R.M. Boskis tadqiqotlari bilan qiyoslaganda, shuni aniqladikki, zamon talabi faqatgina savod o'rgatish emas, balki raqamli va inklyuziv muhitda kommunikativ adaptatsiyani talab qilmoqda. Agar avvalgi tadqiqotlarda asosiy e'tibor artikulyatsiya va eshituv idrokiga qaratilgan bo'lsa, bizning izlanishimiz Y. Abdullayeva va O. Avlayevlarning konsilium yondashuvini qo'llagan holda, muammoni tizimli (pedagog-psixolog-ota-ona) hal etish samaradorligini isbotladi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar va ilmiy mushohadalar eshitish nuqsoniga ega o'quvchilarning ijtimoiylashuv jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish uchun tizimli amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish zaruratini belgilaydi. Birinchi navbatda, bevosita ta'lim jarayonida faoliyat yuritayotgan pedagoglar uchun YE.F. Bortnikova metodikasining imkoniyatlaridan kengroq foydalanish tavsiya etiladi, bunda syujetli rasmlar va badiiy asarlar tahlili shunchaki didaktik material emas, balki o'quvchining ijtimoiy fantaziyasini va bog'lanishli nutqini rivojlantiruvchi kognitiv instrument bo'lib xizmat qilishi kerak. Ushbu jarayonda Y. Abdullayeva va O. Avlayevlar tomonidan asoslangan "konsilium" modelini amaliyotga tatbiq etish, ya'ni surdopedagog, psixolog va tarbiyachilarning hamkorligida har bir bola uchun individual ijtimoiy rivojlanish xaritasini shakllantirish, nuqsonning kompensator imkoniyatlarini maksimal darajada ishga solishga imkon beradi.

Ijtimoiylashuvning fundamental poydevori sifatida oilaviy muhitni sog'lomlashtirish va ota-onalarning pedagogik kompetensiyasini oshirish muhim strategik ahamiyatga ega. M.U. Xamidovanning konseptual qarashlariga tayangan holda, ota-onalarga bolani ijtimoiy jarayonlardan, xususan, kundalik maishiy muloqot muhitidan (do'konga borish, jamoat joylaridagi munosabatlar, mehmondorchilik) sun'iy ravishda chetlatmaslik, aksincha, ularni bu jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylantirish orqali mustaqil kommunikativ ko'nikmalarni rag'batlantirish tavsiya etiladi. Bunda bolaning eshitish nuqsoni uning ijtimoiy izolyatsiyasiga emas, balki atrof-muhitni o'zgacha usullar bilan idrok etish xususiyati sifatida qabul qilinishi oila a'zolarining psixologik tayyorgarligiga bog'liq.

Nihoyat, davlat ta'lim tizimi darajasida eshitish nuqsoni bo'lgan bolalar uchun badiiy adabiyot dasturlarini tubdan qayta ko'rib chiqish va ularni zamonaviy axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari bilan integratsiyalashgan holda modernizatsiya qilish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Maxsus ishlab chiqilgan vizuallashtirilgan va interfaol ta’lim resurslari o‘quvchilarning nafaqat savodxonlik darajasini oshiradi, balki ularda ijtimoiy rollarni anglash va jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida o‘z-o‘zini namoyon qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shunday qilib, pedagogik-psixologik korreksiya va ijtimoiy adaptatsiyaning uzviy birligi eshitish nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning shaxsiy kamolotini ta’minlovchi yagona tizimli mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa va tavsiyalar. Eshitish nuqsonlarining turlari va darajalarini o‘rganish hamda ularning o‘quvchilar ijtimoiy rivojlanishiga ta’sirini tahlil qilish natijasida bir qator fundamental xulosalarga kelindi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, eshitish analizatoridagi nuqson faqatgina biologik cheklanish bo‘lmay, balki bolaning jamiyatdagi o‘rni, emotsional-irodaviy sohasi va kognitiv integratsiyasini belgilovchi ijtimoiy determinant hisoblanadi. R.M. Boskis klassifikatsiyasi va L.S. Vigotskiyning “ijtimoiy chiqish” konsepsiyasining zamonaviy sharoitdagi tahlili shuni tasdiqlaydiki, nuqsonning og‘irlik darajasi ortgan sari verbal izolyatsiya xavfi kuchayib, bu ijtimoiy dezadaptatsiya va boshqalarning hissiyotlarini tushunish qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Biroq, ushbu salbiy ta’sir mexanizmlarini tizimli surdopedagogik va psixologik korreksiya orqali sezilarli darajada kompensatsiya qilish mumkin.

Olingan natijalar va ilmiy tahlillar asosida quyidagi tizimli amaliy tavsiyalar ilgari suriladi. Birinchi navbatda, ta’lim jarayonida faoliyat yuritayotgan pedagoglar uchun YE.F. Bortnikova metodikasi asosida syujetli rasmlar va badiiy asarlardan foydalanish, o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqi va ijtimoiy fantaziyasini rivojlantirishda asosiy instrument bo‘lishi lozim. Bunda Y. Abdullayeva va O. Avlayevlar taklif etgan «konsilium» yondashuvini amaliyotga keng tatbiq etish, ya’ni mutaxassislarning hamkorligida har bir o‘quvchi uchun individual ijtimoiy rivojlanish xaritasini shakllantirish, bolaning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirishning eng samarali yo‘lidir.

Ijtimoiylashuv jarayonining samaradorligi bevosita oilaviy muhitning pedagogik tayyorgarligiga bog‘liq. M.U. Xamidova ta’kidlaganidek, ota-onalar bolani kundalik maishiy va ijtimoiy jarayonlardan (mustaqil xaridlar, jamoat joylaridagi muloqot) sun’iy ravishda muhofaza qilmasliklari, aksincha, ularni bu jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylantirishlari zarur. Bolaning nuqsonini ijtimoiy to‘siq sifatida emas, balki alohida muloqot xususiyati sifatida qabul qilish ijtimoiy izolyatsiya xavfini kamaytiradi. Shuningdek, davlat ta’lim tizimi darajasida eshitish nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiyalashgan vizuallashtirilgan badiiy adabiyot dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunday kompleks va tizimli yondashuv eshitish nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning shaxsiy kamolotini ta’minlab, ularning jamiyatga to‘laqonli integratsiyalashuvi uchun zarur psixologik va pedagogik zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

World Health Organization. Deafness and hearing loss: Fact sheet. – 2024. – URL: <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/deafness-and-hearing-loss>

Выготский, Л. С. Основы дефектологии / Л. С. Выготский. – М.: Педагогика, 1983. <https://www.marxists.org/russkij/vygotsky/1924/defectology.htm>

Юлдуз Абдуллаева, Ориф Авлаев. Эшитишда муаммолари бўлган ўқувчиларни консилуим асосида луғат бойлигини ошириш // Academic research in educational sciences. 2021. №5. <https://cyberleninka.ru/article/n/eshitishda-muammolari-b-igan-uvchilarni-konsilium-asosida-lu-at-boyligini-oshirish>

Moeller, M. P. Early Intervention for Children Who Are Deaf or Hard of Hearing [Text] / M. P. Moeller // Pediatrics. – 2020. – No. 106(3). – P. 43-51.

Выготский, Л. С. Основы дефектологии / Л. С. Выготский. – М.: Педагогика, 1983. <https://www.marxists.org/russkij/vygotsky/1924/defectology.htm>

Боскис, Р. М. Глухие и слабослышащие дети [Текст]: научное издание / Р. М. Боскис; Институт коррекционной педагогики РАО. – М.: Советский спорт, 2004. – 304 с.

Файзиева, У. Й. Заиф эшитувчиларни саводга тайёрлаш ва савод ўргатиш [Матн]: пед. фан. номз. дис. ... автореф. / У. Й. Файзиева. – Тошкент: ТДПИ, 1994.

Носирова, У. Эшитишида нуқсонли бўлган болаларни нутқини ривожлантириш йўллари / У. Носирова // Academic research in educational sciences. – 2021. – № 12. <https://cyberleninka.ru/article/n/eshitishida-nu-soni-b-lgan-bolalarni-nut-ini-rivozhlantirish-y-llari>

Шабан, И. Формирование познавательных интересов у глухих школьников в процессе обучения (на уроках чтения и литературы) [Текст]: автореферат дис. ... канд. пед. наук / И. Шабан. – Л.: ЛГПИ им. А. И. Герцена, 1987.

Самсонова, А. Н. Роль установки в процессе понимания текста (на материале художественного текста) [Текст]: дис. ... канд. психол. наук / А. Н. Самсонова. – М., 1994.

Хамидова, М. У. Эшитишида нуқсонли бўлган болаларни гўдаклик, илк ва мактабгача ёшда оилада тарбиялаш ва ривожлантириш муаммо ва ечимлари / М. У. Хамидова // Academic research in educational sciences. – 2021. – № 4. <https://cyberleninka.ru/article/n/eshitishida-nu-soni-b-lgan-bolalarni-g-daklik-ilk-va-maktabgacha-yoshda-oilada-tarbiyalash-va-rivozhlantirish-muammo-va-echimlari>

КОНТЕКСТНОЕ ОБУЧЕНИЕ В ВЫСШЕЙ МАТЕМАТИКЕ ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ

Карабекян Светлана Хамдамовна,
Навоийский государственный горно-технологический университет,
и.о. доцента кафедры «Высшая математика и ИТ»

Аннотация: В статье рассматриваются дидактические и методические возможности контекстного обучения как высокоэффективной педагогической технологии при преподавании курса высшей математики студентам технических направлений подготовки. Исследуются принципы внедрения контекстного подхода, позволяющего интегрировать теоретические знания с практическими задачами инженерной направленности, что обеспечивает формирование профессиональных компетенций, аналитического мышления и навыков математического моделирования. Приведены конкретные учебные примеры с полным аналитическим решением, иллюстрирующие возможности контекстного обучения в реальных инженерных сценариях.

Ключевые слова: контекстное обучение, высшая математика, профессиональные компетенции, инженерное мышление, математическое моделирование, педагогические технологии.

CONTEXT-BASED LEARNING IN HIGHER MATHEMATICS FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF ENGINEERING STUDENTS

Abstract: The article examines the didactic and methodological potential of context-based learning as a highly effective pedagogical technology in teaching higher mathematics to engineering students. The principles of implementing a contextual approach that integrates theoretical knowledge with engineering-oriented practical problems are analyzed. This approach ensures the development of professional competencies, analytical thinking, and mathematical modeling skills. Specific instructional examples with complete analytical solutions are provided to illustrate the application of context-based learning in real engineering scenarios.

Key words: context-based learning, higher mathematics, professional competencies, engineering thinking, mathematical modeling, pedagogical technologies.

TEXNIK YO‘NALISH TALABALARI KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH UCHUN OLIY MATEMATIKADA KONTEKSTLI TA‘LIM

Annotatsiya: Maqolada kontekstli ta‘lim oliy matematika kursini texnik yo‘nalish talabalari uchun o‘qitishda yuqori samarali pedagogik texnologiya sifatida didaktik va metodik imkoniyatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Nazariy bilimlarni muhandislik yo‘nalishidagi amaliy masalalar bilan integratsiya qilish imkonini beruvchi kontekstli yondashuvni joriy etish tamoyillari tadqiq etiladi. Mazkur yondashuv talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, analitik tafakkurni rivojlantirish hamda matematik modellashtirish ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, real muhandislik vaziyatlarini aks ettiruvchi va kontekstli ta‘limning amaliy imkoniyatlarini namoyon etuvchi to‘liq analitik yechimga ega aniq o‘quv misollari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kontekstli ta‘lim, oliy matematika, kasbiy kompetensiyalar, muhandislik tafakkuri, matematik modellashtirish, pedagogik texnologiyalar.

Введение

Современные требования к инженерному образованию обуславливают необходимость формирования у студентов способности интегрировать фундаментальные математические знания с практическими задачами профессиональной деятельности. Традиционные методы преподавания высшей математики часто имеют абстрактный характер, что снижает эффективность усвоения материала и мотивацию студентов. Контекстное обучение позволяет преодолеть эти ограничения, связывая изучаемый математический аппарат с профессионально значимыми задачами, моделируя реальные инженерные ситуации.

Особое внимание уделяется формированию у студентов умения анализировать профессиональные задачи и применять математические методы для их решения, что является ключевым аспектом компетентного подхода в образовании инженеров. Внедрение контекстного обучения обеспечивает преемственность между академической подготовкой и практическими навыками, необходимыми для будущей профессиональной деятельности.

Сущность и принципы контекстного обучения

Контекстное обучение представляет собой педагогическую технологию, в основе которой лежит принцип моделирования профессиональной деятельности в учебной среде.

Основные принципы контекстного подхода:

- профессиональная направленность обучения;
- моделирование реальной профессиональной практики;
- интеграция теории и практики;
- активное участие студентов в учебном процессе;
- использование проблемных и инженерно-ориентированных задач.

Эффективное применение контекстного обучения предполагает создание системы учебных заданий, максимально приближенных к будущей профессиональной деятельности студентов, что обеспечивает формирование у них аналитического мышления и способности к математическому моделированию.

Методика применения контекстного обучения

Контекстное обучение в курсе высшей математики реализуется через инженерно-ориентированные задачи, которые интегрируют различные разделы математики с практическими задачами. Методика включает следующие этапы:

1. Постановка задачи с реальным инженерным контекстом;
2. Анализ и формализация математической модели;
3. Решение задачи с использованием соответствующих математических методов;
4. Интерпретация результатов в профессиональном контексте;
5. Обсуждение и обобщение полученных знаний.

Практическая реализация: учебные модули с решениями

Модуль 1. Математический анализ в инженерных задачах

Тема: “Применение производной к оптимизации инженерных систем”.

Формируемая компетенция: способность применять математические методы для анализа и оптимизации технических систем.

Профессиональный контекст: расчет оптимального режима работы поршневого насоса гидравлической системы робота-манипулятора.

Постановка задачи: Полезная мощность насоса задается функцией:

$$N(x) = k_1x - k_2x^3,$$

где x – скорость движения штока (м/с), k_1, k_2 – конструктивные постоянные.

Затрачиваемая мощность: $N_{\text{затр}} = k_3x^2$. Найти скорость x^* , при которой мощность максимальна, рассчитать N_{max} и КПД в этой точке.

Решение:

1. Находим первую производную:

$$N'(x) = k_1 - 3k_2x^2.$$

2. Находим критическую точку:

$$N'(x^*) = 0 \Rightarrow k_1 - 3k_2(x^*)^2 = 0$$

$$x^* = \sqrt{\frac{k_1}{3k_2}}.$$

3. Проверяем максимум через вторую производную:

$$N''(x) = -6k_2x, \text{ при } x^* > 0, k_2 > 0 \Rightarrow N''(x^*) < 0.$$

4. Подставляем x^* в исходную функцию и находим максимальную мощность:

$$N_{\text{max}} = k_1x^* - k_2(x^*)^3 = \frac{2}{3}k_1\sqrt{\frac{k_1}{3k_2}}.$$

5. КПД:

$$\eta = \frac{N_{\text{max}}}{N_{\text{затр}}(x^*)} = \frac{2k_2}{k_3} \sqrt{\frac{3k_2}{k_1}}.$$

$$\text{Итоговые ответы: } x^* = \sqrt{\frac{k_1}{3k_2}}; N_{\text{max}} = \frac{2}{3}k_1\sqrt{\frac{k_1}{3k_2}}; \eta = \frac{2k_2}{k_3} \sqrt{\frac{3k_2}{k_1}}.$$

Рефлексия и связь с профессиональной компетенцией: обсуждается, как выбор материалов (влияние на k_1, k_2) и потери (k_3) влияют на оптимальный режим. Связь с курсом «Детали машин и основы конструирования».

Модуль 2. Дифференциальные уравнения в инженерных системах

Тема: «Линейные дифференциальные уравнения первого порядка».

Формируемая компетенция: использование фундаментальных законов термодинамики и теплообмена для инженерного анализа.

Профессиональный контекст: моделирование нагрева терморезистора в системе автоматического контроля температуры.

Постановка задачи: Температура терморезистора $T(t)$ (в °C) изменяется по закону, описываемому уравнением: $\frac{dT}{dt} = k(T_{\text{окр}} - T(t))$, где $T_{\text{окр}} = 25^\circ\text{C}$ – температура окружающей среды, $k = 0,1 \text{ мин}^{-1}$ – коэффициент, зависящий от теплоемкости и теплоотдачи. В начальный момент $T(0) = 5^\circ\text{C}$. Определить: а) закон изменения температуры $T(t)$; б) время, за которое датчик нагреется до 20°C ; в) скорость нагрева в начальный момент и в момент времени $t = 10$ мин.

Решение:

а) Закон изменения температуры $T(t)$.

Уравнение является линейным дифференциальным уравнением первого порядка:

$$\frac{dT}{dt} = k(T_{\text{окр}} - T(t)),$$

$$\frac{dT}{T_{\text{окр}} - T} = k dt \Rightarrow \frac{dT}{25 - T} = 0,1 dt.$$

Интегрируем:

$$-\ln |25 - T| = 0,1t + C$$

$$T(t) = 25 - Ce^{-0,1t}.$$

Используем начальное условие $T(0) = 5$:

$$25 - 5 = 20 \Rightarrow C = 20.$$

Следовательно,

$$T(t) = 25 - 20e^{-0,1t}.$$

б) Время достижения температуры $T = 20^\circ\text{C}$:

$$20 = 25 - 20e^{-0,1t^*}$$

$$e^{-0,1t^*} = 0,25$$

$$-0,1t = \ln(0,25).$$

$$t = \frac{-\ln(0,25)}{0,1} = \frac{1,3863}{0,1} \approx 13,86 \text{ мин.}$$

$$t \approx 13,9 \text{ мин.}$$

в) Скорость нагрева:

В начальный момент $t = 0$:

$$\frac{dT}{dt} \Big|_{t=0} = 0,1(25 - 5) = 0,1 \cdot 20 = 2^\circ\text{C/мин.}$$

В момент $t = 10$ мин.

Сначала найдём температуру:

$$T(10) = 25 - 20e^{-1}.$$

Так как $e^{-1} \approx 0,3679$, то

$$T(10) = 25 - 20 \cdot 0,3679 = 25 - 7,358 = 17,64^\circ\text{C}.$$

Теперь скорость:

$$\frac{dT}{dt} \Big|_{t=10} = 0,1(25 - 17,64) = 0,1 \cdot 7,36 = 0,736^\circ\text{C/мин.}$$

Итоговые ответы: а) $T(t) = 25 - 20e^{-0,1t}$; б) $t \approx 13,9$ мин; в) $\frac{dT}{dt} \Big|_{t=0} = 2^\circ\text{C/мин}$, $\frac{dT}{dt} \Big|_{t=10} = 0,736^\circ\text{C/мин}$.

Рефлексия: анализ постоянной времени системы $\tau = 1/k = 10$ мин. Обсуждение влияния инерционности датчика на точность САР (в системах автоматического регулирования).

Закключение. Контекстное обучение демонстрирует высокую эффективность как педагогическая технология, обеспечивающая интеграцию теоретических знаний с практическими навыками инженерной деятельности. Внедрение инженерно-ориентированных задач позволяет формировать профессионально значимые компетенции, развивать аналитическое мышление и повышать мотивацию студентов, что соответствует современным требованиям инженерного образования.

Список использованной литературы

1. Зимняя И. А. Педагогическая психология. – М.: Логос, 2004.
2. Иванов П. П., Петров С. С. Практико-ориентированное обучение в инженерных вузах. – СПб.: Наука, 2018.
3. Бабанский Ю. К. Оптимизация процесса обучения. – М.: Педагогика, 1982.
4. Скаткин М. Н. Проблемы современной дидактики. – М.: Педагогика, 1984.
5. Вербицкий А. А. Контекстное обучение в системе высшего образования. – М.: Логос, 1991.
6. Карабекян С. Х. Использование педагогических технологий в преподавании высшей математики студентам инженерной специальности. Илмий-методикалык журнал “Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў”. № 1. Қарақалпақстан. Нөкис. 2026. 183-186 б.

IYERARXIK MODELLAR ASOSIDA TEXNIK TIZIMLARNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB O'QITISHNING NAZARIYASI VA AMALIYOTI

*Ergashev Nuriddin G'ayratovich,
Qarshi davlat texnika universiteti professori
<https://orcid.org/0000-0002-8274-6193>*

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada iyerarxik modellar asosida texnik tizimlarni raqamli texnologiyalar yordamida o'qitishning nazariy-metodologik va amaliy asoslari tahlil etilgan. Tadqiqotda muhandislik ta'limida iyerarxik modellashtirishning didaktik imkoniyatlari, raqamli vositalarning pedagogik samaradorligi va texnik tizimlarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Tajriba-sinov ishlari natijalari asosida to'rt qatlamli "TechHierarch-Digital" o'qitish modeli ishlab chiqilgan bo'lib, uning samaradorligi Student t-testi va Laplace mezonlari orqali empirik jihatdan isbotlangan. Ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: iyerarxik model, texnik tizim, raqamli texnologiyalar, muhandislik ta'limi, didaktik modellashtirish, ta'lim samaradorligi, innovatsion o'qitish, kompetensiyaviy yondashuv, SysML, BIM va boshqalar.

ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА ОБУЧЕНИЯ ТЕХНИЧЕСКИМ СИСТЕМАМ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ОСНОВЕ ИЕРАРХИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ

*Эргашев Нуриддин Гайратович
Профессор Каршинского государственного технического университета*

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируются теоретические, методологические и практические основы обучения техническим системам с использованием цифровых технологий на основе иерархических моделей. В исследовании рассматриваются дидактические возможности иерархического моделирования в инженерном образовании, педагогическая эффективность цифровых инструментов и инновационные подходы к обучению техническим системам. На основе результатов экспериментальной работы была разработана четырехслойная обучающая модель «Технологическая иерархия - Цифровые технологии», эффективность которой была эмпирически доказана с помощью t-критерия Стьюдента и критерия Лапласа. Предложены методические рекомендации по повышению эффективности обучения.

Ключевые слова: иерархическая модель, техническая система, цифровые технологии, инженерное образование, дидактическое моделирование, эффективность обучения, инновационное обучение, компетентностный подход, SysML, BIM и др.

THEORY AND PRACTICE OF TEACHING TECHNICAL SYSTEMS USING DIGITAL TECHNOLOGIES BASED ON HIERARCHICAL MODELS

*Ergashev Nuriddin Gayratovich
Professor of Karshi State Technical University.*

ANNOTATION. This article analyzes the theoretical, methodological and practical foundations of teaching technical systems using digital technologies based on hierarchical models. The study considers the didactic possibilities of hierarchical modeling in engineering education, the pedagogical effectiveness of digital tools, and innovative approaches to teaching technical systems. Based on the results of experimental work, a four-layer "TechHierarch-Digital" training

model was developed, the effectiveness of which was empirically proven through Student t-test and Laplace criteria. Methodological recommendations are provided to improve the effectiveness of training.

Keywords: hierarchical model, technical system, digital technologies, engineering education, didactic modeling, educational effectiveness, innovative training, competency-based approach, SysML, BIM, etc.

KIRISH. Zamonaviy jamiyatning jadal raqamlashtirilishi sharoitida muhandislik va texnik yo'nalishlar bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash masalasi dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. An'anaviy o'qitish metodlari tobora murakkablashib borayotgan texnik tizimlarni to'liq qamrab olishda yetarli samaradorlikni ta'minlay olmayapti. Shu sababli, iyerarxik modellashtirish prinsiplarini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishga asoslangan yangi didaktik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ehtiyoji tobora kuchayib bormoqda.

Iyerarxik modellar - murakkab tizimlarni ko'p qatlamli tuzilmaviy ierarxiya orqali ifodalovchi matematik va mantiqiy konstruksiyalar bo'lib, ular yordamida texnik obyektlarning tizimli tahlili amalga oshiriladi. Ushbu modellarning o'quv jarayoniga tatbiqi talabalarga texnik tizimlarning umumiy tuzilishi va uning alohida elementlari o'rtasidagi munosabatlarni vizual hamda intellektual jihatdan idrok etishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar bilan birgalikda qo'llanganda iyerarxik modellashtirish ta'lim jarayonini yanada interaktiv, ko'rgazmali va samarali qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020), "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va Kadrlar tayyorlash milliy dasturlari muhandislik ta'limini tubdan isloh qilish hamda raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga keng joriy etishni talab etadi. Shuningdek, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilangan oliy ta'lim standartlari raqamli kompetensiyani asosiy kasbiy kompetensiyalar tizimiga kiritishni majburiy qilib qo'ygan. Ushbu meyoriy-huquqiy bazalar mazkur tadqiqotning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tadqiqotning maqsadi - iyerarxik modellar asosida texnik tizimlarni raqamli texnologiyalardan foydalanib o'qitishning ilmiy-pedagogik nazariyasini ishlab chiqish va uning amaliy samaradorligini tajriba-sinov ishlari natijasida empirik jihatdan asoslash.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi tadqiqot vazifalari belgilandi: iyerarxik modellashtirish va raqamli ta'lim texnologiyalari sohasidagi xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish; texnik tizimlarni o'qitishda iyerarxik modellarni qo'llashning didaktik-nazariy asoslarini shakllantirish; raqamli muhitda to'rt qatlamli iyerarxik o'qitish modelini loyihalash; tajriba-sinov ishlari orqali modelni eksperimental sinovdan o'tkazish; natijalarni statistik tahlil qilish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, iyerarxik modellashtirish prinsiplari va zamonaviy raqamli texnologiyalarni o'zida mujassam etgan integrallashgan "TechHierarch-Digital" didaktik modeli birinchi bor texnik tizimlarni o'qitish kontekstida ishlab chiqilmoqda va uning pedagogik samaradorligi Laplace mezonlari hamda Student t-testi asosida empirik tarzda isbotlanmoqda. Bundan tashqari, Bloom taksonomiyasining barcha kognitiv darajalari to'rt qatlamli iyerarxik tuzilma bilan bog'lab chiqilishi o'zbek pedagogika fanida ilk bora amalga oshirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Iyerarxik modellashtirish nazariyasining asosiy qoidalari A.N.Mezentsev (2018), V.N.Sadovskiy (2019) va L.A.Rastrigin (2016) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular tizimli tahlil metodologiyasini murakkab texnik obyektlarga tatbiq etishning nazariy poydevorini yaratgan. Mazkur olimlarning tadqiqotlari iyerarxik tizimlar nazariyasini (HTN) pedagogik amaliyotga moslashtirish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi. Jumladan, Mezentsev murakkab texnik tizimlarni o'qitishda iyerarxik dekompozitsiya metodini asoslab, uni muhandislik ta'limiga tatbiq etishning metodologik asoslarini bayon qilgan.

Raqamli texnologiyalarni muhandislik ta'limiga integratsiyalash masalasi xalqaro ilmiy hamjamiyatda keng muhokama etilmoqda. Selwyn N. (2016) o'zining "Education and

Technology” asarida ta’limda raqamlashtirishning didaktik natijalari va potensial xavf-xatarlarini chuqur tahlil etgan. Kim Y. va boshqalar (2021) esa “Digital Twins in Engineering Education” nomli tadqiqotlarida raqamli egiz (Digital Twin) texnologiyasini muhandislik o’qitishida qo’llash samaradorligini eksperimental tarzda isbotlagan; ular o’zlashtiruv darajasida 18–23% li o’sishni qayd etgan.

Anderson J. R. va Corbett A. T. (1994) tomonidan ishlab chiqilgan “Cognitive Tutor” nazariyasi - intellektual o’quv tizimlari (ITS) doirasida iyerarxik bilim modelini o’qitish jarayoniga tatbiq etishning ilk namunasi hisoblanadi. Bu yondashuv keyinchalik Bloom taksonomiyasining raqamli talqini sifatida rivojlantirildi (Krathwohl, 2002). Ushbu nazariy merosning muhim jihati shundaki, u didaktik maqsadlarni aniq va o’lchovli tarzda ifodalashning tuzilmaviy asosini beradi.

Bloom taksonomiyasi va iyerarxik modellashtirish o’rtasidagi uyg’unlik masalasini Marzano R.J. (2001) chuqur o’rgangan. Uning “Designing a New Taxonomy of Educational Objectives” asari ta’lim maqsadlarini iyerarxik tuzilmada taqdim etish imkonini beruvchi yangi nazariy bazani yaratgan. Ushbu nazariy asos texnik fanlar didaktikasiga moslashtirilganda iyerarxik modellashtirish ayniqsa samarali ekanligini ko’rsatadi, chunki texnik tizimlarning o’zi ham tabiatan iyerarxik tuzilmaga ega.

O’zbek pedagog olimlaridan I. T. Ergashev (2020) texnik fanlarni o’qitishda tizimli yondashuv masalalarini ilmiy asoslab bergan; M.Q.Ochilov (2022) muhandislik ta’limida kompetensiyaviy modelning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil etgan; R.A.Nishonov (2021) esa raqamli ta’lim vositalarining pedagogik samaradorligini baholash metodikasini ishlab chiqqan. Ushbu mahalliy tadqiqotlar o’zbek pedagogika fanining shu yo’nalishda erishgan yutuqlarini aks ettiradi va mazkur tadqiqotning milliy kontekstdagi nazariy tayanch nuqtalarini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlilida aniqlangan bo’shliq shundan iboratki, mavjud ishlarning aksariyati iyerarxik modellashtirish yoki raqamli texnologiyalarni alohida-alohida o’rgangan. Ularning texnik tizimlarni o’qitishdagi sinergistik ta’sirini birga va tizimli tarzda tekshirgan, Bloom taksonomiyasining to’liq kognitiv darajalari bilan bog’lagan va O’zbekiston kontekstida statistik jihatdan tasdiqlangan tadqiqotlar hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu bo’shliqni to’ldirishga yo’naltirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot metodologiyasi falsafiy, umumilmiy va xususiy ilmiy metodlar majmuasiga asoslanadi. Falsafiy metodologiya sifatida dialektik-tizimiy yondashuv qabul qilingan bo’lib, bu yondashuv texnik tizimlarni o’qitish jarayonini harakatdagi, o’zaro bog’liq va rivojlanuvchi hodisa sifatida o’rganish imkonini beradi. Umumilmiy metodlar qatoriga ilmiy adabiyotlarni o’rganish va tahlil qilish, nazariy modellashtirish, abstraksiya, tizimli tahlil va qiyosiy-tarixiy tahlil kiradi.

Xususiy ilmiy metodlar sifatida pedagogik eksperiment, kuzatuv, so’rov (anketa), testlash, suhbat va ekspert baholash metodlaridan foydalanilgan. Statistik metodlar doirasida Student t-testi (mustaqil namunalarda uchun, $df=246$), Laplace funksiyasi mezonlari va Cohen d effekt o’lchami qo’llanildi.

Tadqiqotning eksperimental bazasini Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti (hozirgi Qarshi davlat texnika universiteti QDTU), Buxoro davlat texnika universiteti (BDTU) va Jizzax politexnika instituti (JPI) tashkil etdi. Tajriba-sinov ishlari 2022-2025 yillar mobaynida uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich (2022, sentabr - dekabr) - aniqlovchi eksperiment: nazorat va tajriba guruhlarining boshlang’ich bilim darajasi va motivatsion holati aniqlangan. Ikkinchi bosqich (2023, yanvar - 2024, may) - shakllantiruvchi eksperiment: tajriba guruhida “TechHierarch-Digital” modeli asosida o’qitish amalga oshirilgan. Uchinchi bosqich (2025, may - iyun) - nazorat eksperimenti: o’rganilgan ko’rsatkichlar bo’yicha yakuniy o’lchov va statistik tahlil o’tkazilgan.

Eksperiment ishtirokchilari sifatida muhandislik-texnika yo’nalishlari bo’yicha ta’lim olayotgan 1-,2-kurs bakalavriat va 1-2 kurs magistratura talabalari tanlandi. Jami 248 nafar talaba tajribada qatnashdi: 124 nafar tajriba guruhi (TG) va 124 nafar nazorat guruhi (NG). Guruhlarni

shakllantirishda tabakalangan tasodifiy tanlov usuli qo'llanildi va aniqlovchi eksperiment bosqichida guruhlar o'rtasida boshlang'ich tenglik tasdiqlanib, ular ahamiyatli farqlanmasdi ($t = 0,82$; $p > 0,05$).

Tajriba guruhida darslar "TechHierarch-Digital" raqamli o'quv majmuasi (ROM) yordamida tashkil etildi. ROM tarkibiga quyidagilar kiradi: SysML va BIM texnologiyalari asosidagi iyerarxik diagrammalar to'plami; Moodle LMS platformasida joylashtirilgan interaktiv modullar; virtual laboratoriya simulyatorlari (Multisim, LabVIEW); augmentatsiyalangan haqiqat (AR) asosidagi 3D vizualizatsiya vositalari. Nazorat guruhida esa an'anaviy dars o'tish usuli (ma'ruza + amaliy mashg'ulot + laboratoriya) saqlab qolindi.

O'qitish samaradorligini o'lchash uchun besh asosiy ko'rsatkich tanlandi: bilim o'zlashtirish darajasi (Bloom taksonomiyasi bo'yicha 1-6 darajalarda test topshiriqlari orqali); amaliy ko'nikma shakllanishi (5 ballik shkala); tizimiy fikrlash qobiliyati (5 ballik shkala, ekspert baholash); o'quv motivatsiyasi (ko'p o'lchovli anketa, Likert shkalasi); mustaqil muammolarni hal etish qobiliyati (5 ballik shkala). Ushbu ko'rsatkichlar Milliy ta'lim standartlari va xalqaro CDIO (Conceive-Design-Implement-Operate) muhandislik ta'limi talablari bilan muvofiqlashtirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR.

4.1. "TechHierarch-Digital" modelining tuzilmaviy tavsifi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan "TechHierarch-Digital" modeli to'rt asosiy qatlamdan iborat iyerarxik tuzilmaga ega bo'lib, har bir qatlam texnik tizimning ma'lum bir abstraksiya darajasiga va Bloom taksonomiyasining tegishli kognitiv darajalariga mos keladi.

I qatlam - Makro-tizim darajasi (Bilish va Tushunish): texnik tizimning umumiy arxitekturasi, tashqi muhit bilan o'zaro ta'siri va funksional maqsadi SysML BD (Block Definition Diagram) diagrammalari orqali o'rganiladi. Talabalar tizimning chegaralari va boshqa tizimlar bilan interfeyslarini vizual tarzda idrok etadilar.

II qatlam - Mezo-tizim darajasi (Qo'llash va Tahlil etish): quyi tizimlar va ularning funksional bog'liqliklari SysML IBD (Internal Block Diagram) hamda STM (State Machine Diagram) diagrammalari yordamida modellashtiriladi. Bu qatlamda talabalar tizim komponentlari o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sirni tadqiq etadilar.

III qatlam - Mikro-tizim darajasi (Tahlil va Baholash): alohida komponentlar va ularning parametrik modellari Multisim elektr sxemalari, LabVIEW virtual asboblardan paneli va AR-asosli 3D vizualizatsiyalar orqali o'rganiladi. Talabalar komponent xarakteristikalarini o'lchaydilar va tahlil qiladilar.

IV qatlam - Nano-tizim darajasi (Baholash va Yaratish): komponentlar ichki fizik jarayonlari va ularning matematik modellari tadqiq etiladi. Bu eng yuqori kognitiv darajaga mos keluvchi qatlam bo'lib, talabalar yangi texnik yechimlarni generatsiya qiladilar va loyihalaydilar.

Modelning o'quv jarayoniga integratsiyasi "spiral" tarzda amalga oshiriladi: har bir mavzu to'rt qatlam bo'yicha ketma-ket o'tiladi, oldingi qatlamdagi bilim keyingi qatlamning asosiga aylanadi. Bu yondashuv Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" kontsepsiyasiga va konstruktivizm nazariyasiga tayanadi.

4.2. Tajriba-sinov ishlarining miqdoriy natijalari.

O'quv yili oxirida o'tkazilgan yakuniy baholash natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan (1-jadval). Barcha ko'rsatkichlar bo'yicha tajriba guruhi nazorat guruhidan ishonchli ravishda ustun turadi.

1-jadval. Tajriba va nazorat guruhlarining o‘zlashtiruv ko‘rsatkichlari taqqoslanishi.

Ko‘rsatkich	TG (n=124)	NG (n=124)	t-qiymat
Bilim o‘zlashtirish (%)	81,4 ± 6,2	67,3 ± 7,8	14,76**
Amaliy ko‘nikma (5 ballda)	4,21 ± 0,41	3,18 ± 0,52	16,18**
Tizimiy fikrlash (5 ballda)	4,38 ± 0,39	3,02 ± 0,47	22,81**
O‘quv motivatsiyasi (%)	87,9	64,5	19,43**
Muammo hal etish (5 ballda)	4,11 ± 0,44	3,07 ± 0,51	15,92**

Izoh: ** $p < 0,01$ darajasida statistik ahamiyatli farq mavjud ($df = 246$, $t_{kr} = 2,576$; ikki tomonlama test).

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, tajriba guruhi barcha besh o‘lchov ko‘rsatkichi bo‘yicha nazorat guruhidan statistik jihatdan ishonchli darajada ustun turadi ($p < 0,01$). Bilim o‘zlashtirish darajasidagi farq 14,1 foiz punktni tashkil etadi (TG: 81,4%; NG: 67,3%). Tizimiy fikrlash qobiliyati bo‘yicha eng yuqori t-qiymati kuzatilgan ($t = 22,81$), bu iyerarxik modellashtirish metodining aynan shu qobiliyatni rivojlantirishdagi alohida samaradorligini tasdiqlaydi.

Cohen d effekt o‘lchamini hisoblash natijasida quyidagi qiymatlar olingan: bilim o‘zlashtirish bo‘yicha $d = 1,89$; tizimiy fikrlash bo‘yicha $d = 3,16$; amaliy ko‘nikma bo‘yicha $d = 2,12$. Cohen (1988) klassifikatsiyasi bo‘yicha $d > 0,8$ «kuchli effekt» deb baholanadi. Tadqiqotda olingan qiymatlar bu chegaradan ancha yuqori bo‘lib, “juda kuchli effect” toifasiga kiradi.

Laplace funksiyasi mezonlari bo‘yicha tekshirish quyidagi natijani berdi: bilim o‘zlashtirish ko‘rsatkichi bo‘yicha $x = 14,76 / \sqrt{2} = 10,44$; $\Phi(x) = \Phi(10,44) \approx 0,4974$. Bu esa eksperimental ta’limning nazorat guruhiga nisbatan 99,74% ishonchlilik darajasida samarali ekanligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, ishlab chiqilgan model statistik jihatdan ishonchli ravishda samarali deb tan olinadi.

4.3. Sifat ko‘rsatkichlari tahlili.

Kuzatuv va so‘rov natijalariga ko‘ra, tajriba guruhidagi talabalar uchta asosiy sifat xususiyatini namoyish etdi. Birinchidan, texnik tizimlarning murakkab iyerarxik tuzilmalarini tahlil qilishda mustaqillik darajasi sezilarli oshdi: talabalarining 78,2% i iyerarxik diagrammalar yordamida yangi, o‘rganilmagan texnik tizimlarni ham tahlil qila olishlarini ko‘rsatdi. Ikkinchidan, raqamli simulyatsion muhitlarda virtual tajribalar o‘tkazish jarayonida kognitiv faollik kuchaydi: savollar soni o‘rtacha 3,4 baravarga oshdi. Uchinchidan, qo‘shimcha ma’lumot izlash va mustaqil bilim boyitishga intilish oshdi: talabalarining 91,1% i semestr davomida kamida bitta mustaqil qo‘shimcha tadqiqot loyihasini amalga oshirdi.

Talabalarining 89,5% i iyerarxik-raqamli o‘qitish usulini an’anaviy usulga nisbatan samaraliroq deb baholadi. 12 nafar ekspert pedagog tomonidan o‘tkazilgan baholash esa ishlab chiqilgan ROM tarkibidagi iyerarxik diagrammalarning talabalarga abstrakt texnik tushunchalarni vizualizatsiya qilishda muhim rol o‘ynashini bir ovozdan tasdiqladi.

4.4. Muammolar va yechimlar.

Tajriba jarayonida uchta asosiy muammo aniqlandi va hal etildi. Birinchi muammo: ba’zi talabalarda (17,4%) raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha boshlang‘ich ko‘nikmalar yetishmovchiligi. Yechimi: semestr boshida ikki haftalik kirish kursi va “raqamli tengdosh

o'qitish" (peer learning) tizimi joriy etildi. Ikkinchi muammo: o'quv yuklamasi oshishi tufayli vaqt resurslarini taqsimlash qiyinligi (22,6% talabada qayd etildi). Yechimi: flipped classroom modeli qo'llanildi – nazariy materiallar oldindan video format sifatida taqdim etildi, auditoriya vaqti amaliy faoliyatga ajratildi. Uchinchi muammo: ba'zi institutlarda texnik infratuzilma cheklolari (8,9% holat). Yechimi: bulut hisoblash texnologiyalari (Google Colab, AWS Academy) ga o'tish amalga oshirildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

1. Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi asosiy xulosalar shakllandi:
2. Iyerarxik modellar texnik tizimlarning murakkab tuzilmasini to'rt qatlamli ko'rinishda – makro (umumiy arxitektura), mezo (quyi tizimlar), mikro (komponentlar) va nano (fizik jarayonlar) darajalarda – ifodalash imkonini beradi. Bu yondashuv Bloom taksonomiyasining barcha olti kognitiv darajasini izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirishning tuzilmaviy asosini ta'minlaydi.
3. Raqamli texnologiyalar (SysML, BIM, Multisim, LabVIEW, AR) ni iyerarxik model bilan integratsiyalash an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan bilim o'zlashtirish darajasini 14,1 foiz punktga oshiradi; bu farq statistik jihatdan ishonchli ($t = 14,76$; $p < 0,01$; $d = 1,89$) va Laplace mezonlari bo'yicha 99,74% ishonchlilik darajasida tasdiqlangan.
4. "TechHierarch-Digital" modeli muhandislik ta'limida tizimiy fikrlash qobiliyatini 45,4% ga (TG: 4,38 ball; NG: 3,02 ball), amaliy ko'nikmani 32,4% ga va o'quv motivatsiyasini 23,4 foiz punktga oshirishning samarali vositasi ekanligini tajriba-sinov ishlari tasdiqladi.
5. Tadqiqotda aniqlangan «spiral» integratsiya prinsipi – har bir mavzuni to'rt qatlam bo'yicha ketma-ket o'tish – konstruktivizm va Vigotskiy nazariyalariga asoslanib, talabalarda yangi texnik tizimlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishning eng samarali yo'li ekanligi isbotlandi.
6. Tajriba guruhidagi talabalarning 89,5% i ishlab chiqilgan metodikani an'anaviyga nisbatan samaraliroq deb baholadi; 12 nafar ekspert pedagog ham modelning didaktik qiymatini bir ovozdan tasdiqladi. Bu ko'rsatkichlar modelning nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham samaradorligini ko'rsatadi.

Amaliy takliflar. Muhandislik va texnika yo'nalishlari bo'yicha ta'lim beruvchi oliy ta'lim muassasalari texnik fanlarning davlat ta'lim standartlariga va o'quv dasturlariga iyerarxik modellashtirish bo'yicha alohida modul yoki bo'limni kiritishlari tavsiya etiladi. Ushbu modul SysML va BIM asoslarini qamrab olishi lozim.

Texnik fanlari o'qituvchilari uchun SysML, BIM va raqamli simulyatsion vositalardan (Multisim, LabVIEW) foydalanish bo'yicha malaka oshirish kurslari oliy ta'lim muassasalari va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tizimli tarzda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Raqamli ta'lim muhitini kengaytirish maqsadida Moodle LMS tizimiga iyerarxik diagrammalar vizualizatsiya plagini hamda virtual laboratoriya modullarini integratsiyalash, shuningdek, Flipped Classroom metodidan keng foydalanish tavsiya etiladi.

"TechHierarch-Digital" modeli asosida ishlab chiqilgan o'quv-metodik majmua O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiyadan o'tgan muhandislik universitetlarida namunaviy loyiha sifatida keng miqyosda joriy etilishi va uning asosida o'quv-uslubiy qo'llanmalar chop etilishi tavsiya etiladi.

Kelajakdagi tadqiqotlarda sun'iy intellekt va mashinali o'qitish texnologiyalarini iyerarxik model bilan birlashtirish, shuningdek, adaptiv o'qitish tizimlari (Adaptive Teaching Systems – ATS) yaratish imkoniyatlarini o'rganish tavsiya etiladi. Bu yo'nalish muhandislik ta'limida personallashtirilgan o'qitishning yangi bosqichini boshlab berishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, iyerarxik modellar asosida texnik tizimlarni raqamli texnologiyalar yordamida o'qitish – bu faqat yangi metodologik yondashuv emas, balki muhandislik pedagogikasining paradigmal o'zgarishidir. Mazkur tadqiqot "Raqamli O'zbekiston – 2030"

strategiyasida belgilangan maqsadlarni amalga oshirishga munosib hissa qo‘shishi va kelajakdagi tadqiqotlar uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilishiga ishonch bildiramiz.

ADABIYOTLAR

1. Ergashev N.G‘. The Theory of the Use of Cloud Technologies in the Implementation of Hierarchical Preparation of Engineers // Eurasian Research Bulletin (ERB). – Genius Journals. – 2022. – Vol. 13. – P. 47–54.
2. Ergashev N.G‘., Shukurov A.U., Jabborov E.E. The Future Through Digital Technology: Engineers Professional Preparation Improving Development Methodology // American Journal of Pedagogical and Educational Research. – Zien Journals. – 2024. – Vol. 29.
3. Ergashev N.G‘. Using Visual Program Technology Methods in Engineering Education // International Journal of Research and Analytical Reviews. – ID Publications. – 2019.
4. Ergashev N.G‘. Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari. Darslik. – Qarshi: Intellect, 2024. – 380 b.
5. Ergashev N.G‘., Shukurov A.U., Nekboyev X.X. Raqamli axborot texnologiyalar. Darslik. – Qarshi: QMII, 2023. – 374 b.
6. Ergashev N.G‘., Chorshanbiyev Z.E., Siradjev S.N. Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari fanidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlardan masalalar to‘plami. O‘quv qo‘llanma. – Qarshi: Intellect, 2023. – 102 b.
7. Ergashev N.G‘., Hamrayev J. Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar. O‘quv qo‘llanma. – Qarshi: Intellect, 2023. – 172 b.
8. Raximov Z.T., Xo‘jayev A.A., Ergashev N.G‘. Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2020. – 221 b.
9. Anderson J. R., Corbett A. T., Koedinger K. R., Pelletier R. Cognitive Tutors: Lessons Learned // Journal of the Learning Sciences. – 1995. – Vol. 4(2). – P. 167–207.
10. Bloom B. S. (Ed.). Taxonomy of Educational Objectives: Handbook I. Cognitive Domain. – New York: David McKay, 1956. – 207 p.
11. Cohen J. Statistical Power Analysis for the Behavioral Sciences. 2nd ed. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1988. – 567 p.
12. Kim Y., Park J., Leye S. Digital Twins in Engineering Education: A Systematic Review // Computers & Education. – 2021. – Vol. 167. – P. 104171.
13. Krathwohl D. R. A Revision of Bloom’s Taxonomy: An Overview // Theory into Practice. – 2002. – Vol. 41(4). – P. 212–218.

TEXNIKA UNIVERSITETLARIDA FIZIKA O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Mirzayev Mirg'olim Shayimardonovich
Qarshi davlat texnika universiteti,
"Tabiiy fanlar" kafedrası v.b.dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnika universitetlarida bo'lajak muhandislarga fizika fanini o'qitishdagi dolzarb ilmiy-metodik muammolar tizimli tahlil qilingan. An'anaviy reproduktiv va muammoli ta'lim usullari qiyosiy jihatdan o'rganilib, ularning muhandislik kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni asoslangan. Laboratoriya mashg'ulotlarining eskirgan moddiy-texnik bazasi, fanlararo integratsiyaning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi, raqamli texnologiyalardan (PhET, MATLAB, LabVIEW va boshqalar) tizimli foydalanilmasligi kabi asosiy muammolar aniqlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5032-sonli qarori doirasida fizika o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola natijalari texnika universitetlari fizika kafedralari uchun uslubiy qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: fizika ta'limi, muhandislik ta'limi, ilmiy-metodik muammolar, fanlararo integratsiya, raqamli texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИКИ В ТЕХНИЧЕСКИХ УНИВЕРСИТЕТАХ

Мирзаев Мирголим Шаимардонович
Каршский государственный технический университет,
исполняющий обязанности доцента кафедры «Естественных наук».

Аннотация: В данной статье проведен системный анализ актуальных научно-методических проблем преподавания физики будущим инженерам в технических университетах. Сравнительно изучены традиционные репродуктивные и проблемные методы обучения, обоснована их роль в формировании инженерных компетенций. Выявлены такие основные проблемы, как устаревшая материально-техническая база лабораторных занятий, недостаточный уровень междисциплинарной интеграции, отсутствие системного использования цифровых технологий (PhET, MATLAB, LabVIEW и других). В рамках Постановления Президента Республики Узбекистан № ПП-5032 разработаны практические рекомендации по совершенствованию методики преподавания физики. Результаты статьи могут служить методическим пособием для кафедр физики технических университетов.

Ключевые слова: физическое образование, инженерное образование, научно-методические проблемы, междисциплинарная интеграция, цифровые технологии, компетентностный подход.

MODERN METHODS OF TEACHING PHYSICS IN TECHNICAL UNIVERSITIES

Mirzayev Mirg'olim Shayimardonovich
Karshi State Technical University, Acting Associate Professor of the Department of "Natural Sciences"

Abstract: This article presents a systematic analysis of current scientific and methodological problems in teaching physics to future engineers at technical universities. Traditional reproductive and problem-based teaching methods are comparatively studied, and their role in the formation of engineering competencies is substantiated. Key problems are identified, such as the outdated

material and technical base of laboratory classes, insufficient level of interdisciplinary integration, and the lack of systematic use of digital technologies (PhET, MATLAB, LabVIEW, etc.). Within the framework of Resolution No. PQ-5032 of the President of the Republic of Uzbekistan, practical recommendations have been developed for improving the methodology of teaching physics. The results of the article can serve as a methodological guide for the physics departments of technical universities.

Keywords: physics education, engineering education, scientific and methodological problems, interdisciplinary integration, digital technologies, competency-based approach.

Kirish. Axborotlashgan jamiyatda texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi muhandislik faoliyatining mazmunini tubdan o'zgartirmoqda. Hozirgi zamon muhandisi nafaqat standart konstruktorlik yoki texnologik vazifalarni hal qiluvchi mutaxassis, balki fizik hodisalar, materiallarning fundamental xususiyatlari, energiyaning saqlanish qonuniyatlarini chuqur tahlil qila oladigan, innovatsion yechimlarni ilmiy asosda ishlab chiqaruvchi kreativ shaxsga aylanmoqda [2; 3].

Fizika fani texnika universitetlarida muhandislik kompetensiyalarining poydevori hisoblanadi. Fizik ta'lim talabalarda tahliliy fikrlash, fizik jarayonlarni modellashtirish, eksperimentni rejalashtirish va natijalarni ilmiy asosda umumlashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Aynan fizika kursi muhandislik yo'nalishidagi barcha umumkasbiy va maxsus fanlarni egallash uchun zarur bo'lgan fundamental bilim bazasini yaratadi [4].

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini, xususan, muhandislik yo'nalishidagi fundamental fanlarni o'qitish sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-sonli qarorida fizika fanini o'qitishning uzluksizligini ta'minlash, zamonaviy o'quv va laboratoriya bazasini yaratish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, fizik ta'limni muhandislik fanlari bilan integratsiyalash kabi ustuvor vazifalar belgilangan [1]. Ushbu qaror mazkur tadqiqotning nazariy-metodologik asosini tashkil etadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – texnika universitetlarida bo'lajak muhandislarni tayyorlashda fizika o'qitishning ilmiy-metodik muammolarini tizimli tahlil qilish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Belgilangan maqsad doirasida quyidagi:

- texnika universitetlarida fizika kursini o'qitishning hozirgi holatini va undagi ilmiy-metodik muammolarni aniqlash;
- fizik ta'limni muhandislik kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan holda modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilash;
- fizikani o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlarini asoslash;
- Prezident qarorida belgilangan vazifalar doirasida fizika o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish kabi vazifalar hal etiladi.

Tadqiqot ob'yekti – texnika universitetlarida bo'lajak muhandislarni tayyorlash jarayonidagi fizika ta'limi tizimi.

Tadqiqot predmeti – ushbu tizimda yuzaga kelayotgan ilmiy-metodik muammolar va ularni hal qilish yo'llari aniqladi.

Tadqiqotda quyidagi:

- nazariy tahlil – fizika o'qitish metodikasiga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o'rganish va umumlashtirish;
- qiyosiy tahlil – reproduktiv va muammoli ta'lim usullarini solishtirish;
- kuzatuv va so'rovnomalar – texnika universitetlari talabalari va o'qituvchilari orasida amaliy

mashg'ulotlar jarayonini kuzatish hamda so'rovnoma o'tkasish;

- modellashtirish – frontal va ko'p bosqichli masalalarni ishlab chiqish metodikasi kabu metodlardan foydalanilgan.

Asosiy qism. Texnika universitetlarida fizika bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ularda talabalarda fizik-texnik muammolarni hal qilishda o'ziga xos yondashuv rivojlantiriladi va kasbiy kompetensiyalar shakllantiriladi [6]. Amaliy mashg'ulotlar ma'ruza mashg'ulotlarini mantiqan to'ldiradi, matematik hisoblash, jadvallar va ma'lumotnoma adabiyotlari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tahlillar natijasida quyidagi tizimli muammolar aniqlandi:

№	Muammo	Tavsifi
1	An'anaviy reproduktiv yondashuvning ustunligi	Talabalar tayyor algoritmlar asosida masalalar yechadi, ijodiy fikrlash rivojlanmaydi
2	Laboratoriya bazasining eskirganligi	Qurilmalar 20–30 yil avvalgi uslubiy qo'llanmalarga mos, raqamli asboblari yetishmaydi
3	Fanlararo integratsiyaning sustligi	Fizika kursi matematika, informatika, materialshunoslikdan alohida o'qitiladi
4	Raqamli texnologiyalardan foydalanilmasligi	Simulyatsiya dasturlari (PhET, Multisim) va matematik paketlar (MATLAB) kam qo'llaniladi

Reproduktiv (an'anaviy) yondashuv o'qituvchining axborot-illustrativ faoliyati va talabalarining tayyor bilimlarni takrorlashiga asoslanadi. Ushbu yondashuvning afzalligi – tipik masalalarni yechish bo'yicha barqaror ko'nikma malakalarni tez shakllantirish hisoblanadi. Biroq kamchiliklari: yuzaki bilimlar tez unutiladi, tipik masalalarni yechish qobiliyati shakllanmaydi, ijodiy fikrlash rivojlanmaydi [7].

Muammoli ta'lim talabalarining mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, analitik ko'nikma malakalar va ijodkorlikni shakllantiradi. Talabalar quyidagi:

- masala sharti bilan tanishish;
- yechim algoritmini mustaqil ishlab chiqish;
- masalani yechish;
- olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish kabi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Muammoli yondashuv kichik guruhlarda ishlashni nazarda tutadi, bu esa hamkorlik, o'z-o'zini tashkil etish va tashabbuskorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi [8].

Frontal masalalar – barcha talabalar bir xil mavzu bo'yicha, lekin individual sonli ma'lumotlar bilan ishlaydi. Bu har bir talabaning mustaqil ishini samarali nazorat qilishga yordam beradi.

Misol uchun fizikaning quyidagi: "Gazlarning molekulyar-kinetik nazariyasi" bo'limidan frontal masalani ko'rib chiqamiz: Massasibo'lgan azotning boshlang'ich temperaturasi va bosimi. Hajm (l) gacha izobarik kengayish natijasida gaz temperaturasi ko'tarildi. Kengayishdan keyingi gaz temperaturasi va zichligini toping. Massa, boshlang'ich temperatura va bosim, gazning kengayish hajmining son qiymati variant raqamiga teng deb olinsin.

Kengayishdan keyingi gaz temperaturasi va zichligi topilsin. Massa, boshlang'ich temperatura, bosim va hajmning son qiymati talabaning variant raqamiga bog'liq holda beriladi. Bunday masalalarni yechish uchun Excel yoki Mathcad kabi dasturiy vositalardan foydalanish tavsiya

etiladi [9].

Ko'p bosqichli masalalar – fizikaning bir mavzusi yoki bo'limi bilan birlashtirilgan, bir-biri bilan mantiqiy bog'langan kichik masalalar to'plami hisoblanadi. Har bir kichik masalaning natijasi keyingi masala uchun shart bo'lib xizmat qiladi. Misol: "O'zgarimas tok qonunlari" bo'limi uchun ko'p bosqichli masala tarkibiga quyidagilar:

- Kirxgof qoidalari asosida elektr zanjirini tahlil qilish;
- zanjirning bir qismi va to'liq zanjir uchun Om qonunini qo'llash;
- Joul–Lens qonuni asosida quvvatni hisoblash;
- tok manbaining foydali ish koeffitsientini aniqlash kabilar kiritiladi.

Ko'p bosqichli masalalarni yechish talabalarga fizik qonunlarning o'zaro bog'liqligini tushunish, tizimli fikrlash va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Zamonaviy muhandislik ta'limida fizikani boshqa fanlar bilan integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

Fizikaning boshqa fanlar bilan integratsiyasi

1 –jadval.

Fan	Integratsiya yo'nalishi	Amaliy misol
Matematika	Differensial tenglamalar, vektor hisoblashlar	Elektromagnit maydon tenglamalarini yechish
Informatika	Modellashtirish, algoritmlash	Fizik jarayonlarni Python yoki C++ da modellashtirish
Materialshunoslik	Qattiq jismlar fizikasi	Yarimo'tkazgichlarning xususiyatlarini o'rganish
Elektrotexnika	Elektr zanjirlari nazariyasi	Kirxgof va Om qonunlarini amaliy qo'llash

Raqamli texnologiyalarni fizika o'qitishga integratsiyalash quyidagi:

- PhET interaktiv simulyatsiyalari – fizik hodisalarni virtual tajriba sifatida kuzatish;
- MATLAB / Octave – murakkab hisoblashlarni avtomatlashtirish va grafik tahlil;
- LabVIEW – real vaqt rejimida o'lchash va boshqarish tizimlarini yaratish;
- OpenModelica – fizik tizimlarni ob'yektga yo'naltirilgan modellashtirish kabi imkoniyatlarni beradi [10].

Ushbu maqola doirasida amalga oshirilgan tahlillar natijasida quyidagi:

1. Metodik jihatdan: reproduktiv o'qitish usullarining ustunligi ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirmaydi;
2. Laboratoriya bazasida: eskirgan qurilmalar va zamonaviy o'lchash texnikasining yetishmasligi;
3. Integratsiya yetishmasligi: fizika kursi amaliy muhandislik fanlari bilan yetarlicha bog'lanmagan;
4. Raqamli texnologiyalar: simulyatsiya va modellashtirish vositalaridan tizimli foydalanilmayapti kabi asosiy ilmiy-metodik muammolar aniqlandi.

Maqolada qayd qilingan yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi:

- Fizika o'qitishda reproduktiv va muammoli ta'lim usullarining maqsadga muvofiq uyg'unligini ta'minlash (masalan, oddiy masalalarda reproduktiv, murakkab muammoli vaziyatlarda muammoli yondashuv);

- Laboratoriya mashg'ulotlarini raqamli o'lchash asboblari va virtual stendlar bilan jihozlash;
- Fizika kursini matematika, informatika va muhandislik fanlari bilan integratsiyalashgan holda o'qitish;
- PhET, MATLAB, LabVIEW kabi dasturiy vositalarni amaliy mashg'ulotlarga muntazam joriy etish;

- Professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha "Fizikani o'qitishda raqamli texnologiyalar" maxsus kurslar tashkil etish kabi tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xulosa. - texnika universitetlarida fizika o'qitish sifatini oshirish bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

- amaliy mashg'ulotlarda masalalarni oqilona tanlash, o'qitish usullarini to'g'ri belgilash (reproduktiv va muammoli yondashuvlar uyg'unligi), frontal va ko'p bosqichli masalalardan foydalanish fizika o'qitish metodik tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

- raqamli texnologiyalarni (PhET, MATLAB, LabVIEW va boshqalar) integratsiyalash talabalarning fizik tafakkurini va raqamli kompetensiyalarini rivojlantiradi.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5032-sonli qarorida belgilangan vazifalar mazkur yo'nalishdagi islohotlar uchun mustahkam huquqiy va metodologik asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Normativ-huquqiy hujjat:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-sonli qarori, 19.03.2021.

2. Боровков А.И., Бурдаков С.Ф., Клявин О.И. и др. Современное инженерное образование. – СПб.: СПбПУ, 2012. – Вып. 2. – 79 с.

3. Ваганова Т.Г. Модульно-компетентностное обучение физике студентов технических университетов. – Улан-Удэ: Изд-во ВСГТУ, 2008. – 194 с.

4. Каменная Е.Ш., Ягафарова Х.Н. Особенности индивидуального подхода в обучении при формировании профессиональных компетенций студентов технического вуза // Мир науки, культуры, образования. – 2019. – № 5. – С. 519–521.

5. Mirzayev M.SH. Fizika.–Qarshi, "ILM-FAN-MA'NAVIYAT" nashriyoti, 2025 y.

6. Морев А.В., Третьяков П.Ю. Проблемы подготовки высококвалифицированных конкурентоспособных инженеров в техническом вузе // Образование. Наука. Научные кадры. – 2017. – № 2. – С. 164–166.

7. Петрова Т.И., Пьянзина Н.Н. Использование математических пакетов при обучении физике в техническом вузе // Современные проблемы науки и образования. – 2020. – № 4. – С. 45–52.

8. Петрова Т.И., Пьянзина Н.Н. К вопросу об отношении студентов вуза к дистанционному обучению // Вестник Чувашского государственного педагогического университета им. И.Я. Яковлева. – 2020. – № 3. – С. 206–212.

9. Штейнберг В.Э., Манько Н.Н., Вахидова Л.В., Фатхулова Д.Р. Визуальные дидактические регулятивы как средства учебной деятельности: разработка и прикладные аспекты // Образование и наука. – 2021. – Т. 23. – № 6. – С. 126–152.

10. Wieman C.E., Perkins K.K. Transforming Physics Education // Physics Today. – 2005. – Vol. 58. – No. 11. – P. 36–41.

TALABALARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDAN MUSTAQIL ISHLARINI AXBOROT MODELLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY ASPEKTLARI

*Qodirov Mirjalol Tolmasovich
Turon universiteti o'qituvchisi,*

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida «Axborot texnologiyalari» fanini o'qitishda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilinadi. Muallif talabalarning o'quv-biluv faoliyatini faollashtirishda mustaqil ta'limning o'rni va uni zamonaviy AT-vositalari yordamida loyihalash masalalarini yoritib beradi. Maqolada mustaqil ish tushunchasining mohiyati, uning tarkibiy qismlari va talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati nazariy jihatdan asoslangan. Shuningdek, masofaviy ta'lim platformalari va raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarning mustaqil faoliyatini boshqarishning samarali modellari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, axborot texnologiyalari, kompetensiya, nazariy aspekt, o'quv faoliyati, raqamli ta'lim, metodika, kredit-modul tizimi.

СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ОСНОВЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ

*Кодиров Миржалол Толмасович
Преподаватель Университета Туран,*

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и методологические основы организации самостоятельной работы студентов при преподавании предмета «Информационные технологии» в системе высшего образования. Автор освещает роль самостоятельного обучения в активизации учебной деятельности студентов и вопросы его проектирования с использованием современных ИТ-инструментов. В статье теоретически обосновывается сущность концепции самостоятельной работы, ее компоненты и ее значение в формировании профессиональных компетенций студентов. Также предлагаются эффективные модели управления самостоятельной работой студентов в условиях платформ дистанционного обучения и цифровых технологий.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, информационные технологии, компетенции, теоретический аспект, учебная деятельность, цифровое образование, методология, кредитно-модульная система.

MODERN ASPECTS OF ORGANIZING STUDENTS' INDEPENDENT WORK IN INFORMATION TECHNOLOGY ON THE BASIS OF INFORMATION MODELS

*Mirjalol Tolmasovich Kodirov
Lecturer, Turan University,*

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations of organizing students' independent work in the teaching of «Information Technology» in higher education. The author highlights the role of independent learning in enhancing students' learning activities and the issues of its design using modern IT tools. The article theoretically substantiates the essence of the concept of independent work, its components, and its importance in developing students' professional competencies. Effective models for managing student independent work in the context of distance learning platforms and digital technologies are also proposed.

Key words: independent learning, information technology, competencies, theoretical aspect,

educational activity, digital education, methodology, credit-modular system.

Kirish: Axborot texnologiyalari fanidan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish tobora murakkablashib borayotgan vazifalar tizimini amalga oshirishga asoslangan, ta'lim faoliyatining bir turi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Inson tafakkurining psixologik xususiyatlarini e'tborga olgan holda, texnika ixtisosliklari talabalarining munosib tayyorgarlik darajasi, tavsiflovchi va vizual asoslashni qo'llash, dasturiy ta'minotdan foydalanish uchun texnik ko'nikmalarni rivojlantirishni asosidan kelib chiqish kerak.

Hozirgi davrda talabalarni axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatlarida va kundalik turmushda amaliyotga qo'llashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Axborot texnologiyalari umumiy madaniy qadriyatlar hamda falsafiy tushunchalar, tarix, tillar, adabiyot, san'at va musiqa voqealari, dalillari bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak. Atamalarni tog'ri tushunish va ishlatishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Axborotlashgan jamiyatda fan sifatida axborot texnologiyalarini o'qitish maqsadining o'ziga xos xususiyati talabani ma'lum bir dasturiy ta'minot to'plamidan foydalanishgagina emas, balki yangi dasturlarni mustaqil o'zlashtirishga ham o'rgatish zaruriyatidir.

Axborot texnologiyalari fanini o'qitish maqsadiga erishish uchun talabalarda uni kasbiy faoliyatda, shuningdek kundalik turmushda qo'llash "sezgi" sini rivojlantirish zarur. Mustaqil ravishda ishlash va mustaqil ta'lim olish talabalarni tadqiqotchilikka jalb qilishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Texnika ixtisosliklarida ta'lim olayotgan talabalar uchun axborot texnologiyalari fanidan mustaqil ishlarni tashkil etishning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o'qitishning texnika ixtisoslik talabalarini tafakkurining psixologik xususiyatlarini va ularning axborot texnologiyalari bo'yicha tayyorgarlik darajasini e'tiborga olish zarurati;
- ta'limning o'ziga xos (insonning aqliy va ma'naviy rivojlanishiga e'tibor berish, yangi ma'lumotlarni idrok etish madaniyatini shakllantirish) xususiyatlarini tashkil qiladi;
- kadrlar tayyorlashning texnika ixtisosliklari talabalariga axborot texnologiyalari fanini o'rgatish umumiy madaniy qadriyatlari bilan bog'lanishi kerak;
- o'rganilayotgan o'quv materialni tushunish tavsifiy va vizual fikrlash asosida yuzaga keladi;
- talabalarining tizimli ishlashiga (o'quv materialini amaliy o'zlashtirish uchun asos) bo'lgan ehtiyoj qondiriladi;
- talabalarining o'ziga xos (alohida) tartibdagi ish faoliyatlarini tashkil etish;
- o'quv materialining bir qator mavzularini mustaqil ravishda o'rganishni tashkil etish;
- auditoriyadan tashqarida mustaqil ravishda ishlashni amalga oshirish uchun pedagogdan maslahat olish lozim.

Talabalarining mustaqil ishlashlarini tashkil etishning yuqorida qayd etilganlariga quyidagilarni: rolli o'yinlar, evristik suhbatlar, masalani yechish, texnologik holat, loyiha usuli va boshqa shu kabi faoliyat usullarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

O'qitishning faol usullaridan biri keys texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. O'qitishda ushbu usulidan foydalanishdan oldin aniq misolni ishlab chiqish yoki haqiqiy kasbiy faoliyat holatini tavsiflovchi tayyor materiallardan foydalaniladi. Bir vaqtni o'zida vaziyatning tavsifi nafaqat amaliy muammoni aks ettiradi, balki ma'lum bilimlar to'plamini faollashtiradi. Shuni yodda saqlash lozimki, e'lon qilingan muammoli vaziyat aniq yechimlarga ega bo'lmasligi ham mumkin. Amaliy muammolarga e'tibor qaratilishi tufayli holatlar talabalarga nima uchun, qanday vaziyatda u yoki bu o'quv materialini foydali bo'lishi mumkinligi, uni kundalik turmushda amaliy faoliyatda qanday qo'llash mumkinligi aniq bo'lishi sababli o'rganish motivasiyasini oshirishga imkon beradi.

Keys texnologiyasidan "quyidagi: muammolarni aniqlash, tanlash va hal qilish; axborot bilan ishlash; vaziyatda tasvirlangan tafsilotlarning ma'nosini tushunish; axborot va dalillarni tahlil qilish va sintez qilish; taxminlar va xulosalar bilan ishlash; muqobil variantlarni baholash; qarorlar

qabul qilish; kursdoshlari fikrini tinglash va muhokama qilish va kundalik turmushda amaliyotda guruhlarda ishlash ko'nikmalari" sohalarda ko'nikma va tajriba oshirishga mo'ljallangan o'qitish usuli sifatida ifodalangan [65].

Natijalar va muhokama. Birinchi marta keys usuli 1869 yilda Garvard yuridik maktabida qo'llanilgan. 1908 yilda Garvardda Biznes maktabi tashkil etilgan va bu yerda "Master of Business Administration" (MBA) biznes boshqaruvi magistri dasturiga "Biznesning yuritish san'ati" vaziyatlarni majburiy tahlil qilish kursi kiritilgan. Kursga xususiy biznes egalari taklif qilinib, o'z amaliyotlaridagi muammolarni muhokama qilishgan. Ikki kundan so'ng, har bir talaba muammoning analitik tahlilini tavsiya etilgan yechimni o'z ichiga olgan yozma hisobotini taqdim etib, so'ngra tadbirkorlar ushbu hisobotlarni guruh bilan birgalikda muhokama qilishgan.

Yangi dekan, bankir Uolles Donham o'qituvchilarga "keyslarni kolleksiyalarini to'plashda" (1919-yilda) o'qituvchilarga ma'ruza yondashuvini ko'rib chiqishni taklif qilgan. 1921-yilda ishlarning birinchi to'plamlari Garvard universitetining biznes hisobotlarida nashr etilgan va 1922-yilda 85 ta o'quv muassasasi ulardan o'z ish faoliyatlarida amalda qo'llay boshlashgan. Xuddi shuningdek, Uolles Donham vaziyatlar usulini o'qitish bo'yicha bir qator mashg'ulotlarni ham tashkil qilgan va shu davrdan boshlab, Garvard keyslar usulini targ'ibotchisi hisoblanadi

Hamdo'stlik davlatlaridan jumladan, asosan, oliy o'quv yurtlarining iqtisodiyot yo'nlishidagi mutaxassisliklarida, birinchi navbatda, qaror qabul qilishga o'qitish usuli sifatida qo'llanila boshlandi. Keys texnologiyalari tarixi ma'lum darajada xalqaro ta'lim fondlari va dasturlarini qo'llab quvvatlash bilan bog'liq.

Hozirgi davrda ushbu metod, ayniqsa, iqtisodiyot va menejment fanlarini o'qitishda, xuddi shuningdek, biznes ta'limida keng tarqalgan. Fanni o'qitish oliy ta'limning takomillashtirilgan Davlat ta'lim standartini joriy etish orqali amalga oshirilgan.

Keys usuli quyidagi:

1. Har bir talabaga alohida yondashish, uning xususiyatlari, ehtiyojlari va o'quv uslubini e'tiborga olish.

2. Ta'lim olishda erkinlikni maksimal darajada ta'minlash.

3. Ko'rgazmali materiallarni yetarli miqdorda ta'minlash.

4. Diqqatni asosiy qoidalarga qaratish, tinglovchilarga katta hajmdagi nazariy materiallarning "yuklash"ni e'tiborga olish.

5. Pedagog bilan talaba o'rtasidagi muloqotning o'zaro tushunarli bo'lishini ta'minlash.

6. Talabalarda o'z-o'zini tashkil qilish hamda axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.

7. Talabaning kuchli va ijobiy fazilatlarini rivojlantirish kabi didaktik tamoyillarga asoslanadi.

Quyidagilar: o'qitish, ta'lim, tahlil qilish, tadqiqot, tizimlashtirish hamda bashorat qilish kabilar keysning asosiy funksiyalarini tashkil qiladi. ishlarni tasniflashda keng qo'llaniladigan yondashuvlardan biri ularning murakkabligidir[65]. Shuning bilan birga, quyidagilarga:

- illyustrativ o'quv vaziyatlari (amaliy misol yordamida talabalarga muayyan vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish algoritmini o'rgatish);

- muammoni shakllantirish bilan bog'liq ta'lim vaziyatlari (ma'lum bir vaqt oralig'idagi vaziyat, maqsad vaziyatga tashxis qo'yish va mustaqil qaror qabul qilishni o'rgatishdir);

- muammoni shakllantirmasdan ta'lim holatlari (vaziyat murakkabroq, muammo aniq belgilanmagan, u faqat statistik ma'lumotlarda, jamoatchilik fikri, hokimiyat organlarining baholashlarida va boshqalarda keltirilgan; maqsad muammoni mustaqil ravishda aniqlash, pul resurslarini tahlil qilish bilan uni hal qilishning muqobil usullarini ko'rsatish);

- amaliy mashqlar (rivojlangan aniq vaziyat; maqsad muammoni hal qilish yo'llarini topish) kabilarga ajratiladi.

Keysni tuzish tamoyillari masalasiga kelsak, uning maqsadga muvofiqligini quyidagi: Ishni tashkil etish tamoyillari masalasiga kelsak, uni yaratishning quyidagi:

1. Keysning didaktik maqsadlarini shakllantirish.
2. Muammoli vaziyatning ta'rifi.
3. Matnda mujassamlanishi kerak bo'lgan asosiy tezislardan iborat dasturiy vaziyat xaritasini tuzish.
4. Muammoli vaziyatning modelini tuzish yoki tanlash.
5. Keysning janrini tanlash.
6. Keys matnini yozish.
7. Keysning to'g'riligi va samaradorligi diagnostikasi.
8. Keysning yakuniy variantini tayyorlash.
9. Keysdan foydalanish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar tayyorlash kabi asosiy bosqichlarini ajratib ko'rsatish tavsiya etiladi.

Keysga qo'yiladigan talablarning to'liqligi quyidagi: vaziyat, ziddiyat, muammo, harakat, belgilar, yechimlar, ishni yakunlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar kabi komponentlarning mavjudligidan iborat. Keys texnologiyasidan foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil etish quyidagi:

1. Tayyorgarlik (o'quv kursida keysning o'rnini aniqlash; manba izlash; ish modelini yaratish; darsning borishini tavsiflash).
2. Tanishuv (talabalarni haqiqiy vaziyatni tahlil qilishga jalb qilish, tanishish uchun material taqdim etishning maqbul shaklini tanlash).
3. Analitik (vaziyatni guruhlarda muhokama qilish yoki muammoni talabalar tomonidan yakka tartibda o'rganish; yechim tayyorlash).
4. Yakuniy (ushbu bosqichning asosiy vazifasi - vaziyatga qarab yechimni taqdim etish va asoslash) kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Mini keyslarni ko'rib chiqish bugungi kunda ham dolzarbdir. Ularning hajmi ikki-uch sahifa, mazmuni qisqa va o'z ichiga oladi, hodisalar yoki muammolarning tavsifi, shu jumladan jadvallardagi ma'lumotlar yoki savol berishni qo'shishdan iborat.

Amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishni baholash mezonlari muammoni tushunish, muammolarni shakllantirish, muammoni hal qilish mezonlarini tanlash, muqobil variantlarni yaratish, variantlarni baholash va muammoning eng to'g'ri yechimini tanlash, amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish va xulosalarni taqdim etishdir.

Natijalar va muhokama. Keys texnologiyasidan foydalanish samaradorligi talabalarning asosiy nazariy bilimlarga ega bo'lishi, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarni tahlil qilish va tadqiq qilish usullarini qo'llay olishi, munozaralarda qatnashish va kichik guruhlarda ishlash amaliyotiga ega bo'lishi bilan bog'liq. Shuningdek, pedagogning fanlararo integrasiyalashgan bilimlarni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligi, ijodiy fikrlashni rag'batlantirish uchun faol o'qitish metodlari va usullaridan foydalanish, tinglovchilarni doimiy ravishda ushlab turish (muhokama qoidalariga qat'iy rioya qilish muhim ahamiyatga ega).

E'tibor berish kerak bo'lgan navbatdagi faol o'qitish metodi - loyiha usuli. U o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatida aniq masalalar yoki muammolarni hal qilishda nazariy bilimlardan amaliy foydalanishni talab qiladi va ko'pgina mamlakatlarda faol qo'llaniladi [60].

Loyihalar usuli amerikalik faylasuf va o'qituvchi J.Dyui, shuningdek, uning shogirdi V.X. Kilpatrik. J.Dyui o'quv jarayonini faol asosda, talabaning maqsadga muvofiqlik faoliyati orqali, uning ushbu aniq bilimga bo'lgan shaxsiy qiziqishiga mos ravishda tashkil etishni taklif qiladi. Shuning bilan birga, xorijiy maktablarda ushbu usul faol va juda muvaffaqiyatli rivojlangan. AQSH, Buyuk Britaniya, Belgiya, Isroil, Finlyandiya, Germaniya, Italiya, Braziliya, Niderlandiya va boshqa ko'plab mamlakatlarda J.Dyuining ta'limga gumanistik yondashuvi g'oyalari uning loyiha metodikasi keng tarqalib, nazariy bilimlarning oqilona uyg'unligi va ularni maktab o'quvchilarining birgalikdagi faoliyatida atrofda voqelikning o'ziga xos muammolarini yechish va amaliy qo'llash tufayli katta shuhrat qozongan [139].

Xulosa. Oliy ta'lim tizimida axborot texnologiyalari fanini o'qitish samaradorligini oshirish bevosita talabalarning mustaqil ishlarini tizimli tashkil etishga bog'liq. Olib borilgan nazariy tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Tizimli yondashuv: Axborot texnologiyalari fanidan mustaqil ishlarni tashkil etishda talabalarning psixologik xususiyatlari va ularning texnik ko'nikmalarini rivojlantirish darajasini hisobga olish zarur.

Keys texnologiyasining o'rni: Keys (vaziyatli tahlil) usuli talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki amaliy muammolarni aniqlash, tahlil qilish va muqobil yechimlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Loyiha metodining samaradorligi: Loyiha usulidan foydalanish nazariy bilimlarni real hayotiy va kasbiy masalalarni yechishga yo'naltiradi, bu esa o'z navbatida talabalarning o'rganish motivatsiyasini oshiradi.

Kasbiy tayyorgarlik: Mustaqil ishlar talabani faqat tayyor dasturiy ta'minotdan foydalanishga emas, balki yangi texnologiyalarni mustaqil o'zlashtirish va ularni kasbiy faoliyatida «sezgi» darajasida qo'llashga o'rgatishi lozim.

Pedagogning roli: Masofaviy va raqamli ta'lim sharoitida pedagogning vazifasi nafaqat bilim berish, balki talabaning mustaqil faoliyatini didaktik tamoyillar asosida to'g'ri boshqarish va unga uslubiy ko'rsatmalar berishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Богословский В.И., Васильев А.А., Извозчиков В.А., Плещенков И.Н., Потачев С.А., Сиранов В.А., Шилова О.Н. Информационные системы.: Словарь/ Под ред. В.И.Богословского. - СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И.Герцена, 1998. - 112 с.

2. Гончаров А. Самоучитель HTML - СПб: Питер. 2000 - 240с.: ил.

3. Леонтьев Б.К. Web-дизайн: Руководство пользователя.- М.: Познавательная книга плюс, 2001.- 320 с.

4. В.Л.Эпштейн Гипертекст и гипертекстовые системы. - М., 1998 (Предпринт / Ин-т проблем управления РАН), 40с.

5. Педагогические информационные технологии и картина мира в непрерывном образовании (Информологический аспект): Учебное пособие /Под общ. ред. В.А. Извозчикова. - СПб: Образование, 1997, 211 с.

6. Тихомиров В.П., Морозов В.П., Хрусталева Е.Ю. Основы гипертекстовой информационной технологии / Моск. Эконом. - стат. ин-т. - М., 1993. - 122с.

7. Ergashev N, G', Eshmurodov A.G'. Mustaqil ta'limni tashkil etishda web 2.0 texnologiyasi xizmatlaridan foydalanish. // Ilm-fan va texnologiyalari– Buxoro, 2023. – №1. – B.326-332.

8. Eshmurodov A.G'. Axborot texnologiyalari fanidan talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning nazariy aspektlari. // O'zbekistonning innovatsion taraqqiyotida yoshlarning o'rni / respublika ilmiy amaliy anjumani, Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti 15–16 may. – Qarshi, 2023. – B. 246-248.

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDAGI MANIPULYATIV TA'SIRLARNI TANQIDIY TAHLIL QILISH ASOSIDA TALABALARNING MEDIA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Nekboyev Xurshid Xoliyorovich

Qarshi davlat texnika universiteti v.b. professori, PhD

<https://orcid.org/0009-0004-9347-3188>

Annotatsiya. Raqamli axborot makonining jadal rivojlanishi ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayoti, ayniqsa yoshlar dunyoqarashi va tafakkuriga ta'sirini sezilarli darajada kuchaytirdi. Zamonaviy media muhitida axborot oqimining ortishi bilan bir qatorda manipulyativ kommunikatsiya, soxta axborotlar va mafkuraviy ta'sirlar ham keng tarqalmoqda. Bunday sharoitda talabalarda media savodxonlik va media kompetensiyani shakllantirish dolzarb pedagogik vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur tadqiqotning maqsadi ommaviy axborot vositalaridagi manipulyativ ta'sirlarni tanqidiy tahlil qilish asosida talabalarning media kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotda ilmiy-nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, tajriba-sinov ishlari hamda statistik baholash metodlaridan foydalanildi. Media matnlarni dekodlash, manipulyatsiya usullarini aniqlash va media tahlil metodlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish talabalarning tanqidiy fikrlashi hamda axborot madaniyatini rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: media ta'lim, media kompetensiya, media savodxonlik, manipulyativ ta'sir, tanqidiy fikrlash, ommaviy axborot vositalari, oliy ta'lim.

РАЗВИТИЕ МЕДИАКОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ КРИТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА МАНИПУЛЯТИВНОГО ВЛИЯНИЯ В СМИ

Некбойев Хуршид Холиорович

*Исполняющий обязанности профессора, кандидат наук, Қаршиқий ғосударственный
технический университет.*

Аннотация. Быстроеразвитиецифровогоинформационногопространствазначительно усилило влияниеСМИна жизнь общества, особенно на мировоззрение и мышление молодежи. В современной медиа-среде, наряду с увеличением информационного потока, широко распространены манипулятивная коммуникация, фейковая информация и идеологическое влияние. В таких условиях формирование медиаграмотности и медиакомпетентности у студентов является актуальной педагогической задачей. Цель данного исследования — выявить педагогические возможности для развития медиакомпетентности студентов на основе критического анализа манипулятивных влияний в СМИ.

В исследовании использовались методы научного и теоретического анализа, педагогического наблюдения, экспериментальной работы и статистической оценки. Было установлено, что расшифровка медиатекстов, выявление методов манипуляции и интеграция методов анализа СМИ в образовательный процесс эффективны в развитии критического мышления и информационной культуры студентов.

Ключевые слова: медиаобразование, медиакомпетентность, медиаграмотность, манипулятивное влияние, критическое мышление, СМИ, высшее образование.

DEVELOPMENT OF STUDENTS' MEDIA COMPETENCE ON THE BASIS OF CRITICAL ANALYSIS OF MANIPULATIVE INFLUENCES IN THE MEDIA

Nekboyev Khurshid Kholiyorovich

Acting Professor, PhD, Karshi State Technical University.

Abstract. The rapid development of the digital information space has significantly increased the influence of the media on the life of society, especially the worldview and thinking of young people. In the modern media environment, along with the increase in the flow of information, manipulative communication, fake information, and ideological influences are also widespread. In such conditions, the formation of media literacy and media competence in students is an urgent pedagogical task. The purpose of this study is to identify pedagogical opportunities for developing students' media competence based on a critical analysis of manipulative influences in the media.

The study used scientific and theoretical analysis, pedagogical observation, experimental work, and statistical evaluation methods. It was found that decoding media texts, identifying manipulation methods, and integrating media analysis methods into the educational process are effective in developing students' critical thinking and information culture.

Keywords: media education, media competence, media literacy, manipulative influence, critical thinking, media, higher education.

Kirish. XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi global axborot makonini shakllantirib, ommaviy axborot vositalarining jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini yanada kuchaytirdi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va multimedia platformalarining keng tarqalishi natijasida insonlar, ayniqsa talabalar, doimiy ravishda turli xil media axborotlar ta'siri ostida yashamoqda. Ushbu jarayon ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda ya'ni shaxsni axborotni tanqidiy qabul qiladigan, media mazmunni ongli tahlil qila oladigan va manipulyativ ta'sirlarga qarshi mustaqil pozitsiyaga ega bo'lgan shaxs sifatida shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda. [1,2].

Zamonaviy media makonida axborot faqat ma'lumot yetkazish vositasi bo'lib qolmay, balki ijtimoiy ongni shakllantirish, qarashlar va qadriyatlariga ta'sir ko'rsatish instrumentiga ham aylanmoqda. Ayrim hollarda ommaviy axborot vositalarida manipulyatsiya, yashirin reklama, stereotiplarni shakllantirish va soxta axborot tarqatish kabi holatlar kuzatilmoqda. Bu esa talabalarda media savodxonlik va media kompetensiyani rivojlantirish masalasini dolzarb pedagogik muammo sifatida ilgari suradi[3].

Media ta'lim zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u shaxsning axborot madaniyatini shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda media kommunikatsiya jarayonlarini anglashga xizmat qiladi. Media ta'lim jarayonida talabalar media matnlarni tahlil qilish, manipulyativ texnologiyalarni aniqlash va mustaqil media mahsulot yaratish ko'nikmalarini egallaydi [4].

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ommaviy axborot vositalaridagi manipulyativ ta'sirlarni tanqidiy tahlil qilish orqali talabalarning media kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini ilmiy asoslashdan iborat [5, 6].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ommaviy axborot vositalaridagi manipulyativ ta'sirlarni tanqidiy tahlil qilish asosida talabalarning media kompetentligini rivojlantirish jarayonini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi pedagogika, media ta'lim nazariyasi, kommunikatsiya va axborot savodxonligi konsepsiyalarining integratsiyasiga asoslandi.

Tadqiqotning metodologik asosi yani tadqiqotning nazariy-metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv talabalarda media kompetensiya va axborot madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan; konstruktivistik yondashuv bilimlarni mustaqil o'zlashtirish

va media mazmuni faol tahlil qilish jarayoniga asoslangan; media savodxonlik konsepsiyasi axborotni tanqidiy baholash va manipulyativ ta'sirlarni aniqlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi; tanqidiy pedagogika yondashuvi talabalarni passiv axborot iste'molchidan faol media tahlilchiga aylantirishni nazarda tutadi va ilmiy yondashuvlar tashkil etdi.


Tadqiqot dizayni tadqiqot aralash metodologik yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

Diagnostik bosqich Talabalarning media savodxonlik darajasi, axborotni idrok etish hamda manipulyativ media ta'sirlarni anglash ko'nikmalari dastlabki monitoring orqali aniqlandi.

Tajriba-sinov bosqichi Media ta'limga asoslangan pedagogik model o'quv jarayoniga joriy qilindi. Mashg'ulotlarda media matn tahlili, fake newsni aniqlash, multimedia texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot davomida media ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish orqali talabalarning media kompetentligini rivojlantirish samaradorligi tajriba-sinov ishlari asosida o'rganildi. Tajribada bakalavriat bosqichi talabalari ishtirok etdi hamda ular nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi.


Dastlabki diagnostika natijalari talabalar media axborotni asosan passiv qabul qilishini, manipulyativ ta'sirlarni aniqlash hamda media matnlarni tanqidiy baholash ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatdi. 1-diagramma. Tajriba oldi va tajriba yakuni natijalari



1-rasm. Media kompetensiya ko'rsatkichlari.

Diagrammada media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, media tahlil va axborot madaniyati ko'rsatkichlarining tajriba oldi va yakuniy bosqichdagi o'zgarishlari aks ettirilgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki media savodxonlik darajasi sezilarli oshdi, tanqidiy fikrlash kompetensiyasi barqaror rivojlandi, media matnlarni tahlil qilish qobiliyati yuqori bosqichga ko'tarildi, axborot madaniyati shakllanishi jadallashdi bu holat esa media ta'lim metodlarining pedagogik samaradorligini tasdiqlaydi.



2-rasm. Kompetensiyalar o'sish dinamikasi.

Mazkur diagramma tajriba natijasida kompetensiyalar o'sish foizini ifodalaydi. Natijalarga ko'ra

tanqidiy fikrlash ko‘rsatkichi eng yuqori o‘sishni namoyon etdi, media tahlil qilish ko‘nikmalari keskin rivojlandi, talabalar axborotni mustaqil baholashga o‘rgandi, mediakompetentlik kompleks ravishda shakllandi.

Olingan natijalar media ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish talabalarning kognitiv faolligini oshirishini ko‘rsatdi. Media matnlarni tanqidiy tahlil qilishga asoslangan mashg‘ulotlar talabalarni passiv axborot iste’molchidan faol media tahlilchiga aylantirdi.

Natijalar xalqaro tadqiqotlar media literacy va Media and Information Literacy (MIL) konsepsiyalari bilan mos keladi. Media ta’lim axborot manipulyatsiyasiga qarshi immunitetni kuchaytiradi, raqamli jamiyatda ongli axborot iste’molini shakllantiradi, talabalarning ijodiy va analitik fikrlashini rivojlantiradi. Shuningdek, tajriba natijalari mediata’limni oliy ta’lim modernizatsiyasining muhim pedagogik mexanizmi sifatida qo‘llash mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda ommaviy axborot vositalaridagi manipulyativ ta’sirlarni tanqidiy tahlil qilish asosida talabalarning media kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ilmiy jihatdan o‘rganildi. Raqamli axborot makonining kengayishi sharoitida shaxsning media savodxonligi va axborot madaniyatini shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri ekanligi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari media ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, media matnlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda manipulyativ axborot ta’siriga nisbatan ongli munosabatni kuchaytirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko‘rsatdi. Media ta’lim metodlari qo‘llanilgan tajriba guruhida media savodxonlik, axborotni tanqidiy baholash va mustaqil media faoliyat ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Tadqiqot natijalari asosida media ta’lim zamonaviy oliy ta’lim jarayonining muhim tarkibiy elementi hisoblanadi, manipulyativ media ta’sirlarni aniqlashga yo‘naltirilgan ta’lim metodlari talabalarning media kompetensiyasini kompleks rivojlantiradi, media matnlarni tanqidiy talqin qilish talabalarning axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi, interfaol va multimedia texnologiyalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli oshiradi kabi ilmiy xulosalarga kelindi.

Shuningdek, media ta’lim texnologiyalarini oliy ta’lim dasturlariga tizimli ravishda joriy etish bo‘lajak mutaxassislarning raqamli jamiyat sharoitida mustaqil, mas’uliyatli va tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Kelgusida media ta’limni fanlararo integratsiya asosida rivojlantirish, pedagoglarning media kompetensiyasini oshirish hamda manipulyativ axborotga qarshi pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish istiqbolli ilmiy yo‘nalish sifatida tavsifa etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Levin, I.; Mamlok, D. Culture and Society in the Digital Age. Information 2021, 12, 68. <https://doi.org/10.3390/info12020068>
2. Yulduz Asqar Qizi Hakimboyeva. «Zamonaviy media makonda internet va unda axborot almashinuvining o‘ziga xosligi» Scientific progress, vol. 2, no. 6, 2021, pp. 1362-1369.
3. Ciric, Marina. (2014). Development of Media Literacy – An Important Aspect of Modern Education. Procedia— Social and Behavioral Sciences. 149. doi.org/10.1016/j.sbspro.2014.08.284
4. Scharrer, E., & Zhou, Y. (2022, May 18). Media Literacy and Communication. Oxford Research Encyclopedia of Communication Retrieved 25 Feb. 2026, from 10.1093/acrefore/9780190228613.013.1304
5. Staneviciene, E.; Žekienė, G. The Use of Multimedia in the Teaching and Learning Process of Higher Education: A Systematic Review. Sustainability 2025, 17, 8859. <https://doi.org/10.3390/>

su17198859

6. Nekboyev X.X., Xaydarov T.Z. Zamonaviy axborot texnologiyalari va mediata'limda ularning ta'limiy hamda tarbiyaviy imkoniyatlari QarDU xabarleri Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal 2025 4(1)

7. Некбоев Х.Х. Mediata'limning mohiyati va asosiy tushunchalari Ta'lim, fan va innovatsiya. Toshkent.2024-№2 B.512-516. (ISSN 2181-8274).

8. Nekboyev Kh. Kh. Mechanizms of the influence of mass media on the development of personality under the conditions of media// European joutnal of Research and Reflection in Educational № 1, 2019. 53-55 pp.

9.Nekboyev Kh. Kh. Theoretical basics of professional-critical approach in organizing media education and pedagogical ACTIVITY “American Journal of Pedagogical and Educational Research” Vol. 13 (2023) , pp. 76-80

10. Некбоев Х.Х. Бўлажак ўқитувчиларда медиа таълим жараёнида коммуникатив сифатларини ривожлантириш// Муғаллим ҳам узлуксиз билимлендириш илмий-методикалык журнали. Нукус 2018 йил.

Nekboyev X.X. Theoretical Foundations OfThe Technology OfMedia Education “International journal of Advanced Science and Texnology” Vol. 29, No. 07, (2020), pp. 3349-3352

11. Некбоев Х. Электрон ахборот таълим муҳитида педагогларни касбий компетентлигини бошқаришнинг педагогик-психологик хусусиятлари “Malaka oshirish jarayonida ta'lim sifatini oshirishda innovation ta'lim texnologiyalaring o'rni: muammo va yechimlar” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami –Qarshi 2020. –B 125-129

12. Некбоев Х. Иккинчи даражали маълумотларни ўрганиш асосида педагогларнинг касбий-танқидий коммуникатив сифатларини такомиллаштириш “Malaka oshirish jarayonida ta'lim sifatini oshirishda innovation ta'lim texnologiyalaring o'rni: muammo va yechimlar” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami –Qarshi 2020. –B 129-131.

**UMUMIY TA'LIM MAKTABLARI BITIRUVCHILARINI TEXNIKA
YO'NALISHDAGI OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA TAYYORLASHNING
PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI**

Salaidinov Achil Meyliyevich

Qarshi davlat texnika universiteti, "Tabiiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada umumiy o'rta talim maktablari bitiruvchi sinf o'quvchilarida fizika fanidan amaliy mashg'ulot darslarini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Kelajakda bitiruvchilarining aksariyat qismi tabiiy va aniq hamda texnika fanlari yo'nalishlarini tanlaydilar. Shuning uchun hozirdanoq o'quvchilarni texnika oliy o'quv yurtlarida fizika fanini o'zlashtirishga tayyorlash zarurati va yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: fizikadan amaliy mashg'ulot darslarini tashkil etish, umumiy o'rta talim maktablari bitiruvchilari, fizikadan masalalarni tuzish yechish va jadval qiymatlari bilan taqqoslash.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ ВЫПУСКНИКОВ
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ К ВЫСШИМ УЧЕБНЫМ ЗАВЕДЕНИЯМ
ТЕХНИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ**

Салаидинов Ачил Мейлиевич

*Старший преподаватель кафедры естественных наук Каршского государственного
технического университета*

Аннотация: В статье освещены особенности организации практических занятий по физике для учащихся выпускных классов общеобразовательных средних школ. В дальнейшем большинство выпускников выбирают направления естественных и точных, а также технических наук. В связи с этим, указана необходимость и пути подготовки учащихся к освоению дисциплины физика в технических вузах начиная со школьной парты.

Ключевые слова: организовать практическое занятие по физике, выпускники общеобразовательных школ, составить задачи по физике решить и сравнить их результаты по таблице.

**PEDAGOGICAL FEATURES OF PREPARING GRADUATES OF GENERAL
EDUCATION SCHOOLS FOR HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN
TECHNICAL DIRECTIONS**

Salaidinov Achil Meyliyevich

*Senior lecturer of the Department of «Natural Sciences» of the Karshi State Technical
University*

Abstract: The article highlights the specifics of the organization of practical classes in physics for students of the final grades of secondary schools. In the future, most graduates choose the fields of natural and exact sciences, as well as technical sciences. In this regard, the necessity and ways of preparing students for mastering the discipline of physics in technical universities, starting from the school desk, are indicated.

Keywords: to organize a practical lesson in physics, graduates of secondary schools, make up physics problems, solve them and compare their results according to the table.

Kirish. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining bitiruvchilari texnika oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirish uchun fizika fanidan test topshiriqlarini bajarishlari (yoki fizikadan milliy sertifikat olishlari) zarur. Shu sababli, umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika fanidan amaliy

mashg'ulotlarni rejalashtirishda tanlanadigan fizikaviy masalalar texnika oliy o'quv yurtlariga kirish uchun bajariladigan test topshiriqlarining murakkablik darajasiga mos bo'lishi lozim.

Universitetga kirishga qadar bo'lgan o'qitish "umumiy o'rta ta'lim maktablari – universitet" tizimida uzluksizlikni amalga oshirish, abituriyentlarni universitetda o'qish sharoitlariga moslashtirish hamda ularni texnika universitetlari tomonidan taklif etilayotgan mutaxassisliklar va o'qitish yo'nalishlarining keng doirasiga kasbiy yo'naltirish imkoniyati sifatida muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Fizikadan egallangan bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olish – bu bilimlar mustahkamligining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, o'quv materialini mazmunan tushunib o'zlashtirish va egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakasini shakllanganligining natijasi hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim tizimida fizika fanini o'rganishga ajratilgan soatlarning qisqarishi bunday natijalarga erishish uchun bitiruvchilarga maxsus yoki qo'shimcha ta'lim berish zaruriyatini ko'rsatadi [1].

Axborotlashgan jamiyatda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida umumta'lim fanlaridan, jumladan, fizika ta'limidan o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan zarur bilim, malaka va ko'nikmalardan iborat komponentli yondashuvdan voz kechib, o'quv materiali (muammo) bilan tanishish, modellashtirish (umumlashtirish), o'zlashtirish va uni yecha olishga asoslangan bilishga tayanish hayotning o'zi talab qilmoqda. Shuningdek, agar o'quv materiali (muammo) bilan tanishish, modellashtirish (umumlashtirish), o'zlashtirish va uni yecha olish fizika ta'limining bir bo'limi bilan boshqa bo'limini bog'lashni talab etsa, masalan, mexanika qonunlarini elektr yoki magnit maydonida harakatlanayotgan zaryadlangan zarra harakatini hisoblashda elektrodinamika bo'limida qo'llash talab qilinsa, o'quvchilarning mustaqil va samarali fikrlash qobiliyatlari o'quv masalalari bilan chambarchas bog'liq. Bunday masalalarni yechish jarayoni o'quvchilardan mustaqil izlanish, masala shartini muhokama qilish va isbotlashni talab etadigan muhim aqliy faoliyatni o'z ichiga oladi.

Agar aniq va tabiiy fanlardan masalalar yechishning yuqoridagi algoritmi o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda shakllantirilgan bo'lsa, umumiy fizikaning har bir bo'limi bo'yicha masalalarni tuzish ancha oson kechadi. Afsuski, quyi kurs talabalarida ushbu algoritm yetarli darajada shakllanmaganligi umumiy fizikadan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Fizikaning turli bo'limlaridan fizik qonunlarni qo'llash talab etiladigan masalalarga asosan o'quv materialini takrorlash, o'quvchilar bilimlarini chuqurlashtirish va ularning mustaqil erkin fikrlashini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, mexanik hodisalarni o'rganishda ta'riflangan tushunchalardan issiqlik, elektr, magnit va yorug'lik hodisalarini o'rganishda foydalanish natijasida ushbu tushunchalarning mazmuni kengayib boradi. Shunday qilib, fizikaning bir bo'limida o'rganilgan bilimlarni boshqa bo'limlarida o'rganiladigan hodisalarni tahlil etishda qo'llash o'quvchilarga fizik tushuncha va qonunlarning umumiylikini ko'rsatadi [2].

D. Poy "Kak reshat zadachu" nomli kitobida: "Masala yechish – bu san'atdir. Masala yechishni o'rganishda siz boshqalar bu ishni qanday bajarayotganini kuzatishingiz, taqlid qilishingiz va nihoyat mashq qilish orqali bu san'atni egallaysiz", – degan edi.

Fizikadan masala yechishni o'rganishga oid adabiyotlar ko'p. Ko'p hollarda biz masalani doskada yechib ko'rsatamiz, bunda o'quvchilar faqat eshituvchi va kuzatuvchi bo'lib qoladilar. Biz boshqa usulni taklif etamiz. Bu usul yunon faylasufi Sokratga tegishli bo'lib, u suhbatdoshini savol-javobga jalb etgan holda fikrlashga o'rgatgan. Biz ushbu usullarni ijodiy rivojlantirib, uning asosida maqsadga qarab borish yo'lini ko'rsatmoqchimiz. Holatni tushunish uchun misol keltiramiz. Bir necha tovuqingiz bor. Agar ularni o'zi turgan katakdan ilgari hech chiqarmagan bo'lsangiz, ular chiqib kirishni hali bilmaydilar. Katakdan birinchi marta chiqqan tovuqlarni katakka kiritish uchun ularni har tomondan qisib, katak tomonga haydab borasiz. Tovuuqlar katak eshigini ko'rgach, ichkariga kirishadi. Shu usulda tovuqlarni birinchi marta uyiga kiritishga o'rgatasiz. Fizikadan masala yechishni ham xuddi shu tarzda savol-javob orqali maqsad sari

“qisib” borish bilan o‘rgatish mumkin.


O‘qituvchi savollar berish orqali o‘quvchini masalani tushunishga, shart va talabni ajratishga, yechimga qarab borishga o‘rgatadi. Beriladigan savollar ularni doimo ijodiy fikrlashga, o‘z g‘oyasini isbotlash va himoya qilishga majbur etadi. O‘quvchi masala yechimiga asta-sekin, lekin mustaqil ravishda borsin. Buning uchun o‘qituvchi bosqichma-bosqich ketma-ket savollar berib, talabalarni ziddiyatlarni ochishga undaydigan suhbat tashkil etadi. Tabiiyki, savollar oldin olingan nazariy bilimlarga asoslanib, amaliyotga qo‘llashga yo‘naltiradi. Ayrim masalalarni nostandart usul bilan oson yechish mumkin. Quyida aynan bir masalani bir-biriga o‘xshamaydigan ikki usulda yechishni ko‘rib chiqamiz [3].

Masala. Uzunligi 1 metr bo‘lgan tayoqcha yerda yotibdi. Tayoqchani bir uchini o‘zgarmas tezlik bilan vertikal yuqoriga ko‘tara boshlandi. Yuqori uchi balandlikda bo‘lgan vaqt momentida pastki uchi yerda qanday tezlik bilan sirpanadi?

1-usul. Avval umumiy o‘rta ta‘lim maktabi fizika darsliklaridagi nazariy ma‘lumotlarga tayanib yechish usulini ko‘raylik.

Yechish: O‘qituvchi masalani yechishni, kuzatib turgan holda o‘quvchilarga qo‘yib beradi. O‘quvchilar yechishga kirisha olmasa o‘qituvchi yo‘naltiruvchi savollar beradi.

1.Savol: 1-savol: Masala shartiga mos chizma chizing va masalani yeching. O‘quvchilar masala shartidan kelib chiqib chizma chizadilar [4].



1-rasm

Savollar oddiydan murakkabga tomon tamoyiliga asoslanadi.

2.Savol. nuqta qanday tezlik bilan nuqtadan uzoqlashadi?. Albatta ushbu savolga o‘quvchilarning ko‘pchiligi javob bera olmasligi mumkin, shunda o‘qituvchi tomonidan umumiy o‘rta ta‘lim maktablari geometriya kursidan ma‘lum bo‘lgan burchak sinusini aniqlash qoidasi eslatiladi va ushbu tenglikni (1) yoziladi.

3.Savol. Shu vaqt momentida nuqta qanday tezlik bilan nuqtaga yaqinlashadi?. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib o‘quvchilar (2) ni yozadilar.


4.Savol. Shu vaqt momentida burchakni qanday aniqlanadi?. O‘qituvchi tomonidan Pifagor teoremasidan foydalanib chizmada ko‘rinib turgan ning qiymatini topish tushuntiriladi va ga tengligi eslatiladi.

ekanini bilgan holda o‘qituvchi tomonidan (1) va (2) tengliklarni bir-biriga bo‘lib ni aniqlash taklifi beriladi.

O‘quvchilarning munosabatidan hisoblab topadilar.

2-usul. Ikkinchi usul noan’anaviy (ya’ni bu usul haqida umumiy o‘rta ta‘lim darsliklarida

ma'lumotlar keltirilmagan) usul bo'lib uni "Oniy aylanish o'q usuli" deb ataladi. Dastlab oniy aylanish o'qi usulining mazmuni o'quvchilarga tushuntiriladi. Bu usuldan qandaydir o'q atrofida aylanma harakt qilayotgan qattiq jism turli nuqtalarining chiziqli tezliklarini aniqlashda foydalanish mumkin. Xususan ushbu masaladagi uzunligi bir metr bo'lgan tayoqchanning A uchi yuqoriga ko'tarilayotganda tayoqchanning barcha nuqtalari tayoqchadan tashqarida joylashgan qandaydir oniy aylanish o'qi atrofida turli chiziqli tezliklar bilan aylanayotgan bo'ladi.



2-rasm

Bizga ma'lumki qattiq jismni harakati vaqtida istalgan ikki nuqtasi orasidagi masofa o'zgarib qoladi. Oniy aylanish o'qini topish uchun tayoqchanning A va B nuqtalaridagi chiziqli tezlik yo'nalishlariga (aylanaga o'tkazilgan urinmalarga) perpendikulyar o'tkaziladi, perpendikulyarlarning kesishgan nuqtasi esa oniy aylanish o'qi bo'ladi (2-rasm).

Yechish: Dastlab masala mazmuni va "oniy aylanish o'qi usuli"ga muvofiq chizma chiziladi. O'qituvchi tomonidan masalani yechish uchun o'quvchilarga quyidagicha savollar berib boriladi.

1-savol. Qattiq jism aylanma harakat qilayotganda uning turli nuqtalarining burchak tezliklari qanday bo'ladi? Agar bu savolga o'quvchilar javob bera olmasalar o'qituvchi qattiq jismning barcha nuqtalari oniy aylanish o'qiga nisbatan bir xil burchakli tezlikka ega bo'lishini tushuntiradi.

2-savol. Aylanma harakat qilayotgan qattiq jismning turli nuqtalarining chiziqli tezliklari qanday aniqlanadi? Bu savolga o'quvchilar "Aylana bo'ylab tekis harakatda chiziqli tezlik" mavzusiga tayangan holda javob bera oladilar. Ya'ni aylananing turli nuqtalari chiziqli tezliklarining qiymati turlicha va har bir nuqtaga o'tkazilgan urunma bo'ylab yo'nalgan bo'ladi.

3-savol. A va B nuqtalar chizadigan aylanalarning radiuslarini qanday aniqlanadi? "To'g'ri burchakli uchburchak xossalari" mavzusidan foydalansak A va B nuqtalarning C nuqtaga nisbatan uzoqligini ya'ni AC va BC masofalarni yoki A va B nuqtalar chizadigan aylanalarning radiuslarini aniqlaymiz. 2-rasmdan foydalansak, va ekani kelib chiqadi.

4-savol. B nuqtaning chiziqli tezligi ni qanday aniqlanadi? O'qituvchi yuqoridagi mulohazalarga asosan doskaga (1) va (2) ifodalarni yozadi. Ushbu tengliklarni nisbatlasak va masala shartida berilgan larni hamda 1-usul yechimini e'tiborga olsak kelib chiqadi.

Ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlarini ob'yektiv baholash hozirgi davrda standartlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi. Shuning uchun fizika ta'limining har bir mavzusini o'rganish bo'yicha namoyish tajribalari, laboratoriya ishlari va o'quv mashg'ulotlarning boshqa ko'rinishlari xuddi shuningdek masalalar yechishni aniq rejalashtirilish lozim. Ular muayyan tizimni tashkil qilib

tanlangan metodikaga muvofiq ravishda ta'limning aniq maqsadlariga javob berishi lozim.

Xulosa. Fizika ta'limi dasturi bo'yicha darsga tayyorgarlik ko'radigan o'qituvchi eng avvalo masalalar yordamida qanday savollarni o'rganish mumkin ekanligiga aniqlik kiritib olishi lozim. Shunga muvofiq ravishda masalalar tanlaniladi hamda ularning yechish ketma ketligi yuqorida ko'rganimizdek aniqlanadi. Tanlangan masalalar tizimi qator talablarni qoniqtirishi kerak. Masalada tavsiflanadigan hodisa va jarayonlarni tavsiflaydigan, tushuncha va kattaliklar o'rtasida bog'liklarni asta-sekin murakkablashib borishi asosiy didaktik talab hisoblanadi.

Biz fizikadan masalalar yechishni o'rgatishda maqsadga qarab ketma-ket savol berish va bosqichma-bosqich bajarish usulidan foydalansak quyidagi natijalarga erishishimiz mumkin:

1. Ta'lim jarayonining samaradorligi ortishiga.
2. O'qituvchi masala yechish jarayonini to'la nazorat qilishi va boshqarishiga.
3. O'quvchilarning individual xususiyatlarini namoyon bo'lishiga hamda ijodiy izlanuvchanligini shakillanishiga yordam berishiga.
4. Mashg'ulot jarayonida o'quvchi masalani yechimini ko'chiruvchi emas, faol yechuvchi, o'rganuvchi bo'lishiga.

O'qituvchi yuqoridagi ishlarni bajargandan so'ng shu masalalarga o'xshash masalani mustaqil yechishga beradi va jarayonni kuzatib turadi.

Adabiyotlar:

1. Mirzayev M.SH. Fizika.–Qarshi, «ILM-FAN-MA'NAVIYAT» nashriyoti, 2025y.
2. Chertov A., Vorobyev A. Fizikadan masalalar to'plami.–T., O'zbekiston, 1997.
3. Rimkevich A.R. Fizikadan masalalar to'plami.–Toshkent, O'qituvchi, 2020.
4. Черноуцан А.И. Физика. Задачи с ответами и решениями.–Москва, «Книжный дом», 2011.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA KOMMUNIKATIV IJODKORLIKNI TARBIYALASH TIZIMINING FUNKSIONAL PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

Ergashev Nuriddin G‘ayratovich
Qarshi davlat texnika universiteti professori
<https://orcid.org/0000-0002-8274-6193>

Usmonova E‘zozxon Faxriddin qizi,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak pedagoglarda kommunikativ kreativlikni rivojlantirish tizimining samarali faoliyat yuritishini ta‘minlaydigan pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Pedagogik shart-sharoitlarning falsafiy va pedagogik talqini ko‘rib chiqilib, ularning pedagogik jarayondagi o‘rni hamda tasnifi yoritiladi. Tadqiqotda tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar alohida tahlil qilinib, pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida fakultativ mashg‘ulotlardan foydalanish imkoniyatlari asoslab beriladi. Bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kreativligini rivojlantirish vositasi sifatida “Adabiy fentezi” nomli fakultativ kurs mazmuni, maqsadi, tamoyillari hamda metodik tuzilishi tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar: pedagogik shart-sharoitlar, kommunikativ kreativlik, bo‘lajak pedagoglar, pedagogik tizim, tashkiliy-pedagogik shartlar, fakultativ mashg‘ulot, adabiy fentezi, kreativ fikrlash, verbal ijodkorlik, pedagogik jarayon, ijodiy faoliyat, ta‘lim jarayoni.

ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ СИСТЕМЫ ВОСПИТАНИЯ КОММУНИКАТИВНОГО ТВОРЧЕСТВА У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. В статье анализируются педагогические условия, обеспечивающие эффективное функционирование системы развития коммуникативного творчества у будущих учителей. Рассматривается философско-педагогическая интерпретация педагогических условий, освещается их роль и классификация в педагогическом процессе. Отдельно анализируются организационно-педагогические условия и обосновываются возможности использования факультативных курсов в педагогических высших учебных заведениях. Описываются содержание, цель, принципы и методическая структура факультативного курса «Литературная фантазия» как средства развития коммуникативного творчества у будущих учителей.

Ключевые слова: педагогические условия, коммуникативное творчество, будущие учителя, педагогическая система, организационно-педагогические условия, факультативная деятельность, литературная фантазия, творческое мышление, вербальное творчество, педагогический процесс, творческая деятельность, образовательный процесс.

FUNCTIONAL PEDAGOGICAL CONDITIONS OF THE SYSTEM OF EDUCATION OF COMMUNICATIVE CREATIVITY IN FUTURE TEACHERS

Abstract. The article analyzes the pedagogical conditions that ensure the effective functioning of the system of development of communicative creativity in future teachers. The

philosophical and pedagogical interpretation of pedagogical conditions is considered, their role and classification in the pedagogical process are highlighted. The study separately analyzes organizational and pedagogical conditions and justifies the possibilities of using optional classes in pedagogical higher educational institutions. The content, purpose, principles and methodological structure of the optional course «Literary Fantasy» as a means of developing communicative creativity in future teachers are described.

Keywords: pedagogical conditions, communicative creativity, future teachers, pedagogical system, organizational and pedagogical conditions, optional activity, literary fantasy, creative thinking, verbal creativity, pedagogical process, creative activity, educational process.

Kirish. Biz ishlab chiqqan tizimning samarali ishlashini ta'minlaydigan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash jarayonida shundan kelib chiqdikki, bunday shartlar tizimga real sharoitlarga moslashish imkonini beradi, uning faoliyatidagi muammoli jihatlarni yumshatadi hamda shu orqali tizimning mavjud bo'lishi, samarali faoliyat yuritishi va unga yuklatilgan vazifalarni bajarishiga yordam beradi.

Falsafiy nuqtayi nazardan, shart — bu “biror boshqa narsaning mavjudligi unga bog‘liq bo‘lgan omil; obyektlar majmuasining (narsalar, ularning holati va o‘zaro ta’siri) muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning mavjudligi ushbu hodisaning zaruriy ravishda mavjud bo‘lishini taqozo etadi” deb talqin qilinadi. Bizning fikrimizcha, bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, muayyan hodisa uchun zarur bo‘lgan shartlar uning mavjud bo‘lish muhiti, rivojlanish va faoliyat yuritish imkoniyatlarini tashkil etadi.

Pedagogika fanlari nuqtayi nazaridan esa, shart — bu shaxs shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan tabiiy, ijtimoiy, tashqi va ichki omillarning o‘zgaruvchan majmui hisoblanadi [1]. Shu bilan birga, shart pedagogik hodisaning mavjud bo‘lishini ta'minlaydigan, uni tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkin bo‘lgan sabab va holatlar yig‘indisi sifatida ham talqin etiladi [2].

Shartlarning mohiyatini tahlil qilish ularni turli mezonlar asosida tasniflash imkonini beradi: ta’sir ko‘rsatish sohasi bo‘yicha, ta’sir xususiyati bo‘yicha hamda ta’sir obyekti xususiyatlari bo‘yicha. Shu asosda biz aniqlayotgan pedagogik shart-sharoitlar ta’sir sohasi nuqtayi nazaridan ichki, ta’sir xususiyatiga ko‘ra obyektiv, ta’sir obyekti nuqtayi nazaridan esa maxsus bo‘lishi kerak, deb hisoblaymiz. Bunday yondashuv kelajak pedagoglarining kommunikativ kreativligini rivojlantirishga qaratilgan tarbiya tizimining faoliyatini ta'minlaydigan zarur xususiyatlarni hisobga olish va u bilan bog‘liq sharoitlarni ilmiy asosda aniqlashtirish imkonini beradi.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Ishlab chiqilgan tizimning o‘ziga xosligi pedagogik xarakterga ega bo‘lganligi sababli, unga taalluqli shart-sharoitlar ham pedagogik shartlar sifatida namoyon bo‘ladi va shu bois ular o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim. N.M. Yakovleva [4], N.V. Ippolitova [5], A.Ya. Nayn [6], N.V. Uvarina [7] larning tadqiqotlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, pedagogik shart-sharoitlarga quyidagi xususiyatlar xosdir:

- a) ular yaxlit pedagogik jarayon bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi;
- b) ta’lim hamda moddiy-texnik muhit imkoniyatlarini aks ettiradi;
- c) tizimning ham ichki, ham tashqi elementlariga ta’sir ko‘rsatadi;
- d) pedagogik tizimning samaradorligiga ta’sir qiladi.

Shunday qilib, ushbu tadqiqotimizda pedagogik shart-sharoitlar deganda pedagogik

tizimning faoliyat yuritishi va rivojlanishini ta'minlaydigan, ta'limiy hamda moddiy-texnik fazoviy muhitning imkoniyatlari majmuasini aks ettiradigan hamda ta'lim jarayoni subyektlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan tashkil etilgan omillar tushuniladi.

Pedagogik shart-sharoitlar majmuasini loyihalash jarayonini biz tasnifiy guruhlariga [8] asoslanib amalga oshiramiz. Zamonaviy pedagogika nazariyasi va amaliyotida tashkiliy-pedagogik, psixologik-pedagogik hamda didaktik shartlar guruhlari ajratib ko'rsatiladi. Har bir shartlar guruhi pedagogik tizimga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar ta'limiy vazifalarni samarali hal etishga xizmat qiladigan hamda pedagogik jarayonning rivojlanishi va faoliyat yuritishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan imkoniyatlar majmuasini ifodalaydi. Bir qator tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, ushbu shartlar guruhi ta'lim jarayonini boshqarish bilan bog'liq bo'lib, pedagogik faoliyat mazmuni, metodlari va shakllarini rejalashtirilgan tarzda tanlashni, shuningdek, boshqarilayotgan tizimning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik maqsadlarga erishish uchun maxsus pedagogik choralarni qo'llashni o'z ichiga oladi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Bizning dissertatsiya tadqiqotimizda tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar guruhi kelajak pedagoglarni (pedagogika bakalavrlarini) tayyorlash jarayonidagi pedagogik jarayonni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari, o'quv rejasining bazaviy va variativ qismlari imkoniyatlarini hisobga olgan holda aks ettirishi lozim.

Ta'lim standartlari o'quv rejasining bazaviy qismiga kiruvchi fanlar ro'yxatini aniq belgilab beradi va uni o'zgartirish imkoniyatini istisno qiladi. Variativ qismdagi o'zgarishlar esa ta'lim tashkilotining boshqaruv organi tomonidan yiliga ko'pi bilan bir marta tasdiqlanishi mumkin. Bu holat kelajak pedagoglarning kommunikativ kreativligini tarbiyalash tizimining faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan tashkiliy-pedagogik imkoniyatlarni izlashda moslashuvchan yondashuvni qo'llashga ma'lum darajada to'sqinlik qiladi.

Shu bilan birga, o'quv jarayonining fakultativ qismi ta'lim jarayonining o'quv va tarbiyaviy funksiyalarini uyg'unlashtirish, ya'ni ham o'qitish, ham tarbiyalash vazifalarini birgalikda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan muhim pedagogik resurs hisoblanadi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasasining ta'lim jarayonida fakultativ mashg'ulotlar imkoniyatlaridan foydalanish masalasi bir qator zamonaviy dissertatsiya tadqiqotlarida o'rganilgan. Jumladan, N.S. Bezzubenko o'z dissertatsiyasida fakultativ mashg'ulotlar talabalarda faol bilish faoliyati va ijodiy tafakkurni shakllantirish bilan bir qatorda bo'lajak pedagoglar shaxsini tarbiyalashga ham xizmat qilishini ta'kidlaydi. Fakultativ mashg'ulotlar mazmuni axborot texnologiyalarini qo'llash orqali yanada boyitiladi.

V.V. Malev ham shunga o'xshash fikrni ilgari surib, fakultativ mashg'ulotlarning metodik ta'minoti sifatida ma'ruzalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, taqdimotlar, videofilmlar, laboratoriya ishlari, mediakutubxona, o'quv-uslubiy veb-sayt hamda o'quv kurslarini qo'llab-quvvatlovchi dasturiy vositalarni ishlab chiqish mumkinligini ta'kidlaydi. I.M. Gorbatkina tadqiqotida esa oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni psixologik-pedagogik tayyorlash jarayonida ta'limning variativlik tamoyilini hisobga olish muhimligi qayd etiladi.

O'qituvchining kasbiy tayyorgarligining psixologik-pedagogik qismi variativ ta'limga nisbatan motivatsion-qadriyatli munosabatni shakllantirish hamda ijtimoiy-pedagogik vaziyatni to'g'ri anglash va unga mos ravishda faoliyat yurita olish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

S.V. Danilova dissertatsiyasida esa birinchi kurs talabalari o'rtasida tolerantlikni shakllantirishga qaratilgan qo'shimcha kurs doirasida maxsus pedagogik texnologiyani qo'llash imkoniyatiga alohida e'tibor qaratiladi. Mazkur texnologiyaning asosi o'yinli modellashtirish va ijtimoiy o'zaro ta'sir usullarini uyg'unlashtirish g'oyasiga tayanadi. Bu g'oya bizning tadqiqotimiz uchun ham muhim ahamiyatga ega, chunki o'yin texnologiyalari, metod va usullar tarbiyaviy jarayonda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi hamda kommunikativ kreativlikni uning ijtimoiy ahamiyati va pedagogik maqsadga muvofiqligi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish imkonini beradi.

Shunday qilib, oliy ta'lim muassasasida fakultativ mashg'ulotlar o'quv jarayonini tashkil etishning qo'shimcha shakli bo'lib, u talabalar uchun majburiy hisoblanmaydi va kasbiy faoliyatning muayyan jihatini qo'shimcha hamda chuqurroq o'zlashtirishga qaratilgan.

Oliy ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarning o'ziga xos jihatlarini hamda kommunikativ kreativlikni tarbiyalash tizimining xususiyatlarini tahlil qilish asosida shunday xulosaga kelamizki, ishlab chiqilgan tizimimizning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash uchun pedagogika oliy ta'lim muassasasining ta'lim jarayoniga kreativlikni, xususan kommunikativ kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan fakultativ mashg'ulotni kiritish zarur. Bunday fakultativni tashkil etishning asosiy tamoyili talabaning tasavvuriga tayangan holda, fantaziya va ijodiy fikrni erkin ifoda etish imkoniyatini yaratishdan iborat bo'lishi lozim. Biz ushbu fakultativni "Adabiy fentezi" deb nomladik.

Fentezi zamonaviy adabiy ijodning mashhur janrlaridan biri bo'lib, u o'ziga xos ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida shakllangan. Ushbu janrning rivojlanish tarixi ham diqqatga sazovor: fentezining shakllanishi va taraqqiyoti uning adabiy janrlar tizimiga faol kirib kelganini hamda qisqa vaqt ichida keng ommalashganini ko'rsatadi. Janrning tarixiy-madaniy ildizlari XVII asrga borib taqaladi. Aynan shu davrda Migel de Servantes Saavedra "Don Kixot" (1615) romanini e'lon qilgan bo'lib, unda Qayg'uli siymo ritsari amalga oshirgan jasoratlar muallif tomonidan fantaziya bo'y badiiy tasvir shaklida, o'rta asr fantastik ishoralari va chuqur individual psixologizm bilan uyg'un holda tasvirlangan.

Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, adabiy fentezi aslida ertak, fantastika va sarguzasht romani unsurlarining o'ziga xos uyg'unlashuvi natijasida yaratilgan yagona badiiy voqelikdir. Shu sababli ushbu janrni o'zlashtirish uchun avvalo sanab o'tilgan janrlarning qonuniyatlarini aniq tushunib olish zarur. Bunday bilimlarning muhim manbai sifatida esa sehrli ertaklar xizmat qiladi.

Ertak - bu xalq orasida og'zaki shaklda mavjud bo'lgan, asosan ko'ngil ochish maqsadida aytiladigan hikoya bo'lib, uning mazmunini kundalik hayot nuqtayi nazaridan g'ayrioddiy voqealar tashkil etadi [8]. Sehrli ertak aniq kompozitsion tuzilishga ega: ekspozitsiya, tugun (voqealarning boshlanishi), syujet rivoji, kulminatsiya va yechim. Sehrli ertak syujetining asosida odatda qahramonning qiyinchilikni, yo'qotishni, adolatsizlikni yoki yetishmovchilikni mo'jizaviy yordamchi vositalar yordamida yengib o'tishi haqidagi hikoya yotadi.

Voqealarning markazida bosh qahramon turadi; u yo'qolgan yoki yetishmayotgan narsani topishga harakat qiladi. Ertakning kulminatsiyasi odatda qahramonning qarama-qarshi kuch bilan to'qnashuvi, odatiy qoidalarning buzilishi, ruxsat etilgan xulq-atvor chegaralaridan chiqish, topqirlik ko'rsatish, jumboqlarni yechish, yashirin vositalarni (masalan, sehrli so'zlar yoki duolarni) egallash va shu kurashda g'alaba qozonish bilan bog'liq bo'ladi. Yechim esa ko'pincha qahramonning yanada yuqori ijtimoiy maqomga erishishi bilan yakunlanadi.

Shu bilan birga, ertak qahramoni o'ziga xos vositachi (mediator) sifatida namoyon bo'ladi: u voqealar va vaziyatlarni yangi sharoitlarga aylantira oladi, hayvon yoki boshqa odam qiyofasiga kirishi, ko'rinmas bo'lishi kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi. Ertak yaratish esa janrning tuzilishiga qat'iy rioya qilishni, matnni mos leksik vositalar bilan boyitishni, qahramonning psixologik rivojlanish chizig'ini olib borishni hamda matnga emotsional rang berishni talab qiladi.

Demak, ertak yaratish san'atini o'rganish zarur. Biz ishlab chiqqan fakultativ kursning bo'limlaridan biri aynan shu maqsadga qaratilgan.

Shunday qilib, "Adabiy fentezi" fakultativ kursini loyihalashda biz quyidagi asosiy tamoyillardan kelib chiqamiz:

1. tarixiy va kundalik tajribani virtual tarzda talqin qilishga tayanish;
2. ertak syujetini tuzilmaviy jihatdan shakllantirishni o'rgatish;
3. **fantastik taxmin (fantastik faraz)**ni yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish;
4. qiziqarli va noodatiy syujet chiziqlarini yaratishni rag'batlantirish.

Fakultativ kurs dasturi bir necha mavzuli bo'limlardan iborat bo'lib, ularning har biri quyidagi majburiy ish bosqichlarini o'z ichiga oladi:

1. adabiy asarni tashkillashtirilgan holda idrok etish;
2. didaktik vazifani qo'yish;
3. janrni loyihalashning nazariy asoslari bilan tanishish;
4. "qalam sinovi" - bo'lajak pedagoglarning adabiy asar yaratish bo'yicha ijodiy faoliyati;
5. talabalarning individual ijodiy ish natijalarini tashkillashtirilgan tarzda muhokama qilish va almashish;
6. ijodiy faoliyat usullarini takomillashtirishga qaratilgan yangi vazifalarni belgilash.

"Adabiy fentezi" fakultativ kursining maqsadi - bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy o'zaro ta'sirga nisbatan kreativ munosabatni shakllantirish hamda verbal ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdan iborat.

O'qitish shakllari: tadqiqot darsi, mustaqil ijodiy faoliyat, individual maslahat.

O'qitish metodlari: evristik, tadqiqotga asoslangan, illyustrativ metodlar, ijodiy o'qish, bahs-munozara, insho yozish.


O'qitish vositalari: badiiy adabiyotlar to'plami, badiiy asarlarning vizuallashtirilgan videomateriallari (badiiy filmlardan parchalar), mashhur rassomlarning (masalan, Salvador Dali) illyustratsiyalari.

Fakultativ mashg'ulotlar mavzusi to'rtta asosiy bo'limdan iborat bo'lib, har bir bo'lim uchun o'quv rejasining imkoniyatlariga qarab 6–8 soat ajratiladi:

1. Miflar va afsonalar.
2. Dunyo xalqlarining sehrli ertaklari.
3. Garri Potter fenomeni.
4. Noreal voqelik - "Uchinchi sayyora siri".

Mazkur bo'limlar mavzularining tanlanishi tasodifiy emas. Birinchidan, bu janrni tarixiy nuqtayi nazardan o'rganish zarurati bilan izohlanadi, chunki miflar va afsonalar fentezi janrining dastlabki shakllari sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, fentezi janrining tuzilishi sehrli ertaklar misolida aniq va tushunarli tarzda o'rganiladi. Uchinchidan, janr xorijiy ("Garri Potter") va milliy ("Uchinchi sayyora siri") tajriba asosida bolalar uchun mo'ljallangan yirik asarlar misolida tahlil qilinadi.

Har bir bo'limni amalga oshirish jarayoni, yuqorida qayd etilganidek, oltita asosiy bosqichdan iborat bo'lgan ta'lim faoliyati orqali tashkil etiladi (1-rasm).



1-rasm. "Adabiy fantaziya" tanlov kursida ish bosqichlari

Shunday qilib, "Adabiy fentezi" fakultativ kursini o'tkazish bo'lajak pedagoglarda kommunikativ kreativlikni tarbiyalash tizimining samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydigan tashkiliy-pedagogik shartlardan biri hisoblanadi.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tadqiqot natijalari pedagogik shart-sharoitlar pedagogik tizimning samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydigan muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, kommunikativ kreativlikni rivojlantirish tizimi samaradorligini oshirishda tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar alohida ahamiyatga ega. Oliy ta'lim muassasalarida fakultativ mashg'ulotlarni tashkil etish pedagogik jarayonni boyitish, talabalarning ijodiy faoliyatini rag'batlantirish hamda ularning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, "Adabiy fentezi" fakultativ kursini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlash, tasavvur, verbal ijodkorlik va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali tashkiliy-pedagogik shart sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur kursning mazmuni va metodik tuzilishi talabalarning ijodiy faoliyatini faollashtirishga, fantaziya asosida yangi syujetlar yaratish ko'nikmalarini shakllantirishga hamda ularning ijtimoiy-muloqot madaniyatini rivojlantirishga imkon beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Полонский, В. М. Словарь по образованию и педагогике / В. М. Полонский. — М. : Высшая школа, 2004. - 512 с.
2. Педагогический энциклопедический словарь / гл. ред. Б. М. Бим-Бад. — М. : Большая Российская энциклопедия, 2002. - 528 с.
3. Бабанский, Ю. К. Избранные педагогические труды / Ю. К. Бабанский; сост. М. Ю. Бабанский. — М. : Педагогика, 1989. - 560 с.
4. Яковлева, Н. М. Теория и практика подготовки будущего учителя к творческому решению воспитательных задач : дис. ... д-ра пед. наук : 13.00.08 / Н. М. Яковлева. — Челябинск, 1992. - 403 с.
5. Ипполитова, Н. В. Анализ понятия «педагогические условия»: сущность, классификация / Н. В. Ипполитова // General and Professional Education. — 2012. — № 1. - С. 8-14.
6. Найн, А. Я. Развитие эмпатической культуры студента в условиях гуманно-ориентированного образования / А. Я. Найн, И. А. Шондина // Сибирский педагогический журнал. - 2011. - № 9. - С. 112–121.
7. Уварина, Н. В. Актуализация творческого потенциала младших школьников в образовательном процессе : монография / Н. В. Уварина. — Челябинск : Изд-во «Взгляд», 2007. - 298 с.
8. Сверчков, А. В. Организационно-педагогические условия формирования профессионально-педагогической культуры будущих спортивных педагогов / А. В. Сверчков // Молодой ученый. - 2009. - № 4. - С. 279–282.
9. Куприянов, Б. В. Современные подходы к определению сущности категории «педагогические условия» / Б. В. Куприянов, С. А. Дынина // Вестник Костромского государственного университета им. Н. А. Некрасова. — 2001. - № 2. - С. 101-104.
10. Беззубенко, Н. С. Использование информационных технологий как фактора активизации познавательной деятельности студентов: на примере филологического факультета педвуза : дис. ... канд. пед. наук : 13.00.08, 13.00.02 / Н. С. Беззубенко. - Тула, 2006. - 206 с.
11. Малев, В. В. Проектирование содержания и методики подготовки студентов педагогического вуза к использованию средств информационных технологий в профессиональной деятельности : дис. ... канд. пед. наук : 13.00.02, 13.00.08 / В. В. Малев. - Воронеж, 2000. - 204 с.
12. Горбаткина, И. М. Формирование готовности студентов педагогических вузов к профессиональной деятельности в условиях вариативного образования : дис. ... канд. пед. наук : 13.00.01 / И. М. Горбаткина. - М., 2003. - 167 с.
13. Данилова, С. В. Педагогические условия развития толерантности студентов младших курсов вуза в процессе обучения (на материале обучения иностранному языку) : дис. ... канд. пед. наук : 13.00.08 / С. В. Данилова. - Омск, 2007. - 231 с.
14. Дмитриченко, А. В. Педагогические условия социального развития личности в процессе дистанционного обучения в гуманитарном вузе : дис. ... канд. пед. наук : 13.00.08 / А. В. Дмитриченко. - Краснодар, 2006. - 180 с.
15. Савицкая, Т. Фэнтези: подтекст экспансии жанра [Электронный ресурс] / Т. Савицкая.
16. Толкин, Дж. Р. Р. О волшебных сказках / Дж. Р. Р. Толкин // Сказки волшебной страны. - М. : АСТ : АСТМОСКВА, 2010. - С. 315–412.
17. Степановска, Т. Фантастическое, фэнтези и научная фантастика: к разграничению и соотношению понятий / Т. Степановска. - Ростов н/Д, 1982. - 140 с.

ФОРМЫ И МЕТОДЫ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ ПОДРОСТКОВ В КАРАКАЛПАКСКИХ СЕМЬЯХ НА ОСНОВЕ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА

Досходжаева А.

старший преподаватель кафедры «Общая педагогика» Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза.

Аннотация: В статье рассматриваются формы, методы и традиции духовно-нравственного воспитания подростков в каракалпакских семьях средствами устного народного творчества.

Ключевые слова: духовно-нравственное воспитание, формы, методы воспитания, подростковый период, традиции, устное народное творчество.

QORAQALPOQ OILALARIDA O'SMIRLARNI XALQ OG'ZAKI IJODI ASOSIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIALASHNING METOD VA SHAKLLARI

Dosxodjaeva A.

Nukus davlat pedagogika instituti «Umumiy pedagogika» kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada qoraqalpoq oilalarida o'smirlarni xalq og'zaki ijodi orqali ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning shakl va usullari, an'analari haqida fikrlar aytilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviy-axloqiy tarbiya, shakl, tarbiya usullari, o'smirlik davri, an'analari, xalq og'zaki ijodi.

FORMS AND METHODS OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF TEENAGERS IN KARAKALPAK FAMILIES BASED ON ORAL FOLK ART

Doskhodjaeva A.

Senior lecturer in the Department of General pedagogy, Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute

Abstract: The article examines the forms, methods, and traditions of spiritual and moral education of adolescents in Karakalpak families through oral folklore.

Keywords: Spiritual and moral education, forms and methods of upbringing, adolescence, oral folklore.

Различные идеологические угрозы во всем мире, в частности религиозный экстремизм, терроризм, индивидуализм, эгоцентризм, которые подпадают под маску «массовой культуры», представляют собой большую угрозу для воспитания подростков.

Существование популярной культуры в мире, такой как сепаратизм, нигилизм, вандализм, наличие компьютерных игр, таких как «Голубой кит», растущая тенденция молодых людей праздновать «День святого Валентина» требует высокого уровня педагогической профилактической работы в семьях, являющихся очагом духовности, источником сохранения национальных традиций и обычаев.

Подростковый возраст, известный в мировой педагогике как «Переходный период», «Кризисный период», «Трудный период», «Подростковый период», являются переходным периодом от детства к взрослой жизни.

Не секрет, что в сложных процессах как физического, так и психического развития, формирования характера, открытия «Я» подросток часто получает ответы на свои проблемы из внешней социальной среды, а не от родителей.

В годы независимости Президент Республики Узбекистан Ш. Мирзиёев говоря о будущих детей, их воспитании и последствиях безразличия к нему не зря подчёркивал, что к слову «Береги свой дом», которые в последние годы были распространены среди населения пришло время добавить слово «Береги своего ребёнка».

Президент призвал к конкретным мерам в этом отношении и определил ряд конкретных задач для учебных заведений, махалли и особенно семей в сфере духовно-нравственного воспитания подростков.

В каракалпакских семьях, как и в других тюркских народах, свадьбы и другие церемонии традиционно ассоциируются с детьми, например, как «Шашыў той» («Колыбельная свадьба» и другие подобные маленькие свадьбы), «Сүннет туй» («Свадьба, посвящённая к обрезаю»), «Свадьба бракосочетания», «Свадьба, посвящённая новоселью» и другие. Естественно, каждый из них проходит с участием детей.

Воспитательный эффект не оценим в образцах устного народного творчества, связанные с ритуалами или в песнях, тесно связанных играми детей, загадками песнями, спетыми в дни рождения и на вечеринках, дорожных песнях, в театральные представлениях, асиях и мероприятиях, проводимой в детских садах во время праздника Независимости и Навруз.

Большая часть жизни ребёнка проводится в семье. Чтобы существующие традиции, обычаи, ритуалы и обряды в семье стали мощным оружием в развитии детей, необходимо обеспечить их активное участие в таких мероприятиях. Ведь ожидаемых результатов можно достичь только в том случае, если семейное воспитание неразрывно связано с социальным воспитанием.

Конечно, цель будет достигнута только в том случае, если все формы обучения организованы в сочетании правильных и соответствующих методов и приемов обучения.

Обычно, в источниках народной педагогики используются воспитательные методы для духовно-нравственного формирования: объяснять (учить, осваивать, практиковать), показывать пример (давать советы, извиняться, говорить о хороших вещах, быть примером), давать советы (поощрять, убеждать, просить, желать, одобрять, благодарить, молиться, желать доброго пути), наказание запрет, упрёк, гнев, выговор, принуждение, выговор, обвинение, стыд, запугивание, ненависть, ругань, избиение) и т. д.

Произведения устного народного творчества показывают, как эти методы использовались в жизненном опыте предков, их эффективность, положительные или отрицательные черты.

Современная педагогика требует подхода, который уважает личность ребёнка и признает его уникальность как личности.

Одним из важных аспектов этого подхода является рассмотрение развития качеств у детей, таких как постоянное стремление к совершенству.

Ученые утверждают, что характер ребенка формируется в основном в 5 годам.

В дальнейшей жизни его личность постепенно развивается. Следовательно, то, как ребенок сформирован, определяет смысл его будущей жизни. Отмечается, что использование родителями двух методов в формировании у ребенка высоких человеческих чувств в семье оказывает положительное влияние.

Первое - это убеждение. С раннего возраста ребенку говорят: «ты должен сделать это, потому что это необходимо сделать по той или иной причине». Гораздо проще убедить ребёнка в полезности и необходимости выполненных работ в форме фольклора, прежде всего, в лице героев сказок, эпосов и легенд. Например, такие идеи, как, почему ребенок должен мыть руки перед едой, убирать, приводить в порядок свои игрушки, преимущества заводить друзей и быть преданным другу, объясняются с раннего возраста на основе фольклора, а затем применяются в течение всей жизни.

Обязанностью каждой семьи является подготовка детей священной работе, например, служению себе и своим семьям, близким родственникам, а также интересам людей.

В связи с этим очень важно информировать и убеждать, основываясь на событиях произведения, о действиях героев народных сказок и эпосов, о том, как их преданность помогает преодолеть горести народа и это принесет ему счастье. Например, в эпосе «Алпомиш» важно убедить детей в том, что героизм Алпомиша отражается не только в его силе, но и в том, что его родители, Гулпарчин, тесть и тёща, воспринимали горе его народа как его собственное горе.

Второе - побуждать детей приобретать истинные человеческие качества. В обоих случаях образцы устного народного творчества играют важную роль.

При воспитании детей на основе образца устного народного творчества поощрения имеют большое значение.

Важные аспекты поощрения проявляются в сравнении детей с положительными героями. Например, в результате таких стимулов, как «Мой Алпомиш», «Мой пахлавон, как султан Гуругли», «Ты герой, как в эпосе Рустам», «Моя прекрасная девушка, моя ласточка», ребенок чувствует себя легендарным национальным героем, и у них пробуждает желание делать добрые дела.

Похвала родителей, поддержка, одобрение означают, что ребенок делает правильные вещи, делает свою работу хорошо. Но вы должны быть в состоянии следовать норме.

Родители должны обратить особое внимание на детское чтение в семье. Это должно быть нормой или хорошим правилом.

Одним из важных условий эффективности воспитания является то, что большая часть семейной библиотеки должна быть занята фольклорными образцами, близкими психике ребёнка, поскольку язык таких произведений прост, свободен и популярен, некоторые примеры из которых знакомы детям с раннего возраста. Цель может быть достигнута только в том случае, если родители могут вдохновлять детей читать с раннего возраста. Детское чтение тесно связано с речью. Через речь человек выражает свои мысли, чувства, общается, выражает своё отношение к окружающим. Другими словами, речь отражает мировоззрение человека.

В хадисах особое место отводится правильному регулированию семейных отношений и воспитанию детей как совершенных людей.

В главах 1-24 произведения имама Бухари «Аль-Адаб аль-Муфрад», известного хадиса из исламского мира, говорится о необходимости почтения и уважения к родителям, чтобы дети выполняли свои обязанности перед своими родителями, так как это была важная часть семейного воспитания в исламском мире на протяжении многих веков.

Хадисы играют важную роль при формировании в сознаниях молодого поколения честности, доброты, сострадания, справедливости, трудолюбия, смирения, терпения, удовлетворённости, правдивости, самокритики, самопожертвования, искренности, а также при создании чувства борьбы против лжи, высокомерия, эгоизма и беспечности.

Таким образом, народ Каракалпакстана должен воспитывать подростков на основе примеров устного народного творчества с помощью удобных форм и методов. Важно относиться к семье педагогическими формами и методами, которые служат повышению эффективности воспитания подростков на основе примеров устного народного творчества.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Ал Бухорий, Абу Абдуллох Мухаммад ибн Исмоил. Хадис. 4-китоб. Ал-Жомиъ ас-Сахих (Ишонарли тўплам). Арабчадан Абдулгани Абдуллох таржимаси. Тошкент: Қомуслар бош тахририяти, 1992. -528 б.

2. Назарова Р. Оилавий муносабатларнинг бола тарбиясига таъсири.

- Р.Назарова – Тошкент: Ўзбекистон, 1982 -32 б

3. Шоумаров Ғ.Б. Оила психологияси /Е.Б.Шоумаров. -Тошкент: Шарқ, 2001. -Б.363.

4. <https://kun.uz/news/2017/06/16/prezident-bolalar-kelazagi-zuda-omonat-ekanini-bugun-actisbotlamokda>.

ABU NASR FARABIYNING MUSIQA ILMIGA OID QARASHLARI

Ibragimova Nozima Xurshedjon qizi
Namangan viloyati Madaniyat boshqarmasi tasarrufidagi
Namangan shahar 24-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi
“Musiqqa nazariyasi” fani o'qituvchisi
<https://orcid.org/0009-0003-2517-9991>

Annotatsiya. Sharq musiqasi qadimgi davrlardan beri o'rganib kelinayotgan katta musiqiy madaniy merosdir. Ushbu maqolada O'rta asrlarning buyuk mutafakkiri Abu Nasr al-Farobiyning musiqa ilmiga oid nazariy va amaliy qarashlari tadqiq etilgan. Ko'p asrlik tarixga aylangan sharq musiqasini o'rganishda Abu Nasr al-Farobiyning “Kitob al-musiqa al-kabir” nomli risolasidagi nazariy qarashlardan foydalaniladi.

Kalit so'zlar: Abu Nasr al-Farobiy, “Kitob al-musiqa al-kabir”, sharq musiqasi, ma'naviy-axloq, maqom san'ati, ruh ozuqasi, tarbiya.

THE VIEWS OF ABU NASR FARABI ON THE SCIENCE OF MUSIC

Ibragimova Nozima Khurshedjonovna
Teacher of Music Theory
Namangan City Children's Music and Art School No. 24
under the Namangan Regional Directorate of Culture

Abstract. Eastern music is a great musical cultural heritage that has been studied since ancient times. This article examines the theoretical and practical views of the great medieval thinker Abu Nasr al-Farabi on the science of music. In the study of Eastern music, which spans many centuries, the theoretical views set out in Abu Nasr al-Farabi's treatise Kitob al-musiqa al-kabir are utilised.

Keywords: Abu Nasr al-Farabi, Kitob al-Musika al-Kabir, Eastern music, spiritual and moral education, the art of maqam, nourishment for the soul, upbringing.

ВЗГЛЯДЫ АБУ НАСР ФАРАБИ НА НАУКУ О МУЗЫКЕ

Ибрагимова Нозима Хуршеджоновна
Преподаватель теории музыки Наманганская городская детская
музыкально-художественная школа № 24
при Наманганском областном управлении культуры

Аннотация. Восточная музыка является великим музыкальным культурным наследием, которое изучается с древних времен. В данной статье рассматриваются теоретические и практические взгляды великого средневекового мыслителя Абу Насра аль-Фараби на науку о музыке. В изучении восточной музыки, которое охватывает многие столетия, используются теоретические взгляды, изложенные в трактате Абу Насра аль-Фараби под названием «Китаб аль-музыка аль-кабир». Ключевые слова: Абу Наср аль-Фараби, «Китаб аль-Музыка аль-Кабир», восточная музыка, духовное и нравственное воспитание, искусство макама, пища для души, воспитание.

Kirish. Sharq Arastusi nomi bilan tanilgan Abu Nasr al-Farobiy falsafa, mantiq kabi fanlardan tashqari musiqa ilmining ham asoschisidir. Hozirgi kunda ko'plab izlanishlar olib borayotgan musiqashunos olimlar Sharq mutafakkirining musiqa ta'limiga oid qoldirgan ko'plab manbalarni o'rganish natijasida o'quvchi-yoshlarning milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarimizga hurmat, G'arb ommaviy madaniyatiga ergashmaslik kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirishdagi muhim manbalardan biri ekanligini ta'kidlab o'tishgan. Farobiyning musiqiy ohanglar orqali

inson kamolotini shakllantirish, musiqa ruh ozuqasi sifatida namoyish etilishi, axloqiy tarbiya vositasi bo'lib talqin qilinishi va shakllanishi mavzuning asosiy maqsadi qilib olingan. Bugungi kunda san'atshunoslik va pedagogika sohalari uchun Abu Nasr al-Farobiyning musiqiy qarashlari dolzarb ekanligi asoslab beriladi.

Mavzuning dolbzarligi. Bugungi jahon globallashuv sharoitida har bir millat, har bir davlat o'zining milliy qadriyat va an'analarini, madaniy-axloqiy merosini saqlab qolish muammosiga duch kelmoqda. Ko'plab rivojlangan va rivojlanib kelayotgan davlatlar qatori O'zbekiston ham ko'plab izchil ishlar olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi 112-sonli qarori da ko'rsatilganidek ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar ustuvor vazifa etib belgilangan. Milliy kuy va ohanglarimiz, maqom san'ati nafaqat estetik, balki shifobaxshlik xususiyatiga ega bo'lgan vositadir.

Buyuk sharq mutafakkiri Abu Nasr al-Farobiyning musiqiy merosini o'rganishda uning musiqa ilmiga oid musiqiy-falsafiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, musiqa bu shunchaki hissiyotlar va ko'ngilochar vosita emas, inson ruhini tarbiyalovchi, axloqiy nuqsonlarni bartaraf etuvchi hamda jamiyatning yaxlitlashuvini ko'rsatib beruvchi muhim ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanadi. O'zbekiston va dunyo Sharq xalqlari uchun Farobiy buyuk madaniy poydevor vazifasi bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Buyuk mutafakkirning musiqa ilmiga doir qarashlari tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy maqom san'atimizning kelib chiqish ildizlari va tarixini o'rganish, madaniyatimizni mustahkamlash, buyuk tariximizni o'rganish kabi ko'plab axloqiy qarashlar insoniyatning o'rganishi zarur bo'lgan ahamiyatga molik masalalardir.

Abu Nasr al-Farobiyning musiqiy ohanglar va inson temperamenti o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi xulosalari zamonaviy psixologiya va san'atshunoslik uchun fundamental ahamiyat kasb etib, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda g'oyat dolzarbdir.

Muammoning o'rganilish darajasi. Abu Nasr al-Farobiyning musiqiy merosini uzoq yillardan buyon tarixchilar, musiqashunoslar va olimlar o'z diqqat markazlarida o'rganib kelmoqda. Al-Farobiyning "Kitob al-musiqa al-kabir" nomli asari turli davlatlarda shuningdek, turli davrlarda tarjima va tahlil qilingan. Chunonchi, XIX-XX asrlarda Farobiy merosiga Yevropa davlatlari katta qiziqish bildirib, o'rganish ishlarini olib borgan. Baron Rodolf d'Erlanje o'zining olti jildlik "La Musique Arabe" ya'ni "Arab musiqasi" nomli asarida Farobiyning musiqa ilmigi doir nazariyasini o'rganib butun G'arb davlatlariga tanitgan shaxsdir. Genri Jorj Farmer- Angliya musiqashunosi, Arab va Markaziy Osiyo musiqa tarixini o'rganib al-Farobiy yozgan asarlari yordamida sharq madaniyatini G'arb davlatlariga namuna qilib ko'rsatgan.

O'zbek musiqa san'ati tarixiga nazar tashlasak, Farobiyning musiqa ilmiga oid qarashlari ko'plab o'zbek musiqashunos olimlari tomonidan o'rganilgan va tahlil qilingan. Abu Nasr al-Farobiy ijodini kuzatishda Ishoq Rajabov peshqadamlar qatorida bo'lgan. Musiqashunos olim o'zbek maqom san'atini o'rganishdagi asoschilardan biri bo'lib, Farobiy ijodini kuzatishda maqomlar va qadimiy cholg'u asboblari o'rtasidagi bog'liqlikni yoritib bergan. I. Rajabov "Maqomlar" nomli kitobida O'rta Osiyo xalqining musiqa madaniyatini chuqur o'rganishda buyuk siymo Farobiy asarlariga tayanadi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Omonulla Fayzullayev Farobiyning falsafiy va musiqiy qarashlarini matematik nuqtayi nazardan tahlil qilgan. Chunonchi, al-Farobiyning tovush tebranishlari va matematik nisbatlar haqidagi g'oyalarini chuqur o'rgangan. Farobiy musiqa nazariyasiga oid asarlar yaratib, musiqaning ilmiy asoslarini bayon qildi. Uning "Musiqa san'ati" asarida musiqaning ruhiy va ijtimoiy ahamiyati, shuningdek, uning inson ongiga ta'siri keng yoritilgan. Bu asar keyinchalik Yevropada musiqa fanining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Abu Nasr al-Farobiyning "Kitob al-musiqa al-kabir"

asari misolida musiqaning tovush fizik xususiyatlari va estetik fazilatlarini ochib berish hamda ushbu merosning zamonaviy musiqa nazariyasidagi o'rnini ko'rsatish, Sharq xalqlari musiqa madaniyatini chuqur o'rganish asosiy maqsadga aylangan.


Farobiyning "Kitob al-musiqa al-kabir" asari va ko'plab musiqiy risolalarini o'rganish va qiyosiy tahlil qilish, asarlardagi musiqa ilmini nazariy va amaliy qismlarga bo'lib o'rganish, qadimiy cholg'ular va ularning tuzulishini zamonaviy nota tizimi bilan qiyoslash, musiqaning inson ruhiyatiga ta'sirini o'rganish kabi ustuvor vazifalardan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Sharq musiqa ijodi bir yarim ming yillik tarixga ega bo'lgan, turli davrlarni oshib o'tib o'zining tarixiy salmog'ini saqlab kelmoqda. Sharq xalqlarining musiqa madaniyatini o'z asarlarida yaqqol yoritib bergan Abu Nasr al-Farobiy musiqa ilmi timsolidir. Mutafakkirning "Kitob al-musiqa al-kabir"² asari o'rta asrlardagi sharq musiqa merosining eng mukammal nazariy musiqa risolasi hisoblanadi. Ushbu asarda Farobiy musiqani mustaqil fan va yuksak san'at turi sifatida asoslab bergan. Asar bir necha qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismida musiqaning nazariy asoslari, ya'ni tovushlar, intervallar va ularning nisbatlari matematik va fizik xususiyatlar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

"Kitob al-musiqa al-kabir" risolasi arab tilida yozilgan bo'lib, Sharq musiqa nazariyasini yaqqol nazariy jihatdan ochib berilgan. Al-Farobiy ajoyib musiqachi va musiqa nazariyachisi edi. Farobiy ushbu risolada musiqiy cholg'ularga ham alohida e'tibor qaratgan. Chunonchi, o'rta asrlar davrida O'rta Osiyo va Arab xalqlari musiqiy cholg'ularini xususan, ud, tanbur cholg'ularini batafsil tavsiflab, ularning pardalari va tuzilishini ilmiy tahlil qilgan. Farobiy o'z davrida mavjud bo'lgan barcha musiqa asboblari o'rgangan va ijro etgan. Kuylarni ayniqsa nay va tanburda katta mahorat bilan ijro etardi. Ba'zi manbalarda ko'rsatilishicha, al-Farobiy qonun asbobini ixtiro etgan. O'sha davrlarda mashhur bo'lgan ud sozini takomillashtirishda juda katta ishlar olib borgan .



1-rasm Ud cholg'usi



2-rasm Qonun cholg'usi



3-rasm Tanbur cholg'usi

Abu Nasr al-Farobiyning yana bir musiqiy merosi "Kalom fi-l-musiqa" ya'ni Musiqa haqida so'z" haqidagi asaridir. Ushbu risola musiqa nazariyasiga bag'ishlangan bo'lib, musiqa san'atining ilmiy asoslari, ohanglar va ritmlar tahlil qilinib, sharqona musiqiy estetik qarashlar bayon etilgan. Farobiy o'z qarashlarida musiqani ko'ngilochar vosita deb emas balki, aniq va falsafa fanlari bilan uzviy bog'liq fanlar qatoriga kiritgan. "Kalom fi-l-musiqa" asarida musiqiy tovushlarning kelib chiqishi, ularning baland-pastligi va ritmik tuzilmalari tahlil qilingan. Ovozlarining inson ruhiyatiga ta'siri, estetik tarbiya va axloqiy masalalar musiqa kontekstida o'rganilgan. "Kalom fi-l-musiqa" Farobiyning musiqa ilmi rivojiga qo'shgan ulkan hissasini ko'rsatuvchi manbalardan biri bo'lib, o'rta asrlar musiqa nazariyasini tushunishda muhim o'rin tutadi .

Abu Nasr al-Farobiyning musiqa ilmiga doir qarashlarini o'rganishda o'zbek musiqashunos olimi Ishoq Rajabov ham "Maqomlar" nomli kitobida Sharq musiqa madaniyatini kelib chiqish tarixi va o'rganilishini yoritib bergan. Kitobda Farobiy yozib qoldirgan risolalarning katta qismi maqomlar to'g'risida ekanligi keltirib o'tilgan. I.Rajabov ta'kidlashicha Farobiyning "Kitob al-

musiqa al-kabir” asari 3 ta yirik qismga ajratilgan.

Birinchi qismda musiqaviy akustika, tovushlar nisbati, intervallarning turlari va hosil bo‘lishi tavsiflangan. Ikkinchi qismda ud, tanbur, nay, qonun kabi cholg‘u sozlari tuzulishi, tovush diapazoni va balandligi haqida yoritib berilgan. Uchinchi qismda kuylar maqomlarning paydo bo‘lishi, ritm, cholg‘u, kuy-qo‘shiqlar va kuy bezaklari haqidag masalalarga alohida e‘tibor qaratilgan.

Abu Nasr al-Farobiyning asarlarida maqomlar masalasi ilk marotaba sharhlab berilgan edi. X-XI asrlarda mashhur bo‘lgan maqomlarni o‘rganishda Farobiy asarlari yagona manba bo‘lib xizmat etadi. O‘rta asrlarda sharq musiqasini yaqqol namoyish etib bergan al-Farobiy asarlari butunjahon musiqa ilmi rivoji uchun ulkan hissa qo‘shgan manbalar qatorida xizmat qilmoqda. Keying davrlarda yashab ijod etgan mutafakkirlar uchun Farobiy asarlari asosiy fundamental manba vazifasini bajargan.

Forobiyning madaniyatga qo‘shgan hissasi shundaki, u ilm va falsafani birlashtirib, ularni jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida ko‘rdi. Uning fikricha, ilm-fan orqali inson aqlini rivojlantirish va ijtimoiy hayotni yaxshilash mumkin.

Bu nazariyalar keyinchalik islom falsafasida “ilm va axloq” o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’kidlashga sabab bo‘ldi.

Abu Nasr al-Farobiyning musiqiy merosi kompleks yondashuv asosida o‘rganilib tahlil qilindi. Farobiyning musiqa ilmigacha bo‘lgan holati va keying o‘rganilish bosqichlari tarixiy izchillikda o‘rganildi. Shuningdek Farobiyning tovushlar oralig‘i va ritmik tuzulishi Sharq va G‘arb musiqa nazariyasida qiyosiy tahlil qilindi. Farobiy tavsiflagan Ud, Tanbur, Nay, Qonun kabi cholg‘ularning tuzilishini ularning akustik imkoniyatlari nuqtayi nazaridan o‘rganish ishlari olib borildi.

Tahlil va natijalar. Farobiyning musiqiy qarashlarini o‘rganishda “Kitob al-musiqa al-kabir” asari tahlil qilindi. Buyuk mutafakkir o‘z asarlarida tovushlar baland-pastligi, tebranish chastotasi ilmiy asoslanganini ko‘rish mumkin. Shuningdek, tovushlar oralig‘ini musiqiy tilde interval deb nomlanishini aytib o‘tgan. Inson qulog‘iga yoqimli eshtilgan tovushlar ilmiy asoslanib interval turlarini tashkil etgan.

Farobiy tavsiflagan ud, qonun, tanbur kabi cholg‘ular tuzulishi sharq xalqlari musiqiy cholg‘u merosi bo‘lib xizmat qilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, Abu Nasr al-Farobiy musiqani shunchaki zavq olish manbasi emas, balki aniq fanlarga tayangan falsafiy, axloqiy jihatdan o‘rganilgan fan sifatida ta’kidlagan. Musiqani nafaqat estetik zavq, balki inson ruhiyatini davolovchi vosita sifatida tasniflagan birinchi olimlardan biridir. U turli maqom yo‘llarining kunning turli vaqtlarida inson kayfiyatiga ta’sirini ilmiy asoslagan.

Xulosa va tavsiyalar. O‘rta asr buyuk sharq allomasi Abu Nasr al-Farobiy musiqaga oid qarashlari natijasida ko‘plab turli xulosalarga kelindi. Musiqa aniq fanlar qatoriga kirib, tovush chastotalari va intervallar borasidagi hisob-kitoblari zamonaviy akustika fanining tamal toshi bo‘lib xizmat qiladi. Buyuk mutafakkirning “Kitob al-musiqa al-kabir” asarida aytib o‘tilgan cholg‘u turlari va ularning tuzulishini o‘rganish bugungi kundagi cholg‘ushunoslik fani uchun asosiy qo‘llanma vazifasini bajaradi. Farobiyning musiqa merosi Sharq va G‘arb musiqa tizimini yaxlitlashda asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan. Musiqa bu inson axloqini poklovchi tarbiyaviy va ruhiy muvozanatni saqlab qoluvchi asosiy tarbiya vositasi ekanligi xulosa qilindi.

Farobiyning boy musiqiy merosidan bugungi kunda samarali foydalanish maqsadida o‘quv yurtlarida fan sifatida o‘qitilayotgan “Musiqa Nazariyasi” fanida Farobiyning intervallarga oid hisob-kitoblari chuqurroq o‘rganish, tovush fizik xususiyatlarini o‘rganish natijasida musiqiy ilovalar yaratish, musiqani inson ruhiyatiga ta’siri orqali musiqa terapiyasini shakllantirish, o‘zbek milliy cholg‘ulari tanbur, ud, nay, qonun kabi cholg‘u turlarini akustik imkoniyatlarini yanada boyitish tavsiya etiladi.

Abu Nasr Farobiyning musiqa ilmi borasidagi qarashlarini umumlashtirgan holda, uning nafaqat o‘z davri, balki butun insoniyat uchun turli davrlarda o‘z hissasini qo‘sha olgan buyuk

mutafakkir deb ayta olamiz. Farobiy musiqa ilmining buyuk musiqashunos nazariyotchisi nomiga sazovor siymodir. Buyuk mutafakkir dunyo tarixida birinchi bo'lib musiqa ilmini Nazariy jihatdan, tovushlar va usullar haqidagi bilimlar va Amaliy jihatdan, asboblari chalish va kuylash mahorati qismlarga ajratdi. Bu tizim bugungi kunda barcha konservatoriya va musiqa maktablarining o'qitish metodikasiga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi 112-sonli qarori.
2. Abu Nasr al-Farobiy "Kitob al-musiqa al-kabir".
3. Baron Rodolf d'Erlanje "La Musique Arabe".
4. I. Rajabov "Maqomlar" Toshkent 2006.
5. A. Abdushukurova. FOROBIYNING JAHON ILM FAN MADANIYATIGA QO'SHGAN HISSASI. <https://scientific-jl.com/luch/>
6. M. Karimova "MARKAZIY OSIYODA O'RTA ASRLARDA MUSIQA ILMINI RIVOJLANISHI" ma'ruza matni Andijon-2015 2-bet.
7. N. YULDASHEVA, N. RAXMATOVA. O'ZBEK MUSIQA ADABIYOTI Toshkent «iqtlIsod-moliya»2016.
8. I. Rajabov "Maqomlar" Toshkent 2006 16-bet.
9. Rajabova, G., & Ismoilov, T. (2022). Sharq mutafakkirlarining musiqiy tarbiya haqidagi qarashlari. O'zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2(1), 45-51.
10. Miller, R. K. (2020). The impact of traditional music on character building in secondary education. Journal of Aesthetic Education, 54(3), 89-104. <https://doi.org/10.5406/jaested.54.3.0089>
11. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. (2024, 15-yanvar). Musiqa ta'limini rivojlantirishning yangi strategiyasi. <https://www.uzedu.uz/oz/musiqa-talimi-konsepsiyasi>
12. www.ziyo.net
13. www.scholar.google.com
14. www.natlib.uz

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI DARSDAN TASHQARI FAOLIYAT TURLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

A.I.Baxronova

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrası o'qituvchisi

Jabborova Fotima

I kurs magistrant

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarini darsdan tashqari faoliyat turlarining tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi. Unda o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning ma'naviy-axloqiy, intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: o'quvchi, tarbiya, rahbar, maktab, to'garak, tadbir, rejalashtirish, faoliyat.

Аннотация: В данной статье раскрывается воспитательная значимость внеурочной деятельности учащихся начальных классов. Особое внимание уделяется вопросам рациональной организации свободного времени школьников, а также факторам, способствующим их духовно-нравственному и интеллектуальному развитию. Анализируются педагогические возможности различных форм внеурочной деятельности в формировании социальной активности, самостоятельного мышления и творческих способностей учащихся.

Ключевые слова: учащийся, воспитание, педагогическое руководство, школа, кружок, мероприятие, планирование, внеурочная деятельность.

Annotation: This article examines the educational significance of extracurricular activities for primary school pupils. Particular attention is paid to the rational organization of pupils' free time, as well as to the factors contributing to their moral and intellectual development. The pedagogical potential of various forms of extracurricular activities in fostering social activity, independent thinking, and creativity among pupils is analyzed.

Key words: pupil, education, pedagogical guidance, school, club, activity, planning, extracurricular activity.

Maktabning o'quvchilar bilan olib boradigan o'quv mashg'ulotlaridan tashqari xilma-xil ta'lim-tarbiya ishlari sinfan tashqari ishlar nomini olgan. Sinfdan tashqari ishlar maktab ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini yo'lga qo'yish formalaridan biridir. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga faol faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarining mazmuni va formasi asosan o'quvchilarning qiziqishlariga, talablariga hamda ularning shaxsiy xohishlariga va mahalliy sharoitlariga bog'liq holda amalga oshiriladi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari ham ko'p qirralidir. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish;
 - O'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarni o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish;
 - Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish.
 - Umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish.
- O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda

jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin:

- tashkilotchilik;
- uslubiy;
- ma'muriy.

Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator kishilarni kiritish mumkin:

- Tarbiyaviy ishlar sohasida erishgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish.
- Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash.
- Tarbiyaviy, ommaviy, siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash.
- Sinf dan, maktabdan tashqari ishlarni rejalashtirish, guruhlashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki, sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi. Shu asosda, yangi bilimlar hosil qilinadi. O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoadagi ishlarni o'rganadilar. Ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar. Ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar. Jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga o'tlanadilar.

Maktabdan tashqari faoliyatga quyidagilar kiradi:

-Og'zaki ish usullari: majlislar, yig'inlar, ma'ruzalar, kutubxonalar, konferensiyalar, munozaralar, uchrashuvlar, gazetalar, radio va jurnallar.

-Amaliy ish olib borish usullari turli joylarga sayyohatlarga, sport musobaqalari, tabiatshunoslar to'garaklari, shanbaliklar, yangi kitoblar ko'rgazmalari.

Tarbiyaviy ish pedagogikadan butun qobiliyatlarni ishga solishga taqozo etadi. Sinf rahbarligi kursi bilan maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi kursi bir-biriga bog'liq va uning davomiyligidir.

Yuqoridagi qayd etilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar turli qo'llanmalar, asboblardan, apparatlar, didaktik materiallardan foydalanishni o'rganadilar, o'z-o'zini tekshirish uchun turli ma'lumot va tayanch materiallarini jalb etish ko'nikmalarini egallaydilar.

2. Sinf dan va maktabdan tashqari ishni rejalashtirish bolalarning yosh xususiyatlariga, maktabning joylashgan shart-sharoitlariga, ijodiy birlashmalariga, ilmiy markazlar bilan o'zaro aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o'rinbosarining faoliyati, o'z ifodasini topgan hujjatlar ro'yxati, xalq ta'limi tomonidan doimiy ravishda berilib boriladi.

“Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar” konsepsiyasi xalq vazirligi tomonidan 1993-yilda tasdiqlangan.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ishlab chiqiladi.

Sinf dan tashqari ishlarni tashkil etishda o'qituvchining yo'naltiruvchi ta'siri ostidagi o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish asosiga qurilgan va fan kabinetlarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o'tkaziladigan mustaqil mashg'ulotlar yetakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda sinfdan tashqari ishda ta'limning moddiy bazasi: qo'shimcha va ma'lumotnoma adabiyotlari laboratoriya uskunalari, ko'rgazmali qo'llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona foydalanish ko'zda tutiladi. Ular o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashning xilma-xil shakllarini olgan, nazariy bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi;
- tajribalar, ijodiy tushdagi ishlarni bajarishni, asboblarni loyihalashni, maketlar, modellar va

hozakolarni tayyorlashni olgan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar sistemasi maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar metodikasi fani va bo'limiga sinf rahbarlarining ishlari, maktab ma'muriyatining tarbiyaviy ishlari kiritiladi. Bunda o'qituvchilarning o'quvchilar bilan muomalasi, adolatli bo'lishi, ta'sir ko'rsata olishi kerak.

O'quvchi yoshlarni hozirgi zamon ma'naviyati bilan ongini sug'orish, ya'ni singdirish kerak. O'quvchilarni qadriyatlarimiz asosida urf-an'analarimiz asosida tarbiyalash har bir o'qituvchining vazifasi.

O'quvchi atrofini o'rab turgan vositalar, yaxshi-yomon odatlar, o'kituvchilar, maktabning muhiti, o'quvchilar tarbiyasini to'g'ri, ongli ravishda o'rganish va qabul qilish. Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

To'garak turlari:

-Fan to'garaklari.

-Mohir qo'llar.

-Duradgorlik.

-Sport musobaqalari.

-Badiiy havaskorlik.

Ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Tarbiyaning asosiy vazifasi- shaxsning aqliy-axloqiy tarbiyalashda erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda quyidagi pedagogik talablar mavjud:

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining to'garak qatnashchilari ongida yuksak ma'naviy axloqiy fazilatlar mujassamlashgan bo'lishi kerak. To'garak qatnashchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning so'nggi yutuqlaridan xabardor qilib turish, ular ongini ijodiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilish o'rin tutadi. To'garak qatnashchilarida mustaqillik tushunchasi shakllangan bo'lishi, ular davlatimiz ramzlarini, madhiyasini, urf-odatlarimizni yaxshi bilish kerak. Maktabdan tashqari ta'lim o'qishlariga, hohishlariga asoslangan holda darsdan bo'sh vaqtlarda o'quv tarbiya jarayonini to'ldiradi va quyidagi yo'nalishlar bo'yicha to'garak qatnashchilariga talablar qo'yilishi kerak:

-Vatanga muhabbat, komil inson tarbiyasi;

-Estetik ta'lim;

-Sayyohli yo'nalishi bo'yicha to'garaklarga qatnashish.

-Ekologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha to'garaklar;

-O'quvchilarni ma'naviy axloqiy yo'nalishi bo'yicha;

-Xuquqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha;

-Texnik ijodkorlik yo'nalishi bo'yicha;

-Istiqlol bolalari va iste'dodli yoshlar;

-Iqtisodiy ta'lim.

O'quvchilarning mustaqilligi turli darajada bo'lganida mustaqil tayyorgarlik amalga oshirilish mumkinligini hisobga olish muhimdir, albatta bu esa ular shaxsining shakllanishiga shubhasiz ta'sir ko'rsatadi. Ayrim o'quvchilarning ishdagi faol va mustaqil holati tarbiyachining aralashuvini talab etmaydi, chunki o'quvchilarning o'zlari oldilarida turgan vazifalarini va ularni hal etish yo'llarini ancha yaxshi tushunadilar.

Bolalar tarbiyachi yordamisiz ishlaydilar. Bu yerda tarbiyachining aralashuvi maq'bul emas. Chunki bunday holat bolalarning mehnatsevarligini, bilish ehtiyojlarini shakllantirishda eng katta imkoniyatga egadir.

O'quvchi mustaqil harakat qilib, lekin o'z ishini tarbiyalashning fikri va bahosiga bog'liq qilib qo'ygan paytda tobe mustaqil holat vujudga keladi. Ish qiziqish va ishtiyoq bilan bajarilsa ham mustaqil ishni bajarayotgan harakatlarida ishonchsizlik jihatlari mavjud bo'ladi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishni rejalashtirish bolalarning yosh xususiyatlariga, maktabning joylashgan shart-sharoitlariga, ijodiy birlashmalariga, ilmiy markazlar bilan o'zaro aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o'rinbosarining faoliyati, o'z ifodasini topgan hujjatlar ro'yxati, xalq ta'limi tomonidan doimiy ravishda berilib boriladi. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ishlab chiqiladi.

Sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarda o'quvchilarning xatti-harakatlari oldindan juda qattiq tartibga solib qo'yilganligi xususida e'tirozlar bildirilmoqda.

Mustaqillikni tarbiyalash vazifasi qo'yilmagan, bolaning har bir qadami pedagogning irodasiga bo'ysungan joylarida ana shunday holat mavjuddir. Xuddi shuning uchun mustaqil tayyorgarlik samaradorligi, o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladigan o'qituvchi, sinf rahbari o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish vositalarini puxta o'ylab tanlaydilar, ularning ishlashi uchun oqilona shart-sharoit yaratishga intiladilar.

Maktab o'quvchilarining mustaqil tayyorgarligiga pedagogik rahbarlik shunday qurilish kerakki, u o'quvchilarni charchatib qo'ymas, doim bir xil tusda bo'lmasin, yoki haddan tashqari oson, aqliy va irodaviy kuch-g'ayratini sarflashni talab qilmaydigan bo'lmasin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djurayeva S.N, Turdiyeva N.S, Baxronova A.I. Tarbiyaviy ishlar metodikasi.-Buxoro-2021.
2. R.Mavlonova, N.Raxmonqulova, B.Normurodova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi.-T., "Tib-kitob"-2010.
3. Qo'ziyev.Z. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish.-T., 1997.
4. Jo'rayev.A. Tarbiyaviy darslarni o'tish.-T., "O'qituvchi", 1994.

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARGA EKOLOGIK TARBIYA BERISHDA PEDAGOGIK YO'NALISHDAGI FANLARNING IMKONIYATLARI

Egamova Gulnoza Istam qizi

Buxoro Davlat Universiteti Pedagogika yo'nalishi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishi oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishda fanlararo integratsiyaning metodologik imkoniyatlari va amaliy samaradorligini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi global ekologik inqiroz sharoitida talaba-yoshlarda atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli va qadriyatli munosabatni qaror toptirish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqot doirasida pedagogika, psixologiya va o'qitish metodikasi fanlarining o'zaro sinteziga asoslangan integrativ model ishlab chiqilgan bo'lib, u jami 600 nafar talabani qamrab olgan holda Buxoro, Shahrisabz va Urganch pedagogika institutlarida eksperimental sinovdan o'tkazildi. Eksperiment davomida qo'llanilgan «Eco-Diary» (Ekologik kundalik) metodikasi talabalarning nazariy bilimlarini kundalik ijtimoiy-ekologik faoliyatga transformatsiya qilish mexanizmi sifatida xizmat qildi. Statistik tahlillar natijasida tajriba guruhlarida ekologik bilimlar tizimliliigi 24% ga, ekologik-psixologik ong darajasi va amaliy ko'nikmalar esa 25% ga ortganligi aniqlandi. Maqola yakunida pedagogik turkumdagi fanlar integratsiyasini oliy ta'lim dasturlariga tizimli joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: ekologik tarbiya, integrativ yondashuv, pedagogik fanlar sintezi, barqaror rivojlanish ta'limi (ESD), ekologik kompetensiya, Eco-Diary, fanlararo uzviylik, ekologik ong transformatsiyasi, amaliy ko'nikmalar.

ВОЗМОЖНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН В ЭКОЛОГИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Эгамова Гулноза Истамовна

Докторант Бухарского государственного университета

Аннотация: Данное исследование посвящено анализу методологических возможностей и практической эффективности междисциплинарной интеграции в формировании экологической культуры будущих учителей в системе высшего педагогического образования. Актуальность работы обусловлена необходимостью воспитания у студенческой молодежи ответственного и ценностного отношения к окружающей среде в условиях глобального экологического кризиса. В рамках исследования разработана интегративная модель, основанная на синтезе педагогики, психологии и методики обучения, которая прошла экспериментальную апробацию в педагогических институтах Бухары, Шахрисабза и Ургенча с охватом 600 студентов. Используемая в ходе эксперимента методика «Eco-Diary» (Экологический дневник) послужила механизмом трансформации теоретических знаний в повседневную социально-экологическую деятельность. Результаты статистического анализа показали рост системности экологических знаний в экспериментальных группах на 24%, а уровня эколого-психологического сознания и практических навыков — на 25%. В завершении статьи выдвинуты научно обоснованные рекомендации по системному внедрению интеграции дисциплин педагогического цикла в учебные программы высшего образования.

Ключевые слова: экологическое воспитание, интегративный подход, синтез педагогических наук, образование для устойчивого развития (ОУР), экологическая компетенция, Eco-Diary, междисциплинарная преемственность, трансформация экологического сознания, практические навыки.

THE POTENTIAL OF PEDAGOGICAL DISCIPLINES IN ENVIRONMENTAL EDUCATION OF STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

Egamova Gulnoza Istamovna

Doctoral student of Bukhara State University

Abstract: This research analyzes the methodological potential and practical effectiveness of interdisciplinary integration in developing the environmental culture of future teachers within the higher pedagogical education system. The relevance of the study is driven by the urgent need to foster a responsible and value-based attitude toward the environment among students amidst the global ecological crisis. An integrative model, grounded in the synthesis of pedagogy, psychology, and teaching methodology, was developed and experimentally tested at the pedagogical institutes of Bukhara, Shahrisabz, and Urgench, involving 600 students. The «Eco-Diary» methodology employed during the experiment functioned as a mechanism for transforming theoretical knowledge into daily socio-ecological activities. Statistical analysis revealed a 24% increase in the consistency of environmental knowledge and a 25% growth in ecological-psychological awareness and practical skills within the experimental groups. The article concludes with evidence-based recommendations for the systematic implementation of pedagogical discipline integration into higher education curricula.

Keywords: environmental education, integrative approach, synthesis of pedagogical sciences, education for sustainable development (ESD), environmental competence, Eco-Diary, interdisciplinary continuity, transformation of environmental consciousness, practical skills.

Kirish. XXI asrga kelib insoniyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi ta'lim paradigmasini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Biosferadagi global o'zgarishlar, antropogen bosimning ortishi va tabiiy resurslarning cheklanganligi sharoitida jamiyatning ekologik savodxonligi masalasi milliy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotning ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglarning ekologik tayyorgarligi strategik ahamiyatga ega, negaki aynan ular kelajak avlodning dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy bo'g'in hisoblanadi. Biroq, oliy ta'lim amaliyotida ekologik tarbiya ko'p hollarda faqatgina tabiiy fanlar (biologiya, ekologiya) zimmasiga yuklatilgan bo'lib, pedagogik turkumdagi fanlarning bu boradagi boy tarbiyaviy va motivatsion salohiyatidan yetarlicha foydalanilmayapti.

Muammoning ilmiy tavsifi. Amaldagi o'quv dasturlari tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarda ekologik bilimlar «frazmentarlik» (tarqoqlik) xususiyatiga ega. Ya'ni, talaba ekologik muammoning mohiyatini tushunsa-da, uni pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish, o'quvchilar psixologiyasiga moslab yetkazish va amaliy hayotda ekologik turmush tarzini namoyish etish ko'nikmalarida oqsoqlanmoqda. Bu esa ta'lim mazmunini integratsiyalash, ya'ni pedagogika, psixologiya va metodika fanlari o'rtasida «ekologik ko'pri» hosil qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Bunday yondashuv ekologik tarbiyani shunchaki axborot yetkazish jarayonidan, qadriyatlarga asoslangan shaxsni shakllantirish jarayoniga aylantiradi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Mazkur ishning asosiy maqsadi — oliy ta'limda pedagogik fanlar integratsiyasi asosida talabalarga ekologik tarbiya berishning nazariy-metodik modelini asoslash hamda uning samaradorligini 600 nafar respondent ishtirokidagi keng ko'lamli eksperiment orqali isbotlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun bo'lajak pedagoglarning ekologik ongi shakllanishining psixofiziologik omillari tahlil qilindi va integrativ ta'lim texnologiyalari ishlab chiqildi.

Adabiyotlar tahlili va Metodologiya. Oliy ta'lim tizimida ekologik tarbiya berish masalalari so'nggi o'n yilliklarda global miqyosda transformatsiyaga uchradi. Tadqiqotning nazariy-metodik asosi sifatida barqaror rivojlanish konsepsiyasi hamda ekologik ta'limning fanlararo (interdisciplinary) tabiatiga oid ilmiy qarashlar xizmat qiladi. Xususan, UNESCO (2020) tomonidan e'lon qilingan «Barqaror rivojlanish yo'lida ta'lim» (Education for Sustainable Development)

strategik hujjatlarida ekologik kompetensiya nafaqat tabiatshunoslik bilimlari, balki axloqiy, estetik va ijtimoiy-pedagogik qadriyatlar majmuasi sifatida talqin etiladi.

Xalqaro miqyosda D. Tilbury (2018) va R. Lozano (2020) kabi olimlarning tadqiqotlarida oliy ta'lim muassasalarida barqarorlik g'oyalari integratsiyalashgan modullar orqali o'qitishning afzalliklari asoslab berilgan. Ularning fikricha, ekologik tarbiya faqatgina axborot yetkazish bilan cheklanib qolmasdan, talabaning tanqidiy fikrlashi va tizimli tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishi lozim.

Milliy pedagogikada ham ekologik tarbiyaning turli jihatlari o'rganilgan bo'lsa-da, aynan pedagogik turkumdagi fanlar (pedagogika nazariyasi, psixologiya, dars berish metodikasi) integratsiyasining amaliy mexanizmlari yetarlicha tahlil qilinmagan. Ko'p hollarda ekologik bilimlar ijtimoiy-gumanitar fanlardan ajratilgan holda o'qitiladi, bu esa bo'lajak pedagogning dunyoqarashida «frazmentarlik» (tarqoqlik) hosil qiladi. Mazkur tadqiqot aynan mana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga, ya'ni pedagogik fanlarning sintezi orqali yaxlit ekologik ongni shakllantirish modelini yaratishga qaratilgan.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan metodologiya natijalarning ob'ektivligi va ishonchligini ta'minlash uchun kompleks yondashuvga asoslandi. Tadqiqot ob'ekti sifatida respublikamizning turli hududlarida joylashgan uchta yirik muassasa — Buxoro davlat universiteti (pedagogika instituti), Shahrisabz davlat pedagogika instituti va Urganch davlat pedagogika institutining pedagogika yo'nalishi talabalari tanlab olindi.

Tadqiqotda jami 600 nafar respondent ishtirok etdi. Ular mantiqiy va statistik muvozanatni ta'minlash maqsadida ikki guruhga ajratildi:

1. Nazorat guruhi (n=300): Ushbu guruhda o'quv jarayoni amaldagi davlat ta'lim standartlari va an'anaviy o'quv rejaları asosida, fanlararo bog'liqlikka alohida urg'u berilmagan holda olib borildi.

2. Tajriba guruhi (n=300): Mazkur guruh talabalari uchun pedagogik fanlar blokiga (Pedagogika, Psixologiya, Metodika) maxsus ishlab chiqilgan integrativ modullar joriy etildi.

Metodik yangilik sifatida «Eco-Diary»:

Tajriba guruhida ekologik ongni shakllantirishning asosiy drayveri sifatida «Eco-Diary» (Ekologik kundalik) metodikasidan foydalanildi. Ushbu metodika talabalarga o'zlarining kundalik ijtimoiy faoliyatida (resurslarni tejash, chiqindilarni saralash, ekologik targ'ibot) erishgan natijalarini tizimli ravishda qayd etib borish va o'z-o'zini baholash imkonini berdi. Bu jarayon psixologik jihatdan talabada «passiv kuzatuvchi»dan «faol ekologik sub'ekt»ga aylanish transformatsiyasini ta'minladi.

Ma'lumotlarni yig'ish va baholash mezonlari:

Talabalarning ekologik tayyorgarlik darajasi uchta asosiy parametr bo'yicha diagnostika qilindi:

- Kognitiv mezon: Ekologik nazariya va barqaror rivojlanish prinsiplarini o'zlashtirish darajasi (testlar va keys-stadi asosida).

- Affektiv mezon: Atrof-muhitga nisbatan qadriyatli va mas'uliyatli munosabatning shakllanganligi (psixologik so'rovnomalar yordamida).

- Praksiologik mezon: Amaliy ekologik loyihalarni ishlab chiqish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish ko'nikmalari (portfolio va taqdimotlar bahosi). Statistik tahlillar natijalarning haqqoniyligini tasdiqlash uchun matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlandi.

Natija va muhokama. Tadqiqot natijalarining qiyosiy va statistik tahlili. Olib borilgan ko'p bosqichli pedagogik eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim tizimida pedagogik fanlar integratsiyasi talabalarning ekologik kompetensiyalarini shakllantirishda transformatsion ahamiyatga ega. Buxoro, Shahrisabz va Urganch pedagogika institutlarining jami 600 nafar talabasi ishtirokidagi monitoring jarayonida olingan ma'lumotlar an'anaviy va integrativ yondashuvlar

o'rtasidagi sezilarli kognitiv va psixologik farqni namoyon etdi.

Tadqiqot natijalarini tizimlashtirish va ob'ektiv baholash maqsadida uchta asosiy mezon bo'yicha dinamik tahlil amalga oshirildi:

1. Ekologik-nazariy bilimlarning tizimliliigi (Kognitiv ko'rsatkich). Tajriba guruhida pedagogika nazariyasi va barqaror rivojlanish prinsiplari o'zaro uyg'unlikda o'qitilishi natijasida talabalarning nazariy o'zlashtirish ko'rsatkichi 62% dan 86% gacha ko'tarildi. Ushbu 24% lik o'sish shuni isbotlaydiki, ekologik axborotni shunchaki faktlar to'plami sifatida emas, balki pedagogik qonuniyatlar va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq holda yetkazish talabalarda axborotni tizimli tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi. Nazorat guruhida esa bilimlar asosan statik xarakterga ega bo'lib, ularning fanlararo bog'liqligi ta'minlanmaganligi sababli o'zlashtirish darajasi barqaror pastligicha qoldi.

2. Ekologik ong va qadriyatli munosabat (Affektiv-psixologik ko'rsatkich). «Eco-Diary» (Ekologik kundalik) va psixologik so'rovnomalar orqali olib borilgan monitoring natijalari tajriba guruhida 25% lik ijobiy dinamikani (58% dan 83% gacha) qayd etdi. Bu ko'rsatkich ekologik tarbiyaning eng murakkab bo'g'ini — ong transformatsiyasi sodir bo'lganligidan dalolat beradi. Talabalar kundalik hayotda suv va energiya resurslarini tejash, chiqindilarni minimallashtirish kabi faoliyatlarni o'z «Eco-Diary»larida muntazam qayd etib borishlari natijasida, ekologik mas'uliyat ularning shaxsiy e'tiqodiga aylandi. Psixologik nuqtai nazardan, bu jarayon ekologik ongning «bilish» bosqichidan «barqaror xulq-atvor» bosqichiga o'tganligini tasdiqlaydi.

3. Amaliy-metodik kompetensiyalarning shakllanishi (Praksiologik ko'rsatkich). Integrativ model asosida tahsil olgan talabalar loyiha ishlari va amaliy keyslarni yechishda 80% lik samaradorlikka erishdilar (dastlabki ko'rsatkich 55% edi). Bu 25% lik o'sish bo'lajak pedagoglarning nafaqat o'zlari ekologik madaniyatli bo'lishi, balki kelajakda o'z o'quvchilariga ushbu madaniyatni metodik jihatdan to'g'ri yetkazib bera olish qobiliyati shakllanganini ko'rsatadi.

Ilmiy muhokama va mintaqaviy umumlashma. Tadqiqot natijalarining Buxoro, Shahrisabz va Urganch kabi turli geografik va ijtimoiy-pedagogik muhitga ega hududlarda bir xil darajadagi barqaror ko'rsatkichlarni (o'rtacha +24-25%) namoyon etishi, taklif etilayotgan integrativ modelning universal metodologik xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi. 1-jadval. Talabalarning ekologik tayyorgarlik darajasi ko'rsatkichlari (Tajriba va nazorat guruhlari qiyosida, % da)

1-jadval. Talabalarning ekologik tayyorgarlik darajasi ko'rsatkichlari (Tajriba va nazorat guruhlari qiyosida, % da)

Baholash mezonlari	Nazorat guruhi (n=300)	Tajriba guruhi (n=300)	Dinamika (Farq)
Ekologik-nazariy bilimlar	62%	86%	+24%
Ekologik-psixologik ong	58%	83%	+25%
Amaliy-metodik ko'nikmalar	55%	80%	+25%

Olingan natijalar UNESCO (2020) va UNEP (2019) kabi xalqaro tashkilotlarning ekologik ta'limga oid strategik tavsiyalarini amaliy jihatdan boyitadi. Fanlararo integratsiya talabalarga ekologik muammolarni faqat tabiatshunoslik predmeti sifatida emas, balki insoniyatning

ma'naviy-axloqiy kamoloti bilan bog'liq bo'lgan global ijtimoiy-pedagogik vazifa sifatida idrok etish imkonini beradi. Pedagogika, psixologiya va metodika fanlarining o'zaro sintezi talabani «kasbiy-ekologik imidji»ni shakllantiruvchi fundamental omil sifatida namoyon bo'ldi.

Xulosa va tavsiyalar: Oliy ta'lim tizimida pedagogik fanlar integratsiyasi asosida talabalarga ekologik tarbiya berish masalalarini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish quyidagi fundamental xulosalarga kelish imkonini berdi:

1. Metodologik samaradorlik: Pedagogika, psixologiya va o'qitish metodikasi fanlarining o'zaro sintezi talabalarda ekologik bilimlarni shunchaki axborot sifatida emas, balki yaxlit dunyoqarash va kasbiy kompetensiya sifatida shakllantirishning eng maqbul yo'li ekanligi isbotlandi. Tadqiqot natijasida qayd etilgan 24% lik nazariy o'sish fanlararo bog'liqlikning kognitiv samaradorligini tasdiqlaydi.

2. Ong transformatsiyasi: Eksperiment davomida qo'llanilgan «Eco-Diary» metodikasi talabalarning ekologik ongi va mas'uliyatini 25% ga yuksaltirishga xizmat qildi. Bu ko'rsatkich ekologik tarbiyaning «bilish» bosqichidan «barqaror ekologik xulq-atvor» bosqichiga o'tganligini, ya'ni nazariyaning amaliy turmush tarziga aylanganligini ko'rsatadi.

3. Universal xarakter: Buxoro, Shahrisabz va Urganch pedagogika institutlarida olingan natijalarning bir xil darajadagi ijobiy dinamikasi (+24-25%) taklif etilayotgan integrativ modelning hududiy xususiyatlardan qat'i nazar, barcha pedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun universal va barqaror ekanligidan dalolat beradi.

4. Kasbiy tayyorgarlik: Integrativ yondashuv bo'lajak pedagoqlarning metodik mahoratini 25% ga oshirib, ularni kelajakda umumta'lim maktablarida ekologik tarbiyani zamonaviy loyihalar asosida tashkil eta oladigan mutaxassis sifatida shakllantirdi.

TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, oliy ta'lim tizimida ekologik tarbiya samaradorligini oshirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

- O'quv dasturlarini modernizatsiya qilish: Pedagogik turkumdagi fanlar (Umumiy pedagogika, Psixologiya, Ta'lim texnologiyalari) o'quv dasturlariga ekologik tarbiya va barqaror rivojlanish tamoyillarini qamrab olgan integrativ modullarni tizimli ravishda kiritish;

- Raqamli monitoringni joriy etish: Talabalarning ekologik faolligini doimiy baholab borish uchun «Eco-Diary» metodikasini raqamlashtirish va uni talabalarning mustaqil ishlarini nazorat qilish tizimiga integratsiya qilish;

- Loyihaviy ta'limni kengaytirish: Talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida hududiy ekologik muammolarga yo'naltirilgan «Ekopedagogik loyihalar» tanlovlarini muntazam tashkil etish;

- Metodik qo'llanmalar yaratish: Professor-o'qituvchilar uchun pedagogik fanlarni ekologik mazmun bilan boyitish bo'yicha fanlararo bog'liqlikni ta'minlovchi metodik tavsiyanomalar va keyslar to'plamini nashr etish.

Xulosa qilib aytganda, integrativ pedagogik yondashuv nafaqat talabalarning ekologik savodxonligini oshiradi, balki ularni tabiat va jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini chuqur anglaydigan yangi avlod pedagoqlari qilib tarbiyalashda strategik vosita bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGANADABIYOTLAR:

1. UNESCO. (2017). Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. Paris.

2. Sterling, S. (2021). Educating for the Future We Want. Journal of Environmental Education.

3. Lozano, R. (2020). Integrative Approaches to Sustainability Education. IJ SHE.
4. O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi. PF-5863-son, 2019.
5. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. (2010). Pedagogika. Toshkent: «O'qituvchi».
6. Jumayev R. G. (2021). Ekologik pedagogika. Toshkent: «Fan».
7. Barth, M. (2015). Implementing Sustainability in Higher Education. Routledge.
8. Leal Filho, W. (2020). The Role of HEIs in Addressing SDGs. IJSHE.
9. G'afforov Ya. (2021). Ekologik ta'lim-tarbiya metodikasi. Toshkent.
10. Egamova G. I. (2025) Talabalar uchun ekologik tarbiya tizimini modernizatsiya qilishda sun'iy intellekt va integratsiya imkoniyatlari. Buxoro.

TEKNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARIDA LAZER TEKNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QUVCHILARDA BUYUMLARNI KONSTRUKSIYALASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Shukurov Shuhrat Nasimovich

*Samarqand davlat pedagogika instituti, Aniq va amaliy fanlar fakulteti Tasviriy san'at
va texnologik ta'lim kafedrasida o'qituvchisi*

Mamarasulova Shaxnoza Abdujabbor qizi

*Samarqand davlat pedagogika instituti, Aniq va amaliy fanlar fakulteti Texnologik
ta'lim yo'nalishi iqtidorli talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarda kreativlik va konstruksiyalash qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida foydalanish lozim bo'lgan yangi texnologiyalar va o'qituvchi vazifalari haqidagi kerakli ma'lumotlar va manbalar keltirib o'tilgan. Maqolada berilgan ma'lumotlar asosida o'qituvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar o'zlariga uchun kerakli tavsiyalarni olishlari mumkin.

Kalit so'zlar: Ta'lim, metodika, amaliy dars, tafakkur, kreativlik, lazer texnologiyalari, suvenir buyumlar, fikrlash, ijodkorlik, fikrlash, erkinlik.

Аннотация: В данной статье представлена актуальная информация и ресурсы об обязанностях учителя, которые следует использовать для развития творческих способностей учащихся. Опираясь на информацию, представленную в этой статье, учителя и родители могут получить необходимую им консультацию.

Ключевые слова: обучение, методика, мышление, лазерные технологии, сувенирная продукция, творчество, характер, упражнение, мышление, творчество, мышление, свобода.

Annotation: This article provides relevant information and resources on teacher responsibilities that should be used to develop students' creative abilities. Based on the information provided in this article, teachers and parents can get the advice they need.

Keywords: teaching, methodology, thinking, creativity, laser technologies, souvenir items, character, exercise, thinking, creativity, thinking, freedom.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikmalarini ham rivojlantirishga qaratilgan. Ayniqsa, texnik yo'nalishdagi mutaxassislarini tayyorlashda lazer texnologiyalari bilan ishlash katta ahamiyatga ega. Bunday texnologiyalar yordamida o'quvchilar o'z g'oyalari real mahsulotlarga aylantira oladi. Bu esa ularning kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bolib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq.

Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuygularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon boladi.

Qobiliyatlar- shaxsning mazkur faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatdir.

Kompetensiya – bilim, ko'nikma va malakaning integratsiyalashgan tizimi.

Konstruksiyalash kompetensiyasi tarkibi:

Kognitiv komponentlik;

- Amaliy komponentlik;
- Kreativ komponentlik;
- Refleksiv komponentlik.

Mustaqil yondashuv - bu shaxsning biror bir berilgan topshiriqqa mustaqil ravishda yondashuvi.
Mustaqil fikrlash - bu fahmlash, anglash, fikr yuritish.

Mustaqil o'rganish - bu intilish, izlanish, o'z ustida mehnat qilish. Mustaqil ta'lim – o'quv rejadagi fanlar bo'yicha mavzu, topshiriq va vazifalarni mustaqil ravishda o'zlashtirishi.

Mustaqil ijodkorlik - faollik, talabchanlik, tashabbuskorlik.

Ta'lim-tarbiyaning rivojlanishi va ko'lamini kengayib borishi hozirgi davr o'qituvchilariga amaliy bilimlarni chuqurroq singdirilishini taqozo etmoqda. Shu asosda har bir o'quvchi muvaffaqiyatga erisha olishi uchun qulay bo'lgan o'quv vaziyatini vujudga keltirish innovatsion yondashuv orqali ta'minlanadi.

Hozirgi kunda zamonaviy dizayndagi mahsulotlar tayyorlash va materialga ishlov berishning eng samarali texnologiya va texnikalari bilan o'quvchilarni tanishtiribgina qolmay, balki shu texnikalarning biri bilan amaliy mashg'ulotlarda buyum ishlab chiqarishni o'quvchilarga o'rgatish orqali ularga bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni hosil qilish orqali zamonaviy, har tomonlama mukammal bilimli kadrlarni tayyorlash, barcha kasb-hunar ta'lim maskanlari oldidagi muhim masaladir. Bugungi kunda zamonaviy keng qo'llanilayotgan texnologiyalardan biri bu lazer texnologiyalaridir. Bu texnologiya rivojlangan mamlakatlarning ayniqsa hunar o'quv kurslari, texnikumlari, kasb-hunar maktablari va oliy ta'lim muassasalaridagi amaliy mashg'ulotlarda keng qo'llaniladi.

Ta'lim maskanlari uchun zamonaviy lazer dastgohlarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish – bu nafaqat o'quvchilarga amaliy ko'nikma berish, balki ularni sanoat va dizayn sohalaridagi zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirishda va zamonaviy ish usullarini o'zlashtirishlarida katta ahamiyatga ega.

O'quv jarayonida lazer texnologiyalarini qo'llashning afzalliklari:

1. Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish – o'quvchilarni lazer dastgohlaridan qanday foydalanishni o'rganadi.

2. Ijodkorlikni rivojlantirish – o'quvchi o'z loyihasini o'zi ishlab chiqadi va tayyorlaydi (masalan, gravirovka, kesish, naqsh tushirish).

3. Zamonaviy texnologiyalar bilan tanishish – bugungi dizayn va ishlab chiqarish jarayonlarida keng tarqalgan texnologiya.

4. Kichik biznes g'oyalari – o'quvchilar tayyorlagan suviner mahsulotlarini sotish orqali startap loyihalar boshlashi mumkin.

Lazer bilan ishlashda amaliy mashg'ulot bosqichlarini quyidagicha tuzish mumkin:

Bosqich	Faoliyat tavsifi
1. Nazariy kirish	Lazer texnologiyasining asoslari bilan tanishish, xavfsizlik qoidalari
2. Dizayn bosqichi	CorelDRAW , AutoCAD , Illustrator dasturlarida chizma chizish va dizayn yaratishni o'rganish
3. Lazer sozlash	Dastgohda kesish va gravirovka parametrlarini belgilashni o'rganish
4. Ishlab chiqarish	Yog'ochni kesish, gravirovka qilishni, belgilashni o'rganish
5. Yakuniy ishlov	Silliqlash, bo'yash, laklash amaliy ishlari
6. Taqdimot	O'quvchi tayyorlagan mahsulotni taqdim etadi va ta'riflaydi

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar lazer dastgohi yordamida yog'ochdan quyidagi oddiy suviner buyumlar turlarini yaratishlari mumkin: Kalitcha ilmoqlari (брелок), gravirovkalangan lavhalar, dekorativ plakatlar yoki rasmi taxtachalar, yog'och soatlar, qalamdonlar, vizitka ushlagichlari, o'quv esdalik sovg'alar yoki sertifikat ramkalari, o'yma naqshli qutichalar va xokazo.

Lazerli dastgoh bilan ishlov berishning afzalliklari

- Silliq va hatto kesuvchi konturga erishiladi.
- Yog'och detallarga kontaktsiz ishlov berish.
- Lazer uskunalari yordamida yog'ochda ishlab chiqarilgan naqsh va rasmlar uchun estetik jihatdan yoqimli, kontrastli qorong'u ko'rinishga ega bo'lish.
- Yog'ochdan yasalgan suvenirlarni yaratishning qulayligi va soddaligi.
- Jarayonning yuqori tezligi va lazerli dastgohida yangi yog'och mahsulot ishlab chiqarishga sozlash uchun minimal vaqt talab etiladi.
- Lazerni kesish jarayonining yuqori mahsuldorligi.
- Bir vaqtning o'zida kesish va o'yma hosil qilish.
- Mexanik ishlov berish orqali erishib bo'lmaydigan yog'ochni lazerli o'ymakorlikning yangi dekorativ xususiyatlarining mavjudligi va boshqa ijobiy jihatlar bor.

Lazer dastgohda ishlash jarayoni talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun juda foydali texnik vosita bo'lib hisoblanadi. Bu jarayon texnik bilimlar bilan bir qatorda, ijodiy yondashuvni ham talab qiladi.

Quyida lazer dastgoh orqali kreativ fikrlash qanday shakllanishi mumkinligi haqida ba'zi jihatlarni keltish mumkin:

1. Raqamli dizayn va tasavvur:

Lazer dastgohda ishlashdan oldin talabalar o'z g'oyalari grafik dasturlarda (masalan, CorelDRAW, AutoCAD, Illustrator) yaratishadi. Bu bosqichda ular:

- Grafik dizayn dasturlari orqali lazer uchun chizmalar tayyorlash talabani estetik fikrlashga, vizual tafakkurni rivojlantirishga undaydi. Muammoga turli burchaklardan yondashishni o'rganadilar, Estetik va funksional dizaynni uyg'unlashtirishga harakat qiladilar, Amaliyotga tatbiq qilinadigan yangi g'oyalarni o'ylab topadilar.

2. Eksperiment va sinov

Lazer bilan kesish yoki gravirovka qilish jarayonida talabalar:

- Turli materiallar bilan tajriba qilishadi (fanera, akril, karton, charm va boshqalar),
- Xatoliklardan saboq olishadi va dizaynni takomillashtirishadi,
- Har bir loyihani yaxshilash uchun innovatsion yondashuvlarni sinab ko'rishadi.

3. Muammolarni hal qilish qobiliyati

Lazer dastgohda ishlashda ba'zida texnik nosozliklar yoki materialga oid muammolar bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda:

- Talabalar muammoni tahlil qilib, mustaqil yechim topishga harakat qilishadi,
- Turli alternativ usullarni ishlab chiqishadi,
- Har bir muvaffaqiyatsiz urinishni yangi imkoniyat sifatida ko'rishadi.

4. Fanlararo bog'liqlik (integratsiya) yondashuvi

Lazer dastgoh loyihalari ko'pincha boshqa fanlar bilan uyg'unlashadi:

- Dizayn + fizika (nurlar, energiya, elektr toki),
- Dizayn + matematika (o'lchamlar, geometriya, yuza, hajm),
- Dizayn + ekologiya (qayta ishlash, chiqindisiz texnologiyalar, tejamkorlik).

5. Estetik tafakkur va individual yondashuv

Har bir talaba o'z shaxsiy didi, madaniyati va qiziqishlariga asoslangan dizaynlar yaratadi. Bu esa:

- Shaxsiy kreativlikni rivojlantiradi,
- O'ziga xos fikrlash tarzini shakllantiradi,
- Estetik va funksional muvozanatni yaratishga undaydi.

Kritik fikrlash: Lazer dastgoh bilan ishlashda har bir detal haqida o'ylash kerak – dizayn mos keladimi, kesim aniq bo'ladimi, material zarar ko'rmaydimi – bu o'ylash jarayoni tanqidiy tafakkurni kuchaytiradi.

Moslashuvchan fikrlash: Loyiha davomida yuzaga keladigan xatoliklarni hal qilish kreativ yechimlar topishni talab qiladi va talaba shakllanib boradi.

Xulosa. Lazer dastgohda ishlash nafaqat amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi, balki o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, yangilik izlashga undaydi. Bu esa ularni zamonaviy kasbga moslashgan, mustaqil va innovatsion fikrlay oladigan mutaxassis bo'lib shakllanishiga zamin yaratadi. Shunday qilib, lazer texnologiyasini o'quv jarayoniga joriy qilish orqali ta'lim sifatini va talabalarning kreativ salohiyatini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017 yil, 488 bet.

2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini Birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016 yil, 56 bet.

3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma.– Toshkent 2015,40 bet

4. Davletshin M.G, Do'stmuhamedova Sh., Mavlanov M., To'ychiyeva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. (O'quv metodik qo'llanma). Nizomiy nomidagi TDPU. 2004-yil. 102 b. 46-47 betlar.

5. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua – Toshkent. 2016-yil.

6. Jo'rayev P.X., Raximov B.X., Xomatov SH.F. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'limga asoslangan o'quv-metodik qo'llanma. –T.: Fan, 2005-yil, 66 b.

7. Aliyev A. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. –Toshkent: O'qituvchi,1991-yil, 40bet.

8. R. Sh. Mamatov, A. A. Saidov – "Materialshunoslik va lazer texnologiyalari" 199-yil. 45 bet.

9. William Steen, Jyotirmoy Mazumder – "Laser Material Processing"

10. Э.И. Агеев, В.П. Вейко, С.Г. Горный, Г.В. Одинцова, А.А. Петров -"Лазерная обработка конструкционных материалов" Университета ИТМО 197101, Санкт-Петербург, Кронверкский пр, 49

MILLIY LIBOSLARNING TARIXIY-MADANIY SHAKLLANISHI VA ULARNING BADIY-ESTETIK MOHIYATINI PEDAGOGIK ASOSDA O'RGANISH

Sattorova Iroda Anvarovna
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy liboslarning tarixiy-madaniy shakllanish jarayoni, ularning xalq hayoti, urf-odatlari va an'analari bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, turli davrlarda milliy liboslarda yuz bergan o'zgarishlar, hududiy xususiyatlar hamda ularning badiiy-estetik mohiyati yoritib beriladi. Milliy liboslarning rang, bezak, mato va shakl jihatidan ifodalovchi ma'naviy va ramziy mazmuni ochib berilib, ularning bugungi kundagi ahamiyati va zamonaviy dizayndagi o'rni ko'rib chiqiladi. Maqolada milliy merosni asrash va uni yosh avlodga yetkazish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: milliy libos, tarixiy taraqqiyot, madaniy meros, badiiy-estetik mohiyat, an'anaviy kiyim, bezak san'ati, rang ramziyligi, xalq urf-odatlari, hududiy xususiyatlar, zamonaviy dizayn.

НАЦИОНАЛЬНАЯ ОДЕЖДА: ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНОЕ ФОРМИРОВАНИЕ И ЕЁ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ

Сатторова Ирода Анваровна
преподаватель Каршинского государственного университета

Аннотация: В данной статье анализируется процесс историко-культурного формирования национальной одежды, её тесная связь с образом жизни народа, его обычаями и традициями. Также освещаются изменения, происходившие в национальной одежде в разные исторические периоды, её региональные особенности и художественно-эстетическая сущность. Раскрывается духовное и символическое содержание, выражаемое через цвет, орнамент, ткань и форму национального костюма, а также рассматривается его значение в современности и роль в современном дизайне. В статье уделяется особое внимание вопросам сохранения национального наследия и передачи его молодому поколению.

Ключевые слова: национальная одежда, историческое развитие, культурное наследие, художественно-эстетическая сущность, традиционный костюм, декоративное искусство, символика цвета, народные обычаи, региональные особенности, современный дизайн.

NATIONAL CLOTHING: HISTORICAL AND CULTURAL FORMATION AND ITS ARTISTIC AND AESTHETIC ESSENCE

Sattorova Iroda Anvarovna
Lecturer at Karshi State University

Abstract: This article analyzes the process of the historical and cultural formation of national clothing and its close connection with the lifestyle of the people, their customs, and traditions. It also highlights the changes that occurred in national clothing across different historical periods, its regional characteristics, and its artistic and aesthetic essence. The spiritual and symbolic meanings expressed through color, ornamentation, fabric, and form of national costume are revealed, as well as its significance in the present day and its role in modern design. The article also pays special attention to the issues of preserving national heritage and passing it on to the younger generation.

Keywords: national clothing, historical development, cultural heritage, artistic and aesthetic essence, traditional costume, decorative art, color symbolism, folk customs, regional characteristics, modern design.

Kirish (Introduction). Milliy liboslar har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniy merosi va estetik qarashlarini o'zida mujassam etgan muhim ijtimoiy-madaniy hodisalardan biri hisoblanadi. Ular nafaqat insonning tashqi ko'rinishini bezabgina qolmay, balki uning ijtimoiy mavqei, yoshi, jinsi, kasbi va hududiy mansubligi haqida ham muayyan ma'lumot beradi. Shu jihatdan milliy kiyimlar asrlar davomida shakllanib, xalqning turmush tarzi, tabiiy sharoiti, urf-odatlar va an'analari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib kelgan.

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, milliy liboslar yosh avlodni tarbiyalashda muhim didaktik vosita sifatida xizmat qiladi. Ular orqali o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy tafakkurni rivojlantirish, estetik didni shakllantirish hamda madaniy merosga hurmat ruhini singdirish mumkin. Ayniqsa, tasviriy san'at, texnologiya va tarix fanlari doirasida milliy liboslarni o'rganish o'quv jarayonini yanada mazmunli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni zamonaviy ta'lim bilan uyg'unlashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli milliy liboslarning badiiy-estetik mohiyatini pedagogik yondashuv asosida o'rganish, ularning rang, shakl, bezak va mato orqali ifodalanadigan ramziy ma'nolarini o'quvchilarga yetkazish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, estetik tafakkurini boyitish va milliy madaniyatga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur ishda milliy liboslarning tarixiy-madaniy shakllanish jarayoni, ularning rivojlanish bosqichlari hamda badiiy-estetik xususiyatlari pedagogik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy liboslarni ta'lim jarayonida o'qitish metodlari, ularning tarbiyaviy ahamiyati hamda zamonaviy dizayn bilan uyg'unlashuv masalalari ilmiy nuqtai nazardan yoritib beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Milliy liboslar mavzusi san'atshunoslik, etnografiya, madaniyatshunoslik hamda tarix fanlari doirasida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, A.K. Ashirov, G.A. Pugachenkova hamda L.I. Rempel kabi olimlar o'z tadqiqotlarida milliy kiyimlarning kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichlari va badiiy xususiyatlarini yoritib berganlar. Ushbu ilmiy manbalarda milliy kiyimlarning ijtimoiy-madaniy ahamiyati ham muhim jihat sifatida talqin qilinadi.

Avvalo, etnografik tadqiqotlarda milliy liboslar xalqning turmush tarzi, urf-odatlar va xo'jalik faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda talqin etiladi. Bu borada S.P. Tolstov hamda B.A. Litvinskiy tadqiqotlarida an'anaviy kiyimlarning shakllanishi uzoq tarixiy jarayon mahsuli ekanligi, ularning har bir elementi muayyan ramziy va amaliy vazifani bajargani ta'kidlanadi. Xususan, chopon, do'ppi, ro'mol, belbog' va zargarlik buyumlari xalqning dunyoqarashi va estetik qarashlarini aks ettiruvchi vosita sifatida baholanadi.

Tarixiy manbalarda esa milliy liboslarning rivojlanishi turli davrlar kesimida ko'rib chiqiladi. V.V. Bartold va Ibn Battuta asarlarida Markaziy Osiyo xalqlarining kiyinish madaniyati qadimgi davrlardan boshlab shakllanganligi va keyinchalik savdo hamda madaniy aloqalar ta'sirida boyib borgani qayd etiladi. Ayniqsa, Buyuk ipak yo'li orqali yuzaga kelgan madaniy almashinuv liboslarning shakli, matosi va bezaklarida yaqqol namoyon bo'lgan.

San'atshunoslikka oid adabiyotlarda milliy liboslarning badiiy-estetik xususiyatlari alohida o'rganilgan. G.A. Pugachenkova va L.I. Rempel ilmiy ishlarida kiyimlarning kompozitsion tuzilishi, rang uyg'unligi va naqsh tizimi chuqur tahlil qilinadi. Ularning fikricha, milliy kiyimlarda ranglar ramziy ma'noga ega bo'lib, oq rang poklikni, qizil rang hayotiylikni, yashil rang esa yangilanishni anglatadi. Shuningdek, kashtachilik, zardo'zlik va to'qimachilik san'ati milliy liboslarning estetik jozibasini belgilovchi asosiy omillar sifatida qaraladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa milliy liboslarning bugungi kundagi ahamiyati va ularni moda bilan uyg'unlashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Bu borada F. B. Karimova hamda R. Rasulova ishlarida milliy elementlarning zamonaviy dizaynda qayta talqin qilinayotgani, milliylik va zamonaviylik uyg'unligi yangi estetik yechimlarga olib kelayotgani ta'kidlanadi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar globallashuv jarayonida milliy kiyimlarning asl ko'rinishi yo'qolib borish xavfi mavjudligini ham qayd etadilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy liboslar ko'proq tarixiy va etnografik jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da, ularning badiiy-estetik mohiyatini kompleks yondashuv asosida tadqiq etish zarurati mavjud. Bu esa mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi va yangi ilmiy izlanishlar olib borishni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Mazkur tadqiqotda milliy liboslarning tarixiy-madaniy shakllanishi hamda ularning badiiy-estetik mohiyatini o'rganishda kompleks va tizimli yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy metodlar uyg'un holda foydalanildi.

Avvalo, tarixiy metod asosida milliy liboslarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari turli davrlar kesimida tahlil qilindi. Ushbu metod orqali milliy kiyimlarning qadimgi davrlardan boshlab bugungi kungacha bo'lgan evolyutsiyasi, ularning ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida qanday o'zgarib borganligi aniqlashtirildi.

Shuningdek, etnografik metod yordamida milliy liboslarning xalq turmush tarzi, urf-odatlar va an'analari bilan bog'liqligi o'rganildi. Bu jarayonda an'anaviy kiyimlarning funksional va ramziy jihatlari, ularning marosimlar, kundalik hayot va ijtimoiy muhitdagi o'rni tahlil qilindi.

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod ham muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu metod orqali turli hududlarga xos milliy liboslar o'zaro taqqoslanib, ularning umumiy va farqli jihatlari, hududiy xususiyatlari hamda o'ziga xos bezak va shakllari aniqlab berildi. Natijada milliy kiyimlarning mintaqaviy rang-barangligi ilmiy asosda yoritildi.

Bundan tashqari, san'atshunoslik tahlili metodi orqali milliy liboslarning badiiy-estetik xususiyatlari — rang uyg'unligi, kompozitsiya, naqsh tizimi, mato sifati va bezak elementlari chuqur o'rganildi. Ushbu metod milliy kiyimlarning estetik qimmatini hamda ularning vizual ifoda vositalarini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida tizimli va kompleks yondashuv asosida mavjud ilmiy adabiyotlar, tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar o'rganilib, umumlashtirildi. Shuningdek, kuzatish va tavsiflash metodlari yordamida milliy liboslarning amaliy ko'rinishlari va zamonaviy dizayndagi qo'llanilishi ham tahlil qilindi.

Mazkur metodologik yondashuvlar milliy liboslarning nafaqat tarixiy taraqqiyotini, balki ularning badiiy-estetik mohiyatini ham chuqur va har tomonlama o'rganish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

O'tkazilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, milliy liboslarning tarixiy va madaniy jihatdan shakllanishi murakkab hamda bir necha bosqichlarni o'z ichiga olgan jarayon hisoblanadi. Dastlabki davrlarda kiyimlar insonning tabiiy-iqlim sharoitiga moslashuvi va kundalik ehtiyojlarini qondirish maqsadida yuzaga kelgan bo'lsa, keyinchalik ular jamiyat taraqqiyoti davomida ijtimoiy, madaniy va estetik omillar ta'sirida takomillashib bordi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, milliy kiyimlarning shakllanishida tabiiy-geografik muhit muhim omillardan biri bo'lgan. Xususan, issiq hududlarda asosan yengil, keng va havoni yaxshi o'tkazadigan matolardan tikilgan liboslar keng tarqalgan, sovuq iqlim sharoitida esa issiqlikni saqlovchi qalin materiallardan foydalanilgan. Bu holat milliy kiyimlarning shakli, tuzilishi va konstruktiv yechimlariga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Bundan tashqari, milliy liboslarning rivojlanish jarayonida ijtimoiy omillar ham alohida o'rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kiyim-kechak orqali insonning jamiyatdagi o'rni, yoshi, jinsi hamda kasbiy faoliyati aks ettirilgan. Ayniqsa, marosimlarda kiyiladigan liboslar bilan kundalik kiyimlar o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjud bo'lib, bu farqlar asosan bezaklar darajasi va mato sifati orqali namoyon bo'lgan.

O'tkazilgan badiiy-estetik tahlillar esa milliy liboslarning san'at asari sifatidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Ularning ranglar uyg'unligi, naqsh va bezak tizimi chuqur ramziy mazmunga ega bo'lib, xalqning estetik qarashlari hamda dunyoqarashini ifodalaydi. Jumladan, ranglar tanlovi tasodifiy emas, balki ma'lum ma'naviy mazmuni anglatadi: oq rang poklik va soflikni, qizil rang

hayotiy energiyani, yashil rang esa tabiat va yangilanishni ifodalovchi ramz sifatida talqin etiladi.

Hududiy tahlillar natijasida milliy liboslarda sezilarli mintaqaviy farqlar mavjudligi aniqlandi. Har bir hudud o'ziga xos bezak elementlari, naqshlar tizimi va tikuv an'analari bilan ajralib turadi. Bu holat milliy kiyimlarning rang-barangligi hamda ularning boy madaniy meros ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Zamonaviy davrni o'rganish shuni ko'rsatadiki, milliy liboslar hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan. Aksincha, ular zamonaviy moda va dizayn yo'nalishlarida faol qo'llanilib, yangi shakl va uslublarda namoyon bo'lmoqda. Milliy elementlarning zamonaviy kiyimlarga integratsiya qilinishi milliy an'analari bilan global moda tendensiyalari o'rtasida uyg'unlikni ta'minlamoqda.

Milliy liboslarning paydo bo'lishi insoniyat tarixining dastlabki davrlariga borib taqaladi. Ilk bosqichlarda kiyimlar asosan tabiiy sharoitlardan himoyalaniş vositasi sifatida yaratilgan bo'lib, insonlar hayvon terilari, jun hamda o'simlik tolalaridan foydalanib oddiy kiyimlar tayyorlashgan. Jamiyat taraqqiyoti davomida esa kiyimlarning shakli va mazmuni sezilarli darajada o'zgarib, murakkablashib borgan.

Markaziy Osiyo qadimdan turli madaniyatlar tutashgan hudud sifatida tanilgan. Ushbu mintaqadan o'tgan Buyuk ipak yo'li turli xalqlar o'rtasida madaniy almashinuvni kuchaytirgan. Natijada liboslarda turli uslublar, naqshlar va materiallarning o'zaro uyg'unlashuvi yuzaga kelgan. Ayniqsa, ipak matolarning keng tarqalishi milliy kiyimlarning yanada nafis va jozibador bo'lishiga xizmat qilgan.

O'zbek milliy liboslarining taraqqiyotida temuriylar davri alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrda saroy madaniyati yuksalib, kiyimlar ham yanada hashamatli va bezaklarga boy ko'rinishga ega bo'lgan. Atlas, adras, bekasab kabi matolar keng qo'llanilib, murakkab naqsh va bezaklar yaratila boshlagan. Shu bilan birga, kiyimlar orqali insonning jamiyatdagi mavqei va ijtimoiy o'rni ham ifodalangan.

O'zbekiston hududida milliy liboslar xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Har bir hududning iqlimi, turmush tarzi va madaniy an'analari liboslarda o'z aksini topgan. Masalan, Farg'ona vodiysida ayollar kiyimlari yorqin rangli atlas va adras matolaridan tikilib, nozik o'simliksimon naqshlar bilan bezatiladi. Buxoro va Samarqand hududlarida esa kiyimlar ko'proq bezakdor bo'lib, zar iplar, kashtachilik va oltin suvi bilan ishlangan elementlar keng qo'llaniladi. Xorazm va Qoraqalpog'iston hududlarida esa liboslar soddaroq bo'lishiga qaramay, geometrik naqshlar va o'ziga xos shakllari bilan ajralib turadi.

Milliy liboslarning badiiy-estetik mohiyati ularning ranglari, naqshlari va bezaklarida namoyon bo'ladi. Ranglar tizimi muhim ahamiyat kasb etib, har bir rang muayyan ramziy ma'noni anglatadi. Jumladan, qizil rang hayotiylik va quvonchni, oq rang poklikni, yashil rang esa tabiat va yangilanishni ifodalaydi. Ranglarning o'zaro uyg'unligi esa kiyimning umumiy estetik ko'rinishini belgilaydi.

Naqsh va bezak elementlari milliy liboslarning ajralmas qismi bo'lib, ular orqali xalqning estetik qarashlari va dunyoqarashi ifodalanadi. O'simliksimon, geometrik va ramziy naqshlar keng qo'llanilib, ayniqsa kashtachilik san'ati orqali murakkab va nafis bezaklar yaratiladi.

Shuningdek, liboslarning shakli va konstruksiyasi ham muhim estetik ahamiyatga ega. Ular inson tanasiga moslab ishlab chiqilib, qulaylik va go'zallik uyg'unligini ta'minlaydi. Shu jihatdan milliy kiyimlar insonning tashqi ko'rinishi bilan birga uning ichki dunyosini ham ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Milliy liboslar jamiyat hayotida muhim ijtimoiy vazifani bajaradi. Ular orqali insonning yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqei va oilaviy holati haqida ma'lumot olish mumkin. Masalan, kelin liboslari, bayram kiyimlari va kundalik liboslar o'zining shakli va bezagi bilan bir-biridan farqlanadi.

Bundan tashqari, milliy kiyimlar madaniy merosni saqlashda muhim vosita hisoblanadi. Ular orqali ajdodlardan meros bo'lib qolgan an'analari, qadriyatlar va estetik qarashlar keyingi avlodlarga yetkaziladi. Shu bois milliy liboslar xalqning madaniy identifikatsiyasini belgilovchi

asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Bugungi kunda milliy liboslar an'anaviy xususiyatlarini saqlagan holda zamonaviy moda bilan uyg'unlashib bormoqda. Dizaynerlar milliy elementlarni zamonaviy kiyimlarga tatbiq etib, yangi uslublar yaratmoqda. Natijada milliy kiyimlar nafaqat bayramlarda, balki kundalik hayotda ham keng qo'llanilmoqda.

Moda sanoatida milliy naqshlar, atlas va adras matolari hamda kashtachilik elementlaridan keng foydalanilib, milliy ruhni aks ettiruvchi zamonaviy kolleksiyalar yaratilmoqda. Bu esa milliy liboslarning nafaqat madaniy, balki iqtisodiy ahamiyatini ham oshirayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ayrim muammolarni ham ko'rsatdi. Xususan, globallashuv jarayonida milliy liboslarning an'anaviy ko'rinishlari asta-sekin yo'qolib borish xavfi mavjud. Shu sababli milliy kiyimlarni saqlash, o'rganish va yosh avlodga yetkazish zarurati dolzarb masala sifatida e'tirof etiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Olib borilgan tadqiqotlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, milliy liboslar xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniy merosi va estetik qarashlarini o'zida mujassam etgan muhim ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanadi. Ularning shakllanishi uzoq tarixiy jarayon davomida iqlimiy sharoitlar, ijtimoiy munosabatlar, urf-odatlar va madaniy aloqalar ta'sirida yuzaga kelgan.

Tadqiqot natijalari milliy liboslarning nafaqat amaliy kiyim, balki chuqur ramziy va badiiy-estetik mazmunga ega san'at asari ekanligini ko'rsatdi. Ranglar uyg'unligi, naqshlar tizimi, mato va bezak elementlari orqali xalqning dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlarini hamda estetik ideallari ifodalanadi. Shu bilan birga, milliy kiyimlarning hududiy xususiyatlari ularning rang-barangligi va boy madaniy meros ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Zamonaviy davrda milliy liboslarning ahamiyati yanada ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Ular zamonaviy moda va dizayn bilan uyg'unlashib, yangi shakl va mazmun kasb etmoqda. Biroq globallashuv jarayoni milliy kiyimlarning asl qiyofasi va ramziy ma'nolarining yo'qolib borish xavfini ham yuzaga keltirmoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Milliy liboslarni ilmiy asosda o'rganish va ularni tizimli ravishda hujjatlashtirish zarur;
2. An'anaviy kiyimlar va ularning bezak san'atini saqlash va rivojlantirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish lozim;
3. Milliy libos elementlarini zamonaviy dizaynga moslashtirish orqali ularni kundalik hayotga keng joriy etish maqsadga muvofiq;
4. Yosh avlodda milliy qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantirish maqsadida ta'lim tizimida milliy liboslar tarixini o'qitishni kuchaytirish zarur;
5. Hunarmandchilik va an'anaviy tikuvchilikni qo'llab-quvvatlash orqali milliy kiyimlarning amaliy hayotdagi ahamiyatini oshirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, milliy liboslarni asrash va rivojlantirish nafaqat madaniy merosni saqlash, balki milliy o'zlikni anglash va uni kelajak avlodga yetkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. G.A. Pugachenkova. Искусство Средней Азии. – Ташкент: Издательство литературы и искусства, 1987.
2. L.I. Rempel. Архитектурный орнамент Узбекистана. – Ташкент: Госиздат, 1961.
3. S.P. Tolstov. Древний Хорезм. – Москва: МГУ, 1948.
4. V.V. Bartold. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва: Наука, 1963.
5. B.A. Litvinskiy. Культура и искусство древнего Среднего Востока. – Москва: Наука, 1972.
6. A.K. Ashirov. Ўзбек халқ кийимлари тарихи. – Тошкент: Фан, 2005.
7. O'zbekiston Fanlar akademiyasi. Ўзбек халқ амалий санъати. – Тошкент: Фан, 1991.
8. R. Rasulova. Миллий либос ва замонавий мода уйғунлиги. – Тошкент, 2018.
9. F.B. Karimova. Ўзбекистонда тўқимачилик ва миллий матолар тарихи. – Тошкент, 2016.
10. UNESCO. Traditional Crafts and Costume Heritage of Central Asia. – Paris, 2015.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MANTIQUIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

*Sharopova Gulchiroy Yusupovna,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda mantiqiy tafakkurni shakllantirishning samarali usullari, interaktiv metodlar, didaktik o'yinlar va muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda fanlararo integratsiya, refleksiv yondashuv hamda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mantiqiy fikrlash, boshlang'ich ta'lim, metodika, interaktiv metodlar, didaktik o'yinlar, muammoli ta'lim, refleksiv yondashuv, fanlararo integratsiya, raqamli texnologiyalar, tafakkur rivoji.

Inson tafakkuri qadim zamonlardan buyon ilmiy va falsafiy tadqiqotlarning markazida bo'lib kelgan. Qadimgi yunon faylasufi Socrates fikrlashni insonning borliqni va o'zini anglash vositasi sifatida talqin etgan bo'lib, bu jarayonda shaxs o'z-o'zini takomillashtirib borishini ta'kidlaydi. Shuningdek, Aristotile fikrlashni sezgi orqali olinadigan bilimlarga tayanuvchi jarayon sifatida izohlaydi va tafakkur konkret bilimlardan abstrakt xulosalarga tomon rivojlanishini asoslaydi.

XVII asrda yashagan fransuz faylasufi René Descartes "Men o'ylayman, demak men mavjudman" degan mashhur g'oyasi orqali fikrlashning inson hayotidagi o'rnini yuksak baholagan. Shu davrda Baruch Spinoza bilishning turli darajalarini ajratib ko'rsatib, mantiqiy fikrlashni chin bilimga eltuvchi asosiy vosita sifatida talqin etadi. Keyinchalik nemis mutafakkiri Immanuel Kant tafakkurni turli turlarga ajratib, uning shakllari va xususiyatlarini ilmiy asosda tasniflab berdi.

Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko'ra, fikrlash — bu insonning bilish faoliyatining eng muhim shakli bo'lib, upredmet va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish hamda munosabatlarni umumlashtirilgan va bilvosita tarzda aks ettirish jarayonidir. Fikrlash inson miyasi faoliyatining mahsuli bo'lib, unda tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish va abstraksiyalash kabi aqliy operatsiyalar muhim o'rin tutadi.

Psixologik nuqtai nazardan, fikrlash bir qator muhim xususiyatlarga ega. Avvalo, u bilvosita xarakterga ega bo'lib, inson bevosita idrok eta olmaydigan hodisalarni ham mantiqiy xulosalar orqali anglay oladi. Ikkinchidan, fikrlash umumlashtiruvchi xususiyatga ega bo'lib, predmet va hodisalarning muhim belgilarini ajratib olish imkonini beradi. Uchinchidan, fikrlash doimo muayyan muammoni hal qilish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, aynan muammoli vaziyatlarda faol namoyon bo'ladi. Nihoyat, fikrlash nutq bilan uzviy bog'liq bo'lib, inson tafakkuri til vositasida shakllanadi va ifodalanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mantiqiy fikrlashni rivojlantirish alohida pedagogik ahamiyatga ega. Chunki aynan shu davrda bolalarda tahliliy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Shu bois, ta'lim jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarni takomillashtirish, interaktiv metodlar va muammoli ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat

kasb etadi.

Nazariy obrazli fikrlash inson tomonidan tafakkur jarayonida turli obrazlardan foydalanish, ularni o'zgartirish va ular bilan mantiqiy operatsiyalar bajarish bilan bog'liq. Mazkur obrazlar uzoq muddatli xotiradan olinishi yoki inson tasavvuri orqali yangidan yaratilishi mumkin. Aynan obrazli fikrlash orqali o'quvchi predmet va hodisalarning turli jihatlarini yaxlit holda tasavvur eta oladi, ularni bir vaqtning o'zida turli nuqtai nazardan ko'ra boshlaydi. Obrazli fikrlashning muhim xususiyati shundaki, u predmet va ularning belgilarini noodatiy, ba'zan "kutilmagan" kombinatsiyalarda bog'lash imkonini beradi.

Obrazli fikrlashning asosiy vazifasi – muayyan didaktik vazifa asosida obrazlar yaratish va ularni qayta ishlashdan iborat. Bu jarayonda mavjud tasavvurlar yangilanadi, yangi obrazlar shakllanadi hamda o'quvchining bilish faoliyati boyiydi. Mazkur fikrlash turi tanib olish, ajratish, shakllantirish, o'zgartirish va umumlashtirish kabi aqliy operatsiyalar orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, nazariy tushunchaviy fikrlash va nazariy obrazli fikrlash o'zaro uyg'unlashib, o'quvchilarga borliqni yanada to'liq anglash imkonini yaratadi.

Amaliy fikrlash turlari esa bevosita real hayotiy vaziyatlar bilan bog'liq bo'lib, ular atrof-muhitni idrok etish asosida amalga oshadi. Xususan, ko'rgazmali-obrazli amaliy fikrlashda o'quvchi tasavvur va obrazlar bilan ishlaydi, biroq ular ustida tub o'zgarishlar amalga oshirilmaydi. Bunda o'quvchi predmetlarni kuzatish orqali muammoni hal etadi, ammo ularni bevosita o'zgartirmaydi.

Ko'rgazmali-amaliy fikrlash esa real predmetlar bilan bevosita faoliyat jarayonida yuzaga keladi. Bunday fikrlashda o'quvchi muammoni hal qilish uchun predmetlar bilan amaliy harakatlar bajaradi, tajriba o'tkazadi, sinab ko'radi va natijada bilim hosil qiladi. Bu ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muhim bo'lib, ular uchun bilim olish jarayoni ko'proq amaliy faoliyat bilan bog'liq kechadi.

Ba'zi ilmiy qarashlarda nazariy fikrlash amaliy fikrlashga nisbatan yuqori darajada deb baholansa-da, zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko'ra, barcha fikrlash turlari o'zaro uzviy bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Yangi fikrlash shakllari paydo bo'lishi bilan avvalgilari yo'qolib ketmaydi, balki rivojlanib boradi. Shu bois, mukammal mantiqiy fikrlashni shakllantirish uchun, eng avvalo, ko'rgazmali-amaliy fikrlashdan boshlab barcha bosqichlarni izchil rivojlantirish zarur.

Tadqiqotchilar, jumladan Yuri R. Valkman fikriga ko'ra, tafakkur jarayonida obrazli va tushunchaviy mantiq bir vaqtda faoliyat ko'rsatadi va ular yagona tafakkur tizimini tashkil etadi. Demak, o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda bu ikki komponentni uyg'unlashtirish muhim metodik shart hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash darajasi individual xususiyatlarga ko'ra farqlanadi. Shu sababli ta'lim jarayonida differensial yondashuvni qo'llash, ya'ni har bir o'quvchining qobiliyati va rivojlanish darajasini hisobga olgan holda metodlarni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar, didaktik o'yinlar hamda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mantiqiy fikrlashni samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fikrlash — bu borliqni bilvosita va umumlashtirilgan tarzda aks ettiruvchi murakkab bilish jarayoni bo'lib, uning asosiy vazifasi predmetlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash, sabab-oqibat munosabatlarini ochib berish va bilimlarni tizimlashtirishdan iborat. Boshlang'ich ta'limda ushbu jarayonni metodik jihatdan takomillashtirish o'quvchilarning intellektual rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mantiqiy fikrlashni shakllantirish, avvalo, o'quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirish, mustaqil xulosa chiqarish, dalillash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni anglatadi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish quyidagi asosiy aqliy amallarni o'zlashtirishni nazarda tutadi:

- kuzatilgan obyektlarni taqqoslash, ulardagi umumiylik va farqlarni aniqlash;
- obyektlarning muhim belgilarini ajratish va ikkinchi darajali xususiyatlardan farqlash;
- obyektning tarkibiy qismlarini tahlil qilish va ularni yagona tizim sifatida umumlashtirish;
- kuzatuv va faktlarga asoslangan holda xulosalar chiqarish hamda ularni asoslash;
- o'z fikrlarini dalillash, noto'g'ri xulosalarni inkor etish;
- fikrlarni izchil, mantiqan asoslangan va qarama-qarshiliksiz ifodalash.

Mazkur ko'nikmalarni shakllantirish orqali o'quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash rivojlanadi, bu esa ularning bilimlarni mustaqil egallashiga zamin yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish jarayoni uzluksiz va tizimli tashkil etilishi zarur. Ushbu jarayonning samaradorligi ko'p jihatdan rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish usullari, metodlari va vositalariga bog'liq.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri – bu muammoli vaziyatlar asosida o'qitishdir. Har qanday muammo o'quvchini izlanishga, tahlil qilishga va mustaqil xulosa chiqarishga undaydi. Shu bois, ta'lim jarayonida muammoli topshiriqlar tizimidan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda quyidagi metodik yondashuvlar yuqori samaradorlikka ega:

1. Yechilgan muammo ustida ishlash. Ko'pincha o'quvchilar masalaning yechim rejasini uni qayta tahlil qilish orqali chuqurroq anglaydilar. Bu usul o'quvchilarda refleksiv fikrlashni rivojlantiradi.

2. Masalalarni turli usullar bilan yechish. Bir masalaga bir nechta yechim topish o'quvchilarda ijodiy va moslashuvchan fikrlashni shakllantiradi.

3. Vaziyatni modellashtirish. Masalada tasvirlangan holatni rasm, sxema yoki grafik ko'rinishda ifodalash o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va muammoni chuqurroq anglashga yordam beradi.

4. Nostandart masalalardan foydalanish. Bunday masalalar o'quvchilarning mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, kompyuter dasturlari va interaktiv o'yinlar o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi.

Maxsus ishlab chiqilgan ta'limiy dasturlar yordamida o'quvchilar:

- umumlashtirish;
- tasniflash;
- dalillash;
- mantiqiy xulosalar chiqarish kabi ko'nikmalarni samarali egallaydilar.

Bundan tashqari, muammolarni vizual tarzda ifodalash o'quvchilarda mantiqiy tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtiradi.

Shuningdek, dasturlash asoslarini o'rganish ham mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. Dastur tuzish jarayonida o'quvchi tahlil qilish, rejalashtirish, umumlashtirish va algoritmik fikrlashni o'zlashtiradi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda o'qituvchi va ota-onaning roli beqiyosdir. Ular:

- o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olishi;
- mos metod va vositalarni tanlashi;
- ta'lim jarayonini izchil tashkil etishi;
- raqamli vositalardan foydalanishda me'yorni saqlashi zarur.

Mazkur omillar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan ushbu bosqichda o'quvchilarning intellektual salohiyati, mustaqil fikrlash qobiliyati va bilish faoliyatining asoslari shakllanadi. Mantiqiy fikrlashning rivojlanishi o'quvchilarning nafaqat o'quv faoliyatida, balki kundalik hayotiy vaziyatlarda ham to'g'ri qaror qabul qilishiga xizmat qiladi.

Mantiqiy fikrlash, avvalo, aqliy amallar tizimi orqali shakllanadi. Taqqoslash, tahlil, sintez, umumlashtirish, abstraksiyalash kabi operatsiyalar o'quvchilarning tafakkurini bosqichma-bosqich rivojlantirib, ularni mustaqil xulosa chiqarishga, o'z fikrini asoslab berishga va muammoli vaziyatlarni hal etishga o'rgatadi. Bu esa o'quvchilarda mustaqil bilim olish kompetensiyasining shakllanishiga zamin yaratadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muammoli ta'lim, nostandart masalalar va modellashtirish metodlari mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda ayniqsa samarali hisoblanadi. Bunday metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, ularni izlanishga, turli yechim variantlarini topishga va mantiqiy bog'lanishlarni aniqlashga undaydi. Natijada o'quvchilar tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil ravishda egallovchi subyektga aylanadi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida raqamli texnologiyalar va dasturlash elementlaridan foydalanish ham mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Interaktiv dasturlar, mantiqiy o'yinlar va vizual modellashtirish vositalari orqali o'quvchilar murakkab tushunchalarni osonroq o'zlashtiradi, fikrlash jarayoni esa yanada faollashadi. Ayniqsa, algoritmik fikrlashni shakllantirish o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ta'lim jarayonini tizimli va differensial yondashuv asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir o'quvchining individual xususiyatlari, qobiliyati va rivojlanish darajasini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni mantiqiy fikrlashni samarali rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirish bilan birga, ularning ta'limga bo'lgan qiziqishini ham mustahkamlaydi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda o'qituvchi va ota-onaning hamkorligi alohida ahamiyatga ega. O'qituvchi tomonidan to'g'ri tanlangan metod va vositalar, ota-onalar tomonidan yaratilgan qulay muhit bilan uyg'unlashgandagina yuqori natijalarga erishish mumkin. Bu hamkorlik o'quvchining shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki keyingi ta'lim bosqichlariga mustahkam zamin yaratadi. Ushbu jarayon boshlang'ich va o'rta ta'lim o'rtasidagi uzviylikni ta'minlab, o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyati uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Jean Piaget. Bolalar tafakkuri va intellekt rivoji nazariyasi.
3. Lev Vygotsky. Tafakkur va nutq. – Moskva.
4. R.S. Nemov. Psixologiya. – Moskva.
5. John Dewey. Tajriba va ta'lim.
6. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent, 2021.
7. Boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2022.

MILLIY G'OYA, MA'NAVIYATGA OID FANLARNI O'QITISHDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM BERISHNING MAZMUN MOHIYATI

Jumayeva Feruza Faxriddinovna

Buxoro davlat pedagogika instituti, Ijtimoiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda differensial yondashuvning ahamiyati tahlil qilinadi. O'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish ularning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi, mustaqil fikrlashi va milliy ongini shakllantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Xulosa sifatida differensial ta'limning o'quv samaradorligini oshirishdagi muhim pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: differensial ta'lim, milliy g'oya, ma'naviyat, milliy ong, individual yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, motivatsiya, refleksiv fikrlash, fuqarolik pozitsiyasi, ta'lim samaradorligi.

Аннотация: В статье рассматривается значение дифференцированного подхода в преподавании дисциплин, связанных с национальной идеей и духовностью. Обосновано, что учет индивидуальных особенностей обучающихся способствует их духовно-нравственному развитию, формированию самостоятельного мышления и национального сознания. Результаты исследования подтверждают эффективность дифференцированного обучения.

Ключевые слова: дифференцированное обучение, национальная идея, духовность, национальное сознание, индивидуальный подход, личностно-ориентированное обучение, педагогические технологии, мотивация, рефлексивное мышление, гражданская позиция, эффективность обучения.

Abstract: This article examines the importance of differentiated instruction in teaching subjects related to national idea and spirituality. It is shown that considering students' individual characteristics enhances their moral development, independent thinking, and national consciousness. The findings confirm the effectiveness of differentiated learning.

Keywords: differentiated instruction, national idea, spirituality, national consciousness, individual approach, learner-centered education, pedagogical technologies, motivation, reflective thinking, civic engagement, learning effectiveness.

Bugungi kunda mamlakatimizda ham huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qurish strategik maqsad sifatida belgilangan bo'lib, ushbu yo'nalishda izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq mazkur maqsadga erishish faqat tashkiliy-huquqiy choralar bilangina cheklanib qolmaydi. Bu, avvalo, jamiyat hayotining barcha sohalarini - siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlarini kompleks rivojlantirishni, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarni chuqur o'rganib, ularni milliy taraqqiyot ehtiyojlariga mos ravishda ijodiy tatbiq etishni taqozo etadi. Huquqiy demokratik davlat hamda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayoni jahon tajribasida uzoq tarixiy rivojlanish bosqichlari orqali amalga oshib kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa hisoblanadi. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati tamoyillari asosida shakllangan jamiyatlar asrlar davomida demokratik qadriyatlar, institutlar va ijtimoiy munosabatlarni izchil rivojlantirib kelgan. Mazkur tajriba shuni ko'rsatadiki, demokratik jamiyatni barpo etish uzluksiz takomillashuvni, tizimli islohotlarni hamda ijtimoiy ong va tafakkurning

yuksalishini talab etadi.

Milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish va rivojlantirish ham muhim metodologik tamoyil sifatida namoyon bo'ladi. Asrlar davomida shakllangan an'ana va qadriyatlar, xalqimizga xos iymon-e'tiqod, ma'naviy poklik, bag'rikenglik kabi fazilatlar jamiyat barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Mazkur qadriyatlarni zamonaviy taraqqiyot jarayonlari bilan uyg'unlashtirish esa barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyotida milliy g'oya va ma'naviyat muhim konseptual asos bo'lib xizmat qiladi. Milliy g'oya jamiyat a'zolarini yagona maqsad atrofida birlashtiruvchi, ularni yuksak ma'naviy qadriyatlar sari yetaklovchi ijtimoiy-ruhiy omil sifatida namoyon bo'ladi. U nafaqat mafkuraviy yo'nalishni belgilaydi, balki shaxsning ma'naviy kamoloti, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy faolligini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi.

Milliy g'oya va ma'naviyat yetarli darajada shakllanmagan jamiyatda ijtimoiy rivojlanishning strategik yo'nalishlarini aniq belgilash va barqaror taraqqiyotni ta'minlash murakkablashadi. Bunday sharoitda ijtimoiy ongning parchalanishi, qadriyatlar tizimining izdan chiqishi hamda fuqarolik faolligining pasayishi kuzatilishi mumkin. Aksincha, milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlarning uyg'unlashuvi jamiyat taraqqiyotining muhim konseptual asosini tashkil etib, ijtimoiy tizimning barqarorligini mustahkamlovchi hamda uning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini belgilovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur uyg'unlik shaxsning ijtimoiy mas'uliyati, fuqarolik pozitsiyasi va ma'naviy kamolotini rivojlantirish orqali jamiyatni yuksak maqsadlar sari yo'naltiruvchi integrativ mexanizm vazifasini bajaradi. Shu ma'noda, milliy g'oya jamiyatning ma'naviy-ideologik platformasi sifatida uning taraqqiyot vektorini belgilovchi, fuqarolarni umumiy maqsad va qadriyatlar atrofida birlashtiruvchi hamda ijtimoiy birlikni ta'minlovchi muhim konseptual kategoriya sifatida talqin etiladi.

Milliy g'oya jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-ma'naviy omili sifatida xalq va millatni birlashtiruvchi, ularning umumiy maqsad va manfaatlar asosida jipslashuvini ta'minlovchi konseptual asos bo'lib xizmat qiladi. Milliy g'oya jamiyatning har bir a'zosini ma'naviy kamolotga yo'naltiradi, uning ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, milliy g'oya jamiyatda ma'naviy hayotni yuksaltirish, yuksak axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish hamda fuqarolarda ertangi farovon hayotga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlar tizimida milliy ong, milliy o'zlikni anglash hamda Milliy mentalitet yetakchi o'rin egallaydi. Mazkur kategoriyalar jamiyatning ma'naviy rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Agar milliy ong yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa, millat o'z tarixiy ildizlari, kelib chiqishi va ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini chuqur anglamasa, uning intellektual va ma'naviy salohiyati to'liq namoyon bo'lmaydi. Natijada milliy g'oya ham mazmunan sayozlashib, jamiyatni birlashtiruvchi kuch sifatidagi ta'sirini yo'qotishi mumkin. Bugungi kunda Yangi O'zbekiston sharoitida milliy g'oya va mafkura ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. U jamiyatni birlashtiruvchi kuch, ayniqsa yoshlar dunyoqarashida ertangi kunga ishonch, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu borada Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan g'oyalar alohida e'tiborga loyiq. Jumladan, 2018-yil 28-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llangan Murojaatnomada milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosni chuqur o'rganish va uni xolis baholash, ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish orqali milliy g'oyani rivojlantirish zarurligi alohida ta'kidlab o'tilgan[1]. Ushbu yondashuv milliy taraqqiyotning ilmiy va ma'naviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Millat o'zining tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarni

o'zlashtirishi hamda ularga amal qilishi orqali milliy g'oyaning rivojlanishiga zamin yaratadi. Chunki milliy ong va milliy o'zlikni anglash milliy g'oyaning shakllanishi va rivojlanishida asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Ushbu omillar jamiyat taraqqiyotiga muhim turtki berib, uni faol rivojlanish bosqichiga olib chiqadi. Shu bilan birga, milliy ong va o'zlikni anglash darajasining oshib borishi milliy g'oyaning imkoniyatlarini kengaytiradi, uning mazmun-mohiyatini boyitadi hamda jamiyatni strategik rivojlanish yo'nalishlariga samarali yo'naltirishga xizmat qiladi. Natijada milliy g'oya jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi, fuqarolarni yagona maqsad sari birlashtiruvchi va ma'naviy taraqqiyotning uzviyligini kafolatlovchi muhim ijtimoiy-psixologik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy ta'lim tizimida milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitish jarayonini takomillashtirish, avvalo, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ma'naviy-intellektual salohiyatini rivojlantirishni talab etadi. Bu borada differensial ta'lim yondashuvi muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va o'rganish uslublarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini individuallashtirishga xizmat qiladi. Milliy g'oya va ma'naviyat fanlarining o'ziga xosligi shundaki, ular nafaqat bilim berishga, balki shaxsda milliy ong, milliy o'zlikni anglash va ma'naviyat kabi murakkab ijtimoiy-psixologik sifatlarni shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayon esa o'quvchilarning individual tafakkur darajasi, ijtimoiy tajribasi va qadriyatlarga munosabatiga bevosita bog'liq bo'lib, bir xil metod va yondashuvlar orqali kutilgan natijaga erishish imkonini bermaydi. Shu sababli differensial yondashuvni qo'llash pedagogik zarurat sifatida yuzaga chiqadi.

Differensial ta'lim asosida tashkil etilgan dars jarayonida o'quvchilar turli darajadagi topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, bahs-munozaralar va reflektiv faoliyatlar orqali faol ishtirok etadilar. Bu esa ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, shaxsiy pozitsiyasini shakllantiradi hamda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni qaror toptiradi. Ayniqsa, milliy g'oya kabi abstrakt va qadriyatlarga yo'naltirilgan tushunchalarni o'zlashtirishda o'quvchilarning individual yondashuv asosida fikr yuritishi, tahlil qilishi va xulosa chiqarishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, differensial yondashuv o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Har bir o'quvchining bilim darajasiga mos topshiriqlar berilishi natijasida ular o'z imkoniyatlariga mos faoliyat bilan shug'ullanadi va muvaffaqiyat hissini boshdan kechiradi. Bu esa o'z navbatida ularning milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda o'quv jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydi.

Differensial ta'lim o'quvchilarning kommunikativ va reflektiv kompetensiyalarini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Guruhli ishlar, individual topshiriqlar va ijodiy faoliyatlar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalash, boshqalar fikrini hurmat qilish hamda ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etish ko'nikmalarini egallaydilar. Bu esa milliy g'oya va ma'naviyat fanlarining asosiy maqsadi - barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Shunga ko'ra, milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda differensial yondashuvni qo'llash ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning individual rivojlanishini ta'minlaydi hamda ularda milliy ong, ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim pedagogik asos bo'lib xizmat qiladi. Differensial ta'lim yondashuvi ta'lim jarayonini o'quvchilarning qobiliyatlari, qiziqishlari, o'rganish uslublari va individual ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning bilish faoliyatini individuallashtirish orqali ularning o'quv motivatsiyasini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda bilimlarni samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi. Natijada har bir o'quvchi o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etish, shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Differensial ta'lim asosida o'qitish - bu ta'lim jarayonini o'quvchilarning individual psixologik

va pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishga qaratilgan tizimli pedagogik yondashuvdir. Mazkur yondashuv doirasida o'quvchilarning qobiliyat darajasi, qiziqishlari, bilimlarni o'zlashtirish sur'ati va o'rganish strategiyalariga mos keladigan o'quv dasturlari, didaktik materiallar, topshiriqlar hamda baholash vositalari tanlanadi va moslashtiriladi. Differensiyalash jarayoni esa ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarini o'quvchilarning individual farqlariga mos holda variativ tarzda tashkil etishni anglatadi. Bu jarayonda o'qituvchi ta'limni individuallashtirish va moslashtirish orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini tenglashtirish emas, balki ularning har birining rivojlanish imkoniyatlarini maksimal darajada ochib berishga intiladi.

Shu nuqtai nazardan, differensial ta'lim o'quvchilarning kognitiv rivojlanishi, refleksiv faoliyati va mustaqil ta'lim olish kompetensiyalarini shakllantirishda muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi. U ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning faolligini kuchaytirish va shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amaliy jihatdan ta'minlashga xizmat qiladi.

Differensial dastur asosida ta'lim berish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u ta'lim jarayonini o'quvchilarning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirishga qaratilgan tizimli yondashuv sifatida talqin etiladi. Differensial ta'lim doirasida ta'lim jarayoni shaxsga yo'naltirilganlik tamoyiliga asoslanib tashkil etiladi, ya'ni har bir o'quvchining qobiliyati, qiziqishi, o'rganish uslubi va bilim darajasi asosiy mezon sifatida e'tiborga olinadi. Bunday yondashuv ta'limning moslashuvchanligini ta'minlab, o'quv dasturlari, didaktik materiallar, topshiriqlar hamda baholash vositalarini o'quvchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga muvofiq tarzda modifikatsiya qilishni nazarda tutadi. Xususan, Lev Vigotskiy tomonidan ishlab chiqilgan "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga ko'ra, o'quvchining samarali rivojlanishi uning mavjud bilim darajasi bilan potensial imkoniyatlari o'rtasidagi tafovutni to'g'ri tashkil etilgan pedagogik yordam orqali qisqartirishga bog'liq[2]. Bu esa differensial yondashuvning ilmiy asosini tashkil etadi. Shuningdek, B. Blumning "o'zlashtirishga yo'naltirilgan ta'lim" konsepsiyasida har bir o'quvchining individual o'zlashtirish sur'atini hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi. Blum fikricha, o'quvchilar o'rtasidagi farqlar ularning tug'ma qobiliyatidan ko'ra ko'proq ta'lim sharoitlari va metodlariga bog'liq bo'lib, moslashtirilgan ta'lim orqali deyarli barcha o'quvchilar yuqori natijalarga erisha oladi[3]. Mazkur yondashuv differensial ta'limning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda differensial yondashuvning ijtimoiy-psixologik jihatlari ham alohida e'tirof etiladi. Masalan, Jon Dyui ta'limni faoliyatga asoslangan ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilib, o'quvchilarning tajriba orqali o'rganishini muhim deb hisoblaydi. Bu esa differensial yondashuvning amaliy yo'naltirilganligi va hamkorlikka asoslangan o'qitish tamoyillari bilan mos keladi[4]. Mazkur yondashuvning muhim jihatlaridan biri o'quvchilarning individual o'zlashtirish sur'atini e'tiborga olishdir. Bu esa har bir o'quvchiga o'z tempida bilim olish, murakkablik darajasi moslashtirilgan topshiriqlarni bajarish hamda o'zining shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, differensial ta'lim o'quvchilarga tanlash imkoniyatini ham taqdim etadi, ya'ni ular o'quv materiallari, faoliyat turlari va baholash shakllari orasidan o'zlariga mos variantlarni tanlash orqali ta'lim jarayonining faol subyekt sifatida ishtirok etadilar. Bu esa o'quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirish, mustaqil fikrlash va refleksiv faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Differensial yondashuvning yana bir muhim xususiyati uning amaliy yo'naltirilganligidir. Ta'lim jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Hamkorlikka asoslangan o'qitish shakllari orqali o'quvchilar o'zaro fikr almashish, birgalikda muammolarni hal etish va ijtimoiy kompetensiyalarni

rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu jihatdan differensial ta'lim o'quv muhitini demokratik va qo'llab-quvvatlovchi muhit sifatida tashkil etishni talab etadi, bunda o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etish, savollar berish va xatolardan o'rganish imkoniga ega bo'ladilar.

Differensial dastur asosida ta'limni samarali tashkil etish uchun o'qituvchi o'quvchilarning individual farqlarini chuqur diagnostika qilishi zarur. Bu jarayonda kuzatuv, test, so'rovnoma va suhbat kabi psixologik-pedagogik metodlardan foydalaniladi. Olingan natijalar asosida o'quv maqsadlari aniqlanadi va ular o'quvchilarning real imkoniyatlariga mos ravishda belgilab olinadi. Shuningdek, o'quv materiallari va o'qitish usullari diversifikatsiya qilinib, turli xil didaktik vositalar va metodlar uyg'un holda qo'llaniladi. Baholash jarayoni ham variativ xarakter kasb etib, testlar, loyihalar, taqdimotlar va amaliy topshiriqlar orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari kompleks tarzda baholanadi. Shu bilan birga, o'quvchilarga individual pedagogik yordam ko'rsatish, murakkab mavzularni tushuntirish va qo'shimcha resurslar bilan ta'minlash differensial yondashuvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Differensial yondashuvning asosiy maqsadi o'quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishdan iboratdir. Psixologik-pedagogik nuqtai nazardan, bu har bir o'quvchining qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash hamda ularni rivojlantirish uchun optimal shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Didaktik jihatdan esa differensial ta'lim ta'lim jarayonining mazmuni, shakllari va metodlarini yangilash orqali samarali metodik tizimni shakllantirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy nuqtai nazardan esa ushbu yondashuv har bir shaxsning kasbiy, intellektual va ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishini ta'minlaydi. differensial ta'lim muammolari Yuriy Babanskiy, Vladimir Bepalko va Ilya Lerner tomonidan chuqur o'rganilgan. Jumladan, Babanskiy ta'lim jarayonini optimallashtirish nazariyasida o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish samaradorlikning muhim omili ekanligini asoslab beradi. Bepalko esa pedagogik texnologiyalarni loyihalashda o'quvchilarning individual imkoniyatlariga moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish zarurligini ta'kidlaydi. Lernerning didaktik qarashlarida esa o'quvchilarning bilish faoliyatini differensial tashkil etish orqali ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkinligi ko'rsatib beriladi.

O'zbek pedagog olimlari tomonidan ham differensial ta'limning nazariy va amaliy jihatlari o'rganilgan. Xususan, N.M.Saidahmedov ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning individual rivojlanishini ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi[5]. R.H.Djuraev esa ta'limni individuallashtirish va differensiallashtirish jarayonlari o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligini asoslab beradi[6]. Shuningdek, A.Xoliqov tadqiqotlarida o'quvchilarning qobiliyat va qiziqishlariga mos ta'lim tashkil etish ularning ijtimoiy faolligi va ijodiy salohiyatini oshirishga xizmat qilishi qayd etiladi[7].

Differensial yondashuvni amalga oshirish jarayoni samarali bo'lishi bilan birga ayrim kamchiliklarga ham ega. Xususan, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga ortiqcha e'tibor qaratilishi natijasida yuqori natijaga erishayotgan o'quvchilarning qiziqishi susayishi ehtimoli mavjud. Shuningdek, o'quvchilarni faqat qobiliyat va qiziqish darajasiga ko'ra guruhlash har doim ham kutilgan natijani bermasligi mumkin. Ba'zi hollarda esa o'quvchining past darajadagi guruhga ajratilishi uning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytirib, motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli differensial ta'limni tashkil etishda pedagogdan yuqori darajadagi kasbiy mahorat, nozik psixologik yondashuv va adolatli boshqaruv talab etiladi.

Umuman olganda, differensial yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirish, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda

kelajakda muvaffaqiyatli hayot kechirishga tayyorlashga xizmat qiluvchi samarali pedagogik mexanizm sifatida e'tirof etiladi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda ko'zlangan maqsad va vazifalar mazmunan keng qamrovli bo'lib, u talaba-yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Mazkur fan doirasida talabalar qalbida milliy tafakkur, sog'lom dunyoqarash va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash, ularni ongli yashashga, mustaqil fikr yuritishga, turli ma'naviy va mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitet hosil qilishga yo'naltirish asosiy ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, talabalarda irodalilik, fidoyilik, vatanparvarlik kabi yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish ham mazkur fan o'qitilishining muhim natijalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlar mazmunida xalqimizning ko'p asrlik ma'naviy merosi, milliy qadriyatlari, diniy qarashlari va hayotiy udumlarini chuqur o'rganish orqali talabalarda ularga nisbatan hurmat va sadoqat tuyg'usini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida kuchayib borayotgan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion tahdidlar ostida talaba-yoshlarni bunday salbiy ta'sirlardan himoya qilish, ularda mustahkam hayotiy pozitsiya va ongli munosabatni shakllantirish dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida ularning atrof-muhitda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga nisbatan daxldorlik hissini kuchaytiradi va faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantiradi.

Shu nuqtai nazardan, differensial ta'lim yondashuvini qo'llash mazkur fanlarni samarali o'qitishda muhim didaktik vosita sifatida ta'lim jarayonida teng imkoniyatlar muhitini yaratib, har bir o'quvchining shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvni samarali amalga oshirish o'qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiya, metodik tayyorgarlik va pedagogik mahoratni talab etadi. Garchi differensial ta'limni tashkil etish murakkab jarayon bo'lsa-da, uning natijalari - ya'ni o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va ma'naviy yetukligi - unga sarflangan sa'y-harakatlarni to'liq oqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasi. // Xalq so'zi, 2018 yil, 29 dekabr
2. Lev Vygotsky. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.* – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
3. Benjamin Bloom. *Human Characteristics and School Learning.* – New York: McGraw-Hill, 1976.
4. John Dewey. *Democracy and Education.* – New York: Free Press, 1916.
5. N. M. Saidahmedov. *Pedagogik texnologiya asoslari.* – Toshkent: Fan, 2003.
6. R. H. Djuraev. *Ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish.* – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
7. A. Xoliqov. *Pedagogik mahorat.* – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2012.
8. R. Safarova *Tabaqalashtirilgan talimga o'tishning ayrim masalalari // "Umumta'limda qatlamlashtirib o'qitish muammolari" Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. T.: O'zPFITI. 2023. - B.124-127.47*

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

МАКТАБ О'QUVCHINING IJODIY SHAXSIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK MUAMMOLAR

Aleksandr Alekseevich Beznosyuk,

*Pedagogika fanlari doktori, professor Taras Shevchenko nomidagi Kiev Milliy universiteti,
Kiev, Ukraina; Taras Shevchenko nomidagi Kremenets mintaqaviy gumanitar va pedagogika
akademiyasi,
Kremenets, Ukraina.*

Elchieva Dinara Tolubayevna,

*O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining pedagogika va psixologiya kafedrasida
dotsenti (PhD) Toshkent, O'zbekiston*

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА ПРИ ФОРМИРОВАНИИ ТВОРЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ ШКОЛЬНИКА

Безносюк Александр Алексеевич,

доктор педагогических наук, профессор

*Киевский Национальный университет имени Тараса Шевченко, г. Киев, Украина;
Кременецкая областная гуманитарно-педагогическая академия им. Тараса Шевченко,
г. Кременец, Украина.*

Эльчиева Динара Толубаевна,

*доцент кафедры педагогики и психологии (PhD), Узбекский государственный
университет мировых языков г. Ташкент. Узбекистан*

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PROBLEMS IN THE DEVELOPMENT OF A SCHOOLCHILD'S CREATIVE PERSONALITY

Aleksandr Alekseevich Beznosyuk,

Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

*Taras Shevchenko National University of Kyiv, Kyiv, Ukraine; Taras Shevchenko
Kremenets Regional Humanitarian and Pedagogical Academy, Kremenets, Ukraine.*

Dinara Tolubayevna Elchieva,

*Associate Professor; Department of Pedagogy and Psychology (PhD),
Uzbek State University of World Languages Tashkent, Uzbekistan*

Важной психолого-педагогической истиной современной школы стало то, что каждый учащийся, являясь субъектом обучения и воспитания, политической, экономической, социальной жизни, является, прежде всего, полноправной личностью, требующей индивидуального совершенствования и интеллектуального развития. Яркие, способные к активным проявлениям в деятельности и творческой сфере личности являются залогом развития высокой, своеобразной, многогранной мировой культуры. Глубина и богатство отдельного человека являются основой глубины и богатства эры[2].

Как утверждают Вайнола Р.Х., Сысоева С.А. [3], понятие формирования личности школьника в системе воспитательной работы отражает характер субъект – субъектного взаимодействия воспитателя и воспитанника, направленного на создание благоприятных условий для формирования и развития мотивационных и характерологических качеств

Shu bilan birga, chet el psixologiyasida ham motivatsiya muammosini o'rganishga katta e'tibor qaratilgan. Bu sohada Henry A. Murray, Alfred Adler, John W. Atkinson, Kurt Lewin, Karl Madsen, Abraham Maslow, Julian Rotter, Heinz Heckhausen, G. Stanley Hall kabi tadqiqotchilar inson motivatsiyasi va uning psixologik mexanizmlarini turli nazariy yondashuvlar asosida o'rganganlar. Ularning tadqiqotlari motivatsiyaning biologik, ijtimoiy va shaxsiy omillar bilan bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Motivatsion nazariyalarning kelib chiqishi va rivojlanish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning ildizlari ancha qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ko'plab psixologik konsepsiyalar o'z asosini qadimgi yunon faylasuflarining inson tabiati va uning xulq-atvori haqidagi g'oyalaridan olgan. Jumladan, Aristotile, Heraclitus, Democritus, Lucretius, Plato, Socrates kabi mutafakkirlar inson xulq-atvori va uni harakatga keltiruvchi omillar haqida muhim fikrlarni ilgari surganlar. Ular motivatsiyani ko'p hollarda "muxtojlik" tushunchasi orqali izohlab, uni inson faoliyatini rag'batlantiruvchi asosiy omil sifatida talqin qilganlar.

Masalan, Democritus ehtiyojni inson faoliyatini harakatga keltiruvchi muhim kuch sifatida tavsiflab, uni "emotsional kechinmalarni faollashtiruvchi, inson aqlining rivojlanishiga, nutqning paydo bo'lishiga va mehnat faoliyatining shakllanishiga turtki beruvchi asosiy harakatlantiruvchi omil" deb ta'riflaydi. Uning fikricha, insonning barcha amaliy faoliyati va ijtimoiy taraqqiyoti ehtiyojlar bilan uzviy bog'liqdir.[2]

Heraclitus esa insonni harakatga keltiruvchi kuchlar — mayllar va ehtiyojlar hayot sharoitlari bilan belgilanishini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, insonning xohish va intilishlari uning yashash muhiti, ijtimoiy sharoiti va turmush tarzi bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi.

Socrates inson tabiatida ehtiyojlar, xohishlar va intilishlar tabiiy ravishda mavjud ekanligini ta'kidlaydi. U insonning ma'naviy kamoloti va axloqiy rivojlanishi ham aynan shu ehtiyoj va intilishlarni to'g'ri yo'naltirish bilan bog'liq deb hisoblaydi.

Aristotile esa inson xulq-atvorining psixologik mexanizmlarini tushuntirishga harakat qilib, intilish doimo muayyan maqsad bilan bog'liq bo'lishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ehtiyojlar inson faolligini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri bo'lib, har qanday irodaviy harakat va emotsional holatning kelib chiqishida tabiiy asos sifatida namoyon bo'ladi. Shu tariqa, qadimgi faylasuflar tomonidan ilgari surilgan mazkur g'oyalar keyinchalik motivatsiya nazariyalarining shakllanishi uchun muhim ilmiy va falsafiy asos bo'lib xizmat qilgan.

Shunday qilib, motivatsiya muammosini o'rganish tarixi qadimgi falsafiy qarashlardan tortib zamonaviy psixologik konsepsiyalargacha bo'lgan uzoq va murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Bugungi kunda motivatsiya inson faoliyati, shaxs rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlarni tushunishda markaziy tushunchalardan biri sifatida qaralmoqda. Bu esa motivatsiya, jumladan affiliatsiya motivini ilmiy jihatdan tadqiq etishning dolzarbligini yanada oshiradi.[3]

Ushbu qarashlarga Lucretiusning, shuningdek undan keyin yashagan golland faylasufi Baruch Spinozaning falsafiy g'oyalari ham yaqin hisoblanadi. Shu bilan birga XVIII asr fransuz

materialistlari — Étienne Bonnot de Condillac, Paul-Henri Thiry Holbach, Claude Adrien Helvétius, rus mutafakkiri Nikolai G. Chernyshevsky, shuningdek Robert S. Woodworth hamda Alexei A. Ukhtomsky kabi olimlarning qarashlari ham inson faoliyatini harakatga keltiruvchi omillarni tushuntirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Yuqorida ta’kidlangan mazkur g’oyalari, ayni paytda, motivatsiya nazariyalari tarixi haqida tuzilgan jadvallarda ham o’z aksini topgan. Xususan, John W. Atkinson tomonidan ishlab chiqilgan motivatsiya nazariyalarining tarixiy tahlilida ushbu qarashlarning rivojlanish bosqichlari tizimli ravishda ko’rsatib berilgan.

Inson motivatsiyasining mohiyati va kelib chiqishi haqidagi qarashlar tarixan ikki asosiy falsafiy oqim — ratsionalizm va irratsionalizm doirasida rivojlangan. Ratsionalizm inson xulq-atvorini aql va ongli qarorlar bilan bog’liq holda izohlasa, irratsionalizm inson faoliyatida ongsiz kuchlar, instinktlar va irratsional omillarning ustuvorligini ta’kidlaydi.

Ratsional va irratsional g’oyalarni o’zida mujassam etgan dastlabki psixologik nazariyalar qatoriga XVII–XVIII asrlarda shakllangan qaror qabul qilish nazariyasi va avtomatizm nazariyasini kiritish mumkin. Birinchi nazariya asosan iqtisodiy munosabatlar va inson xulq-atvorini matematik qonuniyatlar orqali tushuntirishga qaratilgan bo’lsa, ikkinchi nazariya hayvonlar xulq-atvorining irratsionalligini va tashqi ta’sirlarga organizmning mexanik, avtomatik reaksiyalari orqali javob berishini asoslashga xizmat qilgan. Bu nazariyaga ko’ra, tirik organizm tashqi ta’sirlarga asosan tug’ma reflekslar orqali javob qaytaradi.[4]

Inson va hayvonlar xulq-atvoriga doir ushbu ikki yo’nalish XIX asr oxirigacha rivojlanib keldi va keyinchalik falsafada ikki qarama-qarshi nazariy yo’nalish — materializm va idealizmning shakllanishiga muayyan darajada ta’sir ko’rsatdi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, biologiya fanining jadal rivojlanishi va Charles Darwinning evolyutsion nazariyasi paydo bo’lishi psixologiyada inson instinktlarini o’rganishga katta turtki berdi. Shu davrdan boshlab inson xulq-atvorining biologik asoslarini tadqiq etishga alohida e’tibor qaratildi. Bu sohada Sigmund Freud, William McDougall va Ivan P. Pavlov kabi olimlar tomonidan muhim tadqiqotlar amalga oshirildi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Sigmund Freud hamda William McDougall tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda inson xulq-atvorini tug’ma instinktlar bilan bog’lab tushuntirish an’anasi shakllandi. Sigmund Freud nazariyasiga ko’ra, inson faoliyatini harakatga keltiruvchi asosiy instinktlar uch turga bo’linadi: hayot instinkti, o’lim instinkti va agressiya instinkti.

William McDougall esa Charles Darwinning biologik determinizm g’oyalariga tayangan holda motivatsiyaning tug’ma xususiyatini asoslashga harakat qildi. U dastlab insonga xos 14 ta, keyinchalik esa 18 ta asosiy instinktini ajratib ko’rsatdi. Garchi uning qarashlari keyinchalik ma’lum darajada o’zgargan bo’lsa-da, motivatsiyaning tug’maligi va uning energiyasi haqidagi deterministik g’oyalari saqlanib qoldi.

XX asrning 20-yillariga kelib, instinktlar nazariyasining o’rniga inson xulq-atvorini biologik ehtiyojlar orqali tushuntiruvchi yangi konsepsiyalar paydo bo’ldi. Bu davrda olimlar instinkt va ehtiyoj tushunchalari o’rtasidagi farqlarga e’tibor qarata boshladilar. Instinktlar tug’ma xususiyatga ega bo’lsa, ehtiyojlar inson hayoti davomida shakllanib, o’zgarib borishi mumkinligi ta’kidlandi. Bu holat tadqiqotchilar tomonidan inson xulq-atvoriga tashqi ijtimoiy muhit va sotsium ta’sirini hisobga olish boshlangan davr sifatida baholanadi.

Keyinchalik motiv va motivatsiya bilan bog’liq muammolar xorij psixologlari tadqiqotlarida asosan uchta yo’nalish doirasida o’rganila boshlandi: psixoanalitik, kognitiv va gumanistik yo’nalishlar.

Psixoanalitik yondashuv vakillaridan Sigmund Freud XIX asr oxirida inson xulq-atvorining determinatsiyasini o’ziga xos tarzda tahlil qilishga kirishdi. Uning ta’limotiga ko’ra, inson xulq-atvori asosan ongsiz psixik jarayonlar va kuchli ichki mayllar bilan belgilanadi. Freyd psixik hayotning ongsiz yadrosiga alohida e’tibor qaratib, inson faoliyatining ichki mexanizmlarini

tushuntirishga harakat qildi.[5]

Xuddi shu yo'nalishda William McDougall ham o'z nazariyasini rivojlantirib, insonda 18 ta asosiy instinkt mavjudligini ta'kidladi. Uning fikricha, inson xulq-atvorini harakatga keltiruvchi kuch — bu ijtimoiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan maxsus tug'ma energiyadir. Bu energiya insonning emotsional qo'zg'alishini yuzaga keltirib, uning idroki va harakatlarini muayyan maqsadga yo'naltiradi.

William McDougallning inson shaxsi haqidagi “maqsadga yo'naltirilgan mavjudot” degan g'oyasi keyinchalik bir qator psixologlar tomonidan rivojlantirildi. Xususan, bu qarashlar Gordon Allport, Henry A. Murray, Raymond B. Cattell va Philipp Lerschlarining shaxs motivatsiyasiga oid nazariyalarini shakllantirishda muhim asos bo'lib xizmat qildi.

Kognitiv motivatsion yo'nalish namoyondalaridan biri bo'lgan William James XIX asr oxirida qaror qabul qilish jarayonini inson faoliyatining muhim motivatsion mexanizmi sifatida tahlil qildi. U qaror qabul qilishning bir necha turlarini ajratib ko'rsatib, ularni maqsadni shakllantirish va harakatga intilish bilan bog'liq ongli, rejalashtirilgan motivatsion akt sifatida talqin qildi.[6]

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib inson motivatsiyasini o'rganishda kognitiv yo'nalish muhim o'rin egallay boshladi. Bu davrda bir qator tadqiqotchilar inson xulq-atvorini tushuntirishda ongli jarayonlar va kognitiv omillarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidladilar. Xususan, Julian B. Rotter (1954), George A. Kelly (1955), Heinz Heckhausen (1955), John W. Atkinson (1964) va David C. McClelland kabi olimlar o'z motivatsion konsepsiyalarida inson xulq-atvorining determinatsiyasida ong va kognitiv jarayonlarning birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etdilar.

Motivatsiyaning kognitiv nazariyalari ijtimoiy psixologiyani yangi ilmiy tushunchalar bilan boyitdi. Jumladan, ijtimoiy ehtiyojlar va motivlar (D. Maklelland, Dj. Atkinson, X. Xekxauzen), hayotiy maqsadlar va shaxsiy o'sish (Carl Rogers, Rollo May), kognitiv omillar va kognitiv dissonans kabi tushunchalar ilmiy muomalaga kiritildi. Bu esa inson motivatsiyasini faqat biologik yoki instinktiv omillar bilan emas, balki shaxsning kognitiv tajribasi, ijtimoiy muhit va shaxsiy maqsadlari bilan bog'liq holda tushuntirish imkonini berdi.

O'zbekiston psixologiyasida ham motivatsiya muammosini o'rganishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada G. Gozievning “Kasb tanlashning psixologik asoslari”, “Shaxs va kasb tanlash”, “Kasb psixologiyasi” kabi asarlari alohida ahamiyatga ega. Muallifning motivatsiya muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlari mazkur masalaning metodologik va nazariy jihatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, uning “O'quv faoliyatini boshqarish”, “Oliy maktab psixologiyasi”, “Hamkorlik psixologiyasi”, “Ontogenez psixologiyasi” (1988, 1994, 1997, 2010) kabi asarlari ham psixologiya fanining ushbu sohasini rivojlantirishga muhim hissa qo'shgan.[7]

Agar o'z vaqtida Lev Vygotsky ontogenez psixologiyasida ta'lim rivojlanishni ortidan ergashtirib boradi, degan g'oyani ilgari surgan bo'lsa, XXI asrga kelib G. Goziev mazkur talqinni yanada kengaytirib, taraqqiyot ta'limni o'z ortidan yetaklaydi, degan fikrni ilgari surdi.

Shuningdek, Bahrom M. Umarov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda yoshlar tarbiyasida ijtimoiy muhit va oilaviy tarbiyaning ahamiyati alohida o'rganilgan. Xususan, muallif tomonidan voyaga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning motivatsion jihatlarini tahlil qilingan. Tadqiqotchi ta'kidlashicha, oiladagi ma'naviy-axloqiy ta'sirchanlikning pasayishi va ota-onaning namunaviy xulq-atvor ko'rsatish darajasining kamayishi yoshlar orasida xulq og'ishlarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, Abdulla A. Rasulov ham o'z tadqiqotlarida yoshlar orasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish muhim ekanligini ta'kidlab, bu jarayonda motivatsion omillarning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratgan.

Abdujabbor Jabborovning doktorlik dissertatsiyasida motivatsiyaning etnopsixologik asoslari keng yoritilgan bo'lib, ta'lim samaradorligini oshirishda ushbu psixologik omilning roli turli yosh

guruhlari misolida empirik tadqiqotlar asosida tahlil qilingan.[8]

Shuningdek, tadqiqotchi E. Khaitovning nomzodlik dissertatsiyasi tadbirkorlik faoliyati motivatsiyasining ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Muallif tadbirkorlar faoliyati misolida muvaffaqiyatga intilish va mag'lubiyatdan qochish motivatsiyalarini tahlil qilgan.

Z. Asamovanning kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasiga bag'ishlangan tadqiqotida mazkur muammoga yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan yondashilgan hamda muhim ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan. Biroq ushbu tadqiqotlarda ijtimoiy-psixologik omillarga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

Shuningdek, S. Juraevning ishlarida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qish motivatsiyalarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari o'rganilgan. Muallif bolalar misolida mazkur muammoning ayrim etnopsixologik jihatlarini ochib berishga muvaffaq bo'lgan. Shu kabi qishloq maktab o'quvchilarida o'quv faoliyatiga nisbatan motivlarning shakllanishi masalasi I. Khaydarovning tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan.[9]

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston psixologlari motiv va motivatsiya muammosi bilan bevosita yoki bilvosita shug'ullanib kelmoqdalar. Garchi ularning tadqiqotlari asosan pedagogik psixologiya yoki inson rivojlanishining muayyan yosh bosqichlari bilan bog'liq bo'lsa-da, mazkur ishlar mamlakatimizda motivatsiya muammosini o'rganishga muhim nazariy va amaliy hissa qo'shgan.

Chunki ushbu tadqiqotlarda o'quv faoliyati motivlari, kasb tanlash motivlari, motivlarning etnopsixologik xususiyatlari, tadbirkorlik motivatsiyasi kabi qator muhim masalalar o'rganilgan. Bu esa O'zbekiston psixologiya fani rivojiga munosib hissa bo'lib xizmat qiladi.

Biroq shuni alohida ta'kidlash joizki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar doirasida motivatsiya masalasi turli yo'nalishlarda tadqiq etilgan bo'lsa-da, ular tizimida mavjud bo'lgan affiliatsiya motivatsiyasiga bag'ishlangan sof ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar hali yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy-nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, motivatsiya muammosi psixologiya fanining muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Inson xulq-atvorining ichki harakatlantiruvchi omillarini tushuntirishga qaratilgan tadqiqotlar turli davrlarda turlicha nazariy yondashuvlar asosida rivojlanib kelgan. Motivatsiya haqidagi dastlabki g'oyalar qadimgi faylasuflar asarlarida shakllangan bo'lib, keyinchalik ular zamonaviy psixologik nazariyalarning shakllanishiga ilmiy asos bo'lib xizmat qildi.

XIX-XX asrlarda motivatsiya muammosi biologik, psixoanalitik, kognitiv va gumanistik yo'nalishlar doirasida keng o'rganildi. Bu jarayonda Sigmund Freud, William McDougall, John W. Atkinson, David C. McClelland, Julian B. Rotter, Heinz Heckhausen kabi olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etdi. Ularning ilmiy ishlarida inson faoliyati va xulq-atvorini belgilovchi motivlar, ehtiyojlar va kognitiv omillar chuqur tahlil qilindi.[10]

O'zbekiston psixologiyasida ham motivatsiya muammosi turli yo'nalishlarda tadqiq etilgan. Xususan, Erkin G. Goziev, Bahrom M. Umarov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'quv faoliyati motivlari, kasb tanlash motivatsiyasi, etnopsixologik xususiyatlar hamda tadbirkorlik motivatsiyasi kabi masalalar o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlar milliy psixologiya fani rivojiga muhim nazariy va amaliy hissa qo'shgan.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, motivatsiya muammosi turli jihatlarda o'rganilgan bo'lsa-da, ayrim motivlar, xususan affiliatsiya motivatsiyasini ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan chuqur tadqiq etish hali yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ayniqsa, uning kichik maktab yoshidagi o'quvchilar shaxs rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlar va jamoadagi o'zaro aloqalar tizimidagi o'rnini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Shu nuqtayi nazardan, affiliatsiya motivatsiyasini o'rganish insonning ijtimoiy ehtiyojlari, shaxslararo munosabatlar hamda ta'lim jarayonidagi psixologik omillarni chuqurroq anglash

imkonini beradi. Bu esa kelgusida mazkur yoʻnalishda yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini koʻrsatadi.

Adabiyotlar

1. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. - Питер.: Мастера психологии, 2008. – с-58.
2. Кузнецова И.В. Мотив аффилиации в межличностных отношениях: Дис. ... канд. психол. наук: 19.00.05 СПб . 2006. □ С-48.
3. Маслоу А. Мотивация и личность. 3-е изд. \ Пер. с англ. – СПб.: Питер, 2008. □ С-52.
4. Sigmund Freud. Введение в психоанализ. – М.: Наука, 1989. – С. 15
5. William McDougall. An Introduction to Social Psychology. – London: Methuen, 1908. – P. 120
6. John W. Atkinson. An Introduction to Motivation. – Princeton: Van Nostrand, 1964. – P. 50
7. Julian B. Rotter. Social Learning and Clinical Psychology. – New York: Prentice-Hall, 1954. – P. 90
8. Lev Vygotsky. Психология развития человека. – М.: Смысл, 2005. – С. 60
9. Erkin G. Goziev. Онтогенез психологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010. – С. 20
10. Bahrom M. Umarov. Ёшлар тарбиясининг ижтимоий-психологик асослари. – Тошкент, 2005. – С. 25

STRESSOGEN VAZIYATLARNI BOSHQARISH MUAMMOSINI ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA ILMIY-NAZARIY O'RGANILISHI

Sultonov Mansur G'aniyevich
O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada stressogen vaziyatlarni boshqarish muammosining zamonaviy psixologiya fanida o'rganilishi, ushbu jarayonning nazariy asoslari, ilmiy yondashuvlari hamda stressga qarshi psixologik barqarorlikni shakllantirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda stress tushunchasining psixologik mohiyati, stressogen omillarning shaxs psixikasiga ta'siri, stressni boshqarish strategiyalari hamda ularning zamonaviy psixologik nazariyalarda talqin qilinishi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: stress, stressogen vaziyat, psixologik barqarorlik, koping strategiya, emotsional nazorat, psixologik moslashuv, stressni boshqarish.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРЕССОГЕННЫМИ СИТУАЦИЯМИ В СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ

Султанов Мансур Ганиевич
Научный сотрудник Национального педагогического университета Узбекистана

Аннотация. В данной статье анализируется изучение проблемы управления стрессогенными ситуациями в современной психологии, теоретические основы этого процесса, научные подходы и механизмы формирования психологической устойчивости к стрессу. В исследовании рассматривается психологическая сущность понятия стресса, влияние стрессогенных факторов на индивидуальную психику, стратегии управления стрессом и их интерпретация в современных психологических теориях.

Ключевые слова: стресс, стрессовая ситуация, психологическая устойчивость, стратегия преодоления, эмоциональный контроль, психологическая адаптация, управление стрессом.

SCIENTIFIC-THEORETICAL STUDY OF THE PROBLEM OF STRESSOGENIC SITUATIONS MANAGEMENT IN MODERN PSYCHOLOGY

Sultanov Mansur Ganievich
Researcher of the National Pedagogical University of Uzbekistan

Annotation. This article analyzes the study of the problem of stressogenic situations management in modern psychology, the theoretical foundations of this process, scientific approaches, and mechanisms for forming psychological stability against stress. The study examines the psychological essence of the concept of stress, the impact of stressogenic factors on the individual psyche, stress management strategies, and their interpretation in modern psychological theories.

Keywords: stress, stressful situation, psychological stability, coping strategy, emotional control, psychological adaptation, stress management.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida psixologik bosim, emotsional zo'riqish va turli stressogen vaziyatlar soni ortib bormoqda. Global ijtimoiy o'zgarishlar, axborot oqimining keskin ortishi, kasbiy faoliyatning murakkablashuvi hamda shaxslararo munosabatlarning dinamik rivojlanishi natijasida inson psixikasiga ta'sir qiluvchi stress omillari tobora ko'paymoqda. Shu sababli stressogen vaziyatlarni boshqarish muammosi zamonaviy psixologiya fanining eng dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Stress insonning tashqi muhit ta'siriga nisbatan psixofiziologik reaksiyasi sifatida

namoyon bo'lib, u shaxsning psixologik barqarorligi, moslashuv imkoniyatlari hamda psixik resurslariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Stress tushunchasi ilmiy muomalaga XX asrning o'rtalarida kiritilgan bo'lib, kanadalik olim Gans Selye tomonidan ishlab chiqilgan umumiy adaptatsion sindrom nazariyasi ushbu sohadagi muhim ilmiy asoslardan biri hisoblanadi. Selye stressni organizmning har qanday talab yoki bosimga nisbatan universal reaksiyasi sifatida talqin qilib, uning rivojlanish jarayonini uch bosqich orqali izohladi: ogohlantirish bosqichi, qarshilik bosqichi va holdan toyish bosqichi. Ushbu nazariya stress jarayonining biologik mexanizmlarini tushuntirib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq keyinchalik psixologiya fanining rivojlanishi bilan stress faqat biologik jarayon sifatida emas, balki psixologik, ijtimoiy va kognitiv omillar bilan bog'liq murakkab jarayon sifatida talqin qilina boshlandi.

Zamonaviy psixologiyada stressni o'rganishning eng muhim nazariy yo'nalishlaridan biri Richard Lazarus tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv baholash nazariyasi hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, stress shaxsning tashqi vaziyatni qanday baholashi bilan chambarchas bog'liqdir. Ya'ni stressning yuzaga kelishi ko'pincha vaziyatning o'ziga emas, balki shaxsning ushbu vaziyatni qanday qabul qilishi va uni qanday talqin qilishiga bog'liq bo'ladi. Lazarus stress jarayonini ikki bosqichli kognitiv baholash orqali izohlaydi. Birinchi bosqichda shaxs vaziyatni xavfli yoki xavfsiz deb baholaydi, ikkinchi bosqichda esa ushbu vaziyatni yengib o'tish imkoniyatlarini baholaydi. Agar shaxs o'z imkoniyatlarini vaziyat talablariga mos deb hisoblamasa, stress reaksiyasi yuzaga keladi.

Stressogen vaziyatlarni boshqarish muammosi psixologiyada koping strategiyalari orqali ham keng o'rganilgan. Koping strategiyalari deganda shaxsning stressli vaziyatlarni yengib o'tish yoki ularning salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan psixologik va xulq-atvor usullari tushuniladi. Zamonaviy tadqiqotlarda koping strategiyalari bir nechta asosiy guruhlariga ajratiladi: muammoga yo'naltirilgan strategiyalar, emotsiyaga yo'naltirilgan strategiyalar hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga asoslangan strategiyalar. Muammoga yo'naltirilgan strategiyalar stress manbasini bartaraf etishga qaratilgan bo'lsa, emotsiyaga yo'naltirilgan strategiyalar shaxsning hissiy holatini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Stressni boshqarish jarayonida shaxsning psixologik resurslari muhim ahamiyatga ega. Psixologik resurslar deganda insonning stressga qarshi turish imkoniyatlarini belgilovchi ichki psixologik omillar tushuniladi. Ularga o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyati, emotsional barqarorlik, ijobiy tafakkur, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi hamda hayotiy maqsadlarning aniqligi kiradi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, psixologik resurslari rivojlangan shaxslar stressogen vaziyatlarga nisbatan ancha barqaror bo'ladi.

Shuningdek, stressni boshqarish jarayonida emotsional intellekt ham muhim rol o'ynaydi. Emotsional intellekt shaxsning o'z hissiyotlarini anglash, ularni nazorat qilish hamda boshqa insonlarning hissiy holatini tushunish qobiliyatini ifodalaydi. Yuqori emotsional intellektga ega shaxslar stressli vaziyatlarda o'z hissiyotlarini samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ularning stressga nisbatan psixologik barqarorligini oshiradi.

Zamonaviy psixologiyada stressni boshqarishning kognitiv-xulq-atvor yondashuvi ham keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuvga ko'ra, stress ko'pincha insonning irratsional fikrlash usullari bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli stressni kamaytirish uchun shaxsning kognitiv jarayonlarini o'zgartirish muhim ahamiyatga ega. Kognitiv-xulq-atvor terapiyasi usullari yordamida shaxsning salbiy fikrlash stereotiplari aniqlanadi va ular konstruktiv fikrlash usullari bilan almashtiriladi.

Stressogen vaziyatlarni boshqarishda psixologik moslashuv mexanizmlari ham muhim rol o'ynaydi. Psixologik moslashuv insonning o'z faoliyatini tashqi muhit talablariga moslashtirish jarayonidir. Moslashuv jarayonining muvaffaqiyati shaxsning psixologik barqarorligi, ijtimoiy tajribasi hamda muammolarni hal qilish ko'nikmalariga bog'liq bo'ladi. Hozirgi davrda stressni boshqarish muammosi faqat klinik yoki individual psixologiya doirasida emas, balki tashkilot psixologiyasi, pedagogik psixologiya va harbiy psixologiya sohalarida ham keng o'rganilmoqda.

Chunki zamonaviy kasbiy faoliyat ko‘pincha yuqori psixologik bosim bilan bog‘liq bo‘lib, bu insonning kasbiy samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli stressni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish professional tayyorgarlik jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, stressni samarali boshqarish uchun kompleks psixologik yondashuv zarur. Bunda psixologik treninglar, relaksatsiya texnikalari, autogen mashqlar hamda stressga qarshi psixologik tayyorgarlik dasturlaridan foydalanish samarali natijalar beradi. Mazkur usullar shaxsning emotsional holatini barqarorlashtirishga, psixologik moslashuv imkoniyatlarini kengaytirishga hamda stressga qarshi psixologik barqarorlikni shakllantirishga yordam beradi.

Zamonaviy psixologiyada stressogen vaziyatlar shaxsning psixik faoliyatiga ta‘sir etuvchi murakkab psixologik jarayon sifatida talqin qilinadi. Stressogen vaziyatlar insonning psixologik muvozanatini buzuvchi, uning emotsional holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi hamda shaxsning moslashuv imkoniyatlarini sinovdan o‘tkazuvchi omillar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu vaziyatlar inson faoliyatining turli sohalarida – kasbiy faoliyatda, ijtimoiy munosabatlarda, ta‘lim jarayonida yoki shaxsiy hayotda yuzaga kelishi mumkin. Stressogen vaziyatlarning asosiy xususiyati shundaki, ular shaxs oldiga murakkab talablarni qo‘yadi hamda ushbu talablarni bajarish jarayonida psixologik zo‘riqish paydo bo‘ladi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, stressogen vaziyatlar har doim ham salbiy natijalarga olib kelmaydi. Ayrim hollarda ular shaxsning rivojlanishiga, uning psixologik imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qilishi mumkin. Bunday holatlarda stress ijobiy xarakter kasb etib, eustress deb ataladi. Eustress shaxsni faol harakatga undaydi, uning diqqatini safarbar qiladi hamda muammoli vaziyatni hal qilishga motivatsiyani kuchaytiradi. Biroq stress haddan tashqari kuchli yoki uzoq davom etadigan bo‘lsa, u distressga aylanishi mumkin. Distress shaxsning psixologik va fiziologik holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, emotsional beqarorlik, charchoq, motivatsiyaning pasayishi hamda psixosomatik kasalliklarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Stressogen vaziyatlarning shaxs faoliyatiga ta‘siri ko‘p jihatdan insonning individual psixologik xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Temperament, xarakter, emotsional barqarorlik darajasi, ijtimoiy tajriba hamda psixologik resurslar stressni qabul qilish va unga munosabat bildirish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, emotsional barqarorligi yuqori bo‘lgan shaxslar stressli vaziyatlarda o‘z hissiyotlarini nazorat qila oladi hamda vaziyatni konstruktiv tarzda hal qilishga intiladi. Aksincha, emotsional beqaror shaxslar stressogen vaziyatlarga nisbatan keskin reaksiya bildirishi, tashvish va qo‘rquv hissini kuchli boshdan kechirishi mumkin.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda stressning shaxs kognitiv jarayonlariga ta‘siri ham keng o‘rganilmoqda. Stress sharoitida insonning diqqat, xotira va tafakkur jarayonlari o‘zgarishi mumkin. Ayrim hollarda stress diqqatni safarbar qilib, muammoni tezroq hal qilishga yordam beradi. Biroq uzoq davom etuvchi stress diqqatning tarqoqlashishiga, xotira jarayonlarining sustlashishiga hamda qaror qabul qilish qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Shu sababli stressogen vaziyatlarni boshqarish jarayonida kognitiv jarayonlarni barqarorlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy psixologiyada stressni boshqarish muammosi ko‘plab nazariy va amaliy yondashuvlar asosida o‘rganilmoqda. Ushbu yondashuvlar orasida kognitiv, xulq-atvor, psixodinamik hamda integrativ yondashuvlar alohida o‘rin egallaydi. Har bir yondashuv stressni boshqarish jarayonini turli nuqtai nazardan izohlab beradi hamda shaxsning psixologik barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan turli usullarni taklif etadi. Kognitiv yondashuv stressni boshqarishda insonning fikrlash jarayonlari hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta‘kidlaydi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, stress ko‘pincha insonning vaziyatni noto‘g‘ri talqin qilishi yoki irratsional fikrlash stereotiplari bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, inson oddiy qiyinchilikni ham hal qilib bo‘lmaydigan muammo sifatida qabul qilsa, bu stress darajasining ortishiga olib keladi. Shu sababli kognitiv psixologiya stressni kamaytirish uchun shaxsning fikrlash usullarini o‘zgartirishni muhim deb hisoblaydi. Kognitiv

qayta baholash usullari yordamida inson stressli vaziyatni boshqacha talqin qilishni o'rganadi hamda unga nisbatan konstruktiv munosabat shakllantiradi.

Xulq-atvor yondashuvi esa stressni boshqarishda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga e'tibor qaratadi. Ushbu yondashuv doirasida relaksatsiya mashqlari, nafas olish texnikalari, autogen mashqlar hamda stressga qarshi psixologik treninglar keng qo'llaniladi. Ushbu usullar shaxsning fiziologik zo'riqishini kamaytirishga hamda emotsional holatini barqarorlashtirishga yordam beradi. Psixodinamik yondashuv stressning chuqur psixologik sabablarini o'rganishga qaratilgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, stress ko'pincha insonning ichki ziddiyatlari yoki ong osti tajribalari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu sababli stressni samarali boshqarish uchun ushbu ziddiyatlarni anglash va ularni psixologik jihatdan qayta ishlash muhim hisoblanadi.

Shunday qilib, zamonaviy psixologiya fanida stressogen vaziyatlarni boshqarish muammosi ko'p qirrali ilmiy yo'nalish sifatida o'rganilmoqda. Ushbu muammoni samarali hal etish uchun shaxsning psixologik resurslarini rivojlantirish, koping strategiyalarini shakllantirish hamda emotsional o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Stressni boshqarish mexanizmlarini chuqur o'rganish insonning psixologik salomatligini mustahkamlash hamda uning kasbiy va ijtimoiy faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Selye H. *The Stress of Life*. – New York: McGraw-Hill, 1956.
2. Lazarus R., Folkman S. *Stress, Appraisal and Coping*. – New York: Springer, 1984.
3. Goleman D. *Emotional Intelligence*. – New York: Bantam Books, 1995.
4. Carver C., Scheier M. *Perspectives on Personality*. – Boston: Pearson Education, 2012.
5. Spielberger C. *Stress and Anxiety*. – Washington: Hemisphere Publishing, 1979.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF SOCIAL INTELLIGENCE DEVELOPMENT IN BILINGUAL ADOLESCENTS

Safarova Mafuna Ibodullo qizi

*Teacher of the Department of Pedagogy, Psychology and Physical Culture Samarkand State
Institute of Foreign Languages*

Abstract. This article examines the socio-psychological features of the development of social intelligence in bilingual adolescents. The study analyzes the influence of bilingualism on communication skills, empathy and social adaptation. It highlights the role of the educational environment in personality development. Bilingual adolescents demonstrate higher communicative competence and adaptability in multicultural social contexts.

Key words: bilingualism, social intelligence, adolescents, communication, empathy, social adaptation, personality development

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У БИЛИНГВАЛЬНЫХ ПОДРОСТКОВ

Сафарова Мафуна Ибодулло кизи.

*Преподаватель кафедры Педагогике, психологии и физической культуры
Самаркандского государственного института иностранных языков*

Аннотация: В статье рассматриваются социально-психологические особенности развития социального интеллекта у билингвальных подростков. Анализируется влияние билингвизма на коммуникативные навыки, эмпатию и социальную адаптацию личности. Подчеркивается роль образовательной среды в формировании личности подростка.

Ключевые слова: билингвизм, социальный интеллект, подростки, коммуникация, эмпатия, социальная адаптация, развитие личности

Introduction. In modern psychological science, social intelligence is considered one of the most important components of personality development. In the context of globalization, migration and intercultural communication, bilingualism has become a widespread phenomenon. Adolescence is a sensitive period for the formation of communication skills, self-awareness and social competence. Bilingual adolescents develop within two linguistic and cultural systems, which significantly affects their cognitive, emotional and social spheres. The ability to use two languages allows adolescents to better understand social situations and interact effectively with representatives of different cultures. Therefore, the study of socio-psychological characteristics of social intelligence in bilingual adolescents is highly relevant.

Theoretical Background. Social intelligence is defined as the ability to understand others, predict their behavior and build effective interpersonal relationships. Researchers note that social intelligence includes empathy, communicative competence, emotional regulation and social adaptation. Modern studies show that bilingualism contributes not only to cognitive flexibility but also to the development of social sensitivity and tolerance. Bilingual individuals often demonstrate higher levels of perspective-taking and intercultural awareness. This allows them to interact more successfully in diverse social environments and adapt to new conditions.

The purpose of this study is to analyze socio-psychological features of social intelligence development in bilingual adolescents. The objectives include identifying the influence of bilingualism on communication skills, empathy and social adaptation, as well as determining the role of educational environment in the formation of social competence. In psychological research, social intelligence has been studied from various theoretical perspectives. According to contemporary socio-psychological approaches, social intelligence is closely related to emotional

intelligence, interpersonal perception and communicative competence. Researchers emphasize that the development of social intelligence is influenced by both individual and environmental factors, including family environment, education and cultural context[6].

From the standpoint of developmental psychology, adolescence is considered a crucial stage for the formation of social intelligence. During this period, individuals actively develop self-awareness, empathy and the ability to regulate emotions in social interactions. Adolescents learn to interpret social cues, understand others' intentions and adjust their behavior according to social norms and expectations.

Bilingualism plays a special role in this process. The use of two languages contributes to cognitive flexibility, which allows adolescents to switch between different social and cultural frameworks. This enhances their ability to understand diverse perspectives and improves intercultural communication skills. Bilingual adolescents often demonstrate greater tolerance, openness and adaptability in social interactions.

Furthermore, socio-cultural theory suggests that language is a primary tool for socialization and cognitive development. Interaction in multiple linguistic environments broadens adolescents' social experience and helps them develop more complex forms of thinking and communication. As a result, bilingual adolescents may show higher levels of social awareness and more effective interpersonal behavior.

Thus, the theoretical analysis of social intelligence in bilingual adolescents highlights the importance of considering linguistic and cultural diversity as significant factors in personality development and social adaptation.

Methodology. The study is based on theoretical analysis of modern psychological and pedagogical literature devoted to bilingualism and social intelligence. Methods include analysis of scientific publications, observation of adolescents in educational settings, comparative analysis of communication behavior and generalization of research findings. The integrative approach made it possible to identify key socio-psychological characteristics of bilingual adolescents. The study involved 40 bilingual adolescents aged 14–17 studying in secondary schools. A short questionnaire and observational methods were used to assess the level of social intelligence, communication skills and empathy among participants.

Results and Discussion. The analysis indicates that bilingual adolescents demonstrate a high level of communicative competence and social adaptability. To support the theoretical analysis, a small empirical survey was conducted among bilingual adolescents aged 14–17. The questionnaire included several questions aimed at identifying the level of communicative competence, empathy and social adaptability among participants. The results showed that approximately 70% of respondents reported that bilingualism helps them communicate more confidently in multicultural environments. About 65% of participants noted that knowledge of two languages allows them to better understand the emotions and perspectives of others. These findings confirm that bilingualism positively influences the development of social intelligence among adolescents. Empathy and tolerance are also more developed among bilingual adolescents, as they are exposed to different cultural norms and values. Such adolescents show greater openness to dialogue and cooperation. Social adaptability is another important feature: bilingual adolescents integrate more easily into new social groups and educational environments. However, certain challenges such as language interference and identity issues may arise. Support from teachers and psychologists helps adolescents successfully overcome these difficulties and develop stable self-identity.

Educational institutions should create favorable conditions for the development of social intelligence among bilingual adolescents. Interactive teaching methods, group work, intercultural projects and psychological trainings can significantly improve communication skills and empathy. Teachers should consider linguistic diversity and support students' cultural identity. Psychological support programs may help adolescents cope with adaptation difficulties and enhance their social competence.

Psychological training programs aimed at developing emotional intelligence and intercultural competence also contribute to the formation of social intelligence[4]. Participation in discussions, role-playing games and collaborative learning activities allows adolescents to develop self-confidence and effective communication strategies. Such activities promote the development of reflexivity, the ability to analyze one's own behavior and understand the reactions of others[3:79].

In addition, modern digital communication environments significantly influence the socialization of bilingual adolescents. Social networks and online communication platforms provide opportunities for interaction with peers from different linguistic and cultural backgrounds. This process expands adolescents' social experience and enhances their ability to navigate diverse social contexts[8]. However, excessive use of digital technologies may reduce face-to-face communication skills, which requires psychological and pedagogical guidance from teachers and parents.

Recent psychological studies emphasize that bilingual adolescents tend to demonstrate higher levels of cognitive flexibility and creative thinking. These qualities are closely related to social intelligence, as flexible thinking allows adolescents to evaluate social situations from different perspectives and choose appropriate behavioral strategies. As a result, bilingual adolescents often show better conflict resolution skills and higher levels of cooperation in group activities.

Furthermore, the family environment plays an essential role in shaping the social intelligence of bilingual adolescents[2]. Supportive family relationships, respect for linguistic diversity and encouragement of open communication contribute to the development of self-confidence and emotional stability [2:45]. Adolescents who receive emotional support from parents are more likely to demonstrate positive social behavior and effective interpersonal interaction.

It should also be noted that teachers' professional competence influences the development of students' social intelligence[10]. Educators who apply student-centered approaches and culturally responsive teaching methods create a favorable atmosphere for personal growth. The integration of psychological knowledge into the educational process helps adolescents better understand themselves and others, thereby strengthening their social competence.

Thus, the development of social intelligence in bilingual adolescents is a complex and multidimensional process influenced by linguistic, cultural, educational and psychological factors. A comprehensive approach that combines educational support, psychological training and intercultural interaction can significantly enhance the effectiveness of social intelligence development in modern educational environments.

In conclusion, the development of social intelligence in bilingual adolescents is characterized by several important socio-psychological features. Bilingualism contributes to the formation of empathy, communicative competence, tolerance and social adaptability. Adolescents who function in two linguistic and cultural environments often demonstrate higher levels of cognitive flexibility and better interpersonal interaction skills.

The educational environment plays a crucial role in supporting personality development and successful socialization. Teachers and psychologists can enhance social intelligence through interactive learning methods, intercultural communication and collaborative activities.

Further research should focus on empirical investigations and the development of specialized educational programs aimed at strengthening social intelligence in multilingual educational settings.

References

1. Vygotsky, L.S. *Thought and Language*. — Cambridge, MA: MIT Press, 2012.
2. Goleman, D. *Social Intelligence: The New Science of Human Relationships*. — New York: Bantam Books, 2006.
3. Baker, C. *Foundations of Bilingual Education and Bilingualism*. — Bristol: Multilingual

Matters, 2011.

4. Андреева Г.М. Социальная психология. — Москва: Аспект Пресс, 2017.
5. Sternberg, R.J. Cognitive Psychology. — Boston: Cengage Learning, 2012.
6. Бодалев А.А. Психология общения. — Москва: Институт практической психологии, 2015.
7. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019
8. Cummins, J. Bilingual Education and Cognitive Development. — Toronto: Ontario Institute for Studies in Education, 1976. (English)

